



Usmon Sanaqulov 1940-yili Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanida tug'ilgan. 1958–1963-yillari Alisher Navoiy nomidagi SamDUning filologiya fakultetida tahsil olgan. 1964–67-yillari H.Olimjon nomidagi Qarshi Davlat pedagogika institutida o'qituvchilik qilgan. 1971-yili filologiya fanlari nomzodligi uchun dissertatsiya yoqlagan. Hozirda Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand Davlat arxitektura-qurilish institutida faoliyat ko'rsatmoqda.

Usmon Sanaqulovning «Navoiy – tilshunos olim» (1990-y.), «O'zbek adabiy tili tarixi» (1995-y.), «O'zbek adabiy tili tarixining ilk taraqqiyot davrlari» (2000-y.), «Lotin yozuvi asosida o'zbek alifbosi» (2002-y.) kabi o'quv qo'llanmalari, monografiya, risola va uslubiy tavsiyanomalari chop etilgan.


Usmon Sanaqulov «O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi».



O'ZBEK ADABIY TILI TARIXINING ILK DAVRLARI

USMON SANAGULOV

O'ZBEK ADABIY TILI TARIXINING ILK DAVRLARI




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

USMON SANAQULOV

O'ZBEK ADABIY TILI TARIXINING ILK DAVRLARI

(V–XIV asrlar)

*O'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini
qayta ko'rib chiqish va yangilarini yaratish bo'yicha
Respublika muvofiqlashtirish komissiyasi tomonidan
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*



G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2004

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlaridagi ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2002-yildagi 27-sonli qarori asosida OO'YUlari uchun o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etiladi.

Mas'ul muharrir: B.O'RINBOYEV, filologiya fanlari doktori

Taqrizchilar: X.NE'MATOV, S.KARIMOV, filologiya fanlari doktorlari, professorlar

0502000000-32
S qat'iy buyurtma, 2004
M 352 (04) - 2004

ISBN 5-635-02237-5

© U.Sanaqulov, G'.G'ulom
nomidagi nahsriyot-matbaa
ijodiy uyi, «O'AJBNT»
markazi, 2004-y.

SO'Z BOSHI

Mustaqillik munosabati bilan milliy qadriyatlarimizni yangicha anglash, idrok etish jarayoni kuchaygan bir davrda Davlat tili mavqeiga ega bo'lgan ona tilimizga munosabat tamoman o'zgardi. O'zbek tilining mavqei oshdi, uni o'rganishga bo'lgan havas kuchaydi. Ona tilini rivojlangan tillar qatori taraqqiy ettirish, til bilimining barcha sohalarni to'g'ri talqin etish, ayniqsa, uning tarixini keng miqyosda mukammal yoritish dolzarb masalaga aylandi. Natijada o'quv adabiyotlarini yangicha, zamonaviy talab asosida yaratish hozirgi kunning asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

Mazkur o'quv qo'llanmasi ham aynan shu maqsad yo'lida yozilgan xayrli ishlardan biri bo'lib, o'zbek adabiy tili tarixini o'rganishga bag'ishlangan. O'quv qo'llanma, asosan, ikki qismdan tashkil topgan. I qism «O'zbek adabiy tili tarixining ilk davrlari» nomi bilan atalib, unga V–XIV asrlar til materiallari asos qilib olindi.

II qism «O'zbek adabiy tili tarixiy taraqqiyotining o'rta asrlardan so'nggi davrlari» nomi bilan atalib, unga XV–XX asrlardagi til materiallari asos qilib olindi.

O'quv qo'llanmasi kirish va ikki asosiy bobdan tashkil topgan bo'lib, kirish qismida o'zbek tilshunosligida o'zbek adabiy tili tarixining fan sifatida o'rganilishini va bu sohadagi ba'zi muammolar, ularning yechimi, umumxalq o'zbek tilining yuzaga kelish davrlari, uning shakllari haqida qisqacha ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, o'zbek adabiy tili va uning uslublari, me'yorlarining o'rganilishi qisqacha tahlil etilib, ba'zi mulohazalar bayon etiladi.

O'quv qo'llanmaning birinchi bobida turkiy-o'zbek xalqlarining qadimgi (antik) davrlari va bu davrlardagi etnik qat-

lamlar hamda ularning tillari, umumturkiy xalqlar va ular tilining shakllanish jarayonlari qisqacha bayon etiladi. Shu kabi o'zbek xalqi hamda o'zbek tilining tarkib topishi va nomlanish masalasi, turkiy-o'zbek xalqlari qo'llagan yozuvlar tarixi, umumturkiy tilning yozma manbalari va ularning adabiy tilning shakllanishidagi ahamiyati, turkiy-o'zbek tillarining tasniflab va davrlashtirib o'rganilishi kabi masalalar ham yoritib berilgan.

O'quv qo'llanmaning ikkinchi bobida o'zbek adabiy tili tarixiy taraqqiyotidagi asosiy bosqichlar (davrlar) va o'zbek adabiy tilining shakllanish jarayoni batafsil yoritib berilgan. Qo'llanma so'ngida tadqiqotdan kelib chiqqan xulosalar bayon etilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmani yuzaga kelishida O'z MU, SamDU, Buxoro universiteti tilshunoslik kafedralari a'zolari o'z fikr-mulohazalari bilan yaqindan yordam berganliklari uchun minnatdormiz, jumladan, ushbu kitobni tayyorlashda yaqindan yordam bergan umr yo'ldoshim Dilbar Sanaqulovning yorqin xotirasi qalblarda umrbod saqlanib qoladi, degan umiddamiz.

KIRISH

1. O'ZBEK ADABIY TILI, UNING SHAKLLANISH TARIXI VA FAN SIFATIDA O'RGANILISHI

O'zbek adabiy tilining shakllanishi va uning tarixi til taraqqiyotining o'ziga xos davrlari hamda shart-sharoitlari bilan bog'liqdir. O'zbek tilshunosligida ushbu masalani hal etishga doir ko'pgina ishlar yozilgan. Ammo bu sohani atroflicha qamrab olgan va yaxlit holda yoki mukammal darajadagi yangicha talqinda yozilgan ilmiy tadqiqot ishi haligacha yetarli emas. Hatto bu sohada mukammal bir darslik yaratilganicha yo'q. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda bu sohada ba'zi munozarali masalalar haligacha aniq va to'liq yechimiga ega bo'lmay kelmoqda. Jumladan, tilning muayyan ko'rinishlari sanalgan «umumxalq tili», «jonli so'zlashuv tili», «xalq og'zaki tili», «adabiy til», «milliy adabiy til» kabi atamalar anglatgan tushunchalar va ularning shakllanishi, o'zaro munosabati, yaqinligi (umumiylik) va farqli tomonlariga doir masalalar hali to'liq o'z yechimiga yetgan deb bo'lmaydi. Bu masalalar bo'yicha bayon etilgan fikrlarning orasida hali ham munozarali tomonlar borligini ilmiy adabiyotlarning tahlilidan sezish mumkin.

Shuningdek, o'zbek adabiy tilining ilk etaplari sanaladigan «umumturkiy adabiy til» (yoki eski turkiy adabiy til), «eski o'zbek adabiy tili» yoki «chig'atoy adabiy tili», «an'anaviy-kitobiy adabiy til» kabi umumxalq adabiy tili ko'rinishlarining shakllanishi va o'zaro munosabatlari, ularning o'zbek adabiy tilining hamda milliy o'zbek adabiy tilining shakllanishidagi roli singari masalalar ham uzil-kesil hal etilgan emas.

Yuqorida qayd etilgan masalalarning aksariyati ilmiy adabiyotlarda talqin etilgan, ammo ba'zi o'rinlarda bir-biriga zid keluvchi fikrlar ham mavjud. Demak, bu masalalarning

yechimi to'liq pishmagan. Ularni to'liq va aniq yechimga olib kelish o'zbek tilshunoslari oldidagi vazifalardan biridir.

O'zbek tili tarixi, asosan, o'zbek xalqiga tegishli yozma manbalar tili faktlari, qisman, umumturkiy til yozma manbalari hamda xalq og'zaki ijodi til materiallari asosida belgilanadi. Bu manbalarning yaratilish tarixi esa uzoq davrlar bilan o'lchanadi. Demak, o'zbek tili tarixi juda qadimiydir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zbek tili umumturkiy tilning bir mustaqil bo'lagi (tarmog'i) bo'lganligi sababli uning tarixi ham xususiy, ham umumiy xususiyatga ega. Shuning uchun ham o'zbek tilining shakllanish taraqqiyotini bir necha bosqichlarga (etaplarga) bo'lib o'rganadilar. Chunki, til taraqqiyoti, rivoji har bir davrning tarixiy shart-sharoitlari bilan belgilanadi. Bu haqda qator olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqotlari, darslik va qo'llanmalarida fikr-mulohazalarini bayon etganlar. Jumladan, umumturkiy til taraqqiyotini va o'sha davr tilini o'rganishda Mahmud Koshg'ariy, Az Zamaxshariy, Abu Hayyon, Jamoliddin Turkiy, Fazlulloxon kabi olimlarning qarashlari va turkiy o'zbek tilining o'rganish tarixi, ayniqsa, bevosita o'zbek tilini o'rganishda esa Alisher Navoiy, Toli Imoniy Hiraviy, Muhammad Yoqub Chingiy, Mirzo Muhammad Mehdixon, Muhammad Rizo Xoksor, Fath Alixon Kojariy singari ajdodlarimizning asarlari muhim yozma manbalardan sanaladi. Ushbu asarlarda o'sha davr o'zbek adabiy tili grammatik qurilishining ba'zi jihatlari, ayniqsa, lug'aviy boyligi, o'zbek tili grammatik qurilishi sohalariga doir materiallarning tarixiy rivojlanishini o'rganishda muhim manba bo'lishi bilan birga, o'zbek tili tarixi va o'zbek tilshunosligi tarixi fanlari uchun alohida o'ringa ega. Chunki o'zbek tili tarixi, asosan, yozma manbalar, til materiallari va ma'lumotlariga tayangan holda o'rganiladi. Bu sohada yuqorida qayd etilgan ilmiy xarakterga ega bo'lgan manbalar bilan birga, bizgacha yetib kelgan juda ko'p badiiy-adabiy, tarixiy-memuar asarlar borligi ko'pchilikka ma'lum. Bu asarlar, respublikamizning mustaqillikka erishuvi sharofati bilan birin-ketin chop etilib kelinmoqda.

Umuman, umumturkiy va o'zbek tili tarixini o'rganish qadimdan boshlangan bo'lsa-da, bu sohaning haqiqiy ilmiy

tarzda va bevosita o'rganilishi, fan sifatida shakllanishi o'zbek tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. To'g'ri, XIX asr oxiri XX asrning boshlarida ham bu soha bo'yicha G.Vamberi, I.N.Berezin, V.V.Velyaminov-Zernov, N.Ilminskiy, A.N.Samoylovich, V.V.Radlov, S.Ye.Malov, K.Brokelman kabi qator sharqshunos olimlarning ilmiy ishlari yaratilgan edi. Ular, asosan, yuqorida qayd etilgan olimlarning asarlarini va adabiy-badiiy, tarixiy yozma manbalarni nashr ettirish va ular haqida umumiy ma'lumotlar berish, qisman til materiallarini yo'l-yo'lakay izohlash kabi masalalarni talqin etganlar.

O'zbek tili tarixining haqiqiy fan sifatida shakllanishida A.N.Kononov, Ye.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, D.J.Klison, A.K.Borovkov, N.A.Baskakov, K.Menges, Ya.Ekman, S.Mutallibov, A.Rustamov, G.Abdurahmonov, Sh.Shoabdurahmonov, V.V.Reshetov, M.Asqarova, A.G'ulomov, S.Ibrohimov, E.Fozilov, O.Usmonov, Sh.Shukurov, X.Doniyorov, A.Muxtorov, B.O'rinboyev, B.Bafoyev, H.Ne'matov kabi qator olimlarning hissalarini beqiyos. Ayniqsa, o'zbek tilshunosligining so'nggi davrlari tarixiy taraqqiyotini o'rganish bo'yicha A.Hojiyev, A.Ahmedov, S.G'oyibov, S.Solixojayeva, N.Mahmudov, E.Begmatovlarning xizmatlari kattadir. Ular «Sovet davrida o'zbek adabiy tilining taraqqiyoti» nomli uch tomli monografik ishni nashrga tayyorlab chop etishga muyassar bo'ldilar. Bu ilmiy monografik ishni o'zbek tili tarixini o'rganish, tadqiq etish sohasida eng katta ishlardan deb baholash lozim.

O'zbek tili tarixi fanining shakllanishi, ayni paytda, oliy o'quv yurtlarida fan sifatida o'qitilayotganligi o'zbek tilshunosligining yirik yutuqlaridan hisoblanadi. Bu fan o'zbek tili tarixiy rivojlanish etaplarini, o'zbek adabiy tili tarixi, tarixiy grammatikasi, milliy adabiy tili kabi sohalarining umumiy qonuniyatlarini, ularning shakllanishi va rivojlanish xususiyatlarini o'rganish imkoniyatlarini yaratib beradi.

O'zbek tili tarixini o'rganishda uning o'ziga xos sohalarini aralashtirib bo'lmaydi. Ularning umumiy yaqinlik tomonlari bo'lishi bilan birga, farqli tomonlari ham bor. Shuning uchun

ham uning har bir sohasini alohida-alohida fan sifatida o'rganish talab etiladi.

Jumladan, o'zbek adabiy tili tarixi bilan grammatika tarixi o'zaro bog'liq bo'lsa-da, bu ikki soha alohida-alohida fan sifatida qaralishi va o'rganilishi lozim. Chunonchi, ular til hodisalarini tarixiy nuqtai nazardan o'rgansa-da, quyidagi vazifalari bilan o'zaro farq qiladilar:

1. O'zbek adabiy tili tarixi fani faqat o'zbek adabiy tiliga xos bo'lgan uslublar, uslubiy hodisalarni o'rgansa, tarixiy grammatikasi esa o'zbek tili hodisalarini, tildagi xilma-xil hodisalar majmuini o'rganadi.

2. O'zbek adabiy tili tarixi yozma yodgorliklar tilining tarixi bo'lganligidan o'zbek tili hodisalarini, undagi dalillarni matn ichida olib qaraydi. O'zbek adabiy tili tarixi bu matnlarning tili bo'yicha mavhumlashtirmaydi, balki ularni faqat jamlaydi, ma'lum guruhga kirgan matnlar tilining o'xshash xususiyatlarini umumlashtiradi, boshqa guruh matnlaridan farqini aniqlaydi, adabiy tilning turli uslublarini, ularning vazifa doirasini va rivojlanishini tekshiradi. Tarixiy grammatika esa til hodisalarini ma'lum bir tizimda olib qaraydi. Ularni umumlashtirish, mavhumlashtirish asosida o'rganadi.

O'zbek adabiy tili tarixi o'zbek tilining adabiy tilga xos deb sanalmaydigan forma va uslub bilan o'zaro munosabati tarixini hamda adabiy tilning ijtimoiy vazifalari tarixini ham o'rganadi. Tarixiy grammatika esa, asosan, adabiy til tuzilmasini, qurilmasini (fonetik, so'z yasash, grammatik, stilistik jihatdan) tekshiradi.

Xullas, o'zbek adabiy tili tarixini o'rganuvchi soha mustaqil fan sanaladi. U yuqorida qayd etilgan uch tomon: a) adabiy til tuzilishi tarixi yoki adabiy til usublari tarixi tomoni; b) adabiy til bilan tilning «adabiy bo'lmagan» uslublarining o'zaro munosabati tarixi tomoni; v) adabiy tilning ijtimoiy vazifalari tarixi tomonining uzviy birligi asosida tashkil topadi. O'zaro bog'langan ana shu uch soha o'zbek adabiy tili tarixi fani o'rganadigan mavzuni tashkil etadi.

O'zbek adabiy tili tarixi fani o'rganiladigan til hodisalarining turli tomonlarini qamrab olishi jihatidan ko'p qirralidir. Bu esa ilmiy tekshirishning xilma-xil usullaridan (an'anaviy, tarixiy-qiyosiy,

tuzilmali) foydalanish imkoniyatini beradi. Demak, o'zbek adabiy tili tarixi o'rganadigan soha bevosita o'zbek adabiy tilidir.

Til taraqqiyotining yuqorida ko'rsatilgan uch tomoni va adabiy til tarixini o'rganishning uch jihati nuqtai nazaridan uning taraqqiyot davrlarini aniqlash imkoniyatini beruvchi til tizimining quyidagi asosiy belgilarini ko'rsatish mumkin. Bu belgilar esa til taraqqiyoti davrlarini, bosqichlarini aniqlash imkoniyatini beradi:

1. Adabiy til usublarining miqdori, ularning o'zaro munosabati va ijtimoiy vazifalari.

2. Adabiy til usublari hamda uning turlarini aniqlashda asos bo'lgan tuzilma va funksional belgilar.

3. Adabiy til tuzilmasi, uning ko'lami va ijtimoiy vazifalari hamda u bilan so'zlashuv nutqi ko'rinishlarining o'zaro bog'liqligi.

Har bir davr adabiy til tizimini bayon etish sinxron tarzdagina bo'lib qolmaydi. O'zbek adabiy tilining tarixiy rivojlanishi davrlari ancha uzoq davrlarni o'z ichiga oladi.

Adabiy til tizimini belgilovchi muhim o'zgarishlar uzoq davr mobaynida asta-sekin to'plana borib, yuz beradi. Shunga ko'ra til qurilishi unsurlari faqat vazifadoshlik holatidagina emas, balki rivojlanish jarayonida vujudga keladi. Shuning uchun adabiy til tarixiy taraqqiyotining ma'lum davrlarida tilning qanday holatda ekanligi, xususiyati bilan bir qatorda, tilda nimalar yuz berayotganligini, qaysi sohalari o'zgarganligini, qanday yangi formalar paydo bo'lganligini ham o'rganadi. Shu asosda adabiy tilning shakllangan davri haqida muayyan bir xulosa chiqarib, uning so'nggi davrlardagi holati, taraqqiyoti to'g'risida ham tushuncha beradi.

2. UMUMXALQ TILI VA UNING SHAKLLARI

Umumxalq tilining quyi shakllari

U m u m x a l q t i l i o'ziga xos ma'lum bir belgi - xususiyatlari bilan umumiy birlikka ega bo'lgan xalq tilidir. U til taraqqiyotining qadim davrlarida shakllangan bo'lib, hozir

ham mavjud. Ilmiy adabiyotlarda to'g'ri ta'kidlanganidek, umumxalq tili «jamiyat tili taraqqiyotining barcha davrlariga xos» hisoblanadi (1/5-bet). Jumladan, u jamiyat taraqqiyotining dastlabki davrlarida urug', qabila va elat tillari sifatida shakllangan. Urug', qabila va elatlarning birlashuvidan xalq yuzaga kelgach, ularning tillari ham xalq tiliga aylangan. Ana shunday tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida qo'llanib, rivojlanib, urug', qabila, elat nomlari bilan umumbirlikka ega bo'lib kelgan til yoki xalq tili umumxalq tili deb yuritiladi. Ana shu urug', qabila, elat tillari xalq tiliga aylangach, ular umumxalq tilining ilk bosqichi yoki quyi shakli sifatida ilmiy adabiyotlarda «lahja-dialekt va shevalar» nomi bilan atala boshlandi. Demak, «sheva», «lahja», «dialekt» kabi tushunchalar umumxalq tilining ilk, quyi bosqichini ifodalovchi shakllari sanaladi. Ular «yozuv tili»dan oldin ham, «yozuv tili»dan keyin ham umumxalq tilining keyingi ko'rinishlarini xalq og'zaki ijodi va jonli so'zlashuv tilining yozma shakli, ayniqsa, o'zbek adabiy tili, milliy o'zbek adabiy tili kabi yuqori formalarining yuzaga kelishiga asosiy manba bo'ldilar.

Umumxalq tilidagi qayd etilgan formalarning o'ziga xos jihatlari, o'zaro munosabatlari, farqli tomonlari, shakllanish davrlari va ta'riflari bo'yicha ilmiy manbalarda juda ko'p fikrlar mavjud. Ularning ayrimlari to'g'ri talqin etilgan bo'lib, ba'zilar hali ham munozaralidir. O'zbek adabiy tili tarixi va uning tarixiy taraqqiyot bosqich (etap)lari haqida gap borar ekan, ushbu masalalarga ham ilmiy-tarixiy manbalar asosida fikr bildirish lozim bo'ladi.

Umumxalq tilining quyi shakllari (sheva, dialekt-lahja va so'zlashuv tili kabilar) ilmiy adabiyotlarda to'liq va ancha to'g'ri talqin etilgan. Ayniqsa, rus dialektshunosligida «sheva», «lahja» atamaları birmuncha aniq tushunchaga egadir. O'zbek tilidagi «sheva» atamasi rus tilida «govor», «lahja» tushunchasi «narechiye» ma'nosida, «dialekt» atamasi esa har ikki tilda bir xil qo'llangan.

«Sheva-lahja va dialekt» tushunchalari umumxalq tilining o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo'lgan mahalliy hududlar doirasidagi quyi shakllarni

ifodalaydi (2/6-bet). Dialekt shevalar yig'indisi bo'lib, bir necha shevalardan tashkil topadi. «Lahja» tushunchasi adabiyotlarda keng va tor ma'nolarda qo'llanilgan: keng ma'noda «dialekt» o'rnida, tor ma'noda «sheva» o'rnida ishlatiladi. Jumladan, sharqshunos K.K.Yudaxin o'zining «Vodil qishloq lahjasi haqida bir necha so'z» (1927-yil) ishida lahja atamasini «sheva» tushunchasi o'rnida qo'llagan. Bu tushuncha ko'pgina ilmiy manbalarda «dialekt» atamasi bilan teng ma'noda qo'llangan (3). Aslida, arabcha «lahja» — o'zbekcha sheva demakdir (47). Demak, «lahja» so'zi o'zbek tilshunosligida umumxalq tilining quyi shakllaridan biri sanalib, ko'pincha «dialekt» atamasi ma'nosida qo'llanilgan.

So'zlashuv tili tushunchasi — tilning nutq jarayoni bilan bog'liq bo'lgan umumxalq tilining o'ziga xos shakllaridan birini ifodalaydi.

So'zlashuv tilining boshqa til shakllariga nisbatan o'ziga xos xususiyatlari, shakllanishi va ta'rifi, ayniqsa, atamasi kabi masalalarda anchagina munozarali fikrlar bor. Tilshunoslikda «so'zlashuv» tilining atamasi uzil-kesil hal etilgan emas. Bu tushuncha bilan bog'liq bo'lgan «jonli so'zlashuv tili», «adabiy so'zlashuv tili», «og'zaki so'zlashuv tili», «xalq og'zaki tili», «jonli xalq tili», «so'zlashuv tili» kabi shakllardagi atamalar to'g'risida aytilgan fikr va mulohazalar, tahlil va ta'riflar xarakterlidir.

Ba'zan bu atamalar ifodalagan tushunchaning nutqiy hodisalariga qarab, ilmiy manbalarda «jonli so'zlashuv nutqi», «kundalik so'zlashuv nutqi», «og'zaki nutq», «so'zlashuv nutqi» kabi qator atamalar bilan yuritilganligini ko'ramiz. Bu haqda tilshunos B.O'rinboyevning «O'zbek tili so'zlashuv nutqi sintaksisi masalalari» kitobida batafsil fikr bildirilgan. Olim o'z kitobida ilmiy adabiyotlardagi bu atamalar haqida bayon etilgan fikr-mulohazalarni birma-bir tahlil etib, bu borada ma'lum bir xulosaga kelgan (4/12-13-betlar). B.O'rinboyevning fikrlariga deyarli e'tirozimiz yo'q, bu sohadagi fikrlarining ko'p tomonlariga qo'shilishimiz mumkin. Lekin, bu haqda ba'zi bir xususiy fikrlarimiz ham bor. Jumladan, «so'zlashuv nutqi» atamasi o'rnida ko'pchilik ilmiy adabiyotlarda qo'llanilgan «so'zlashuv tili» yoki «jonli

so'zlashuv tili» atamasini qo'llash ma'qulroq deb o'ylaymiz. Biz ushbu o'rinda shartli ravishda «jonli» so'zini qo'lladik. Buni quyidagicha izohlash mumkin: «so'zlashuv tili» til taraqqiyotining deyarli barcha tarixiy davrlariga xos bo'lib, uning oldingi davrlardagi shakli qanday tarzda ifodalanganligi faqat yozma manbalardagina qisman aks etishi mumkin. «Jonli so'zlashuv tili» hozirgi davr tilida mavjud bo'lganligi uchun u haqda to'liq tasavvurga ega bo'lish mumkin. Bizningcha, har ikkala holatni ham bitta atama bilan, ya'ni «so'zlashuv tili» nomi bilan yuritish qulayroqdir.

To'g'ri, B.O'rinboyev «So'zlashuv nutqi» atamasini qo'llashni behuda tanlamagan. Bu fikrni ham ko'pgina olimlar ma'qul topishgan. Haqiqatdan ham «so'zlashuv tili», qayd etilganidek, tilning nutqiy shakli, og'zaki ko'rinishidir. Ammo har bir nutq til bilan ifodalanadi, tilning og'zaki shakli sanaladi, tilsiz nutqning bo'lishi mumkin emas. Til barcha xildagi so'zlashuv ko'rinishlarini— xoh u og'zaki bo'lsin, xoh u yozma shaklda bo'lsin — o'zida mujassamlashtiradi, asosiy manba sanaladi. Demak, «So'zlashuv tili» tushunchasining ma'no doirasi kengdir. Shuning uchun ham umumxalq tilining ushbu shaklini «so'zlashuv tili» atamasi bilan yuritish to'g'ri bo'ladi.

So'zlashuv tili umumxalq tilining barcha ko'rinishlari kabi og'zaki va yozma shakllarda qo'llaniladi. Uning og'zaki ko'rinishi yozuvdan oldin ham qo'llanilgan. Bu davrlarda u yozma shaklning vazifasini bajargan. Jumladan, xalq og'zaki ijodiyotida, sheva va dialektlar (urug', qabila tillari) ning o'zaro umumiy muomalasida keng qo'llanilgan. Chunki, u sheva va dialektlardagi umumiy, ko'p tomondan bir xilda shakllangan til xususiyatlarini o'zida singdira borgan. Xuddi shu xususiyat yozuvdan so'ng ham davom etgan. Shu sababli yozuv paydo bo'lgan davrlarda so'zlashuv tilining har ikkala shaklidagi til xususiyatlari deyarli farqlanmagan. Til taraqqiyotining ma'lum davrlariga kelib, adabiy til shakli o'z mavqeiga ega bo'la borishi, ayniqsa, umumturkiy til va umumturkiy adabiy til davrlaridan boshlab, ular o'rtasidagi farqlar ancha kuchaya borgan. Xalq tillari va ularning o'ziga xos adabiy va milliy adabiy tillarining shakllanish davrlarida esa so'zlashuv tilining shakllari o'rtasidagi munosabat o'zgardi.

B.O'rinboyev «so'zlashuv nutqi»ning og'zaki va yozma shakllari bo'yicha bergan ta'rifini tamoman noto'g'ri deb qaramaymiz, balki ba'zi o'rinlari haqida shaxsiy fikrlarimizni bildirmoqchimiz, xolos. Jumladan, qayd etilgan manbada so'zlashuv tili, aniqrog'i, «so'zlashuv nutqi»ning yozma shakliga berilgan ta'rif adabiy tilning yozma shakliga to'g'ri kelishini ta'kidlash lozim bo'ladi. Masalan, «yozma nutq davrlar mobaynida ishlangan, sayqal topgan nutq formasidir» tarzidagi ta'rifda «nutq» so'zi o'rnida «til» so'zi qo'llansa adabiy til ta'rifiga yaqin bo'ladi. Chunki bu ta'rifda so'zlashuv tilining yoki nutqning dialektal xususiyati e'tiborga olinmay qolgan.

So'zlashuv tilining (manbada nutqning) og'zaki shaklida ham xuddi shu dialektlarga xos bo'lgan xususiyatlariga e'tibor berilmagan.

Jumladan, «so'zlashuv nutqi» esa to'g'ridan-to'g'ri tinglovchiga yoki eshituvchiga qaratilgan va ishlanmagan, silliq-lanmagan nutqdir»(4/13-bet). Ushbu ta'rifda «so'zlashuv nutqi» atamasi so'zlashuv nutqining og'zaki shakli ma'nosida qo'llanilgan.

To'g'ri, ushbu ta'riflarda «ishlangan/ ishlanmagan», «silliq-lashgan/silliq-lashmagan» shakldagi so'zlar qo'llanilgan. Ammo so'zlashuv tilidagi asosiy belgi hisoblangan, uning har ikki (og'zaki va yozma) ko'rinishida mavjud bo'ladigan adabiy tilga xos va adabiy tilga xos bo'lmagan xususiyatlar to'liq aks etmay qolgan. Agar bu ta'rifda bir tomondan yuqorida aytilgandek, so'zlashuv nutqining adabiy tilga xos, ikkinchi tomondan esa dialektik xususiyatlari tilga olinganda masalaga to'g'ri yondashilgan bo'lar edi. Shuni aytish lozimki, muallif o'z kitobining keyingi sahifasida «so'zlashuv nutqi» yozma nutq bilan dialekt o'rtasidagi oraliq formadir. Chunki, so'zlashuv nutqida yozma nutqqa va dialektga xos hodisalarni uchratamiz, degan to'g'ri xulosani keltiradi (4/14-bet). Ammo ushbu fikrlardagi «yozma nutq» o'rnida adabiy til atamasini va umuman «nutq» so'zi o'rnida «til» so'zini qo'llaganda muallifning umumxalq tilining so'zlashuv tili shakliga bergan ta'rifi va uning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi fikrlari yanada to'laqonlikka va aniqlikka ega bo'lar edi. Chunki, yuqorida qayd

etilganidek, «til» umumiylikka, «nutq» esa xususiylikka ega. Boshqacha aytganda, «til» birliklari umumiylik va mohiyatni invariantlarda, nisbatan o'zgarmas barqarorlikda, nutq birliklari esa variantlarda, xususiy ko'rinishlarda aks etadi. Til imkoniyat bo'lib, nutq shu imkoniyatning ma'lum darajada yuzaga chiqarilishidir (5/24-25-betlar).

Aytilganlardan quyidagicha xulosaga kelish mumkin bo'ladi. Birinchidan, «so'zlashuv tili» tushunchasi, qayd etilganidek, tilning so'zlashuv bilan bog'liq barcha ko'rinishlarini ifodalaydi, o'zida mujassamlashtira oladi, umumxalq tilining quyi va yuqori bosqichlari o'rtasidagi til ko'rinishi sanaladi. Ikkinchidan, shunga ko'ra so'zlashuv tilida adabiy tilga xos barcha (ishlangan, silliqlangan, normallashtirilgan) xususiyatlar bilan birga dialektlar va boshqa (adabiy tilga xos bo'lmagan) uslubiy ko'rinishlar ham mavjuddir. Uchinchidan, so'zlashuv tili yozma va og'zaki shakllarga ega bo'lib, yozma shaklida og'zaki shakliga qaraganda adabiy tilga xos xususiyatlar ustun turadi. Og'zaki shakli yozuvdan oldin ham mavjud bo'lib, tilning turli (adabiy tilga xos bo'lmagan) uslubiy, dialektal, individual qatlamlaridan foydalanish imkoniyati keng hamda qo'llanishda ancha qulaydir. To'rtinchidan, so'zlashuv tili adabiy til va milliy adabiy tillarning rivojlanishi, shakllanishida muhim rol o'ynagan til shaklidir. Chunki, adabiy til ham, milliy til ham umumxalq tilining quyi tarmoqlari (dialekt va shevalar, xalq ijodiyoti hamda so'zlashuv tili) bilan bog'liq holda ularning davrlar osha qo'llanib kelinayotgan turli an'anaviy uslubiy ko'rinishlari, materiallari asosida shakllanadi. Tildagi barcha xususiyatlar xuddi shu so'zlashuv tilida mavjud bo'lib, u o'zining hozirjavobligi bilan adabiy tilning bu ikki yuqori shakliga tez ta'sir etadi, ularning taraqqiyotida muhim omillarni yaratadi.

Umumxalq tilining yuqori shakllari

Adabiy til va milliy adabiy til ilmiy adabiyotlarda umumxalq tilining yuqori shakllari sifatida qaraladi. Shu bilan birga adabiy til bilan milliy adabiy til tamoman boshqa-boshqa til

hodisasi emas, ular deyarli bir tushuncha doirasida (ayniqsa, bu fikr hozirgi milliy til doirasida) tushunilishi ham mumkin. Shu sababli ular haqida berilgan ta'riflar deyarli bir xillikka ega. Lekin ulardagi umumiy tomonlar hamisha to'g'ri kelavermaydi. Chunonchi, adabiy til milliy adabiy tilga qaraganda ancha oldingi davrlar mahsuli hisoblanadi, deyarli umumxalq tilining quyi bosqichlari (mahalliy dialektlari)ning shakllanishi bilan bog'liq holda yuzaga keladi. U har bir davrga xos milliy til xususiyatlarini o'zida singdira boradi. Shuning uchun ham uning til taraqqiyotidagi ma'lum shart-sharoitlar bilan bog'liq bo'lgan tarixiy davrlarga xos xususiy tomonlari bor.

Jumladan, adabiy til o'z taraqqiyoti davrida o'zigacha bo'lgan yozuv tili (yozma manbalar tili) va so'zlashuv tilining barcha ko'rinishlari asosida taraqqiy etib keladi. Milliy adabiy til esa yagona til birligi asosida tashkil topgan, ma'lum bir davrda shakllangan millat tilidir yoki adabiy tilning so'nggi davrdagi rivojlangan millat tilining ko'rinishidir. Adabiy til bilan milliy adabiy tilning o'zaro munosabatlari ularni alohida-alohida tahlil etishda yanada oydinlashadi. Afsuski, xuddi shu o'zaro munosabatlar tahlilida qator mulohazali masalalar borki, dastavval ana shu muammolarni yechish lozim bo'ladi.

Ma'lumki, so'nggi yillarda o'zbek tilshunosligining hozirgi adabiy til qurilishini o'rganishda ko'pgina darslik va qo'llanmalar nashr etildi. Bular turli xil nomlar bilan atalgan. «O'zbek tili», «O'zbek adabiy tili», «Hozirgi o'zbek tili», «Hozirgi o'zbek adabiy tili», «Hozirgi zamon o'zbek tili» kabilar shular jumlasidandir. Ularning barchasi ham «Hozirgi o'zbek adabiy tili» yoki milliy adabiy til qurilishini o'rganishga bag'ishlanadi. Bizningcha, bir tushunchadagi atamani turli shaklda qo'llash hammavaqt ham foydali bo'lmay, g'aliz va noto'g'ri fikrlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Ikkinchidan, o'zbek tilshunosligida bu atamalarning bir xilligiga o'z vaqtida e'tibor berilmaganligi sababli ilmiy adabiyotlarda «adabiy til» va «milliy adabiy til» tushunchalarining izohlanish ta'rif va shakllanishi jarayonlari, umuman ularning o'zaro munosabati masalalarida bir-biriga zid fikrlarning tug'ilishiga sabab bo'lmoqda.

Shuning uchun yuqorida aytilgan atamalarning adabiyotlardagi tahlil va xulosalariga aniqlik kiritish lozimdir. Aks holda tilshunos olim A.Hojiyev aytganidek, «adabiy til» va «milliy adabiy til» tushunchalarining shakllanish jarayoni va ularning ta'rif haqida ishonchli, ilmiy tasavvurga ega bo'lish hamda ma'lum bir tarixiy davr adabiy tilini aniq va to'g'ri yoritish qiyin (6/8-bet).

Demak, ilmiy adabiyotlarda ushbu masalalarning o'rganilish holatini ko'zdan kechirish, so'ng shu asosda ma'lum bir xulosaga kelish lozim bo'ladi.

So'nggi davrlarda, hozir ham «O'zbek tili» atamasi «Hozirgi o'zbek adabiy tili» tushunchasi o'rnida va fanning nomi sifatida qo'llanilmoqda. Masalan, M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulovlarning «O'zbek tili» (Tosh. 1978-y.), U.Tursunov, J.Muxtorovlarning «O'zbek tili morfologiyasi» (Samarqand, 1962–66-yillar) kitoblarida, shuningdek, «Uzbekskiy yazik» (Tosh. 1963-y), «O'zbek tili grammatikasi» 1,2-t. (Tosh. 1975–76-yillar) kabi qator darslik va qo'llanmalar hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishining (fonetika, leksika, so'z yasalishi, morfologiya va sintaksis kabi) sohalari bo'yicha so'z yuritiladi. Ammo mualliflar bu sohalarni tahlil etganlarida «hozirgi o'zbek adabiy tili» atamasining yuqorida qayd etilgan turli shakllaridan farqsiz, aralash holda foydalanganlar. To'g'ri, bu atamalarda «Hozirgi» so'zi borligi ulardagi tushunchani bir xillikka olib keladi. Lekin atamani bir xilda qo'llash har jihatdan qulay va foydalidir. Bizningcha, bu sohadagi atamani «Hozirgi o'zbek adabiy tili» yoki «Hozirgi o'zbek milliy adabiy tili» shaklida qo'llash to'g'ri bo'lar edi. Chunki hozirgi adabiy tilimizda til va milliy birlik to'liq shakllangandir. Xuddi shu ma'noda «O'zbek tili» atamasi hozirgi til qurilishiga doir kitoblar nomiga unchalik to'g'ri kelmaydi.

«O'zbek tili» atamasini qo'llash ancha ixcham, ammo bu atamaning ma'nosi umumiylikka ega. Uni o'zbek tili taraqqiyotining barcha davrlari, umumturkiy tildan keyingi o'zbek xalqining shakllanish davrlari tiliga nisbatan ham qo'llash mumkin. Ba'zi ilmiy adabiyotlarda xuddi shu fikr to'g'ri qayd etilgan. Jumladan, «O'zbek tili» tushunchasi umumxalq o'zbek tili va o'zbek milliy tili tushunchasi bilan teng turadi (1/5-6-betlar).

«O'zbek adabiy tili» tushunchasida ham «O'zbek tili» atamasidagidek umumiylik xususiyati bor. Lekin u adabiy tilning shakllanish davrlari bilan bog'liq holda farqlanadi.

Demak, «O'zbek tili» va «O'zbek adabiy tili» atamalari ifodalagan ma'nolar «Hozirgi o'zbek tili» yoki «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (milliy tilga nisbatan ham) atamalariga qaraganda ancha kengdir. «Hozirgi o'zbek tili» yoki «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (o'zbek milliy tili) tushunchalari o'zbek tilining so'nggi davrlari tiliga xos atamalardir. Ular millatning va umumtil birligining shakllanishi bilan bog'liq hodisadir. O'zbek millatining shakllanishidan oldingi tillarda milliy birlik va umumtil birligi elementlarigina mavjud edi. Ularda bu hodisa to'liq shakllanmagan edi. Xullas, qayd etilgan atamalarni o'z o'rnini bilan qo'llash fan uchun ham, mutaxassis va o'quvchi uchun ham to'g'ri tushuncha hosil qiladi.

Lekin tadqiqotlarda xuddi shu tushunchalar har xil tahlil qilinmoqda. Jumladan, «adabiy til milliy til yoki umumxalq tilining qayta ishlangan, silliqashtirilgan va muayyan normaga solingan qismi»dir, tarzidagi ta'rifdan to'g'ri va aniq xulosa chiqmaydi (16-bet). Unda «adabiy til» «milliy til doirasida uning bir qismi» yoki «milliy tilning ishlangan, silliqashtirilgan» va muayyan normaga solingan yuqori qismi, yoki adabiy til milliy tilga qaraganda tor tushunchaga ega, degan xulosa chiqadi. Ikkinchidan, adabiy til milliy tildan so'ng shakllangan, milliy til adabiy tilga asos bo'lgan, degan xulosaga kelish mumkin. Uchinchidan, milliy til bilan umumxalq tili baravarlashtirilgan, teng qo'yilgan. Xuddi shu xulosani ularning o'zlari ham qayd etishgan. Masalan, «Milliy til tushunchasiga adabiy til kiradi, chunki adabiy til tushunchasi milliy til yoki umumxalq tili tushunchasiga nisbatan ancha torroqdir» kabi. Lekin ular ikkinchi bir o'rinda bu haqda o'zlarining zid fikrlarini bayon etadilar. Jumladan, «milliy tilning yuzaga kelishi kapitalistik munosabatlar yoki kapitalizm formatsiyasi bilan bog'liq bo'lsa, adabiy til tushunchasining yuzaga kelishi (yozma adabiy til nazarda tutiladi) yoki uning shakllanishi, odatda, ko'pincha rivojlangan yozuv va yozma adabiyotning mavjudligi bilan, umuman olganda, rivojlangan yozma adabiyot madaniyat va traditsiyaga ega bo'lgan yozuvning yuzaga kelishi, aniqrog'i

uning mavjudligi bilan bog'liqdir... adabiy til, odatda kapitalizm formatsiyasi mavjud bo'lgan davrgacha, ya'ni feodalizm davrida ham va ba'zan undan oldingi davrda ham yuzaga kelaveradi (1/6-7-bet).

Qayd etilganidek, ushbu adabiyotda umumxalq tili bilan milliy til orasidagi farq haqida ham zid fikrlar bor: «Milliy til» tushunchasi «umumxalq tili» tushunchasiga baravardir. U hozirgi davrning «umumxalq tili»dir. Xuddi shunday boshqa o'rinda «adabiy til o'z mohiyatiga ko'ra umumxalq tilidir», deb qaralgan (1/5-bet). Bu fikrlar haqiqatan ham hozirgi tilga nisbatan to'g'ri.

Umumxalq tili tushunchasi til taraqqiyotining hamma davrlariga xos tushuncha bo'lsa, «milliy til ma'lum davrga xosdir, millatning asosiy birligini tashkil qiluvchi tushuncha sifatida yuzaga kelgan. Umumxalq tili tushunchasi esa, qadimdan mavjud bo'lib, u hozirgi vaqtda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va u hozirgi vaqtda milliy til tushunchasi bilan barobar qo'llanadi» (1/5-bet).

Darhaqiqat, milliy tilning shakllanish davri millatning va unga xos bo'lgan til birligining yuzaga kelishi bilan bog'liq. U adabiy til taraqqiyotining so'nggi davriga xos rivojlangan tildir. Adabiy til esa milliy tilga nisbatan millat shakllanishidan oldingi davrlar mahsulidir. Adabiy til ham, milliy til ham umumxalq tilining yuqori shakli bo'lib, barcha quyi shakllari ular uchun asosiy rivojlanish manbaidir.

Ba'zi ilmiy manbalarda aytilganidek, milliy til shakllangandan so'ng, to'g'rirog'i, millat shakllangandan so'ng, adabiy til bilan milliy til tushunchasi teng kelishi mumkin. Ammo adabiy tilni milliy tilning (millatning) shakllanishidan oldingi davrlarga nisbatan qaraganda, umumxalq tilining ushbu ikki ko'rinishini birlashtirib bo'lmaydi. Chunki hamisha adabiy til milliy til uchun asosiy me'yor yoki asos hisoblanadi.

Ba'zi tilshunolar «adabiy til» haqida ta'riflarni tahtil etib, ular adabiy tilning ta'rifi emas, balki milliy adabiy tilning ta'rifiga to'g'ri keladi, degan fikrlarni qayd etadilar (6/9-bet). Ushbu fikrlarda ham mulohaza talab o'rinlar bor. Jumladan, «Adabiy til— har bir millatning barcha ijtimoiy faoliyatida yozma va og'zaki tarzda xizmat qiluvchi umumxalq

tilining qayta ishlanib normallashtirilgan shakli» (8/158-bet). Haqiqatan ham ushbu ta'rif milliy tilga xosdek ko'rinadi. Chunki u millat bilan bog'lab ta'riflangan. Ammo uni adabiy tilga ham, milliy tilga ham to'liq mos keladi, deb bo'lmaydi.

Shuningdek, adabiy tilga berilgan ikkinchi bir ta'rif ham to'laqonlikka ega emas. Masalan, «Adabiy til umumxalq tilining ishlangan, sayqallashtirilgan va ma'lum normaga solingan formasidir» (9/7-bet). Bu ta'rif bilan yuqorida qayd etilgan ta'rifni qiyoslasak, ba'zi so'zlar bilangina farq qiladi. Bunda qisman to'g'rilik bor. Ammo adabiy tilga xos xususiyatlar bilan bog'liq ba'zi tomonlar aks etmagan. Ba'zi olimlar adabiy tilni hozirgi davr tili yoki milliy til doirasida ta'riflashni tavsiya etadilar. Masalan, «Milliy til» tushunchasiga «adabiy til» ham kiradi. Chunki «adabiy til tushunchasi milliy til yoki umumxalq tili tushunchasiga nisbatan ancha torroqdir» tahlilidan so'ng, «adabiy til, milliy til yoki umumxalq tilining qayta ishlangan, silliqashtirilgan va muayyan normaga solingan qismidir», degan ta'rifni tavsiya etadilar (1/6-bet). Bu ta'rif davr xususiyati, milliy til doirasida berilgandir. Bu ta'rifda ham adabiy tilning o'ziga xos farqli tomonlari aks etmagan.

Umuman, o'zbek tilshunosligida adabiy til bilan milliy adabiy til ta'riflarida ularning o'zaro munosabatlaridagi farqli tomonlar hisobga olinmagan, balki faqat umumiy funksional birligi qayd etilgandir. Ta'riflarga bir yoqlama yondashilgan. Aniqroq qilib aytganda, o'zbek tilshunosligida adabiy til va milliy adabiy til tushunchalari haqida aniq va yagona to'g'ri fikrga kelingan emas. Adabiy til hammavaqt ham milliy adabiy til tushunchasiga to'g'ri kelmaydi (6/9-bet).

Qayd etilgan fikrlarning ba'zisi faqat hozirgi davrga nisbatan to'g'ri kelishi mumkin. Chunki hozirgi milliy til adabiy til qurilishiga bo'ysunadi, uning qonun-qoidalari asosida ish ko'radi va aksincha, hozirgi adabiy til hozirgi milliy til talabi asosida rivojlanib boradi, milliylikka asoslanadi, milliy tilning yuqori shakli sifatida ish ko'radi. Ular o'rtasidagi munosabatni aniq va to'g'ri yoritish maqsadida «O'zbek adabiy tilining taraqqiyoti» nomli kitobda quyidagi tahlil berilgan: «Milliy adabiy tilning bo'lishi millatning shakllanishiga bog'liq bo'lib, adabiy til esa millat shakllangunga qadar ham bo'lishi mumkin. Shu

sababli adabiy til termini ikki xil ma'noda qo'llanib keladi, ya'ni: 1) millat shakllangunga qadar bo'lgan davrda, bir tomondan, o'zining turli stillari bilan davlatning ish yuritishiga, adabiyot, din, fan kabilarga xizmat qiluvchi yozuv tili, ikkinchi tomondan, xalq poetik ijodi tili; 2) milliy tillar taraqqiy etgan davrlarda — umumxalq tilining ishlangan, normallashtirilgan, yozma va og'zaki shakllarida millatning madaniy hayotida, ijtimoiy faoliyatning barcha sohalarida xizmat qiladigan formasi ma'nolarida qo'llanadi» (10/234-bet, 6/9-bet).

O'zbek adabiy tilining shakllanish jarayoni to'rtinchi yillargacha davom etdi. Chunki 20-yillargacha o'zbek xalqining millatga xos belgilari va milliy adabiy til belgilari to'liq shakllanib yetmagan edi. O'zbek xalqining millatga aylanishi bu hodisani tezlashtirdi va bu jarayonda o'zbek adabiy tilining yangi — ikkinchi davri, ya'ni milliy adabiy tilga aylanish davri boshlandi.

O'zbek adabiy tili 20-yillardan oldin (o'ziga xos mahalliy dialektlari asosida shakllangan) mahalliy adabiy til shaklida bo'lib 20—40-yillarda ana shu mahalliy shakldagi til birliklari o'zbek adabiy tilining shakliga aylana bordi. Mahalliy o'zbek dialektlarining asta-sekin rivojlanib, umumxalq o'zbek tiliga aylanishi, bu dialektlar zaminida yagona o'zbek adabiy tilining tashkil topishi uzoq vaqtlar samarasidir (11/8-bet). Chunki ular birdaniga hozirgi milliy adabiy tilimiz tarkibiga singib ketgan emas. Hatto bu jarayon hozir ham davom etmoqda. Buni hozirgi o'zbek milliy adabiy tili tarkibida mavjud bo'lgan mahalliy sheva va dialektlarning til qurilishi sohalarini taqqoslaganda sezish mumkin.

Hozirgi o'zbek milliy adabiy tilining qirqinchi yillardan boshlab to'liq shakllangan davri, deb aytsa to'g'riroq bo'ladi. Chunki bu davrda oldingi davr adabiy tili deb yuritilgan mahalliy o'zbek (dialektlari, so'zlashuv tili va yozma manbalar tili asosida shakllangan) adabiy tilga xos bo'lgan fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis, orfografiya, ayniqsa, alifbo yozuviga doir imlo qoidalarini isloh qilish, til taraqqiyotini yangi davrga moslash, qayta shakllantirish, ishlash, silliqlash, normaga solish kabi ishlar, masalalar hal etildi.

Hozirgi o'zbek milliy adabiy tilining so'nggi taraqqiyoti ilmiy adabiyotlarda ancha keng yoritilgan (6). Shunga qara-

may, hozirgi davr o'zbek milliy adabiy tili og'zaki, ayniqsa yozma manbalar til materiallari lisoniy nuqtai nazardan yanada o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lmoqdaki, uni jiddiy tadqiq etish zarurligi sezilmoqda. Ta'kidlaganimizdek, o'zbek tilining davlat tili mavqeiga ega bo'lishi va O'zbekistonning mustaqillikka erishishi respublikada yangicha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xalqimizning o'zligiga xos milliy qarashlari vujudga keldi. Xorijiy davlatlar bilan teng huquqlilik aloqalari o'rnatilib, savdo-sotiq, ilm-fan va boshqa sohalarida hamkorlik qilinishi kabi voqealar, tarixiy sharoitlar natijasi davlat tili — o'zbek milliy adabiy tili taraqqiyotiga ta'sir etdi.

Hozirgi yozma manbalarda, ilmiy adabiyotlarda, ayniqsa matbuot tilida bu hol sezilarli darajada ko'rinadi. Til taraqqiyotida lug'at boyligi tez o'zgaruvchan bo'ladi, tilning boshqa sohalariga qaraganda ancha tez boyib boradi. Ana shu o'zgaruvni yozma manbalar orasida matbuot tili tezroq o'z sahifasida qamrab olib, uning keng qo'llanishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun matbuot materiallari tili adabiy tilning eng ilg'or shakli sanaladi. Tildagi har qanday yangilik, yangi bo'lgan tushuncha-atama yoki so'z birinchilar qatori matbuotda o'z ifodasini topadi va keng jamoatchilikka targ'ib qilinadi. Shuning uchun ham matbuot tili amaldagi adabiy tildan hamisha oldinda yuradi.

Matbuot tili yangicha orfoepik, orfografik — fonetik, grammatik va uslubiy normalarni ancha tezkorlik bilan qabul qilib, ularni o'z sahifalarida umumxalq tilining boshqa shakllariga nisbatan tez singdiradi. Hozirgi o'zbek matbuoti tilida amaldagi adabiy tilga xos jihatlar barobarida uning turli uslublariga oid til materiallari ham mavjud. Ammo matbuot tilida adabiy til normasi talablari asosida yaratilgan materiallar ustuvor bo'ladi. Shuning uchun ham matbuot materiallari tilida hamisha ma'lum bir davr adabiy tilining xususiyatlari to'liq aks etadi. Matbuot materiallarining aksariyati to'liq adabiy til qonun-qoidasiga, talab etadigan normalariga bo'ysunadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, hozirgi adabiy tilning taraqqiyotini belgilashda, uning hozirgi til xususiyatlarini o'rganishda boshqa yozma manbalar qatori muhim manba sanaladi. Matbuot tili boshqa manbalarga qaraganda tilning

ichki va tashqi imkoniyatlar holatidagi rivojini, qayd etganimizdek, ilg'ovchi umumxalq tilining bir shaklidir.

Xuddi shu til shakli ayni paytda o'rganilishi zarur. Shuningdek, tilning atamashunosligi bilan bog'liq holda tildagi yangi so'z va atamalarni qo'llash zaruriyati hamda uning ichki va tashqi imkoniyati (manbai) asosidagi muvozanatni to'g'ri belgilash masalasi ham til taraqqiyotining rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu paytgacha o'zbek tilshunosligida tilning rivojlanishida ikki xil manba (imkoniyat) borligi haqida ya'ni; a) tilning ichki rivojlanish manbai, b) tilning tashqi rivojlanish manbai haqida umumiy fikrlar bildirilib kelingan. Bu ikki manbaning o'zaro munosabati, til taraqqiyotida tutgan o'rinlari, tilning tabiatini saqlab qolishdagi xizmatlari haqida esa deyarli fikr bildirilmagan. Ehtimol, ushbu mavzuning milliy masala bilan bog'liq bo'lishi sabab bo'lgandir. Chunki «sovetlar davrida» milliy masalaga chuqur yondashish millatchilik sanalgan. Shuning uchun o'zbek tilshunosligida ham asosan, tilning tashqi imkoniyatlariga urg'u berilgan edi.

O'zbek tiliga davlat maqomi berilgan bir davrda ana shu xatolikka barham berishga va uni ko'proq o'zining ichki imkoniyatlari asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratilib, bu haqda baralla gapirish mumkin bo'lgan bir vaqtda, ushbu masalani avvalgi holga tashlab qo'yish mumkin emas. Chunki har bir tildagi ichki va tashqi imkoniyatlarning mutanosibligini to'g'ri belgilamasdan turib, shu tilning taraqqiyotini aniq bir yo'lga boshqarib yuborish amri maholdir.

Har bir milliy tilning o'zligini saqlab qolishda, uning o'z ichki qonuniyatlarini, xususiyatlarini hisobga olish muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, uning so'z boyligini boyitishda ichki imkoniyatlari bilan birgalikda tashqi manbalarning ham ta'sirini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Aslini olganda, adabiy tilning tashqi imkoniyatlarsiz to'la shakllanishi qiyin. Chunonchi, tillar ham odamlar singari bir-birlari bilan doimiy ravishda aralashib turadilar, aloqa-munosabatda bo'ladi-lar, o'zaro ta'sir o'tkazadilar. Masalaga shu nuqtai nazardan qaraganda o'zbek tilining rus, ayniqsa, arab, fors-tojik tillari bilan yaqin munosabatda bo'lganligi, ulardan ko'p

hollarda foydalanib, o'z leksikasini boyitib kelganligi, umuman olganda, bu ijobiy hodisa hamdir. Masalan, hozirgi o'zbek adabiy tilimizga tashqi manbadan **kompyuter, bankir, biznes, biznesmen, bakalavr, menejer, menejment, magistr, kollej, litsey, fermer** kabi so'z va atamalar kirib keldi. Shuningdek, bir paytlar o'zbek tilida keng iste'molda bo'lib, so'nggi davrlarda tarixiy so'zlarga aylanib qolgan: **«tamg'a, muhr, bitik, chipta, tuman, tijorat, tujjor, toboq (list), chop etmoq, moziy, viloyat, jumhuriyat, istiqlob»** kabi o'nlab atamalar tilimizning ichki manbai asosida qayta tiklandi. Garchi, bu so'zlarning ko'pi o'z tilimizniki bo'lmasa-da, ular o'z davrida o'zlashib ketgan edi. Shu nuqtai nazardan ular tilimizning ichki imkoniyati doirasiga kiradi. Lekin har bir narsaning me'yori, chegarasi bo'lganidek, har bir tildagi boshqa tildan kirgan so'zlar, atama va grammatik vositalarni o'zlashtirish, shu kabi tarixiy so'zlarni qayta tiklash masalasida ham me'yor, chegara bo'lishi shart. Aks holda, boshqa til manbai har qanday milliy tilning tabiatiga, uning ichki qonuniyatlariga jiddiy zarar yetkazishi, adabiy tilni xalq tilidan, mahalliy dialekt va shevalardan, uning boshqa ichki imkoniyatlaridan ajratib qo'yishi, hatto uni sun'iylikka, inqirozga olib borishi ham mumkin.

Shu kabi, aksincha, tilning ichki manbaiga juda ham berilib, unga zo'rma-zo'raki yondashib bo'lmaydi. Ayni paytda, tilning ana shu ichki va tashqi manbaiga to'g'ri yondashmaslik natijasida qo'pol xatolikka yo'l qo'yilmoqda. Bu hol, ayniqsa, atamachilik sohasida ko'zga tashlanmoqda. Masalan, so'nggi paytlarda o'zbek tilining ichki manbaiga e'tiborni kuchaytirish maqsadida chetdan kirgan, to'g'rirog'i, rus tili yoki sobiq ittifoq xalqlari tillari orqali kirgan baynalminal so'zlarga, ya'ni tashqi manbaga qarshi kurashilib, ularni hozirgi davr uchun tarixiy yoki tushunilishi qiyin bo'lgan, real hayotdan uzoqlashgan so'zlar bilan palapartish ravishda almashtirish kuchaydi. Jumladan, **jarida, oynoma, ro'znoma, mushtariy, riyoziyot, kulliyot, tahsilgoh, minbargoh, da'vatgoh, dorilmuallim, oliygoh, oliy ilmgoh, bilimgoh, maskan, tayyora, tayyoragoh, sayyora, favvora, nohiya** kabi juda ko'p atamalar qo'llanilmoqdaki, ularning birortasi ham milliylikka daxli yo'q, aslini olsak, o'zbek tiliga xos so'zlar

emas. To'g'ri, bunday so'z va atamalar ma'lum bir davrlarda o'zbek tilida keng qo'llanilgandir, lekin ayni paytda ular iste'moldan chiqqan bo'lib, ko'pchilikka tushunilmaydigan, eskirgan-tarixiy so'zlarga aylanib qolgan va ular hozirgi avlod uchun tushunilishi qiyindir. Shuning uchun ham, bizningcha, ularni qayta «tiritirish» va hammaga tushunarli bo'lgan va tilimizda keng qo'llanilayotgan so'zlar bilan almashtirish zarurati yo'qdir. Shuningdek, hozirgi paytda shoshmashosharlik bilan chop etilayotgan ba'zi lug'atlarda ayrim atama va iboralar tarjimalarida ham g'alizliklarni ko'rish mumkin. Masalan, rus tilidagi «krupnorogatiy skot» iborasi «yirik shoxli qoramol», «ovsa-mat'ka» esa «ona qo'y» tarzida tarjima qilingan. (Unda shoxi kichik yoki shoxi yo'q qoramolni qanday atash mumkin, shu kabi qo'chqorni «ota qo'y» deyish kerakmi?) Balki, ular o'zbek xalqining tilida keng iste'molda bo'lgan «Qoramol, sovliq» so'zlari bilan atalsa to'g'ri bo'lardi. Bu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin, albatta. Agar atamashunoslar shoshmashosharlik qilmay, bu borada sinchkovlik bilan ish tutishsa, o'zbek tilining o'ziga xos ichki imkoniyatlarini sezishlari turgan gap.

Qayd etish lozimki, xuddi ana shunday holat o'zbek adabiy tilining 20-yillardagi davrlarida yuz bergan. Bu davrda o'zbek adabiy tilining boshqa tillarga munosabati, ular bilan o'zaro aloqasi qanday bo'lishi masalasida qizg'in bahs, munozaralarni kuzatish mumkin. Buni asosan til leksikasining boyib borishi atamashunoslik sohasiga oid bo'lib, tilning sofligini saqlash da'vosi bilan o'zbek tiliga baynalminal so'z va atamalarning o'zlashishiga qarshilik ko'rsatilgan edi. O'sha davrlardagi tarixiy shart-sharoitlar bilan bog'liq holda hayotda paydo bo'layotgan yangi-yangi tushunchalarni ifodalash uchun o'zbek tilidagi so'zlarning o'zidan so'z yasash, eski o'zbek tiliga oid iste'moldan chiqqan so'zlarni qayta tiklash, hech imkoniyati topilmay qolgan taqdirda arabcha, forsha so'zlardan foydalanish lozim deb qaralgan edi. Ammo tilning o'ziga xos qonuniy taraqqiyotiga zid bo'lgan bu kabi nuqson va xatoliklar ko'pga bormay barham topdi (6/23-24-betlar). Chunki, tilning ichki va tashqi imkoniyatlaridan qonuniy ravishda foydalanilmagan va ularga shoshmashosharlik bilan yondashilgan edi.

Demak, har bir tildagi atamalarning yaratilishi, joylashishi bir oyda yoki bir-ikki yilda emas, balki bir necha o'n yillar yoki asrlar davomida asta-sekin yaratilib va silliqanib, shu asosda to'g'ri izga tushgan. Ularni bu izdan birdaniga chiqarib tashlash mumkin emas. Atamalar tanlashda yoki almashtirishda hamda tarjima etishda shoshmashosharlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bu atamashunosligimiz uchun eng qo'pol xatolik sanaladi.

Umuman, qayd etilganlar asosida quyidagicha xulosaga kelish lozim bo'ladi:

Rivojlangan har qanday til, shu jumladan, hozirgi o'zbek tili ikki asosiy funksional turga: adabiy til va so'zlashuv¹ tiliga bo'linadi. Har bir muayyan tilning sohibi, tashuvchilari bo'lgan elat (xalq) yoki millatning vakillari tomonidan so'zlashuv tili bolalikdan boshlab egallanadi. Adabiy til, uning me'yorlari va qonuniyatlari esa balog'atga yetgan, kamolotga erishgan kishining shakllanishi jarayonida o'rganib, o'zlashtirib olinadi. Bunda, ayniqsa, oila va maktab, oliy o'quv yurti, adabiy tilni egallagan shaxslar, olimlar bilan yaqin aloqada bo'lib turish va ular ko'magida turli janrdagi adabiyotlarni o'qish, o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Umumxalq tilining yuqori shakli hisoblangan adabiy til aniq va muayyan bir tizimda har bir davrning tiliga xos me'yor, tartib-qoidalarni ifodalaydi. Milliy adabiy tilni, uning og'zaki va yozma shakllarini aniqlashda eng muhim va asosiy belgi uning bir me'yorga, ya'ni aniq bir maromga, tartib-qoidalarga solinganligidir. Milliy tilgacha bo'lgan davrdagi adabiy til bilan milliy adabiy til orasida muhim tafovutlar bo'lishiga qaramay, normativlik adabiy til taraqqiyotining barcha davrlarida — milliy tillarning tashkil topish davrida ham ayniqsa, milliy adabiy tillar to'la shakllangan davrlarda ham asosiy belgi bo'lib qoladi. Adabiy til taraqqiyotining dastlabki davrlariga tegishli yodgorliklarni o'rganish ularda bir qator me'yorlar mavjudligini, eski me'yorlar yo'qolib ketishi, yangi me'yorlar yuzaga kelishi, yangi va eski me'yorlarning muvoziy (parallel)

¹Bundan so'ng biz «jonti so'zlashuv» tili atamasini «so'zlashuv tili» shaklida qo'llaymiz.

holda qo'llanilganligini ko'rsatadi. Demak, me'yor faqat tilning hozirgi holati, sinxroniya uchungina xarakterli bo'lib qolmay, balki diaxroniyada ham vujudga keladi (12/5-bet).

Adabiy til leksikada ham, fonetik va grammatik qurilish sohasida ham me'yori, qoidalari bilan ajralib turadi. Bu me'yori grammatika darsliklari, qo'llanmalari va barcha xil lug'atlarda belgilab qo'yilgan. Bu me'yori shu tilda so'zlashuvchi barcha kishilar uchun umumiy va zaruriy hisoblanadi. Umumxalq tilining qayta ishlanishi negizida shakllanib, mahalliy dialektlarning umumiy zaruriy xususiyatlarini o'ziga singdira borgan adabiy til ayni zamonda umumxalq tilining turli ko'rinishlaridan — so'zlashuv tilidan ham, mahalliy shevalardan ham, jargonlardan ham farq qiladi.

Adabiy tilning muayyan me'yorga solinganligi shundan iboratki, uning lug'at tarkibi ma'lum tartibga keltirilgan bo'ladi, so'zlarning ma'nosi va ishlatilishi, talaffuzi va yozilishi hamda grammatik shakllar yasalishi yagona, mushtarak qoidaga bo'ysunadi. Adabiy me'yor tarixiy toifa (kategoriya) hisoblanadi. U tilning taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda o'zgarib turadi, uning ichki qonuniyatlariga bo'ysungan holda kishilarning talab-ehtiyojlarini qondiradi. Shuning uchun adabiy til me'yori, tartib-qoidalari tilda doimo yuz berib turadigan o'zgarishlarni aks ettiruvchi ko'rinish (variant)larni inkor etmaydi.

Adabiy tilning ikki turi — og'zaki va yozma turi mavjud. Bu shakllar idrok etishning ikki turi, ya'ni ko'ruv va eshituv uchun mo'ljallanganligi sababli o'ziga xos bir qancha xususiyatlarga egadir. Adabiy tilda uning har ikkala shakli uchun xos bo'lgan betaraf va uslublararo ifoda vositalari bilan bir qatorda, adabiy tilning faqat bir shakli — og'zaki yoki yozma — uchun xos til unsurlari, vositalari ham bo'ladi.

Umumuslubiy va uslublararo shakllarga birinchi navbatda tilning morfologik birliklari kiradi. Til vositalarini morfologik belgilariga qarab ikki guruhga — og'zaki va yozmaga ajratishda qat'iy chegara yo'q. Shunga qaramay, bu shakllarning o'ziga xos ayrim xususiyatlarini ko'rsatish mumkin. Jumladan, adabiy tilning og'zaki shaklida ot va sifat turkumlariga xos his-tuyg'u, ta'sirchanlikni ifodalovchi shakllar (bolakay, qizgina, erkatoy,

kichkintoy, kichkina, kattakon); takror, doimiylik, kuchaytirish ma'nolarini ifodalovchi fe'lning tahliliy shakllari (ataylab, oshirib yubormoq, kelib qolmoq, turtkilab qo'ymoq, o'qib chiqmoq) hamda yozma adabiy shaklga xos ot va sifat turkumlaridagi tahliliy shakllar (sezgiriklik bilan, telefon orqali, tezkorlik asosida, nihoyatda ko'rkam, g'oyat baland); -lik, -chilik, -lashtirish kabi affikslar yordamida yasalgan so'zlar (o'qituvchilik, dehqonchilik, parrandachilik, radiolashtirish, avtomatlashtirish) va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Adabiy tilda sintaktik qurilish jihatidan ham ikki shaklga xos xususiyatlarni ko'rish mumkin. Ko'pincha sodda gaplarni, ayniqsa, to'liqsiz gaplarni, qisman bog'langan qo'shma gaplarni ishlatish adabiy tilning og'zaki shakli uchun xos bo'ladi. Bu vaqtda ohang, to'xtam, imo-ishora, nutq vaziyati kabi vositalar muhim rol o'ynaydi. Yozma adabiy tilning sintaktik qurilishi esa o'zining ancha murakkabligi bilan ajralib turadi. Unda ergash gapli qo'shma gaplar, kirish so'z va iboralar, murakkab qurilishli sodda gaplar, ajratilgan va uyushiq bo'laklar, murakkab qo'shma gaplar ancha keng ishlatiladi.

Adabiy tilning har ikkala shakli uchun xos alohida leksik va frazeologik til birliklari qo'llaniladi, ya'ni hozirgi adabiy tilda betaraf va uslublararo qatlam bilan bir qatorda faqat og'zaki yoki yozma adabiy til uchun xos so'z va iboralar qatlam ham mavjud. Masalan, «O'zbek tilining izohli lug'ati» (ikki tomlik, M., 1981-y.) hamda «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati»da (Sh. Rahmatullayev, T., 1978-y.) «salanglab yurmoq, suyunmoq (sevinmoq), qashlamoq (qashimoq), hayitlamoq, qoyilmaqom, qulaylamoq, qaydam, qanaqangi, shunchaki, shunaqangi, jon-poni chiqib ketdi, ko'zi tirik, ko'zlari qinidan chiqib ketdi kabi so'z va iboralar so'zlashuv tiliga xos hamda «boshqaruv, intilish, adabiyot, kamtarlik, ijtimoiy, ko'zi ochiq, g'olib kelmoq, joni xalqumiga kelmoq, ko'ngli toza» kabilar esa yozma adabiy tilga xos so'z va iboralar deb qayd qilinadi.

Adabiy tilning og'zaki shakli ma'ruza va suhbatlarda, yozma shakli esa, asosan, fan, texnika va ilmiy adabiyotlarda, rasmiy ish hujjatlari, nashriyot va matbuot sohaslarida ishlatiladi. Lekin bular o'zaro uzviy ravishda bog'langan bo'ladi. Ma'ru-

zalar, har xil chiqishlar o'z xususiyati bilan yozma adabiy tilga yaqin turadi. Shuningdek, yozma adabiy tilda, ayniqsa, badiiy asarlarda so'zlashuv tiliga xos so'z va iboralar ham qo'llanadi. Shuni qayd qilish kerakki, «og'zaki», «so'zlashuv» atamaları adabiy tilning shakllaridan birini (adabiy tilning og'zaki yoki yozma shaklini) ifodalash uchun hamda milliy tilning funksional turlaridan birini (adabiy til yoki so'zlashuv tilini) ifodalashga xizmat qiladi.

O'zbek adabiy tilining rivojlanish jarayonini tekshirishda, o'zbek adabiy tili taraqqiyotining turli davrlariga tegishli, shuningdek, o'zbek milliy tilining tashkil topishi davriga oid yodgorliklarning til xususiyatlarini o'rganish vaqtida adabiy tilning «og'zaki» shaklidan foydalanib bo'lmaydi. Chunki o'zbek adabiy tili tarixi ana shu yozma yodgorliklar tili tarixidan iborat. Shuning uchun o'zbek adabiy tili taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridan boshlab kitobiy unsurlar yozma adabiy tilning vositalari sifatida bir-biriga qarama-qarshi qo'yilganligini ko'rish mumkin. Bu hodisa, ayniqsa, qadimgi turkiy adabiy til va eski o'zbek adabiy tili, shuningdek, milliy adabiy til yodgorliklari uchun xarakterlidir. Yozma yodgorliklarda tashkil topib qat'iyatlashgan til me'yorlari, qoidalari asta-sekin so'zlashuv nutqiga ham o'ta boshlaydi. Yozma nutq shakli, og'zaki nutq shakli, adabiy tilning yozma va og'zaki shakllari kabi tushunchalarning paydo bo'lishi asosan shu hodisa bilan bog'liqdir. Hozirgi yozma adabiy matnlarda (badiiy adabiyot, publitsistika, gazeta va jurnal maqolalarida) yozma va og'zaki til unsurlari bo'lganidek, og'zaki nutqda ham so'zlashuv va yozma unsurlari mavjud bo'ladi.

O'zbek adabiy tilining barcha shakllariga xos aniq faktlarni turli davrlarda yashagan yirik yozuvchilarning asarlarida uchratish mumkin. Chunki badiiy asar matnlarida har bir rivojlangan tilning ikki asosiy funksional ko'rinishi — adabiy til va xalq (so'zlashuv) tilining dialektik birligi, o'zaro uzviy bog'liqligi ochiq namoyon bo'ladi. Rus olimlari L.V.Shcherba va V.V.Vinogradovning ko'rsatishicha, til me'yorlarini badiiy asarlarning matnlarini tahlil qilish orqali belgilash mumkin. Darhaqiqat, XIII–XVI asrlarda eski o'zbek tili uchun xarakterli bo'lgan adabiy til me'yorlari shu davrlarda yashagan Xorazmiy,

Durbek, Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy kabi shoirlarning asarlari tilini o'rganish, lingvistik tahlil qilish asosida aniqlanadi. O'sha davrlarda yaratilgan yodgorliklarning tili o'z davri xalq tiliga, tushunishning yengilligi jihatidan hozirgi o'zbek adabiy tiliga hamda xalq tiliga ancha yaqin turadi.

Tilning xilma-xil birliklarini badiiy asarlarda ishlatish hammavaqt uslub jihatidan asoslangan bo'ladi. Jumladan, yuqorida tilga olingan shoirlar, ayniqsa, Alisher Navoiy asarlari XIV–XV asrlardagi eski o'zbek adabiy tilining xususiyati, uning og'zaki va yozma shakllari, shuningdek, xalq so'zlashuv tili hamda adabiy tilning og'zaki shakli qanday ekanligi to'g'risida aniq tasavvur bera oladi.

Yozuvchi o'z asarida turli darajadagi til birliklarining ma'lum qolipga solingan, takomillashgan namunalarini, shakllarini ishlatadi. Shuning uchun til ifoda vositalarining normativligi, tartib-qoidalari badiiy asarlarda ko'proq va aniqroq namoyon bo'ladi. Demak, turli davrlarga tegishli badiiy asarlarning til xususiyatlarini o'rganish o'sha davr til tizimini tushunib olish imkonini beradi. Badiiy asar tilini o'rganish bu xil lingvistik tekshirishlarning ikki jihatini bir-biri bilan bog'laydi, uning ikki tomonini belgilash imkonini beradi, ya'ni badiiy asar matnlarida adabiy til me'yorlari hamda ma'lum darajada xalq so'zlashuv tili xususiyatlari aks etganligi aniqlanadi.

Til hodisalarini to'g'ri va chuqur tushungan holda keng ilmiy tahlil qilish, hozirgi xalq tili, so'zlashuv tili xususiyatlari bilan adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari faktlarini qiyoslab o'rganish natijalari o'tmishdagi xalq tilining ayrim xususiyatlarini bilib olishda ma'lum asos bo'lishi mumkin.

Yozma manbalar asosida o'tgan asrlardagi xalq tili, so'zlashuv tili xususiyatlarini o'rganishda tarixiy obidalarni, badiiy asarlarning matnlarini, ayniqsa, o'z davriga xos nutq amaliyotini aks ettiruvchi asarlarni tanlash juda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, B.O'rinboyevning o'zbek tili so'zlashuv nutqini o'rganishga bag'ishlangan ishlarida bunday xulosalar ko'proq badiiy asar matnlariga asoslanadi (4).

Odatda badiiy asar matnlarining uch turi qo'llanadi: muallif hikoyasi (xabar matni); asar qahramonlarining

tili va muallifning qahramonlarga bo'lgan xarakteristikasi. Muallif hikoyasiga asoslangan matnlar adabiy tilning eng yaxshi namunasi hisoblanadi. Bu xil matnlarda uslub va ta'sirchanlik jihatidan betaraf bo'lgan til vositalari ko'proq ishlatiladi, shular asosida adabiy tilning og'zaki va yozma unsurlari uyg'unlashadi. Navoiy, Bobur, Abulg'ozi, H.Hamza, A.Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom asarlarida ana shunday matnlar juda ko'p bo'lib, ularda badiiy hikoya me'yori, adabiy tilning betaraf, kitobiy va so'zlashuv unsurlarini qo'llash me'yori ochiq namoyon bo'ladi.

Asar qahramonlarining tilida ularning ijtimoiy ahvoriga bog'liq ravishda so'zlashuv tiliga xos barcha vositalarni — adabiy til va adabiy tilga xos bo'lmagan barcha unsurlarni qo'llash mumkin. Qahramonlarning til xarakteristikasiga bag'ishlangan matnlarda esa yozuvchi adabiy tilga xos bo'lmagan so'zlashuv tilining unsurlarini — oddiy so'z va iboralarni ham, sheva va jargonlarga xos so'zlarni ham ishlatadi. Demak, o'zbek adabiy tili yozma yodgorliklari tilning turli davrlardagi taraqqiyot xususiyatlarini belgilashda eng asosiy manbalardan biri hisoblanadi, unda tilning to'liq tabiati o'z ifodasini topadi.

O'zbek adabiy tilining uslublari

Hozirgi davrimizning 60–70-yillaridan o'zbek tilshunosligida uslubiyat masalalariga katta e'tibor bilan qarala boshlandi. Natijada qisqa vaqt ichida o'nlab ilmiy ishlarda, monografik tarzdagi kitoblarda, o'quv qo'llanmalarda o'zbek tili uslublariga oid alohida boblar ajratildi hamda nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yozildi. Bularning orasida G'.Abdurahmonov, S.Mamajonov, I.Qo'chqortoyev, E.Begmatov, X.Doniyorov, X.Ne'matov, Sh.Shoabdurahmonov, M.Mukarramov, A.Shomaqsudov, B.Yo'ldoshev, S.Karimov, L.Abdullayeva, E.Qilichov, I.Rasulov, X.Rustamov, T.Qurbonov, D.Boboxonova, A.Boboyeva, A.Asomiddinova kabi olimlarning ishlari diqqatga sazovordir. Ularning bu

sohada yozgan maxsus ilmiy ishlari tufayli o'zbek adabiy tilining uslubshunoslik sohasi alohida fan sifatida shakllanishiga zamin hozirlandi. Natijada, o'zbek adabiy tilining uslubiyati va uslub tushunchalari ta'rifi va uning tabaqalanish tasnifi, me'yorlari hamda funksional uslub turlaridan ayrimlari maxsus tahlil etib berildi.

Bizning mazkur ishimiz bu sohaga maxsus bag'ishlanmagan bo'lsa-da, ushbu o'rinda yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning ishlari asosida uslubiyat tarixi bo'yicha umumiy tarzda fikr yuritib, zarurat tug'ilganda ular haqida o'z mulohazalarimizni ham aytishga harakat qilamiz.

Ma'lumki, o'zbek adabiy tili uslubiyati haqidagi barcha ishlarda uslub tushunchasi va uning ta'rifi, uslubning lisoniy jihatdan turlari har xil talqin qilingan bo'lsa-da, ularning deyarli hammasi umumiylikka egadir. Chunonchi, uslubning ta'rifi quyidagicha ko'rinishlarda talqin etilgan: «Uslub — tilshunoslikda tilning alohida ma'no anglatish va ifodalash maqsadlariga xizmat qiluvchi fonetik, sintaktik vosita. Lingvistik ta'rifga ko'ra tilning differensial turlaridan biri o'laroq, o'ziga xos lug'ati, frazeologik birikmalari, jumla va sintaktik qurilmalari bilan bo'lak turlaridan o'z ichki unsurlarining, asosan, ekspressiv ta'rifi xususiyatlari bilan tafovut qiluvchi lisoniy tizimdir» (8/616-bet). «Uslub (stilni) adabiyotshunoslik nuqtai nazardan tushunish badiiy asarga yoki konkret yozuvchiga qaratilgandir. (?) Lingvistik stilistika esa ikki asosiy ob'yektga ega: a) Uslub til yoki nutqning bir ko'rinishi sifatida. b) Badiiy asar yoki yozuvchi uslubi» (1/58-bet) kabilar. Uslubga berilgan ushbu ta'riflar, bizningcha to'laqonlikka ega emas. Chunki aytilgan bu fikrlardan ba'zilarida hatto g'alizlik bor.

O'quv qo'llanmalarning birida uslub va uning turlari bo'yicha quyidagicha fikrlarni o'qiyimiz:

«Uslub — bu ma'lum so'z, so'z birikmasi yoki gapning (ko'proq frazeologiya, sodda gapning so'roq, buyruq, undov turlari, intonatsiya va morfologik kategoriyalar v.b.) badiiy bo'yoq olishi — ekspressivligi, emotsionalligi, shaxsiy munosabat bildirishidir (13/85-bet)». «Uslub — so'zlovchining, yozuvchining ifodalanayotgan fikrga, xabarga, voqea-ga, hodisaga, shaxs yoki predmetga munosabati, jumladan,

ifodalangan qo'shimcha sub'yektiv fikrdir» (13/86-bet). Uslub haqidagi ushbu ta'riflarning umumiy mazmuni, asosan to'g'ri va ulardan uslub haqida ma'lum tushunchaga ega bo'lish mumkin. Ammo ularda lingvistik uslub adabiyotshunoslikka xos uslub ta'riflari bilan qisman aralashtirilgan va bu haqda aniqlik talab etiladi.

Darhaqiqat, uslubiyat adabiy tilning bir sohasidir. Shuning uchun ham u tilshunoslikning fonetika, leksika va so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis kabi qator sohalari bilan uzviy aloqadordir. Ammo uslubning qo'llanish jarayoni bir xil ko'rinishda bo'lmaydi. Chunonchi, lingvistik uslub bilan badiiy adabiyot uslubi va ularning turlari o'ziga xoslikka ega. Bizningcha badiiy adabiyot uslubiyati, asosan, adabiyotshunoslikka xos bo'lib, uning turi adabiy-badiiy janrlar uslubi, yozuvchining mahorati bilan bog'liq bo'lgan yozuvchining o'ziga xos uslubi kabilar haqida bahs olib boradi. To'g'ri, badiiy adabiyot uslubida ham til materiali asosiy manba hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, tilshunoslikda uslub tushunchasida nutq (yozma va og'zaki nutqlar) jarayonida til qurilishi sohalaridan so'z shakllari va grammatik vositalaridan qonuniy tarzda o'rinli va to'g'ri foydalanish, gap va gap bo'laklarining tartibi ham ta'sirchanligi (notiqlik mahorati) kabilar tushuniladi. Shuning uchun ham til uslublarining bir qismi adabiy til me'yorlariga amal qiladi. Lisoniy uslubning adabiy til me'yorlaridan farq qiladigan tomonlari ham bor, albatta (bu haqda o'z o'rnida fikr bildiriladi). Xuddi ana shu jihatlari badiiy adabiyot uslubida erkin qo'llaniladi. Ikkinchidan, adabiyotshunos ham uslub tushunchasini umumtil qurilishi (umumxalq tilining barcha shakllari) asosida so'z va grammatik vositalarni yozuvchi tili yoki badiiy adabiyot g'oyasi, obrazlilik (o'xshatish, mubolag'a, bo'rttirish kabilar) uchun umumtil materialidan obrazlar tiliga, xarakteriga moslab qo'llashni tushunadi. Ammo lingvistik uslubga qaraganda, badiiy adabiyot uslubining adabiy til va adabiy til me'yorlariga munosabati o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shunga qaramay, lisoniy uslub bilan adabiyotshunoslikka xos uslub o'rtasida umumiylik bor. Aytilganlardan sezilib turibdiki, lisoniy uslub ham, badiiy adabiyot uslubi ham uslubshunoslik fanida o'rganiladi. Ikkinchidan, har ikkala

uslubda ham til materiallaridan teng foydalaniladi va shu asosda uslublar shakllanadi.

Demak, uslubshunoslikda uslubiyat muammolarini tadqiq etishda tilshunoslar bilan adabiyotshunoslar o'rtasida xususiy jihatlar bo'lsa-da, umumiy jihatlar ham mavjud. Ular bu sohada birlikda ish olib borishsa uslubshunoslik uchun ko'pgina muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etardi.

Tilshunoslik manbalarida ta'kidlanganidek, olimlar uslubni uch qismga bo'lib o'rganishni ma'qul topadilar:

a) funksional (amaliy) uslub;

b) turli adabiy janrlar, adabiy oqimlar yo'nalishini hamda yozuvchi uslubini o'rganish uslubiyati;

d) og'zaki va yozma nutqni tadqiq qiluvchi uslubiyat kabi (13/87-bet). Shuningdek, uslub ko'rinishi (ifodalanishi) yozma va og'zaki shaklga bo'linadi. Uslubning barcha turlari xuddi ana shu ikki shakl (og'zaki va yozma shakl) orqali yuzaga chiqishini uqtiradilar. Chunonchi, «avvalo uslubning ikki katta guruhi — og'zaki va yozma uslubi mavjud bo'lib, funksional (amaliy) uslubning har turi ana shu ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi. Og'zaki nutq uslubi adabiy yozma nutq uslubiga nisbatan kengroq bo'lib, o'zining alohida turlari (umumso'zlashuv tili va shevachilik) ham bo'ladi... Binobarin, og'zaki nutq rasmiy — ish yuritish va ilmiy uslubda qo'llanilmaydi». «Shunga ko'ra yozma uslub quyidagi turlarga bo'lingan: 1) Badiiy uslub. 2) Ommabop (publitsistik) uslub. 3) Rasmiy-ish yuritish uslubi. 4) Ilmiy uslub. 5) Notiqlik (oratorlik) uslubi. 6) Rasmiy-kitobiy uslub. 7) «Aralash uslub» kabilar (13/88-89-betlar).

Ba'zi ilmiy manbalarda hozirgi o'zbek adabiy tili funksional uslublarini besh turga bo'lib o'rganish ma'qul deb qaralmoqda: 1) so'zlashuv; 2) rasmiy hujjat; 3) ilmiy; 4) publitsistik; 5) badiiy uslublar kabi. Ularda funksional uslub turlarining tartibi yoki ba'zi bir nomlari boshqacha aytilgan, xolos (14/15-bet, 1/64-bet).

Xullas, uslubning ta'rifi va tasnifi (turlari), deyarli to'g'ri yoritilgan. Ammo ularda hali ham to'laqonlilik yetishmaydi. Uslubning ta'rifi, ayniqsa, lisoniy jihati bilan adabiyotshunoslikka xos jihatlari aniq bir me'yorga yetmaganga o'xshaydi. Agar har ikki ko'rinish bir xil deb tushunilsa,

unda yaxlit bir uslub ta'rifi berilishi lozim bo'ladi. Jumladan, uslub — til qurilishidagi barcha lisoniy unsurlarning kishilar tomonidan maqsadga muvofiq o'ziga xos qo'llanishidagi lisoniy yo'l yoki nutqiy fikrning mahoratli, san'atkorona ifodasidir. Boshqacha aytganda, uslub ijtimoiy taraqqiyotning tarixiy shart-sharoitga mos ravishda barcha lisoniy unsurlarni kishilar faoliyatining ma'lum bir sohalarida qo'llanadigan o'ziga xos tilidir.

Qayd etilgan uslub turlari asosida funksional uslublar ko'rishini quyidagicha belgilash mumkin: 1) Ilmiy-fan uslubi yoki ilmiy bayon uslubi. 2) Rasmiy hujjatlar, maxsus ish yuritish uslubi. 3) Ijtimoiy-publitsistik uslub. 4) Ishlab chiqarish — texnik uslub. 5) So'zlashuv uslubi. 6) Adabiy-badiiy uslub. 7) Notiqlik uslubi. 8) Norasmiy yozishmalar (maktublar) uslubi kabilar. Uslubning bu kabi funksional turlari o'z navbatida yana mayda bo'laklar (turlar)ga bo'linadi.

Bu haqda qayd etilgan ilmiy adabiyotlarda yetarli fikrlar bor. Masalan, publitsistik uslubga gazeta, jurnal, radio, teleko'rsatuv tili usublari kiradi. Bularning har biri maxsus tadqiqot ishini talab etadi...

Tilning funksional uslub turlari adabiy tilning qanchalik keng doirada qo'llanishiga, uning ishlanishi va mukammalligiga bog'liq. Bu jihatdan o'zbek adabiy tili o'zining deyarli bir yarim ming yillik tarixiga ega. Bu davrlarda yozma yodgorliklarda uslubning ko'pgina sohaları bo'yicha u yoki bu darajada ish olib borilgan.

Turkiy-o'zbek xalqining zukko allomalari qadimdan ilm-fan bilan shug'ullanib kelganlar. Ular o'zlarining ilmiy-nazariy, falsafiy, badiiy-tarixiy va didaktik fikrlari bilan jahon ahliga manzur bo'lganlar. Ular yaratgan kamyob asarlar ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olgandir. Undagi ma'naviy ozuqadan nafaqat Sharq, balki Yevropa xalqlari ham bahramand bo'lib kelganlar. Xuddi shu mashhur asarlarda funksional uslubning turlari shakllanib kelgan. Jumladan, qadimdagi Xorazm, turkiy-rum, turkiy-uyg'ur bitiklarida, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy va Temuriylar davri, ayniqsa, Alisher Navoiy, Muhammad Zahiriddin Bobur asarlarida funksional

uslubning turli shakllarini uchratish mumkin. Ularda ilmiy uslubning o'ziga xos shakli, badiiy uslubning turlicha nozik shakllari paydo bo'lib, rivojlana borgan. Shu asosda notiqlik uslubi ham shakllangan. Ayniqsa, turkiy davlat—huquqiy mahkamalarida, devonxonalarida rasmiy — ish yuritish, hujjat uslubining qo'llanishi rivojlanib, uning shakllanishiga olib kelgan. Ommabop va norasmiy yozishmalar (maktublar) uslublarining asoslari Alisher Navoiy davridan boshlangan (13/90-bet).

Adabiy til taraqqiyotining har bir bosqichida uning o'ziga xos usublari mavjud bo'ladi, chunki adabiy til uslublar tizimidan tashkil topadi. Shunga ko'ra, adabiy til tarixi, asosan, uning usublari tarixini qamrab oladi. Jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liq ravishda har bir davrda adabiy til usublarining miqdori, uning xarakterli xususiyatlari va ular orasidagi o'zaro munosabat o'zgarib turadi. Adabiy til tarixi adabiy matnlar tili tarixidan iborat bo'lib, har bir davrga oid bu matnlarning til xususiyatlarini jamlaydi, umumlashtiradi va shu asosda o'zaro o'xshash til xususiyatlari bilan ajralib turuvchi matnlar guruhini belgilaydi, ma'lum guruhga kirgan yodgorliklarning til xususiyatlari yig'indisi, umumlashmasi hamda adabiy tilning turlicha usublari haqida ma'lumot beradi.

Uslub — tilning tarixan tarkib topgan bir ko'inishi bo'lib, o'ziga xos tarkibi, birikish xususiyati va nutq vositalarini qo'llash qonuniyatlari bilan ajralib turadi. Adabiy til uslubi — bu ma'lum darajada adabiy til matnlarida o'zining aniq ifodasini topgan uslubiy bo'yoqqa ega hamda uslub jihatdan betaraf til unsurlarini ongli ravishda anglash asosida tashkil topgan ma'lum tizimdir. Adabiy til usublari faqat uning tizimini tashkil etish xususiyatlari jihatidagina emas, balki u yoki bu uslub tizimining yuzaga kelishi uchun asos bo'lgan omillar nuqtai nazaridan ham ajralib turadi. Shu jihatdan dastlab funksional usublarni ko'rsatish mumkin. Bu uslublar tizimining xususiyati uning ishlatilish doirasi, uslublarning ijtimoiy qo'llanish sohaları bilan bog'langan. Jumladan, hozirgi o'zbek adabiy tilining publitsistik yoki professional — texnik uslublarida, boshqa funksional uslublarda bo'lganidek, til vositalarini tanlash va tartibga keltirish shu matnlarning

mazmuni, mohiyatining hamda ishlatilish sohasining o'ziga xos xususiyati bilan bog'langan.

Funksional uslublar bilan bir qatorda individual uslublar ham bor. Bu uslublar tizimining xususiyati shundan iboratki, unda muallif o'z individual nuqtai nazarini va didiga mos ravishda tilning sinonimik ifoda vositalarini tanlab oladi. Individual uslublar asosan badiiy asarlar tilida qo'llanadi, unda yangicha uslubiy bo'yoq oladi, turli janrlarga va adabiy-badiiy yo'nalishlarga xos uslublar bilan birga ishlatiladi. Bu, o'z navbatida, badiiy asarlarda yozuvchi tili va uslubini farqlash zarurligini ham keltirib chiqaradi.

Yozuvchi tomonidan adabiy til va so'zlashuv tilidan tanlab olingan barcha til vositalari majmui yozuvchi uslubini tashkil qiladi. Yozuvchi tilini o'rganishda asosiy diqqat muallifning adabiy tildan nimalarni o'z asari uchun tanlab olganligiga jalb qilinadi.

Yozuvchi uslubini muallifning yozish uslubini, tanlab olingan til vositalarini ishlatish, ulardan foydalanish usulidir. Yozuvchi uslubini o'rganishda uning eng yaxshi individual, ta'sirchan va obrazli ifodalar yaratishda tanlab olgan umumtil vositalaridan qanday foydalanishiga ko'proq diqqat qilinadi. Demak, yozuvchining uslubini uning dunyoqarashi, adabiy-badiiy oqim, asarning mavzui, janri, g'oyaviy yo'nalishi va muallifning individual badiiy g'oyasiga asoslangan yozish uslubidir.

Shuni qayd qilish kerakki, adabiy til tarixiga nisbatan til uslublari masalasi tarixiy rivojlanish nuqtai nazaridan qaraladi. Chunki til uslublari tarixiy kategoriyadir.

O'zbek adabiy tili tarixida yozuvchilarning tili o'rganiladi, muallif yashagan davr adabiy tili xususiyatlarining aks etishi aniqlanadi. Shuningdek, o'zbek adabiy tili tarixida yozuvchining o'z davri adabiy tiliga qanday yangiliklar kiritganligi, uning o'zbek adabiy tilining keyingi taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatganligi aniqlanadi. Chunki tildan foydalanish davomida san'atkor yozuvchi adabiy til, milliy tilning shakllanishi va taraqqiyoti bilan mos ravishda adabiy tilning rivojiga katta hissa qo'shadi, umumxalq milliy tilini yanada takomillashtirishga ko'maklashadi.

Yozma yodgorliklarning janri xususiyati va nutq vositalarini tanlab ishlatish bilan bog'liq ravishda adabiy til uslublari bir qancha guruhga bo'linadi: 1) Badiiy adabiyot uslubini. 2) Notiqlik-so'zlashuv uslubini. 3) Rasmiy hujjatlar, ish yuritish uslubini. 4) Ilmiy, ilmiy ommabop uslubini. 5) Norasmiy yozishmalar (maktublar) uslubini.

Adabiy til tarixining turli davrlarida uslublar, ularning xizmat doiralari ham o'zgarib turadi. Ammo barcha uslublar uchun o'zbek adabiy tilining grammatik qurilishi va keng iste'molda bo'lgan, betaraf so'zlar umumiy bo'lib qoladi.

Adabiy til va badiiy adabiyot tili. Badiiy adabiyot tili adabiy tilning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan ko'rinishlaridan biridir. Badiiy adabiyot tili ham til taraqqiyotining umumiy qonuniyatlariga bo'ysunadi. Tilning aloqa vositasi bo'lishdek asosiy vazifasi badiiy adabiyot tili uchun ham zaruriy bo'lib qoladi.

Badiiy adabiyot tilining murakkabligi va o'ziga xosligi shundaki, u tilning adabiy bo'lmagan xilma-xil ko'rinishlarini, qatlamlarini ham keng ravishda o'ziga singdirib oladi. Shuningdek, badiiy adabiyot tilida adabiy tilning turli-tuman uslublari keng qo'llanishi mumkin. Ma'lumki, umumxalq tilining lug'aviy-iboraviy va grammatik xususiyatlarini hisobga olmay turib, badiiy adabiyot tilining o'ziga xosligini aniqlab bo'lmaydi. Shu bilan birga, asar tili uning mazmuni, obrazlar tizimi, janri va uslubiy jihatlariga asoslangan bo'ladi. Badiiy adabiyot tilining eng muhim xususiyati kishi xarakterining juda ko'p qirralarini to'liq aks ettirish, jonli individual nutqning rang-barangligi, bo'yoqdorligi va nozikliklarini mukammal ifodalashdir.

Yozuvchi jonli individual nutqning barcha boyliklariga katta e'tibor beradi, nutqiy amaliyot malakalarini umumlashtirish asosida uning eng muhim, eng yaxshi, xarakterli xususiyatlarini tanlab oladi. Ulardan turlicha obrazlarni yaratish, aks ettirishda keng foydalanadi.

Badiiylik, his-hayajonlilik, obrazlilik, ifodalilik, ta'sirchanlik kabilar bevosita badiiy adabiyot tiliga xos xususiyatlardir. Asarning badiiyligi, birinchi navbatda, uning tilida namoyon bo'ladi. Badiiy asardan olingan zavq, kishida yuzaga

keladigan his-hayajon, har xil tuyg'ular ham uning tili bilan bog'langan. Badiiy asar tilining hayajontiligi esa uning ifodaliligi, ta'sirchanligi va obrazlilik bilan bog'langan. Shunga ko'ra, badiiy asarlar til jihatdan tadqiq etilganda, uning ikki tomoniga — yozuvchining tiliga va uning uslubiga ko'proq e'tibor beriladi (I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. Tosh.1980-y. 201-202-betlar).

Yozuvchining tili adabiy tildan va so'zlashuv tilidan tanlab olingan til vositalarining yig'indisidir. U tasodifiy va begona til unsurlaridan xoli bo'ladi, unda xalq tilining juda ko'p qirralari ifodalanadi, kuchli badiiylikka erishiladi.

Adabiy til va uning adabiy bo'lmagan ko'rinishlarining o'zaro bir-biriga ta'siri badiiy adabiyot tilida ochiq ko'rinadi. Bularning hammasi yozuvchining o'z davri tiliga, uning rivojlanishiga katta ta'sir qilishini ko'rsatadi, xalq tilining boyligini, uning rang-barangligini, qudratini namoyish qiladi, uni qadrlashga, yana ham e'zozlashga da'vat etadi.

Adabiy til ma'lum ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Uning bu vazifalari davrlar o'tishi bilan o'zgarib turadi. Adabiy til tarixining bosh masalalaridan biri, tilning ijtimoiy vazifalarini aniqlashdir. Bu jarayon adabiy til tarixining xalq madaniyati tarixi, ijtimoiy tafakkuri, adabiyot va adabiy yo'nalishlar, oqimlar tarixi bilan bog'liqligi masalalarini ham qamrab oladi. Shuningdek, bu masala adabiy til tarixining ma'lum davrlaridagi ijtimoiy-g'oyaviy kurashlari bilan ham bog'liqligini taqozo etadi. Jumladan, o'zbek adabiy tilining XIV–XV asrlardagi taraqqiyoti masalalarini, xususan, Alisher Navoiyning til masalalariga doir qarashlari va unga xos manbalarni, adabiy tilning Alisher Navoiyga qadar bo'lgan taraqqiyoti va bu sohada ulug' shoir kurashlari natijasida erishgan ulkan muvaffaqiyatlarni — bularning hammasini shu davrlarda yashagan yirik o'zbek shoirlari, yozuvchi va olimlarining ijtimoiy-siyosiy va g'oyaviy qarashlari, nuqtai nazarlarini hisobga olmay turib to'g'ri hal qilib bo'lmaydi. Bular orasida, ayniqsa, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy hamda Bobur va Muhammad Solihning ijodiy faoliyati muhim ahamiyatga egadir.

O'zbek adabiy tilining me'yori (uslubiy me'yorlar)

O'zbek tilshunosligida umummilliy adabiy til me'yori-ning tarixiy jihatdan taraqqiyoti, shakllanish va rivojlanish jarayonini atroflicha o'rganish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Zero, bu soha hozirgacha maxsus ilmiy tadqiqot mavzui qilib olingani yo'q. To'g'ri, ba'zi ilmiy manbalarda ushbu muammoni hal etishga bag'ishlangan bir qator ma'lumotlar bor, ammo ular bu sohadagi maxsus tadqiqot emas. Ikkinchidan, ularda mazkur muammoning barcha tomonlari qamrab olinmagan. Ularda umumtil me'yorlarning ba'zilariga ta'riflar berilib, umumtil doirasida o'rganilishi lozim bo'lgan o'ziga xos tomonlari yoritib berilgan, xolos.¹ Jumladan, adabiy til me'yori tildagi umumxalq tomonidan qabul qilingan, hamma uchun majburiy tarzda shakllanib, qonun hukmiga kirgan, o'z mavqeini yuqori darajada mustahkamlagan tartib-qoidalar yig'indisi sifatida ta'riflanadi. Me'yor — til tizimining ob'yektiv reallashuvi. U til tizimida mavjud bo'lgan imkoniyatlardan kelib chiqadi. Demak, til me'yori har bir tilning o'ziga xos bo'lgan leksika, fonetika, so'z yasalishi va grammatika kabi sohalar va uning qonuniyatlari asosida belgilanadi (7/8-11-betlar, 13/113-bet)¹.

Ma'lumki, har qanday til tarixiylik va milliylik xususiyatiga egadir. Shunga ko'ra til me'yori ham o'ziga xos tarixiylik va milliylik xarakteriga ega bo'ladi.

Milliylik har bir xalq, millat tilining o'ziga xosligi, milliy til birligi asosidagi belgisidir. Tilning me'yori ana shu belgi asosida xarakterlanadi. Tarixiylik esa tilning va unga xos me'yorlarning uzoq davrlardagi bosib o'tgan taraqqiyotini, rivojlanish bosqichlarini ifodalaydi.

Til me'yori til tizimidan jamiyat a'zolarining tarixiy davrlardagi zarurati tufayli foydalanish mahsuli sifatida shakllangan. Haqiqatan ham til me'yori har bir til tizimi yoki til qurilishi sohalarining jamiyat a'zolari tomonidan o'z amaliy

¹Bu sohadagi ba'zi bir ilmiy manbalar adabiyotlar ro'yxatida ilova qilinadi.

faoliyatlari jarayonida umumzaruriy va nisbatan majburiy ma'qul topilgan, tarixan shakllanib kelgan qonuniyat majmuidir. Shu sababli unda an'anaviy — traditsion malaka va barqarorlik ko'nikmalari mavjud bo'ladi.

O'zbek tili umumme'yorlarining tarixiy rivojida asosan to'rt xil ko'rinishni kuzatish mumkin:

Birinchisi — o'zbek tilining hududiy qismlariga, ya'ni mahalliy dialekt va shevalari tiliga xos me'yori.

Ikkinchisi — xalq so'zlashuv tili (ya'ni adabiy til va dialektlar aralash qo'llangan) til me'yori.

Uchinchisi — o'zbek adabiy tili me'yori.

To'rtinchisi — ijtimoiy-sotsial tarmoq tili me'yori.

O'zbek tilidagi ushbu me'yorlarining har biri xususiy me'yorlar ularning birlashgan majmui umumiy me'yor tarzida yuritiladi. Umumiy me'yor (norma) ma'lum tilning, masalan, o'zbek tilining barcha ko'rinishlarida qo'llanayotgan normalar yig'indisidan iborat. Xususiy me'yor (norma) umumiy normaning nutq turlari, tilning shakllaridagi konkret ko'rinishlaridir (7/15-20-betlar).

Umumtil me'yorlarini ikkiga bo'lib o'rganish so'nggi adabiyotlarda ko'p qo'llanmoqda. Bu bo'linish adabiy tilga nisbatan qaralmoqda. Chunki umumtil me'yori tarkibidagi xususiy me'yorlardan biri sanalgan adabiy me'yor eng ko'p ijtimoiy funksional qiymatga ega. Chunki adabiy til umumxalq tili rivojining yuqori shakli bo'lganidek, uning me'yori ham xuddi shunday xususiyatga egadir. Shunday ekan, umumtil qismlaridagi (xususiy ko'rinishlarini) me'yorlarni adabiy til me'yori va adabiy til bo'lmagan me'yorlarga bo'lish mumkin.

Adabiy tilning funksional doirasida bir necha dialektlar xususiyatining ko'rinishlari bo'lishi mumkin. Chunki o'zbek adabiy tilining shakllanishida o'zbek tili dialekt va shevalarining roli katta bo'lgan. Jumladan, o'g'iz, qipchoq, qorluq, chigil kabi dialektlar til birligi shular jumlasidandir. Shuning uchun ham dialekt va so'zlashuv tili shakllaridan adabiy til va unga xos me'yorlarining funksional doirasi kengdir.

Dialekt tili o'zbek tilining mahalliy hududlaridagina amal qiladigan til bo'lib, har qaysi dialekt va undagi so'zlashuv tili xususiyatlari bir-biridan farqlanadi. Shunga ko'ra,

umumtilning kichik (quyi) shakllari ko'pchilikka tushunilmaydigan til qatlamlariga ega bo'ladi. Qo'llanishiga ko'ra uning funksional doirasi tor bo'ladi. Adabiy til me'yori bilan adabiy til bo'la olmaydigan (dialekt, sheva va so'zlashuv tili) me'yorlari ham xuddi shu fikrlar asosida izohlanadi. Har bir davr adabiy tili doirasida so'zlashuvning majburiylik holati (bu aslida tan olingan adabiy tilning me'yoriy qoidalariga rioya qilish mazmunidan kelib chiqadi) uning umumtillik xususiyatidan kelib chiqadi, degan fikr ham bor. (Bu haqda oldingi mavzularda fikr bildirilgan.) Balki, bu fikr ma'lum bir davr uchun to'g'ridir. Jumladan, hozirgi milliy adabiy tilimizga bu xususiyat to'g'ri keladi. Chunki hozirgi o'zbek adabiy tilida umumtil shaklidagi milliy til birligi mavjud. O'tmish davrlaridagi umumxalq tilining qatlamida esa mahalliy, hududiy til xususiyatlari kuchli bo'lib, u xalq so'zlashuv tili asosidagi adabiy til ko'rinishida bo'lgan, me'yoriy shakllari ham shu tarzda qo'llangan. Umumxalq tili xalq tilining barcha davrlaridagi til ko'rinishlarini yoki shakllarini o'zida qamrab oladi. Umumxalq tili tushunchasi barcha davrlar tiliga nisbatan qo'llaniladi.

Demak, adabiy tilni hamma davrlar uchun birdek umumtil birligiga ega deb, umumxalq tiliga tenglashtirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham adabiy til umumxalq tilining bir ko'rinishi, yuqori rivojlangan shaklidir. Milliy adabiy til ham (aslida adabiy tilning so'nggi davrdagi) umumxalq tilining yuksak darajadagi rivojlangan oliy formasidir. Demak, har qanday adabiy til uchun qo'llaniladigan umumtillik xususiyatini nisbatan nisbiy holatda va ma'lum bir davr uchungina tushunish va qo'llash to'g'ridir. Adabiy til va uning me'yorlarini qo'llanishdagi majburiylik, ularga qat'iy rioya etishlik so'nggi davrlar tilida, aniqrog'i, milliy adabiy til shakllanishi bilan rasmiylashdi.

Demak, adabiy til va unga xos me'yoriy qoidalarga rioya etishning majburiyiligi, ilmiy adabiyotlarda qayd etilganidek, bir tilda so'zlashuvchilarning barchasi uchun adabiy til shaklining ma'qul bo'lganligi rasmiy ravishda tan olinganligida va qoidaga solingan me'yorlarning hamma uchun yagona ekanligidadir. Bu fikrlar o'zbek adabiy tili va uning me'yorlariga ham taalluqlidir.

Shu ma'noda o'zbek adabiy tili va uning me'yorlari bu tilda so'zlovchilar uchun yagona va majburiy sanaladi. Adabiy tilning me'yorlari maksimal turg'unlikka egaligi ma'lum. Chunki adabiy til doim taraqqiyotda, uning til materiallari tarixiy sharoitlar bilan bog'liq holda rivojlana boradi. Davrlar o'tishi bilan til qurilishida, jumladan, uning me'yorlarida, uslubiy ko'rinishlarida o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham til me'yorlari ma'lum bir davrdagina qisman turg'unidir, desak to'g'ri bo'ladi.

Yuqorida qayd etilganlardan quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

1) Tildagi uslublar til qurilishidagi (leksik-frazeologik, fonetik, grammatik va boshqa sohalar) materiallari asosida shakllanadi. Uslub so'zlovchining (og'zaki va yozma shakldagi) nutqi jarayonida barcha til materiallaridan tanlab, moslab foydalana olish mahorati, fikriy va modallik munosabatlarini ifodalash yo'lidir. Uslub xususiy va umumiylik ko'rinishiga ega bo'ladi. Uslubning xususiy va adabiy til doirasidagi umumiy shakli esa umumxalq tili doirasi bilan bog'liq bo'ladi. Umumustubda umumxalq tilidagi barcha imkoniyatlardan (dialektal, so'zlashuv, adabiy-badiiy va boshqalardan) foydalanish mumkin. Bunda uslubiy me'yorlar erkin qo'llanadi.

Xususiy uslubda esa til materialining ma'lum bir qismidan uslubning belgilangan me'yorlaridagina foydalaniladi. Jumladan, adabiy til uslubi va uslubiy me'yorlari xuddi shunday xarakterga ega.

2) Adabiy tilning o'zi nutqdagi uslubiy imkoniyatlardan biridir. Adabiy til uslublar tizimidan iborat. Demak, adabiy til bilan uslublar uzviy bog'liqdir. Adabiy me'yor bilan uslubiy me'yorlar haqida ham shu fikrlarni aytish mumkin.

3) Umuman olganda, adabiy me'yorlar ham umumtil doirasida ma'lum bir til qonuniyati sanaladi. Ular tilning umumiy me'yorlari asosida shakllanadi. Ammo, yuqorida ta'kidlanganidek, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ham inkor etib bo'lmaydi. Uslubiy me'yorlarning o'ziga xosligi shundaki, ularning adabiy tilga mos keladigan va mos kelmaydigan shakllari bor. Jumladan, adabiy til me'yorlariga mos keladigan

uslubiy me'yorlarga quyidagi funksional uslublarning me'yorlari kiradi: a) Ilmiy – fan uslubiy me'yorlari. b) Rasmiy – hujjatlar, maxsus ish yuritish uslubiga xos me'yor. v) Ijtimoiy sohalar (ishlab chiqarish va boshqalar) uslubiga xos me'yor. g) Ilmiy – ommabop uslubga xos me'yor kabilari.

Uslubiy me'yorlarning bu turlari adabiy til me'yorlariga mos keladi. Ularda adabiy til me'yorlaridagidek turg'unlik va majburiylik qoidasiga rioya qilinadi.

Uslubning boshqa turlaridagi me'yorlar (jumladan: a) badiiy; b) so'zlashuv; d) notiqlik; e) norasmiy yozishmalar-maktublar uslublari me'yorlari) adabiy til me'yorlaridan farq qiladi. Bu uslublarda qo'llanuvchi til vositalari adabiy til me'yoriy talablariga javob bera olmaydi. Ularda umumtil me'yorlariga xos vositalar ham qo'llaniladi. Bu jihatdan (og'zaki va yozma) nutq uslubida til materialidan foydalanishga keng imkoniyat, erkinlik mavjud bo'ladi. Demak, uslubiy me'yorlar ikki xil bo'ladi, ya'ni: a) adabiy til me'yorlariga mos kela oladigan turg'un uslubiy me'yorlar; b) adabiy til me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan erkin uslubiy me'yorlar kabi.

BIRINCHI BOB

QADIMGI MANBALAR AJDODLARIMIZ HAQIDA

(Antik davri)

Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi (antik) davrlardagi etnik qatlam (ajdod)larini, ularning shakllanishiga asos bo'lgan qabila va urug'larini, yashash va tarqalish yerlarini aniqlash, umuman, ularning o'tmish tarixini o'rganish, tadqiq etish o'zbek tili tarixi uchun ham muhim masalalardan biridir. Bu borada jahon ilm-fanida, antik davr olimlaridan tortib yangi davr turkshunoslarigacha qator ilmiy-tadqiqot ishlari, arxeologik, folklor va dialektologik, o'lkashunoslik va sharqshunoslik hamda tarixiy-etnografik izlanishlar olib borishgani ma'lum. Bunday ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar va tarixiy manbalar shundan dalolat bermoqdaki, Markaziy Osiyo va Qozog'iston xalqlari boshqa ko'pgina etnoslar kabi

ancha chigal va murakkab tarixiy taraqqiyot jarayonini boshdan kechirishgan. Bu tarixiy jarayon eradan avvalgi davrlardan to milodiy X–XV asrlargacha davom etgan. Bu davrlarda Markaziy Osiyo, Qozog‘istonning hududlarida yashagan qabila va urug‘larning (o‘tmish davrlardagi shart-sharoitlar bilan bog‘liq holda o‘ziga xos) birliklari, qabila ittifoqlari, hududiy davlat chegaralari vujudga kelgan. Bu birliklar ma‘lum bir davrlarda ajralib, yana qo‘shilib turgan yoki yiriklashib va bo‘linib ketgan. Natijada, qabila va urug‘larning yashash joylari o‘zgarib, bir-birlarining yerlariga o‘tib yashab, aralashib ketishiga sabab bo‘lgan. Ularning urf-odatlarini, diniy e‘tiqodlarini, kiyinish va turmush tarzi, tillari ham bir-biriga yaqin bo‘lgan, o‘xshab ketgan, hatto tamoman o‘zgargan. Bunday xususiyatlar ularning xarakteri, antropologik tuzilishlariga ham ta‘sir etgan. Shuning uchun ham ilmiy-tarixiy manbalarda nomi tilga olingan har bir qabila-urug‘ning o‘tmishi, shakllanishi va rivojlanishi, taraqqiyot tarixi bor. Lekin, ularni alohida bir xalqning o‘tmish tarixi sifatida bir-biridan ajratib bo‘lmaydi, balki o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish mumkin.

Tarixiy-ilmiy manbalarning ko‘pchiligida miloddan avvalgi davrlarda Markaziy Osiyo yerlarida skif, sak(shak), massaget, sug‘d, xorazm va dak kabi qator urug‘ va qabilalar hamda ularning ittifoqlari mavjud bo‘lganligi, ularning ko‘chmanchi bir qismi Osiyoning ko‘pgina hududlarida, Kavkaz va Yevropa yerlarida, Azov dengizi atroflarida va boshqa joylardagi (qardosh bo‘lmagan) qabila va urug‘lar bilan aralash holda yashab kelganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar beriladi. Ammo barcha joylardagi qardosh qabilalar o‘rtasidagi aloqa-munosabatlar doimiy bo‘lgan. Demak, antik davrdagi ajdodlar haqida fikr yuritishda xuddi ana shu hodisani har tomonlama hisobga olgan holda, unga to‘g‘ri va haqiqat nuqtai nazaridan yondashish lozimdir. Aks holda, qo‘pol xatoliklarga yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Olimlarimizdan F.Boynazarov «Tojiklar» kitobining muallifi Bobojon G‘afurovning xuddi shu kamchilikka yo‘l qo‘yganligini haqli ravishda tanqid qilgan (16/99-bet). Darhaqiqat, Markaziy Osiyodagi barcha yutuq hamda yuksalishlarning tepasida birgina xalq turishiga ishora qilish xatolikdir. Masalaga bunday yondashish boshqa xalqlarni kamsitishga olib

keladi. Miloddan avvalgi, ya‘ni qadimgi (antik) davrda O‘rta va Markaziy Osiyoda yashagan barcha qabila va urug‘larning hozir qaysi millatga tegishli ekanligini aniqlash qiyin. Chunki, o‘sha davrdagi biror- bir qabila tiliga xos yozma yodgorlik yetib kelmagan. Agar qabila tili materiali aks etgan yozma yodgorlik yetib kelganda edi, uning hozirgi millatlardan birortasiga daxldorligini aniqlash mumkin bo‘lardi. Tarixiy manbalarda esa qabilalar va urug‘larning yashash yerlari, urf-odatlarini, ular tillarining bir-biriga o‘xshashligi, yaqinligi yoki qardoshligi haqidagina ma‘lumotlar beriladi. Hatto, tilga olinadigan tarixiy shaxslar ham biror-bir millatga tegishli ekanligini aniqlash qiyin. Balki, manbalarda aks etgan tarixiy voqealar va shaxslar Markaziy Osiyo va boshqa yerdagi xalqlarga ham (umumiy) xos deb qaralishi lozim bo‘ladi. Bularni falon millatga tegishli, deb bo‘lmaydi (16/99-bet). Lekin har qaysi millat o‘ziga o‘xshash tomonlariga qarab, antik davr ma‘lumotlarini o‘z ajdodlari tarixi sifatida o‘rganishga haqlidir.

Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, yurtimizning o‘tmish ajdodlari va ularning tarixiy shakllanishi, taraqqiyoti davrlari haqida fikr yuritishda o‘tmishda chuqur iz qoldirgan «Avesto», ahmoniyalar davrlari, ayniqsa, Aleksandr Makedonskiy yurishlari, Xun yoki Turk xoqonliklari, arablar hukmronligi, mo‘g‘ullar, qoraxoniylar, temuriylar sulolalari kabi tarixiy davrlardagi voqealarni, qabila va urug‘larning o‘rni-mavqei, tili va ma‘naviy yodgorliklarni xolisona o‘rganish lozim. Ma‘lumki, Markaziy Osiyo xalqlarining miloddan avvalgi davrlari tarixini o‘rganishda grek-yunon olimlaridan Gerodotning 9 kitobdan iborat «Tarix», Kvint Kursiya Rufning «Aleksandr Makedonskiy tarixi», Plutarxning «Qo‘shaloq hayotnomalar», Arianning «Aleksandrning yurishi», Diodorning «Aleksandr», Polienning «Harbiy hiylalar», Strabonning «Jug‘rofiya», Pompey Trog va Yustinning «Tarixiy kundaliklar» kabi asarlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bular haqida o‘zbek olimlaridan F.Boynazarovning «O‘rta Osiyoning antik davri tarixi», A.Sa‘dullayevning «O‘zbekiston ilk yozma manbalarda», F.Sulaymonovanning «Sharq va g‘arb» kabi qator asarlarda ma‘lumotlar berilgan. Ularda Markaziy Osiyodagi hozirgi o‘zbek, qirg‘iz, qozoq, turkman, tojik va

boshqa xalqlarning o'ziga xos antik davri, tarixi borligi yunon adiblarining asarlari orqali ishonarli tarzda tahlil etib beriladi. Bu xalqlarning antik davri hozirgacha deyarli o'rganilmaganligi sababli bu haqda fanda nohaq fikrlar mavjud. Xuddi shu nuqtai nazardan olimlarning ushbu kitoblari bu sohadagi dastlabki ishlardan biri sanalib, xalqimizning antik davrini yanada chuqurroq o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu adabiyotlarda qadimgi grek-yunon yozma manbalari asosida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borgan Yevropa sharqshunoslari asarlaridagi qimmatli ma'lumotlar ham tahlil etilgan. Jumladan, V.V.Latishev, V.N.Dyakov, M.M.Lyutov, M.Mendes, I.Ya.Timoshenko, L.V.Ditmar kabi qator olimlarning skiflar va boshqa urug'-qabilalar haqidagi fikr-mulohazalari talqin etilgan.

Grek-yunon yozma manbalarida antik davr qabila-urug'lari haqidagi ba'zi ma'lumotlar, aynan o'sha davr kishilari tilidan yozib olingan hikoyalar sifatida bayon etiladi. Grek adabiyotida skiflar haqidagi hikoyalar ko'p bo'lib, Markaziy Osiyo adabiyotida keng tarqalgan Odam Ato yoki Nuh payg'ambar va uning o'g'illari haqidagi an'anaviy hikoyalarga o'xshab ketadi (16). Shu kabi grek-yunon manbalarida Markaziy Osiyo adabiyotida keng tarqalgan To'maris va Shiroq haqidagi tarixiy hikoyalarga ham alohida o'rin berilib, ularni tarixiy voqealar, undagi nomlar esa tarixiy shaxslar sifatida talqin etiladi. Eng muhimi, Gerodot o'sha davr qabila-urug'lari, ayniqsa, skiflar haqidagi asosiy fikr-mulohazalarini o'z ko'zi bilan ko'rgan ma'lumotlar asosida yozgan, deb qaraladi. Ma'lum bo'lishicha, Gerodot eramizgacha bo'lgan VI asrda Markaziy Osiyodagi Girkoniya, Baqtriya, Sug'diyona, Marg'iyona, Xorazm o'lkalarida sak (shak), massaget, oriy, sug'd, dak, xorazm qabilalari va ularga tegishli urug'lar yoki qardosh urug'lar vakillari bilan uchrashgan. Chunonchi, oriylar Afg'onistonda; dak va xorazm qabilalari Xorazm va Turkmanistonda, Kaspiy bo'ylarida; sug'd va saklar Zarafshon (Politament) daryosi sohillarida va Tyan-Shan tog'ining g'arbiy etaklarida yashaganlar. Ularning yashash sharoiti, urf-odati, kiyinishi, yurish-turishi, tillari bir-biriga yaqin bo'lgan, o'zaro munosabatda bir-birini tushunishgan, aralash holda ham

yashashgan, ko'pincha ularni umumiy nom bilan skiflar deb atashgan.

Tarixiy haqiqat hisoblangan ma'lumotlar boshqa olimlarning asarlarida ham qayd etilgan. Chunonchi, yunon olimi Kvint Kurs Rufning «Aleksandr Makedonskiy tarixi» asarida Gerodot aytgan ma'lumotlar tasdiqlangan. Ayniqsa, Kurs Ruf miloddan avvalgi IV–III asrlardagi Markaziy Osiyo, jumladan, Sug'diyona, aniqrog'i, ikki daryo (Oks — Amu va Yaksart — Sir) oralig'idagi qabila va urug'lar hayoti va u yerlardagi tarixiy voqealar haqida keng ma'lumotlar beradi. U **skif-ambiy, sak(shak), massaget, parapamisod, armasplar-everget, branxid memaken** kabi qabilalarning Oks(Amu), Yaksart(Sir) daryolari atrofiga yoki oralig'ida va Politimet (Zarafshon) vohasida yashab kelganligi, ular Spitamen boshchiligida grek-yunon sarkardasi Aleksandr Makedonskiy qo'shinlariga qaqshatqich zarbalar berib, qarshilik ko'rsatganligini haqqoniy ravishda ta'riflagan.

Xullas, yuqorida tilga olingan grek-yunon tarixnavislari asarlarida Markaziy Osiyodagi qabila va urug'lar hamda ular bilan bog'liq bo'lgan boshqa yerdagi qabila va urug'lar haqida juda ko'p tarixiy ma'lumotlar bor. Chunonchi, yunon manbalarida birgina Markaziy Osiyo yerlarida o'ttizdan ortiq qabila va urug'lar yashaganligi qayd etilgan. **Skif, sak (shak), massaget, dak(dax yoki day/deya), sug'd, xorazmiy, atosiy, obiy, ombiy, eya(yeya), oriy, mamaken, topur, durang, mard, parapamisod, godros, ariosepam, poliperxont, parstak, gab, asiya, pasiya, tohar, sakapov, aroxat, baqtar, pomadov** kabilalar shular jumlasidandir. Qayd etilgan qabila va urug'larning avlodlari sifatida turli yerlarda ko'chib joylashib qolganlari ham skif, sak, massaget, day (deya) nomlari bilan atalishidan tashqari, yana boshqacha atamalar bilan nomlangan. **Amazonka, gab, day, mossin, kimiriy, treram yoki troyam, sartmat yoki saramat, avxatov, katiaram, traspiyam, paralamat yoki sokolot** kabi qabila-urug'lar skif avlodlari sifatida tilga olinadi.

Shuningdek, **androfa, melion, budin, gelon, tissaget, eirk, argippey, grif, amard, apariyaliklar, kalus, alban, kaspiriy, darbik, madiyk, matianamlar** kabi juda ko'p qabila va urug'lar nomlari qayd etilganki, ular bilan, yuqorida qayd etilgan qabilalar, ayniqsa, skiflar o'zaro aloqa-munosabatda bo'lishgan.

Ta'kidlash lozimki, grek-yunon tarixiy manbalarida qayd etilgan antik davrlardagi Osiyo, (ayniqsa, Markaziy Osiyoda yashagan skiflar) qisman Yevropa — Sibir (Ural — Oltoy) yerlariga tarqalgan skif va ularning avlodlari haqidagi ma'lumotlar qay darajada to'g'riligini aniqlash uchun yana boshqa tarixiy yozma manbalarni o'rganish va tadqiq etish lozim bo'ladi. Chunki ushbu qabila va urug' nomlarining ba'zilari badiiy adabiyotlarda afsonaviy elatlar vakillari sifatida ham qayd etiladi. Jumladan, grek-yunonlarning antik davr haqidagi yuqorida qayd etilgan asarlarini ham, asosan, tarixiy-badiiy asarlar jumlasiga kiritish mumkin. Shunga qaramay, ulardagi tarixiy voqealar va qabila-urug'larning anchagina qismi boshqa tarixiy manbalarda ham hozirgi xalqlarning etnik qatlamlari, ajdodlari sifatida qayd etiladi. Bu jihatdan yunon manbalari ularga nisbatan qadimiyligi bilan ajralib turadi. Markaziy Osiyoning o'ziga xos antik (miloddan avvalgi) davrlari borligini sinchiklab o'rgangan sharqshunoslardan A.B.Ditmar, V.N.Dyakov kabilar skiflarning asosiy vatani, tarqalgan joyi Markaziy Osiyo ekanligini qayd etganlar. Ular grek-yunon manbalarini sinchiklab o'rganish natijasida aniq ma'lumotga ega bo'lib, ajdodlarimizning o'ziga xos antik davrlari haqida xolisona va to'g'ri fikr yuritganlar. V.N.Dyakov Gerodot va boshqa antik olimlarning asarlari asosida: «Skiflar O'rta Osiyodan tarqalgan, ularning tili Shimoliy Eron gruppasiga yaqin edi. Ularning ona tillari O'rta Osiyoda yashovchi sak va massaget qabilalarinikiga o'xshash bo'lgan» (16/11-bet), degan fikrni aytgan.

Ayniqsa, Gerodot tomonidan keltirilgan ma'lumotlar boshqa tarixchilarga alohida ta'sir ko'rsatgan. Gerodot ijodida ba'zan mifologik xarakterdagi hikoyalarga ham o'rin berilganligidan qat'i nazar, uning o'sha davr voqealarini o'z ko'zi bilan ko'rib va eshitib qalamga olganligi, yolg'on-yashiq, soxta ma'lumotlar bilan ish ko'rmaganligi, tarixiy haqiqatni aniq va real tasvirlashga harakat qilganligi ko'pchilik tarixchilar tomonidan ta'kidlanadi. Shuning uchun Gerodotdan keyingi olimlarning ko'pchiligi uning asariga ko'proq tayanganlar.

Skiflarning ikki shohligi (davlati) bo'lib, ularga Pal va Nap deb ataluvchi elatlar bo'ysungan. Skiflar asta-sekin

ko'payib, ularning sak, massaget, armasplar nomli avlodlari paydo bo'lgan (16/340-bet). Yustinning «Pompey Trog epitomi» asarida «hatto parfiyaliklar tili midiyaliklar bilan skiflar tilining aralashmasidan iborat edi», deb ta'kidlaganidan ham sezilib turibdiki, skiflarning ta'siri Parfiya, Midiya va Girkoniya yerlarida kuchli bo'lgan¹.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, skif va unga tegishli qabilalar va urug'lar Markaziy Osiyodagi xalqlarning, jumladan, o'zbek xalqining ham o'tmish ajdodlaridir. Chunki turkiy qabila va urug'lar ham o'sha qabilalar aralashmasi asosida shakllangan. O'tmishdagi (antik davrda ham) turkiy qabila-elatlar ajdodlari Markaziy Osiyo, aniqrog'i, hozirgi O'zbekiston yerlarining tub aholisi sifatida azaldan yashaganlar. Chunonchi, «turkiy-o'zbek xalqining ajdodlari allaqayoqlardan (Yevropa, Sibir yoki Osiyo, Xitoy, Mo'g'uliston kabi yerlaridan) ko'chib kelgan», degan g'ayriilmiiy fikrlar, farazlarga manbalarda haqli ravishda e'tiroz bildirilgan (16). Aksincha, turkiy qabilalar Markaziy Osiyodan o'zga yerlarga ko'chib tarqalishgan...

Tarixiy yozma manbalar ushbu fikrni tasdiqlashi mumkin. To'g'ri, qayd etganimizdek, qabila va urug'lar orasidagi ko'chmanchi qismlari Sharqdan G'arbga, G'arbdan Sharqqa va Shimoldan Janubga, Janubdan Shimolga tomon o'zlarining turmush tarziga mos keladigan yerlarga ko'chib, yashash joylarini tez-tez o'zgartirib yurganlar. Ammo ularning asosiy tub qismi azaliy yashash joylarini o'zgartirmay, nisbatan turg'un holda yashab kelganlari haqidagi fikrni ko'pchilik manbalar tasdiqlaydi. Demak, ko'chmanchilar bilan turg'un qabila-urug'larning o'zaro aloqa-munosabatlari asrlar davomida uzilib ketmagan. Ular tarixiy voqealar, shart-sharoit taqozosi bilan o'zlarining azaliy yerlariga necha martalab qaytib kelganliklari tarixiy faktdir. Buni qadimgi Midiya, Ahmoniyalar davlatlari, ayniqsa, Baqtriya, Qang, Eftalit, Xorazm, Sug'diyona, Kushon davlatlaridagi tarixiy voqealar, jumladan, Spitamenning greklarga qarshi kurashlari va

¹Skif va ularning avlodlari til jihatdan o'xshash yoki yaqinligi haqida F.Boynazarovning qayd etilgan asarining 32, 98, 151, 273, 274, 309, 313 sahifalarida ma'lumotlar berilgan.

qabilalarning bu voqealarga munosabatlari to'liq tasdiqlaydi. Umuman, xronologik jihatdan qaraganda bu kabi qadimiy ma'lumotlar mil.av. IX—VIII va VII—IV asrlarga to'g'ri keladi.

Umuman, qayd etilgan barcha qabila va urug'lar hozirgi o'zbek, qirg'iz, turkman, turk, uyg'ur, tojik va boshqa bir qancha xalqlarning shakllanishiga asos bo'lganlar. Bu qabila-urug'larning nomlari va tillari davrlar o'tishi bilan o'zgarib ketgan. Shuning uchun endilikda ularning dastlabki holatini tiklash yoki aniqlash qiyin. Shuningdek, Markaziy Osiyo yerlaridagi hozirgi xalqlarning tub ajdodlari biror boshqa yerdan ko'chib kelgan, degan fikrlar tarixiy haqiqatga to'liq mos keladi, deb bo'lmaydi. Balki, tarixiy voqealar jarayoni grek-yunon, Misr, umuman, Osiyo va Yevropa xalqlariga xos irqiy xususiyatlarning aralashib ketishi bilan bog'lab xulosa qilinsa, to'g'riroq bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, Markaziy Osiyoda azaldan o'troq, yarim o'troq holda shakllangan tub aholiga, bulardan ajralib ketgan ko'chmanchi avlodlari shimoliy-sharqiy tomondan Tyan-Shan va Oloy qabilalarining, sharqdan sak-sarmat ko'chma guruhlarining, janubdan dehqonchilik bilan shug'ullanib kelayotgan qabilalarning aralash etnik guruhlar bilan qayta kelib qo'shilishidan (mongoloid, yevropoid irqilar) qurama turlarning paydo bo'lishiga olib kelgan (18/63-bet). Grek-yunon manbalaridan ham eramizdan avvalgi davrlardayoq hozirgi o'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman xalqlarining etnik qatlamida irqiy chatishmalar mavjudligini sezish mumkin. Hozirgi arxeologik tadqiqotlar ham bu fikrni to'liq tasdiqlamoqda. Yunon mamlakatlaridagi tilga olingan qabila va urug' tillari, hatto nomlari so'nggi davr manbalarida deyarli o'zgarib ketgan. Xitoy, arab, O'rta Osiyoning milodiy manbalarida esa ular boshqa nomlar bilan atalganini ko'ramiz.

Milodning boshidan bizgacha yetib kelgan yozma manbalardan ma'lum bo'ladiki, asta-sekin Markaziy Osiyodagi qardosh qabilalar birlashmalarining alohida yozuvlari yaratilib, o'ziga xos tillarida bitilgan yozma yodgorliklari yuzaga kela boshlagan. Bu haqda so'nggi davr olimlarining tadqiqotlarida ham anchagina ma'lumotlar bor.

Markaziy Osiyo, jumladan, hozirgi O'zbekiston yerlarida tub aholisi sifatida **sug'd, xorazmiy, skif, sak, massaget qabilalari** bilan birgalikda **apasaik, augasiy, ombiy(obi)** kabi qabilalar yashaganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. So'nggi davr olimlari xuddi ana shu qabilalar turkiy elatlarning dastlabki etnogenezisiga asos bo'lgan, deb qaraydilar. Chunonchi, o'z yeridan tarqalib ketgan ko'chmanchi qabila va urug'lar «1 ming yillikning o'rtalarida ketma-ket ko'chib kela boshlashgan. Xunlar, oq xunlar, xionitlar, yuechji-efalitlar, pachanaklar (yoki bajanaklar)¹ va boshqa elatlarning ko'plab kelishi shular jumlasidandir. Bularning aksariyati qadimgi turkiy tilda so'zlashgan. Ular orasida qadimdan hozirgi O'zbekiston yerlarida yashab kelgan va bu hududning tub aholisidan biri hisoblangan **apasaik, augasiylar** deb nomlangan qadimiy turk elatlari ham bo'lgan. Ayrim tadqiqotchilar taxminiga ko'ra, **augasiylar** keyinchalik «O'g'uz» nomi bilan mashhur turk elatiga asos bo'lgan (18/14-bet). Shunga ko'ra bu davrda Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda turkiy qabila-elatlarning ilk (birinchi) etnik guruhi yoki qatlami shakllangan, deyish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qadimiy Baqtriya va Xorazmda yashagan hozirgi tojik, o'zbek va qisman turkmanlarning ajdodlari asosan eroniy tillarning sharqiy shoxobchasi (bu tillar hozirgi eron tilidan farqlangan — *U.S.*) va qisman turkiylashgan sak yoki skif tillarida gapirishgan.

Ma'lumki, sak turklarining «Buzkir davlati» milliy tariximizning ilk bosqichlaridan sanaladi. Alp Er Tunga (Afrosiyob) nomli turkiy xoqon asos solgan bu davlat haqidagi tarixiy manbalar juda oz o'rganilgan. «Buzkir davlati» Afrosiyob davrida Movarounnahrda sak-massaget turklari, sug'd, xorazmiylar kabi urug' va qabilalar birlashmasidan tashkil topgan Markaziy Osiyodagi katta obro'ga ega bo'lgan davlatlardan biri sanalgan. Bu davlat miloddan oldingi 626-yilning kuzida Afrosiyobning o'ldirilishi bilan inqirozga

¹ Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asarida «Bajanak»lar Runga yaqin turuvchi turkiy qabila deb ta'kidlangan (1t.450-bet).

uchragan(19/4-bet). Bu davlatda sak qabilalari ustun bo'lib, ularning bayrog'ida bo'ri rasmi (ramzi) solingan bo'lgan. Forslar bo'rini sak, Xitoy manbalarida esa shan nomi bilan atashgan. Sak so'zining etimologik ma'nosi haqida F.Sulaymonovning «Sharq va g'arb» kitobida yaxshi ma'lumotlar berilgan (16).

Milodgacha VIII–IV asrlarda hozirgi O'rta Osiyo va Qozog'iston hududidagi skiflarni saklar (umuman, barcha qabilalarni sak (19) nomi bilan yuritganlar.

Milodgacha II ming yillikdan milodiy besh yuz yilliklar orasida Arshakiylar davlati mavjud bo'lgan. Bu davlat tarkibiga hozirgi Sharqiy Eron, Turkmaniston, Turkiya (Anatoliya) yerlari kirgan. Arshakiy (turkcha «er» — ar-er ya'ni mard, jasur, bahodir va forsiy «shak» — (sak so'zlaridan tashkil topgan)lar davlati Kaspiy dengizining janubi-sharqidagi «day» qabilalari aralashmasidan (imi, imak, tatar, bayandir, qipchoq va island kabi urug'lar birlashmasidan) tashkil topgan. Saklar arshakiylar davlatida o'rtnashib, yuqori Dosla, Aras, Churux va Qur daryolari bo'yida vatan qilib, milodgacha 452–429-yillarda kichik arshakiylar davlatini barpo etganlar. U keyinchalik qudratli sak(iskit) davlatiga aylangan (19/9-10-betlar).

Yevropa olimlarining ta'kidlashlaricha, milodgacha VII asrlarda sak-iskitlarning Kenagas-Kengaras davlati yuzaga kelgan (20/161-178-betlar, 19/11-bet). Bu qabilaning milodiy V asrdagi saltanati Samarqand, Kesh, Kushon, Toshkent, Buxoro va Xorazm hududlarini o'z hukmronligiga olgan. Bu davlatda turk xoqonligidek Ko'k tangriga sig'inib, turkiy yozuvi qo'llangan. **U kenagas (kengaras), qangli, qipchoq, bajanak, qarluq, o'g'uz** kabi urug'lar birlashmasidan tashkil topgan edi. Umuman, sak-massaget qabilalari birikmasiga quyidagi elatlar kirgan: qadimgi Sirdaryo havzasida, Amudaryoning sharqiy o'zanlari bo'yida va Qoraqumda yashovchi apasiaklar, Sirdaryo o'rta oqimida joylashgan daxatuxarlar, taxminan, Zarafshonning quyi qismi va Amudaryoning o'rta oqimida yashagan derbiklar, Nurota tog'larida o'rtnashgan sakarvaklar; Sirdaryoning o'rta oqimidan Tyan-Shangacha cho'zilgan hududda usunlar, antik davrlarda xorazmiylar ham kirgan.

Yunon va Rim manbalarida ushbu qabilalarning saklar deb umumiy nomlanganligi ularning til jihatdan bir etnik jarayon bilan bog'liq ekanligini tasdiqlaydi. Vohadagi elatlar saklar (skiflar-*U.S.*) bilan deyarli bir tilda gapirishgan. Shu sababli Strabon xorazmiylarni sak-massagetlar avlodiga kiritganligi bejiz emas (18/60-bet). Shuningdek, sug'd va baqtar qabilalarining ham umumiy yaqinligi bo'lganligi sababli bir qismining tillari so'nggi davrlarda turkiylashib ketgan.

Darhaqiqat, taxminan, miloddan avvalgi birinchi ming yillik oxirida hozirgi O'zbekiston hududida azaldan yashab kelgan tub va o'troq turkiy qabilalar safi ancha kengaydi. Milodiy I–II asrlarda Sirdaryoning o'rta qismida va shimolidagi aholining asosiy qismi turkiylashgan edi. Bu hududlarda mahalliy sug'd tilida gapiradigan qabilalar bilan turkiy qabilalar aralashmasidan qangli deb atalgan turkiy tilda gaplashuvchi etnoslar yuzaga kelgan. Ehtimol, aholisi har xil qabila-urug'lardan tarkib topgan Farg'ona vodiysida ham I asrlarda ko'chmanchi turkiy usun, gunn, xunu va xoshta qabilalarining kelib o'troqlashuvi bilan turkiylashish kuchaygan. Ayniqsa, Qang davlati davrida ko'p turkiy qabila va urug'lar jipslashib, o'troq holatga o'ta boshlagan. Ko'chmanchi turkiy qabilalar birlashib, yirik qabila ittifoqlarini tuza boshlaganlar. Sug'diyonaning dashtlaridagi ko'chmanchi xunlar hozirgi Qashqadaryo, Surxondaryo va Eron chegaralarigacha bo'lgan yerlardagi yaylovlarni egallab oladilar. Bu birikma yoki ittifoq tarkibi turkiy xun, qipchoq, uyg'ur, tirkash kabi qabilalardan tashkil topgan bo'lib, ular ham Movarounnahrda keyin kelib qo'shilgan, asli Markaziy Osiyo qabilalaridan sanaladi. Xuddi shunday, Sharqdan ham tarkibi har xil bo'lgan sak-sarmat qabilalari ko'chib kelib aralashib ketganlar.

Ba'zi manbalarda yozilishicha, Oltoy oilasining turkiy guruhiga kirgan ko'chmanchi xunlar miloddan avvalgi II–I asrlarda Sirdaryo va Yettisuv yerlarida o'troqlasha boshlagach, turkiy tilning ta'siri yanada oshdi. Keyinchalik turkiy tilda so'zlashuvchi sug'dlarning bir qismi va qango'y, kushon, eftalitlar turk xoqonligi yerlaridagi turkiy qabilalar bilan aralashib ketadilar.

Sug'dlar Baqtriya — Movarounnahr yerlarida yashab, o'ziga xos tiliga, yozuviga ega bo'lgan qabila ittifoqi sanalgan. Uning

bir necha shevalari bo'lgan. Sug'd tilida Zarafshon vohasi, Qashqadaryo va Usrushon (Samarqand bilan Xo'jand viloyatlari oralig'idagi) hududlari, qisman Farg'ona vodiysi hamda Choch (Toshkent) aholisi gaplashgan (18/69-70-betlar). Turkiy qabilalar orasida mavjud bo'lgan qadimgi yozuv, jumladan, sug'diy yozuvlar keng qo'llanilgan. Bu tilning o'ziga xos ko'rinishi IV–IX asrlar oralig'igacha mavjud bo'lgan¹.

XI asr tilshunos olimi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida qayd etilishicha, **turklashgan sug'd-(sug'dak)**larning bir qismi o'z tillarida ham so'zlashganlar (I tom, 66-bet). Qayd etganimizdek, bu tilda so'zlashuvchi aholi xorazmiylardek milodiy asrdan boshlab turkiylasha bo'rib, so'nggi davrlarda ularning ko'pchiligi turkiy qabilalar bilan aralashib ketgan. Jumladan, qadimdan o'ziga xos til sifatida mavjud bo'lgan xorazm tili turkiy-o'g'uz shevasiga qo'shilib ketgan.

Manbalarda qayd etilishicha, kushonlar miloddan avvalgi II asrda Sharqiy Turkistonda yashagan katta yuechjilarning besh urug'idan tashkil topgan qabila ittifoqi edi. Miloddan avvalgi I asrda Toharistonda kushonlar davlati (Sug'diyonadagi Kattaqo'rg'on hududida dastavval uning poytaxti bo'lgan, keyinchalik poytaxt Hindistondagi Peshovar shahriga ko'chgan) (22/37-bet) vujudga keladi. Kushon qabilasi asosan turkiy tilda gaplashgan. Xitoy manbalarida massagetlar «katta yuechji» nomi bilan atalgan (18/67-bet). Demak, kushonlar turkiylashgan yoki turkiy tilda gaplashuvchi massagetlardan sanaladi.

V asrning o'rtalarida eftalitlar davlati tashkil topgan. Ko'pgina tarixiy manbalarda bu ittifoq turkiy etnik birlashmalar bilan aralashgan Markaziy Osiyo qabilalari, ayniqsa, miloddan avvalgi I asr bilan milodiy IV asr o'rtalarida xun qabilalari negizida vujudga kelgan, aslida sak-massagetlar avlodi, deb qaraladi (22/41-bet). Shuning uchun ham eftalitlar davlati tarkibidagi qabilalar birlashmasi — ittifoqi Markaziy Osiyodagi

¹Massaget va shaklar o'rtasida tarqoq holda yashagan sug'dlarni arxeolog O.I.Smironova turkiy tilda so'zlashganlar, degan xulosaga kelgan (23/110-bet).

hozirgi xalqlarning, jumladan, o'zbek xalqining ham etnogenezi va tarixida muhim rol o'ynagan. Tarixiy manbalardan yana shu narsa ma'lumki, Xorazm qabilalarining antik davrlarda ham ancha birikkan ittifoqlari bo'lgan. Miloddan avvalgi II ming yillikning oxiri, I ming yillikning boshlarida Baqtriya, Sug'd, Xorazm yirik quldorlik davlatlari sanalgan (22/21-bet, 23/34-bet).

Ko'pgina manbalarda qadimgi xorazmliklar tili Sharqiy Eron hududidagi qabilalar tili guruhiga yaqin, deb ta'kidlanadi. Eronning qadimiy qabilasi elamitlar deb atalgan bo'lib, ular qadimda elamtu tilidan, keyinchalik oromey tilidan, forslar (ahmoniyalar) davrida esa fors tilidan foydalanganlar (23/44-bet). Ammo qadimgi Xorazm tilining fonetik, grammatik tuzilishi va leksikasiga qaraganda Sharqiy eroniy tillar guruhidan o'ziga xosligi bilan ajralib turgan. U asosan, sug'd, o'g'uz, (ayniqsa, sak-massaget — *U.S.*) tillari oralig'idagi mustaqil til bo'lgan (18/70-bet). Qadimgi sug'd¹ va Xorazm tillari IV–VII asrlardayoq turkiylashib keta boshlagan bo'lsa-da, ularning qadimgi tillari haqida ma'lumot beruvchi ba'zi yozma manbalar bizgacha yetib kelgan. Ulardan anglashilishicha sug'diy va xorazmiy yozuvlari va ularning tillari qisman VII–X asrlargacha qo'llanilganligi, ba'zi manbalarda hatto XI–XII asrlarda ham mavjudligi qayd etiladi (60, 18/70-bet). Tarixiy manbalarda yozilishicha, miloddan avvalgi III asrda turkiy qabilalarining Xun harbiy qabilaviy ittifoqi vujudga kelgan. Uning tarkibiga 24 ta qabila birlashgan. Bu qabila birlashmasi davlat sifatida O'g'uzxon (er. avv. 209–174) davrida eng yuqori darajada gullab-yashnagan. O'g'uzxon Mo'g'ulistondan to Hindistongacha hududlarni, 375-yilda Don daryosidan o'tib, o'sha davrlarda Yevropa mamlakatlarini talon-toroj qilib yurgan got qabilalari hududini bosib oladi. Karpat tog'lari, Kavkazdagi alanlar (hozirgi Ozarbayjon, Osetin) yerlarini egallaydi. So'ng ikki daryo oralig'i hamda Kichik Osiyo tomon

¹VI asrlarda sug'dak (turklashgan sug'd)lar Shimoliy Shensida 6 ta viloyatda yashaganlar. Kultigin bitigidagi «olti chub sog'dak» tarzida uchraydi /chub-chjoy/ xitoycha viloyat demakdir (21/ 118-6er, 76-izoh).

o'tadi. 445-yilda Atilla xonligi nomi bilan mashhur bo'lgan xunlar Sharqiy Rum va G'arbiy Yevropa yerlarini o'ziga bo'ysundirgan (24/12–13-betlar).

Ma'lumki, deyarli barcha tarixiy manbalarda xunlar turkiy tilda so'zlashuvchi qabilalardan, turklar esa xunlarning avlodlaridan biri sifatida talqin etiladi. G'arb tarixchilari turklarni skiflar yoki ularga yaqin urug'lardan biri, deb qaraydilar (24/13-bet). Jumladan, XIX asr olimi Hasan Ato Abushiyning yozishicha, yunon va eron manbalari asosida iskitlar turklardir, ular iskulut yoki iskiplar nomi bilan Turkiston, Yoyiq, O'rol sohillari, O'rol tog'lari, Visla va Edil-Dunay daryolariga qadar, Yevropa janubi-sharqiy sahrolari, Qora va Ozoq(Azov) dengizlari shimollari, Kavkaz tog'lari, Shimoliy Hazar kabi juda ko'p hududlarda tarqalganlar. Bu qavmga fin urug'lari ham kirgan. Ular ham turkiy urug'larga qardosh bo'lganlar. Turkiy qabila va urug'lar turli hududlarda yashab kelganlaridek, ularning nomlari ham turlicha atalgan. Masalan, yunonlar «iskit, iski», fransuzlar «sikt», ruslar «iskif» (skif) va ba'zilar «sok» (sak). Shu kabi eroniy qavmlari esa «turoniy» deb, yashash yerini esa «Turon zamin» deb ataganlar (25/20,38,45-46-betlar).

Hasan Ato Abushiy yana quyidagilarni yozgan: «Turkiy urug'lar qavmi Turoniyaning (qadimgi Turkiston yerlarining-U.S.) qabilaboshi va juda eski va ulug' shu'basidir... Turkiy xalq (qabilasi) bu yerlarning eng eski xalqlari (elatlari) va xo'jalari edi. Garchi bu o'rinlardan — janubi-g'arbdan oriylar, shimoldan finlar ko'chib o'tgan bo'lsalar-da, tarixiy ma'lumotlar bu yerlarda turkiy qavm ajdodlari yashaganligini tasdiqlaydi, shu sababli ular ul yerlarning xojalari — yerli xalqi (mahalliy aholisi-U.S.) hisoblanadilar». Olimning ta'kidlashicha, «nemis olimi Fridrix Myuller Turoniya qavmining 52 tasini sanagan. Eng eski Xitoy, Yunon, Turk, Eron, Ovrupo, Rus tarixlarida saksondan ortiq turkiy qabilalari zikr etilmishdir». Shu kabi turkiy urug'lardan biri sarmatlar asli Turkiston sahrolaridan chiqib, Kavkazning shimolida, Don va Volga oralig'ida, hatto qadimgi Midiya (hozirgi Ozarbayjon, Iroq, Ajam) yerlarida skiflar podsholigini tuzganlar, so'ng, bu podsholikni, ularga qardosh bo'lgan

turkiy massagetlar bosib olishgan (25/38-39-betlar). Qadimgi turk qavmlaridan yana biri o'g'uz turklari bo'lib, bu haqda Ibn al Asirin yozishicha, VIII asrda Movarounnahrda turkiy qabilalar orasida mavjud bo'lgan (115/28-bet). Hasan Ato Abushiy shunday yozadi: «Turkiy urug'laridan juda eskisi va juda ulug' va juda ko'p furularga asl ulani «O'g'uz» turklaridir. Turklar taxfi ila «O'z». arablar ham arabiy o'Imagan so'zlarni har vaqt qoliplariga sug'ib chiqordiqlarindin «O'g'uz»ni «G'iz», «O'z»ni «Az»ga qoldirmishlar», o'g'uzlarning asl joylari Turkiston sahrolari, Sirdaryo va Amudaryo, Orol va Hazar dengizlari bo'ylarida, ba'zilar Shimoliy Eron, Ozarbayjon va Kichik Osiyoga — Yoyiq, Volga va Don sohillarigacha tarqalganlar (25/151-bet)». Ushbu ma'lumotlardan sezilib turibdiki, turkiy qabilalar skif, massaget, sarmat, xun, o'g'uz, o'z(sz) va fin kabi juda ko'p nomlar bilan yuritilgan. Xuddi shu fikrlar qozoq va o'zbek tilshunoslari asarlarida ham qayd etiladi.

O'zbek turkshunos olimlari, jumladan, Q.Mahmudovning ma'lumotlariga ko'ra, eng qadimgi turkiy tilli elatlar xitoy yozma manbalarida miloddan avvalgi 1756-yildan boshlab xun nomi bilan qayd etilgan. «Turk» so'zi milodiy V asrdan boshlab uchraydi. Xunlar Markaziy Osiyo, Kaspiy bo'ylari, Shimoliy Kavkaz va Yevropaning ba'zi hududlarida yashaganlar. Olimning ta'kidlashicha, yozma manbalarda Sharqiy va G'arbiy Turk xoqonliklarini tashkil etishda turkiy urug' qabilalaridan **Ashin, Arg'u, Az (S.Malovda Or-o'r, Oz-o'z, (26/15-16-betlar), Basmil, Izgil, O'g'iz, To'qqiz o'g'iz, Uch o'g'iz, O'n uyg'ur, O'tuz tatar, Qarluq, Qurdanta, Qimchoq (G'.Abdurahmonovda qimiq (13/17-bet). Kiton, Qirqaz, Tordush, Tatopi (tung'uzlar), Dulu-Nushub, Tuqri (toharlar), Tolis, Turgan, Tupuri, Turk, Uyg'ur, Sir, Qo'rqon, Duba (tuba) kabilar qatnashgan (27/32-bet, 23/121-bet). Miloddan avvalgi 207-yildan to milodiy 216-yilgacha hukmronlik qilgan Ulug' Xun saltanati sharqiy va g'arbiy qismga bo'linib idora qilingan. 374-yildan to 469-yilgacha Yevropada Badamir (374–400) asos solgan Xunlar saltanati mavjud bo'lgan va u Atilla (434–453) xunlari deb ham mashhurdir. Atilla juda ko'p (Sharqiy Rus, Ruminiya, Shimoliy Yugoslaviya, Vengriya**

(Mojariston), Avstriya, Chexoslovakiya, Sharqiy va O'rta Germaniya kabi) mamlakatlarni o'z qo'l ostida birlashtirgan. Ularning ikkinchi saltanatiga Xunxon asos solgan bo'lib, Oq Xun, O'rta Sharq — Xun-Efteliy sulolasi deb ham yuritilgan. Uning tarkibiga Hindistonning yarmi, Afg'oniston va Turkistonning katta qismi kirgan (23/118-119-55-130-136-betlar).

Manbalarda yozilishicha, hozirgi Oltoy o'lkasi hududida VI asrda ko'chmanchi turkiy qabilalarning birlashuvidan mashhur Turk xoqonligi tashkil topgan edi. Turk xoqonligi Markaziy Osiyo, jumladan, turkiy qabilalarning keyingi taraqqiyotida alohida o'rin egallagan. Turk xoqoni Sileyvul Eron shohi Xusrav I bilan ittifoq tuzib, 563–567-yillarda eftalitlar davlatining yerlarini egallab oldi (22/42-bet).

Arab istilosi arafasida esa Oltoy o'lkasida tashkil topgan turk xoqonligi Mo'g'uliston, Sharqiy Turkiston, Markaziy Osiyodan to Kaspiy dengizigacha bo'lgan hududlarni o'ziga tobe qilib oldi. Bu xoqonlik 200 yillik hukmronligi davrida qipchoqlar, qarluqlar, qirg'izlar, turkmanlar vakidanlar (24/14-bet), butun Movarounnahr turklarini o'z madaniy ta'siriga bo'ysundirishga erishdi. Natijada, turkiy xoqonlikdagi qabilalar bilan unga tobe bo'lgan qabilalar o'rtasida yagona ittifoq tuzilgan va o'sha davrda Markaziy Osiyoda umumiy til va shevalarda so'zlashadigan qabila-elatlarning asta-sekin yaqinlashib, birikishidan hozirgi turkiy xalqlarning ikkinchi etnogeneziga poydevor qo'yilgan edi.

Turk xoqonligining muhim xarakterli tomoni shundaki, bu davrda yaratilgan ko'pgina yozma yodgorliklar bizgacha yetib kelgan. Bu yozma yodgorliklarda o'sha davr til xususiyatlari o'z aksini topgan bo'lib, turkiy tilning qadimgi holatini aniqlashda va adabiy tilning ilk shakllanishi davrlarini belgilashda jonli guvoh — tarixiy yozma manba sanaladi. «Turkiy-runiy» (VI–VII asrlar) va tilshunos olim Mahmud Koshg'ariy «turkcha yozuv» deb atagan qadimgi «turkiy-uyg'ur» yozuv yodgorliklari (VII–IX asrlar) shular jumlasidandir.

Turkiy qabilalarning yaqinlashuvi, o'zaro birlashuvlari xoqonlikdan so'ng ham davom etdi. Arab istilosi (hukmronligi) davrlarida islom dinining aqidalari qabila va elatlarni

musulmonchilik mafkurasi asosida o'zaro yaqinlashtira boshladi. Ammo islom diniga e'tiqod kuchaysa-da, arablar hukmronligiga qarshilik kun sayin osha bordi. Natijada, arab xalifaligi Markaziy Osiyo hududlarida mahalliy aholi orasidan o'z noiblarini tayinlab, hukmronlikni ular ixtiyoriga berishga majbur bo'ldi. Shu asosda VIII asrning oxiri — IX asrning boshlaridan o'lkalarda mahalliy markazlashgan davlatlar shakllana boshladi. Markaziy Osiyo IX–XIII asrlargacha bo'lgan tarixiga Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar nomi bilan kirgan davlatlar shular jumlasidandir. Bu davlatlar shakllangan davrlarda rasman xalifalikka bo'ysungan bo'lsalar-da, aslida, mustaqil davlatlarga aylana borgan edi. Bu davlatlarni boshqarish va muomala tili arab tili deb rasmiylashtirilganiga qaramay, asosan, turkiy va forsiy til amalda qo'llanilgan.

Tarixiy manbalarda ta'kidlanishicha, Tohiriylar va Somoniylar hukmronligi davrlarida turkiy elat vakillari harbiy qo'shin safida ancha yuqori mavqega ega bo'lgan, ya'ni yetakchi va e'tiborli sarkardalardan, askarlardan sanalganlar. Ular ancha mustaqil harakat qila olganlar. Samarqandda ko'tarilgan xalq qo'zg'olonlarida turkiy elatlar qo'zg'olonchilarni qo'llab-quvvatlashgan. Somoniylardan Nasr (914–943) karmatchilar diniy oqimiga xayrixoh bo'lganligi uchun musulmon ruhoniylari bilan turk lashkarboshilari fitna uyushtirib, uning taxtdan ketishiga sabab bo'lishgan. Ismoil Somoniyning o'g'li Ahmad (907–914) arab tilini davlat tiliga aylantirishidan saroy amaldorlari, birinchi navbatda turklardan iborat harbiy oqsuyaklarning noroziligi tufayli u turk g'ulomlari tomonidan o'ldirilgan. Ayniqsa, Abdumalik Somoniy (954–961) davrida turkiy elatlarning ta'siri mislsiz darajada kuchayib, ular Somoniylar davlatini boshqarish ishlarini batamom qo'lga olishgan. Bunda turkiy elat lashkarboshisi Ali Tegin (yoki Alptagin) ning roli va o'rni g'oyatda katta bo'lgan. Ammo bu ish oxiriga yetmagan. Keyinchalik Ali Tegin G'aznada mustaqil turk davlatini tuzgan (23/179-181-betlar).

Ushbu tarixiy ma'lumotlardan sezilib turibdiki, turkiy elatlarning mavqei Markaziy Osiyoda, ayniqsa Movarounnahrda sezilarli bo'lgan.

Chunonchi, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davlatlari turkiy elatlarning hukmronligida bo'lgan. Turkiy urug' va qabilalarning birlashmalaridan tashkil topib, markazlashgan davlatlardan hisoblangan bu hududlarda turkiy tillarning mavqei ancha ko'tarila borgan. Ular o'z tillarining mustaqilligi, rivojiga e'tiborsiz qaramaganlar. Arab tilida ijod qilish bilan birgalikda o'z ona tillarida ham qator asarlar yarata olganlar va ko'pgina yodgorliklarni turkiy tilga o'girganlar. Jumladan, VIII–XIII asrlarda uyg'ur va arab yozuvlari asosida ko'pgina qadimiy yozma yodgorliklar o'girilgan, turkiy tilda bir qancha badiiy-didaktik va ilmiy kitoblar yozilganki, bularning bir qismi bizgacha yetib kelgan. «Irq bitik», «Maytri smit» «Oltin yorug'», «Xuastuanift», «Qutadg'u bilig», «Devonu lug'otit turk», «Hibbat ul-haqoyiq», «O'g'uznoma», «Muhabbatnoma» kabi asarlar shular jumlasidandir. Bu manbalar turkiy tillar taraqqiyotining uchinchi etnik birikuvi va umumturkiy adabiy tilning to'liq shakllangan davrini aks ettiradi. Demak, bu davr tili barcha turkiy xalqlar adabiy tilining ilk shakllanishiga zamin hozirladi.

Turkiy qabila va urug'larning yagona umumtil atrofida shakllanishida yuqorida qayd etilgan uch tarixiy etnik guruhning aralashuvi (birikuvi) muhim rol o'ynaydi.

Mulohazalarimizning to'g'riligini tasdiqlash maqsadida ba'zi yetuk tilshunoslarning fikrlarini ham qayd etishni lozim topamiz. Bizningcha G'.Abdurahmonovning turkiy tillar tarixiy taraqqiyoti va shakllanishi davrlari haqidagi fikrlari ancha asoslidir. Olim ta'kidlaganidek, qabila va urug'lar birlashmalaridan tashkil topgan, asli Markaziy Osiyo, jumladan, movarounnahrlik skiflar yoki saklar nomi bilan atalgan qadimgi shak, massaget, dak (ambiys, apasiak, augasiy), eftalitlar kabi qabila vakillari hozirgi tillarning qaysi birida so'zlashganini bilib bo'lmaydi. Ular asrlar davomida u qabila ittifoqidan bu qabila ittifoqiga o'tib turishi kabi tarixiy voqealar natijasida o'z yashash joylarini o'zgartirib kelganlar. Shuning uchun tarixiy manbalarda ularning yashash joylari haqida ham turlicha fikrlar mavjud. Har holda bu qabilalarning bir qismi turkiy elatlar va ularning tilini shakllantirgan ilk etnik qatlamd. Shuningdek, ularning bir qismi eroniy tillarning, jumladan,

fors-tojik tillarining etnik qatlamiga asos bo'lgandir. Umuman, ular hozirgi birgina millatgagina tegishli bo'lmay, Markaziy Osiyo hududidagi ko'pgina elatlarning va ba'zi bir boshqa hududdagi xalqlarning ham etnik qatlami sanaladi.

Tarixiy jarayon yana shundan dalolat beradiki, XI asrga qadar Movarounnahr va Yettisuvda asosiy yetakchi urug'lar turkiylar bo'lgan. Bu yerlarga yangi-yangi turkiy qabila-urug'larning kelib qo'shilishi esa mahalliy turkiy qabila va urug'larning mavqei va tili yanada mustahkamlanishida katta rol o'ynagan. Natijada qadimda o'z tiliga ega bo'lgan etnik (xorazm, sug'd kabi) guruhlarining turkiy til ta'siriga berilmay ilojlari yo'q edi. Shu boisdan ularning asosiy qismi turkiylashib ketdi. Bu kabi tarixiy ma'lumotlar asosida G'.Abdurahmonov Markaziy Osiyo va Qozog'iston hududida VIII–X asrlar mobaynida uchta katta urug' birlashmasi mavjud edi, degan xulosaga keladi: 1) Yag'mo, chigil, tuxsi va boshqa urug'lardan tarkib topgan qarluq birlashmasi; 2) Yettisuvdagi bir qator turkiy urug'lar va G'arbiy Sibirdagi ba'zi hind-yevropa va fin-ugor tillaridan tashkil topgan o'g'uz birlashmasi; 3) Turli turkiy va boshqa urug'lardan tashkil topgan qimoq birlashmasi (keyinroq qimoqlardan qipchoqlar ajralib, o'z birlashmasini tashkil etadi). Bu katta urug' birlashmalarining hukmronligi X–XI asrlarga kelib tugatildi va o'rniga qipchoq hamda qoraxoniylar hokimiyati o'rnatildi (13/16-17- betlar).

Shunisi quvonchliki, X–XII asrlarda umumturkiy tilning va adabiy til ko'rinishining to'liq shakllanganligini inkor etib bo'lmaydigan dalillarga—ma'lumotlarga boy yozma manbalar bizning davrimizgacha yetib kelgan. «Qutadg'u bilig», «Hibbat ul-haqoyiq», «Devonu lug'otit turk» shular jumlasidandir. Ayniqsa, o'z davrining mohir tilshunosi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari tarixiy yozma manbalar orasida alohida qiymatga egadir. Unda qadimgi davrlardagi qabilalar va ularning tillari, tarqalish o'rni kabilar haqida ajoyib ma'lumotlar berilgan. Qomusiy olim o'z asarida o'sha davrlarda qabilalar birlashmalari, ittifoqlari, urug'larining o'zaro muomalasida o'z shevalari, tillaridan tashqari yana umumtil yoki umumturkiy tili mavjud ekanligini aniq dalillar orqali talqin etgan. Xuddi shu umumturkiy tilga asos bo'lgan

qabila va urug'larni nomma-nom sanab, ular haqida aniq ma'lumotlar bergan. Olim bergan ma'lumotlardan umumturkiy tilning shakllanishida uch guruh qabila va urug'lar asos bo'lganligini anglash mumkin.

I guruhdagi qabilalar (**sug'dak, kanjak, arg'u, tubut, tangut, xufan uyg'ur** kabilar) faqat shaharlarda yashaydilar. Bu qabilalar ikki tilda so'zlasha olganlar. Ularning ba'zilari (tubut va xutanliklar) turkchada yaxshi so'zlasha olmaganlar. Ularning tillari alohida bo'lib, (xutanliklarning) o'z yozuvlari ham bo'lgan. Uyg'urlarning tillari turkcha bo'lsa-da, bir-biri bilan so'zlashganda o'z shevalari (tillari)ni qo'llaganlar. Bu qayd etilgan guruhdagi barchaqabilalar shahar tipli shevalar sifatida qaralib, turkiy tilda so'zlashganda o'z tillari (shevalarining) ta'siri sezilib turgan.

II guruhdagi qabilalar (**jumul, qay, yabaqu, totor, basmil kabi**) asosan dashtlarda yashaydilar. Ularning ham shevalari (tillari) bor bo'lib, turkchani ham yaxshi bilganlar.

III guruhdagi qabilalar (**qirg'iz, qipchoq, o'g'uz, tuxsi, yag'mo, chigil, ig'roq, yaruq, qarluq, qangli**) faqat turkchada so'zlashganlar, **yamak va boshg'irtlar** ham bularga yaqindir. Shu kabi Rungacha cho'zilgan bulg'or, suvar, bajanaklar tili turkcha bo'lib, ularda ba'zi bir so'zlar oxiri qisqartirib qo'llanilgan. Uchinchi guruhdagi qabilalar ham sahroda (dashtlarda), ham shaharlarda istiqomat qilganlar (28/65-66-betlar).

Ushbu ma'lumotlardan tashqari «Devonu lug'otit turk» da 20 dan oshiq katta-katta qabila birliklari, 70 dan oshiq urug' nomlari qayd etilgan. Bu qabila va urug'larning til xususiyatlari, yashash va tarqalish o'rinlari, o'zaro etnik jihatdan yaqinligi kabilar haqida aniq ma'lumotlar borki, hozirgi o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, turk, ozarbayjon, tojik xalqlarining etnik tarixini o'rganishda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, G'.Abdurahmonov ta'kidlaganidek, hozirgi xalqlarning etnogenezisi, yashash va tarqalish joylari, tillari va nomlanishi masalalarini uzil-kesil hal qilish yetuk etnograf, tarixchi, tilshunos va adabiyotshunos mutaxassislar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Buning uchun

dastavval O'zbekiston hududidagi shaxsiy va davlat kitob arxivlarida, muzey va kutubxonalarda saqlanib kelayotgan yozma yodgorliklarni, asarlarni to'liq o'rganib chiqish va nashr ettirish lozim. Ikkinchidan, o'tmish tariximiz haqidagi xalq og'zaki ijodiyoti, rivoyat-afsona, hikoyatlarni yig'ib, tahlil etish, hududlardagi joy nomlari, urug' va qabilalar nomlarini o'zida saqlab kelayotgan sheva va dialektlarni to'liq yozib olib o'rganish, yagona dialektologik xaritasini yaratish zarurdir. Shundan so'ng qo'shni mamlakatlar hududlaridagi turkiy xalqlarga tegishli manbalar va ma'lumotlarni o'rganishga ham e'tibor qaratilishi lozim. Chunki ularda grek-yunon, xitoy, hind, arab kabi mamlakatlarda yaratilgan, o'tmish elatlar ajdodlari tarixi yoritilgan qanchadan-qancha yozma manbalar mavjud.

Xullas, shunga o'xshash juda ko'p ishlar, izlanishlar va tadqiqotlarni amalga oshirgandagina xalqimiz ajdodlarining asliy joylari, tillari va madaniy yodgorliklari, umuman, ularning etnogenezisi bo'yicha xulosaga kelish mumkin bo'ladi. Bu masalalar bo'yicha hozircha har qaysi mamlakat olimlari har xil xulosalar chiqarishmoqda. Bularning ko'pi munoza-ralidir. Shu kabi o'zbek xalqining va o'zbek tilining shakllanishi hamda nomlanishi masalasi haqida ham tarixiy va ilmiy manbalarda har xil ma'lumotlar berib kelinmoqda.

O'ZBEK XALQI HAMDA TILINING TARKIB TOPISHI VA NOMLANISHI

(Milodiy davri)

Deyarli barcha ilmiy-tarixiy manbalarda hozirgi o'zbek xalqining etnik jihatdan juda ko'p urug'-qabilalar va ular ittifoqlarining qo'shilishi va birlashishi natijasida tarkib topganligi aytilib, bu jarayon X-XIII asrlardagi umumturkiy qabila ittifoqidan ajralib chiqishi bilan bog'liq deb ta'kidlanadi. O'zbek tili ham turli qabilalar tili asosida shakllanib, qayd etilgan jarayonda yuzaga kelganligi aytiladi. Bu fikrlar bir tomondan to'g'ri, albatta. Ammo «O'zbek» atamasi bilan nomlanish masalasi, ya'ni «O'zbek» atamasining kelib chiqishi

va etnik soʻz sifatida qoʻllanishi masalasi hali toʻliq yechimiga yetgan emas. Chunki, katta bir xalqning va unga tegishli nomning biror-bir asossiz XIII–XIV asrlardan boshlab yuzaga kelishiga ishonib boʻlmaydi. Tarixnavis olim B.Ahmedov aytganidek, xalqlarning tarixi uning nomidan oldin yuradi. Shuning uchun ham baʼzi olimlarning uni faqat birgina hukmdor nomi bilan bogʻlab talqin etishlari ham toʻliq haqiqat emas.

Bizningcha, baʼzi manbalarda qayd etilganidek, oʻzbek nomi ham qadimiy etnik xususiyatga, asosga egadir. U oʻzining uzoq oʻtmishi, tarixiga ega boʻlganligi, qadim davrlarda biror turkiy qabilaning nomi boʻlganligi aniq. Lekin buni isbotlash zarur. Isbotlash uchun esa maʼlumotlar deyarli yoʻq yoki boʻlsa ham hali nomaʼlumdir. Agar tarixiy manbalar har tomonlama toʻliq qaralsa va hozirgi oʻzbek dialekt va shevalari, joy nomlariga oid materiallar bilan qatʼiy tadqiqot olib borilsa, bu haqda ishonarli maʼlumotga ega boʻlish mumkin. Qoʻlimizda mavjud boʻlgan adabiyotlarni kuzatganimizda, bu haqda qisman haqiqatga mos yoki yaqin keladigan baʼzi maʼlumotlarga duch kelganday boʻldik.

Maʼlumki, qadimgi turkiy tillarning eng qadimgi yozma manbalaridan biri Oʻrxun-Enasoy bitiklari hisoblanadi. Garchi, bu bitik yodgorliklari maʼlum bir katta asar shaklida boʻlmasada, unda VI–VIII asrlarga doir turkiy til tarixi oʻz aksini topgan. Ushbu bitiklar ustida sinchkovfik bilan tadqiqot ishlarini olib borgan olimlardan L.A.Yeftuxova «Enasoy qirgʻizlarining arxeologik yodgorliklari» nomli (Abakan, 1948) asarida «Oʻz» (oʻz) soʻzi haqida yoʻl-yoʻlakay fikr bildirib oʻtgan. Uning fikricha, «Oʻz» soʻzi etnik xususiyat bilan bogʻliq boʻlib, elat (qabila yoki urugʻ — *U.S.*) nomini ifodalagan, yaʼni qadimda Enasoy daryosi sohillarida «Oʻz» nomi bilan atalgan elat, qabila va urugʻlar yashagan (29/5-bet). Olimning bu fikri haqiqatga yaqin, desak, xato boʻlmaydi. Bizningcha, bu qabila yoki urugʻ uncha katta boʻlmagan. Lekin uning nomi bilan bogʻliq juda koʻp joy nomlari borki, «Oʻzlar» ham katta qabilalar orasida turli joylarga tarqalgan boʻlishi mumkin.

Xuddi shu kabi taniqli turkshunos olimlardan V.V.Radlov va S.Ye.Malov ham Oʻrxun va Enasoy bitik-yodgorliklari boʻyicha yozgan ishlarida «Oʻz» soʻzini qisqacha izohlab oʻtgan-

lar. Ularning izohida ham Enasoy vohasida «Oʻz», «Oʻr» nomi bilan atalgan davlat va unga qarashli aholi yashaganligi taʼkidlanadi. Masalan, «Sizning er at Ur(i) eling oʻz, yaʼni Sizning er (bahodir, botir) nomingiz Uri, elingiz (xalqingiz) nomi Oʻzdir (Vashe geroyskoye imya Ur/ы/). Tvoyo gosudarstvo Oz. Er atim Oʻzut ugdi oʻgʻlonim siza achim adarilimiz, yaʼni Mashhur (bahodir) Oʻzlar nomiga dogʻ tushirmay siz — oʻgʻillarim, qardoshlarim bilan ajralishdim» kabilar (30/50-77-betlar). Bizningcha, ushbu maʼlumotlar «Oʻz» soʻzi etnonim (elat, urugʻ) maʼnosida qoʻllanilganidan darak beradi.

Oʻrxun-Enasoy bitiklarida «Oʻz» yoki «Az» (Oʻz) soʻzi bir necha marta tilga olingan. Yuqoridagi fikrimizni quvvatlash maqsadida taniqli oʻzbek olimlaridan Gʻ.Abdurahmonov va A.Rustamovning «Qadimgi turkiy til» qoʻllanmasidagi bitiklar parchalaridan, izohlardan misollar keltirishni lozim topamiz.

«Yerchi (yer biladigan kishini) surishtirdim, Choʻllik Az yigitni topdim. Oʻzim, Az — maskanim (yerim), uni bil... bir manzili bor ekan. Ani (hozir ham Ani daryosi bor) bilan borib, oʻsha yerda yetib, bir otligʻ (yoʻl) yurib boradi, dedi» (Tunyuquq bitiktoshidan). «Qashshoq xalqni boy qildim, Az xalqini koʻpaytirdim. Oʻz soʻzimda qalbakilik bormi... Oʻn oʻq xalqi qiyinchilik koʻrdi. Bobomiz, ajdodimiz boshqargan yer-suv egasiz boʻlmasin deb Az xalqini tuzatib (tiklab)... Bars bek edi. Xoqon (deb) bunda biz unvon berdik. Singlim xoqonzodani berdik. Oʻzi adashdi, xoqoni oʻldi, xalqi choʻri, qul boʻldi. Koʻkman yer-suvi egasiz qolmasin deb Az, Qirgiz xalqini tiklab... Kultigin 27 yoshida Qarluq xalqi begonala-shib ketgach dushman boʻldi. Qarluqni oʻldirdik, qoʻlga oldik. Az xalqi dushman boʻldi. Qorakoʻlda jang qildik... Az Eltabarni tutdi//qoʻlga tushirdi). Az xalqi oʻshanda yoʻq boʻldi» (21/74, 91, 106, 110, 127- betlar) kabi oʻrinlarda «az»(oʻz) dan urugʻ-qabila, elat, davlat maʼnolari ham anglashiladi. Jumladan, bu yodnomalarni yoʻl-yoʻlakay oʻqiganimizda unda 40 dan oshiq urugʻ-qabilalar nomini uchratdik. Masalan, **Tabgʻach — 4, bukli — 4, purum — 4, qirgiz — 4, uch qoʻriqan — 4, tatar (oʻtuz tatar) — 4, qtan (qtany — 4,**

14), tatabi — 4, turuq (ko'k turk) — 8, yabg'u — 14, shad — 14, baz — 14, o'g'uz (to'qqiz o'g'uz) — 14, tardush — 17 (21/103-106-betlar), o'n o'q — 30 (75-bet), az (o'z — 33-42-43, qangu — 21, turk o'g'uz — 22, sug'd/sug'daq — 38), kengaras (kenagas) — 38, turgash (turgas) — 39 (21/109-bet), qarluq — 41, adiz (o'g'uz) — 45-46-47 (21/110-111-betlar), tangut, chiq, basmil, indiqut (19/80-bet), tuku, tungra, uyg'ur, yaxmo (yag'mo), bulak, bayirqu, fulopu (uyg'urlar) (19/96-bet) shu kabi tat, ushun, izgil, chin, basmil, taziq (arab) singari etnik guruhlarini ko'rsatish mumkin¹.

Ba'zi olimlar hozirgi ishlarida bu kabi aniq asosni tilga olmay «O'z» (o'zbek) so'zini urug'lar qatorida sanab kelmoqdalar (27/32-bet). Biz ishlarimizda yuqoridagi fikrlarga va ba'zi etnotoponim atamalar (kishi va joy nomlari) ga doir yig'ilgan ma'lumotlarga tayangan holda «O'z» so'zini qadimdan urug'-qabila, elat nomlarini ham anglatgan, degan xulosaga keldik (31). Darhaqiqat, ko'pgina ma'balarda, jumladan, hozirgi o'zbek dialekt shevalari tilida hamda joy nomlari tarkibida «O'z» (O'zbek) so'zi bilan bog'liq atamalar mavjud. Masalan, Mahmud Koshg'ariy devonining birinchi qismida «O'zbek» shaklidagi va etnonimi ma'nosidagi so'z bo'lmasada, «O'z» asosidagi so'zlar ko'p uchraydi. Chunonchi, devonda «Tavg'ach azi» birikmasidagi «azi» so'zi eski va katta ma'noda izohlangan (423-bet). Shu kabi azin-bo'lak, ayrim (106-bet); «O'z» so'zi «Oz-yog', ozlug'-yorliq; oz-dara (tag' ozi-tog' darasi); Oz-yurak va qoringa tegishli a'zo; oz-o'zak (80-81-betlar); o'zuk-sof, oltin kabi toza; xotinlar laqabi; sizot suv; ozak-belning ichki tomiri (101-bet); az/az-xudo, o'zluk-bilak suyagining yo'g'on joyi (1,124), o'zi-ikki tog' o'rtasidagi keng yo'l (116-bet) kabi ma'nolarni anglatgan. Shu kabi «O'z»(Az) bir qancha kishi va joy nomlari tarkibida ham uchraydi: Ag'iz-qishloq nomi (94); o'zukand — arg'ular shahri (1-114-bet). Azg'irak-daryo nomi (162), Azg'ish — joy nomi (122), qizil o'z(oz)-qashqar tog'laridan biridagi qishloq (109), Ozkend — o'z shahri (Farg'onani O'zkent — o'z

¹Barcha misollar G'. Abdurahmonov, A.Rustamovning «Qadimgi turkiy til» qo'llanmasidagi bitiklardan olindi.

shahri deydilar deb izohlanadi, I, 330-bet). Azaq — o'g'uz beklarining nomi (95-bet); Inal o'z — qipchoq xonlaridan birining nomi (1-342-bet) kabilar. Mahmud Koshg'ariyning devonida keltirilgan joy nomlaridan o'zbek elatining yashash joylari va shaharlarini osongina bilib olish mumkin. **Olim butun Movarounnahrni turklar o'lkasidan deb hisoblagan.** «U Yankanddan boshlanadi. Butun Movarounnahr, Yankanddan Sharqqacha bo'lgan o'lkalarni turk shaharlaridan deb hisoblashning asosi shuki, Samarqand (Semizqand), Toshkand (Shosh), Ozkand (O'zkand), To'nkand nomlarining hammasi turkchadir. Kand turkcha shahar demakdir. Ular bu shaharlarni quradilar va shunday nom qo'yadilar. Bu yerlarda forslar ko'paygach, so'ng ular Ajam shaharlari kabi bo'lgan. Hozir turk o'lkalari Abisgun dengizi bilan o'ralgan, Rum o'lkasidan va O'zjanddan Chingacha cho'zilgan» (28/3-t, 164-bet) kabi ma'lumotlar muhim ahamiyatga egadir. Ushbu ma'lumotda o'zjand ehtimol o'zbeklar o'lkasi ma'nosida qo'lingandir. Chunki yozuvda o'zkand shahar ma'nosida, o'zjand esa o'lka (o'z turkiy o'lkalari chegaralari) ma'nosida kelgan. Ayniqsa, sd(o'd) so'zi xarakterlidir. Ma'lumki, qadimgi Oltoy va Xun davrlaridagi turkiy tillarning fonetik qurilishida «d»lanish asosiy belgilardan biri bo'lgan. Mahmud Koshg'ariy devonida Oltoy va Xun davrlaridagi turkiy tilga xos «d-z-y» kabi fonetik hodisani, ya'ni adaq /adiq/ adig', adrildi, tidish-azak, aziq//azig', — azrildi, tizish (I-tom, 68-bet) singari holatni qoraxoniylar davrida «ayok, ayig', ayrildi, tiyish» shakllariga kelib qolganligi aniqdir. Demak, devonda Mahmud Koshg'ariy tomonidan «**Kömchu**» (ko'mchu) so'zining «**öd**» — **qavmining** xazinasi deb berilgan izohdagi «**öd**» (o'd) etnonimini öz(o'z) shaklda o'qishimiz mumkin (28/1-tom, 395-bet). Chunki devonda yuqoridagidek «d»lashish hodisasining xususiyatlari ko'p so'zlarda saqlanganligini ko'ramiz. Binobarin, «O'z» qavmi qadimdan mavjud desa bo'ladi. Bu fikrni VI–VII asrlar yodgortiklari bo'lmish til materiali ham tasdiqlashi mumkin. Jumladan, Kultegin bitiktoshida «sdka», «Ediz» (Ediz budun shaklidagi) so'zlar uchraydi. Bizningcha, har ikkala so'zning tarkibi «sd» o'zakdan va -ka (jo'nalish), -iz (ko'plik) qo'shimchalaridan

tashkil topgandir. Manbalarda «sdka» soʻzi «dunyoga», «Ediz» esa «Oʻgʻuz» (oʻgʻiz) maʼnosida izohlangan (21/89, 110, 111-betlar, 90, 119-betlardagi izohlar). Bizningcha, «d»lanish hodisasiga koʻra, bu soʻzlarning oʻzagi sz-az shaklida oʻqilib, «Oʻz, oʻzlar» maʼnosida qoʻllanilgandir. Bitikdagi parchalar yaʼni: «bu oʻzka (oʻz yeriga) keldim (89-bet)» «Qishloqda oʻzlar bilan jang qildim (110-bet), oʻzlar elati (buduni) oʻshanda oʻldi (111-bet) shaklda izohlanishi mumkin. Demak, bu tarzda izohlansa, «Oʻz, az» soʻzlari etnonim soʻz hisoblanadi. Mahmud Koshgʻariyning devonida qoʻllanilgan («sd/oʻz») soʻzi qavm deb izohlanishi ham yuqoridagi fikrimizni yanada aniq tasdiqlaydi. Afsuski, devonda oʻz(sd) soʻzini qavm sifatida birgina oʻrinda uchratdik. Maʼlumki, qadimgi turkiy til yodgorliklarida baʼzan «A» unlisi «Oʻ» unlisi bilan bir xil vazifada qoʻllanishini (almashinib kelganini) kuzatish mumkin. Bu holat koʻpincha ularning yozuvda harflarining bir xil yoki oʻxshash belgilar bilan ifodalanganligidan boʻlsa kerak. Jumladan, XIX asr olimi Hasan Ato Abushiy arablar «Oʻz»ni «Az» tarzda talaffuz etishi natijasida «Oʻz»ni «Az» hamda «Oʻgʻuz»ni «(Az)gʻiz» shakllarda qoʻllaganligini taʼkidlaydi: «Turklar taxfif ila «Oʻz», arablar ham arabiy boʻlmagan soʻzlarni «gʻiz», «Oʻz»ni «Az»ga qoldirmishlar» (25/151-bet). Ushbu fikrlardan «Oʻgʻuz» va «Oʻzbek» etnonimlarining oʻzaro bogʻliqligi borligi ham seziladi. Shu kabi Kultigin bitiktoshida «Oʻgʻuz» qabilasi bir necha oʻrinda «Adiz(Ediz) budun» shaklda qoʻllanilgan. Agar Oltoy-Xun davriga xos boʻlgan «d» lashishni hisobga olsak, ushbu oʻrinda ham «Adiz» soʻzi «Aziz» (sziz) shaklda oʻqilishi mumkin (21/110-111-betlar, 107-izoh). Bu haqda ham oʻylab koʻrish lozim boʻladi. Ehtimol, «Oʻzbek» soʻzi «Oʻgʻiz»(oʻgʻuz), (115/33,34-bet) «Oʻzgʻur» (uygʻur) soʻzlarining kelib chiqishi, etnonim xususiyati bir xil boʻlgandir. Chunki tovushlarning fonetik jihatdan oʻzgarish jarayoni qadimgi (VI–XII asrlar) yozma yodgorliklari tilida, ayniqsa, Mahmud Koshgʻariyning devonida aniq aks etgan (21/9-bet; 28/1-tom, 66-69-betlar).

Taʼkidlanganidek, Mahmud Koshgʻariyning devonida 70 ga yaqin qabila va urugʻ va qavmlar haqida maʼlumotlar bor. U shundan 42 nafarini katta urugʻlar yoki qabilalar (ona urugʻ-

lar) maʼnosida taʼriflaydi, ular haqida maxsus toʻxtaladi. Shu kabi ularni uch guruhga boʻladi. Ana shu boʻlinishga qarab hozirgi tilshunoslarimiz, jumladan, taniqli oʻzbek shevashunos olimlarimizdan V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonovlarning «Oʻzbek dialektologiyasi» nomli darsligida oʻzbek xalqi va tilining shakllanishini tasniflagan. Umumturkiy tilining shakllanishida Mahmud Koshgʻariy devonida qayd etilgan asosiy qabilalar til birligi va ularning tarqalish hududlari hisobga olinganidek, V.V.Reshetov oʻzbek tili uch turkiy komponentning birikishi natijasida vujudga kelgan deb qaraydi va shu asosda oʻzbek dialektlarini tasniflaydi. Masalan: 1) Qarluq-chigil-uygʻur lahjasi hozirgi qardosh uygʻur tiliga yaqin boʻlib, tojik tili bilan ham etnolingvistik munosabatda boʻlgan. 2) Qipchoq lahjasi qardosh qozoq va qoraqalpoq tillari bilan yaqinlikka ega. 3) Oʻgʻuz lahjasi qardosh turkman tili bilan yaqindir (22/36-37-betlar). Demak, V.V.Reshetov oʻzbek tilining shakllanishida umumturkiy adabiy til uchun asos boʻlgan qabilalar til birligini oʻzbek xalq tili, jumladan, adabiy tili uchun ham ilk manba deb qaragandir.

Baʼzi tarixiy manbalarda, jumladan, soʻzlashuv tilida, dialekt va shevalar materiallarida oʻzbek xalqi 92 urugʻ-qabilalarning birlashuvidan tashkil topgan deyilganidek, uning tili ham ana shu 92 birlashmaning umumtili asosida shakllangan deb qaraladi. Masalan, xalq soʻzlashuv tili asosida yaratilgan tarixiy manbalardan «Qitmir», «Nasabnoma» kabilar oʻzbek xalqining shajarasiga bagʻishlangan boʻlib, dialekt va sheva vakillari tilida saqlanib kelinayotgan 92 urugʻ va qabilalar maʼlumotlariga mos keladi. Bu haqda X.Doniyorovning «Oʻzbek xalqining shajara va shevalari» kitobida keng maʼlumot berilgan (34). Tilshunos olim taʼkidlaganidek, «Nasabnoma» va «Qitmir» qatori yana oʻzbek shajarasi boʻyicha «Devonu lugʻotit turk», «Jomeʼ at-tavorix», «Ravzat us-safo», «Zafarnoma», «Toʻrt ulus tarixi», «Boburnoma», «Shajarai turk», «Shajarai taro-kima», «Tarixi Abulxayrxon», «Shayboniynoma», «Abdullanoma», «Tarixi Muqimxoniy», «Tarixi Abulfayzxon», «Tarixi Salotini mangʻitiya» kabi juda koʻp tarixiy-memuar asarlarda ham ajoyib maʼlumotlar mavjud. X.Doniyorov kitobida ushbu manbalarning baʼzilaridagi, jumladan, soʻnggi

davr Yevropa rus olimlarining (A.Boris, Vamberi, A.D.Gerebenkin, A.P.Xoroshin, V.V.Radlov, N.A.Aristov, D.N.Logofet, A.Yu.Yakubovskiy, o'zbek olimlaridan G'.Olim, M.Vahobov, B.Ahmedov, V.V.Reshetov kabilarning) ilmiy ishlaridagi ma'lumotlar haqida ham fikr bildirilgan. Ulardagi o'zbek xalqiga doir etnik guruhlarining (urug'-qabilalarning) qisqacha tarixi va bo'linishlari izohlab berilgan. Ayniqsa, o'zbek dialekt va shevalarida hozirgacha mavjud bo'lgan uch yuzta etnonimlar haqida ma'lumotning berilishi xarakterlidir (34). Bu esa o'zbek xalqi va uning tilining shakllanish tarixini o'rganishda alohida qiymatga egadir.

O'zbek dialekt va shevalaridagi etnik atamalar X–XIII asrlardagi umumturkiy til materiallaridagi urug' va qabilalar nomiga deyarli mos keladi. Hatto V–VII asrlardagi bitiklardagi ba'zi urug'-qabilalar nomi hozirgi o'zbek shevalari tilida bor. Demak, hozirgi o'zbek xalqining shakllanishiga asos bo'lgan dialekt va shevalarimiz o'tmish ajdodlarimiz va ularning tillari sifatida keyingi (hozirgi) davrdagi taraqqiy etgan (aralashib yagona holga kelgan) ko'rinishidir.

Etnograf olim I.Jabborovning ta'kidlashicha, «tadqiqotchilar asrimiz arafasida o'zbek xalqi tarkibida uchta yirik etnik guruh (subetnos) mavjud bo'lganligini qayd qiladilar. Ulardan birinchisi eng qadimiy davrlardan o'troq holda shahar va qishloqlarda yashab, O'rta Osiyoga eramizning I ming yilligi oxirlaridan boshlab uzoq davr davomida ko'chib kelib asta-sekin o'troqlashgan turkiy elatlar bilan aralashib ketgan aholidir. Ularga o'sha davrlarda «sart» deb nom berilgan bo'lib, asosan, Farg'ona, Toshkent, Xorazm, qisman, Zarafshon vohalarida, umuman, ozmi-ko'pmi deyarli hozirgi O'zbekistonning hamma yerida joylashgan. Ammo ularning eng ko'pi Farg'ona vodiysida bo'lib, asrimizning boshlarida u yerda taxminan butun aholining 52,7 foizi joylashgan. Ikkinchi subetnos Shayboniy o'zbeklari kelishidan oldin qadimiy turkiy elatlar bilan turk-mo'g'ul qabilalarining aralashmasidan kelib chiqqan. Ular XX asr boshlarigacha urug'-qabilaviy an'alarini saqlab, sartlarga qo'shilmay yarim o'troq turmush tarzida yashab kelganlar va etnografik adabiyotda «Turklar» degan nom bilan ma'lum (B.X.Karmisheva, K.Sh.Shoniyozov).

Tub aholi hisoblangan bu turklar, asosan, Farg'ona vodiysida, Samarqand va Jizzax viloyatlarida, O'zbekistonning sharqiy qismida joylashgan.

O'zbeklarning uchinchi yirik etnik guruhi X–XVI asrlarda Movarounnahr ga ko'chib kelgan Dashti qipchoq o'zbeklarining avlodlaridir. Ular yarim ko'chmanchilik turmush an'alarini saqlab kelgan, chorvachilik hamda dehqonchilik xo'jaligini birga olib borgan subetnosdan iborat. Mazkur guruhning o'ziga xosligi irqiy tuzilishida mongoloid belgilarining ancha sezilarli ekanligi, tilida «jo'qchilar» shevasi kuchli va o'z nomini «O'zbek» deb nomlanishidir. Bu guruh turli qabilalardan iborat: **qo'ng'iro't, mang'it, qipchoq, nayman, kenagas, saroy, xitoy, ming, yuz, qirq, qatag'on** va hokozolar bo'lgan. Shulardan eng ko'p sonli qismi 20-yillarda Buxoro amirligida (130 mingdan ko'proq mang'itlar, 35 mingdan ortiq kenagaslar) O'rxun-Enasoy bitiklarida kengaras qabilasi, Buxoro esa Bukarak ulusi nomi bilan berilgan (21/109-izoh), 86 mingga yaqin qo'ng'iro'tlar, Turkiston o'lkasining Samarqand viloyatida (52 ming qipchoqlar), Farg'onavodiy-sida (42,5 mingga yaqin qipchoqlar), Toshkent, Sirdaryo viloyatlarida (50 mingga yaqin qurama) yashagan (18/80-81-betlar).

Umuman, ilmiy adabiyotlar tahtili shundan dalolat beradiki, dastlab qarluq-chigil-uyg'ur dialekti, sal keyinroq esa o'g'uz-qipchoq dialekti rivojlanib, yozma adabiyot tili darajasiga ko'tariladi va o'zbek elatining umumiy tiliga singib qoladi.

Har holda ayni davrda o'zbek xalqining va tilining shakllanishida asos bo'lgan urug'-qabilalar va ularning tillari (dialekt va shevalari)ning nomlari tilshunoslikda to'liq hal etilgan desak, xato qilmaymiz.

Ta'kidlaganimizdek, yozma manbalarda «**turk, turkiy, turkona**» atamaları urug', ulus, elat-xalqqa va uning tiliga nisbatan qo'llanilganini ko'ramiz. Gerodotda **Tarxita**, hind manbalarida **Turuxa**, Chin manbalarida Tukuje tarzida uchraydi (115/9-bet). «Turkiy» etnonimining asl ma'nosi haqida adabiyotlarda har xil ma'lumotlar berilgan. Ba'zi tadqiqotchilar «turk» so'zini «Shohnoma»dagi Turon, Tur

atamalariga, ba'zilar, urug'-qabila nomiga yoki ularning birlashmalari, umumlashtirilgan ittifoqlarining nomiga shu kabi «Tur», «yuqori», «baland», «cho'qqi», «xudoga yaqin» ma'nolarda qo'llanilganligini ta'kidlaydilar (18/72-73-betlar). Navoiy asarlarining lug'atida «turk» so'zining asl ma'nosi etnik nom; ma'juziy «sho'x go'zal», Turki anjum quyosh ya'ni 1) Go'zal, 2) Quyosh ma'nolari borligi qayd etilgan (44/617-bet). Turk atamasining asl ma'nosi qandayligidan qat'i nazar, yozma manbalarda birinchidan, u tor ma'noda urug' va qabila nomini ifodalagan, ikkinchidan, keng ma'noda esa barcha turkiy elat-xalqlarga nisbatan umumlashgan nom sifatida qo'llanilib kelingan.

XII–XVI asrlar tilida «turkiy», etnonimi asosan, o'zbek xalqi va uning tiliga nisbatan qo'llanilgan. Bu fikrni o'z o'rnida til qurilishidagi materiallar bilan asoslashga harakat qilamiz.

Yozma tarixiy manbalarda, ilmiy tadqiqotlarda, badiiy adabiyotlarda «chig'atoy», «chig'atoy tili», «chig'atoycha alfoz», «mo'g'ulona, mo'g'uliy» shu kabi «sort, (sart) sortcha, sort tili» atamaları ham qo'llanilgan. Bulardan «Chig'atoy va mo'g'ul» atamaları mo'g'ullar istilosi, chingiziy hukmronligi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Tadqiqotchilardan ba'zilari, jumladan, X. Doniyorov fikricha, bu atamalar Mo'g'uliston hududida yashovchi turkiy qabila va urug'larga nisbatan yoki Chingizxon va Chig'atoy boshchiligida mo'g'ullar bilan qo'shib kelgan turkiy urug'larni Movarounnahr va Xuroson turkiy o'zbeklaridan farqlash maqsadida aytilgan. Bu fikrni asoslashda Rashiddinning «Jome' at-tavorix» asaridagi o'zbek qabilalaridan bir qismini mo'g'ul deb atalib kelinganini, shuningdek, Navoiyning «O'zbek mo'g'ul o'lg'ay aning ollida musulmon» shaklidagi misrasida «O'zbek» etnonimi bilan «mo'g'ul» etnonimini bir qo'yishini dalil tariqasida qayd etadi (46/38-bet). Masalan,

*Ul turki xitoning erur andokki ko'zi qiy moch,
Kim nozdin o'lmas, demak oldindaki, ko'z och.
O'zbek, mo'g'ul o'lg'ay aning ollida musulmon,
Bilmon ani qilmoqmudur, yo'q esa tug'moch (39/104-*

bet).

Darhaqiqat, Navoiy ushbu misralarida «turki xitoy», o'zbek, mo'g'ul birdek musulmon, degan fikridan «mo'g'ul» atamasini «turki xito» kabi turkiy urug'lar qatorida, balki turkiylashgan mo'g'ullar va Xitoydagi turkiylar (uyg'urlar) ma'nosida qo'llagan. Bunday fikrni o'zbek dialekt va shevalari materiallaridagi va «Qitmir», «Nasabnoma» tarixiy shajaranomalardagi hamda «Zafarnoma», «Temurnoma», «To'rt ulus tarixi», «Shayboniynoma», «Shajarai turk» kabi tarixiy asarlardagi ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Mo'g'ullar asli turklarning bir urug'i yoki mo'g'ullarning bir qismi, aniqrog'i, ular tarkibida ham turkiy qabila va urug'laridan bo'lganligi ta'kidlanadi. Shuning uchun ham o'zbek elatining 92 urug'lari ro'yxatida «mo'g'ul» urug'i ham qayd etiladi (34/48-bet). Xuddi shuningdek, «chig'atoy» atamasi bilan bog'liq so'zlar ham Chingizxonning o'g'li Chig'atoyxon hukmronligidagi hududga nisbatan qo'llanilgan. O'zbek elati va uning tiliga nisbatan esa hech qanday aloqasi yo'qdir. Ammo XII asrdan to XIX asrgacha bo'lgan ko'pgina ilmiy adabiyotlarda o'zbek xalqiga va uning tiliga nisbatan noto'g'ri ravishda «chig'atoy eli(xalqi)», «chig'atoy tili», «chig'atoy lahjasi», «chig'atoy adabiyoti» kabi atamalar qo'llanilganligini ta'kidlagan edik. Bu davrlarda shakllangan o'zbek adabiy tili, adabiyoti va xalqining nomiga nisbatan «chig'atoy» atamasining hech bir daxli yo'q. Shu jumladan, venger sharqshunosi G.Vamberi o'zining «Chig'atoy tili grammatikasida» «chig'atoy tili» atamasi ostida g'ayriilmiy tarzda XII asrda tashkil topib to XIX asrgacha keng iste'molda bo'lgan o'zbek adabiy tilini nomlagan. V.V.Radlov «Temur Qutlug' va To'xtamish yorliqlari» va P.M.Melioranskiy uyg'ur hujjatlaridan «Sulton Umar Shayx maktubi» haqidagi ishlarida bu atamaning qo'llanish doirasini XIV–XVI asrlar bilan chegaralaydilar (47/48). V.V.Reshetov bunday qarashlarni haqli ravishda rad etadi. U eski o'zbek tiliga shu kabi o'zbek xalqi nomiga nisbatan «chig'atoy tili» yoki «chig'atoy eli» atamasini, hatto shartli ravishda ham qo'llab bo'lmasligini aytadi. Chunki Chig'atoy hukmronligi, umuman mo'g'ullar istilosidan ancha ilgari – qoraxoniylar davridayoq Movarounnahrda shakllanib taraqqiy etgan turkiy-o'zbek tili va adabiyoti hamda elatiga «chig'atoy»

atamasini bog'lashga hech qanday asos yo'q. Holbuki, «chig'atoy» atamasi ilmiy adabiyotlarda keng tarqalib butun bir o'zbek tili va o'zbek xalqiga, hatto Movarounnahrning hamma xalqiga nisbatan o'rinsiz ishlatilgan. Qayd etish lozimki, Chig'atoy hukmronligi davrida va so'nggi vaqtlarda ham ba'zi badiiy adabiyotlarda bu atama qo'llanilganligini ko'rish mumkin.

Chunonchi,

*Navoiy, ista mavohirda chehrai maqsud,
Arab va gar chig'atoy, yo'qsa turkmanu xalaj (41/98-bet)
kabi.*

Ushbu misralarda arab, chig'atoy, turkman, xalaj atamaları o'zbek urug'-qabilalari ma'nosida qo'llanilgan. Bu urug'-qabilalar VII–XIV asrlarda o'zbek qavmlari orasida aralashib, o'zbeklashib ketganlar. Shuning uchun hozir ham o'zbek dialekt va sheva materiallarida totor, qozoq, qirg'iz, uyg'ur, turkman, xitoy, chig'atoy(mo'g'ul) nomli o'zbek urug'lari mavjud (34/74-75-betlar). Bizningcha, Navoiy, Lutfiy, Atoiy, Bobur, Muhammad Solih, Abulg'oz Bahodirxon va boshqa shoirlar asarlarida uchraydigan «chig'atoy» atamasini ham xuddi shu ma'noda qo'llanilgan deb izohlasa bo'ladi.

Ikkinchidan, «chig'atoy eli» birikmasi Chig'atoy hukmronligidagi el, davlat ma'nosida, «chig'atoycha til (yoki alfoz)» esa Chig'atoy hukmronlik qilgan hudud (territoriya)da qo'llanilgan til ba'zan esa o'zbek xalqining territorial bo'linishidagi xonliklar hududida mavjud bo'lgan dialekt va shevalarning o'zaro farqlanishi nuqtai nazardan qo'llanilganda ham Chig'atoy xonligi (ulusidagi) turkiy lahja ma'nosida tushuniladi. Chunki Chig'atoy xonligi hududidagi turkiy-o'zbeklar hech qachon o'zlarini «chig'atoy va tillarini chig'atoy tili» deb atamaganlar. Hatto, bu xonlikda yashovchi Mo'g'ulistondan va boshqa yerlardan kelgan turkiy qavmlarni tub turkiy-o'zbeklarga ajratib qaraganliklarini isbotlovchi ma'lumotlar bor. Jumladan, temuriylardan yuz o'girib, Shayboniyxon tomoniga o'tgan shoir Muhammad Solihning «Shayboniynoma» asarida «chig'atoy tili» va «chig'atoy eli»

atamasi o'zbek xalqining hududiy bo'lingan qismiga nisbatan qo'llanilishi aniq aks etgan:

*Dedilar: sen Chig'atoy eli sen,
Ushbu yerda Chig'atoy xayli(xili) sen.
Ne deb o'zbek bila yovar bo'ldung,
Xonga bu yanglig' chokar bo'ldung*

(49/111-bet).

*Chig'atoy eli meni o'zbek demasun,
Behuda fikr qilib g'am emasun.
Garchi men o'zbek elidandurman,
Lek tangriga erur bu ravshan*

(49/198-bet).

Shoir o'z asarida 50 dan ortiq urug'-qabilalarning nomi ni tilga oladi (26/43-bet). Bularning barchasi umumiy — o'zbek nomi bilan birlashganligini qayd etadi:

*Ando ham bor edi qo'ng'irotu qiyot,
Mongitu do'rmon, ushun, uyrot
Olmachug erdi ushul xaylidin (xilidin),
To'rt ming o'zbek edi ushbu tariq.
Barcha bir-biriga qarindosh rafiq*

(49/190-200-betlar).

Abulg'oziy Bahodirxon va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida ham «chig'atoy turkiysi», «chig'atoy lavzi (alfozi)», «chig'atoy eli yoki xili» kabi atamalar Chig'atoy xonligidagi o'zbek tili yoki shevasi (xili), umuman, turkiy-o'zbeklar ma'nosida qo'llanilgan. Chunki, Chig'atoyning ona tili ya'ni mo'g'ul tili turkiy elatlarning birortasida ham o'z ta'sirini o'tkaza olgan emas, aksincha mo'g'ul urug'larining tili turk-lashib ketgan edi. Shuning uchun mo'g'ul tili, ya'ni Chig'atoyning ona tili turkiy-o'zbek tiliga va uning xalqi nomiga hech bir daxli yo'q. Bu davrlarda o'zbek urug'lari o'zbek nomi bilan

allaqachon yuqori mavqega ega bo'lishgan edi. Lekin turli xil xonliklarga bo'linganligi, o'zbek xalqining til birligi asosida yaxlit holda shakllanishiga xalaqit bergan va natijada hududiy elatdoshlik yoki mahalliy qabilalar hukmronligi uchun o'zaro kelishmovchiliklarga, hududiy ayirmachilikka sabab bo'lib kelgan. Shuning uchun ham XVII asrning haqiqatgo'y shoiri Turdi o'zining quyidagi misralarini yozishga majbur bo'lgan:

*Tor ko'ngullik beklar manman demang, kenglik qiling,
To'qson ikki bori o'zbek yurtidur, tenglik qiling.
Birini qipchoqu xitoyu birini yuz, nayman demang,
Qirqu yuz, ming son bo'lub bir jon oyinlik qiling...*

(50/131-bet).

Ma'lumki, yozma manbalarda, xususan, XIX asrlarda O'zbekistonning shahar aholisiga nisbatan **sort atamasi** qo'llanilganligini ko'ramiz (51/ 65-bet). Hatto ba'zi adabiyotlarda bu atama o'zbeklarga nisbatan ham qo'llanilgandir. Xuddi ana shu masala ham so'nggi davr olimlari orasida har xil hal etilgan. Ayniqsa, «sort» so'zining etnik jihatlari, uning qaysi tilga va xalqqa mansubligi haqida yagona fikr yo'q. Bu borada adabiyotlarda sort so'zining ma'nosini forscha — sar (ya'ni «bosh») yoki, sor (tuya) atamasidan, ba'zilarida esa hind va fors tillaridagi «sartavan» — «sarbon» yoki «sorbon» so'zlarining o'zagi bilan izohlangandir (44/546,569). Bon — boshlovchi, qo'niqlovchi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida «sort» atamasi «savdogar» ma'nosida izohlangan(28/I tom, 328, III tom, 447-bet).

Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida «sort» so'zi tojiklarga nisbatan qo'llanilgan. Masalan, «**turkning ulug'din kichigiga degincha va navkaridin begiga degincha sort tilidin bahramanddurlar, andoqkim o'z xurd ahvoliga ko'ra ayta olurlar... Ammo sort ulusining arzolidin atrofigacha... turk tili bila takallum qila olmasalar... so'z aytsa ham, har kishiga eshitsa bilur, va aning sort ekanini fahm qilur... Har taomki, yesa bo'lur, yegulik derlar va sort elining ko'pi, balki barchasi yemakni ham, ichmakni ham «xo'rdani» lafzi bilan ado qilurlar**» (52/114-bet).

«Sort» atamasi boshqa manbalarda ham uchraydi. Jumladan, Muhammad Solihda ham Navoiy asarlaridagi kabi etnonim sifatida, elatlar qatori qayd etilgan:

*Borki besh mingcha kishi yurtovul,
Muxtalat o'zbek ila sartu mo'g'ul*

(49/270-bet).

So'nggi davr olimlaridan V.P.Nalivkin, N.P. Ostroumovlar (va boshqalarning asarlarida) «sort» atamasini o'zbeklarga va ularning tillariga nisbatan qo'llaganlar (53/54).

Manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda, «sort» so'zi ancha qadim davrlardan O'rta Osiyo xalqlari orasida qo'llanilib kelinmoqda. Biz ham tarixiy manbalardagi «sort» atamasini qadimgi etnik jihati haqidagi ma'lumotlarga asoslanib, uni o'tmish ajdodlarimizdan biri — sarmat qabilasining qisqargan shakli emasmikin degan fikrga keldik. Tarixiy manbalarda yozilishicha, sarmatlar Don daryosi bilan Azov dengizi orasida yashaganlar. Ularning o'lkasidan Don, Volga, O'rol, Sirgis kabi to'rtta daryo oqib o'tgan. Ular skiflarga urug'dosh qabilalardan bo'lgan (16/32-33-betlar). Hasan Ato Abushiy sarmatlar (sormotlar)ni skif urug'idagi turklardan deb ta'kidlaydi va u sarmat etnonimi forscha «sor omad» so'zidan kelib chiqqan deb izohlaydi. Olim Geradot va boshqalarning asarlaridagi ma'lumotlariga tayanib, sarmatlarning asli kelib chiqishi Turkistondan bo'lib, so'ng Kavkaziyaning shimolida Don va Volga oralarida yashaganlar, skiflar zaiflashgan bir davrda gutlar (german urug'lari)ni yengib, Midiya (hozirgi Ozarbayjon, Iroq, Ajam yerlari)da o'z hukmronligini o'tkazganlar, degan fikrni yozadi (25/ 52-53-betlar). Shunigdek, hozirgi davrdagi tadqiqotchilar asarlarida ham sarmatlar, skiflar, sak-massagetlar, xun avlodlaridan bo'lib, ancha yuqori mavqega ega bo'lgan qabilalar sifatida ta'kidlangan (55/16, 60-betlar). Ular asli Qozog'iston va Markaziy Osiyo yerlaridan tarqalishgan. Jumladan, I.Jabborov yozishicha, ba'zi tarixiy manbalardagi va Xontepa, Dorintepa, Qizilqirdan topilgan arxeologik materiallar asosida miloddan avvalgi

asrlarda ko'chmanchi sak-sarmat qabilalari shimol va sharqdan Oloy, Zarafshonning quyi oqimi, Orol bo'ylaridagi o'troq turkiy qabilalar orasida o'troqlasha boshlaganlar. Miloddan avvalgi II asr o'rtalarida ular janubi-g'arbiy tomondan Krasnovodsk yarim oroligacha va Janubiy Qizilqum, Markaziy Sug'd orqali qadimgi Buxoro vohasi va Shimoliy Baqtriyagacha tarqalganlar (18/63-bet).

Demak, Markaziy Osiyo qabilalari orasida, jumladan, O'zbekiston yerlarida qadimdan sarmatlar etnos sifatida yashab kelishgan. Bizningcha, taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida bu etnonim «sart» shakliga kelib qolgandir. Ularning ko'pchiligi ko'chmanchi o'zbek qabilalariga qo'shilib ketgan bo'lib, bir qismi markaziy shaharlarda o'troqlashib savdo-cotiq bilan mashg'ul bo'lgan va ikki tilda so'zlashuvchi qabilalarga aralashib, bir qismi ehtimol, tojiklashib ketishgan. Shuning uchun ham Mahmud Koshg'ariy va Alisher Navoiylarning asarlarida har xil «savdogar» va «tojik»larga nisbatan qo'llanilgan, degan fikrlar aytilgan. Har holda Alisher Navoiy asarlarida va boshqa manbalarda ular elat shaklida tilga olinishi xarakterlidir, bu masalaga ham alohida ahamiyat berib, yanada chuqurroq mulohaza yuritish lozim bo'ladi.

Shunday qilib, «turk», «o'zbek», «sart», «chig'atoy» atamalarining anglatgan ma'nolari, etnik jihatlari bo'yicha yuqorida aytilgan fikrlardan quyidagicha xulosaga kelish mumkin: Birinchidan, ba'zi tarixiy manbalarda (P.Pelev, A.P.Chuloshnikov) «O'zbek» atamasi Dashti Qipchoq ko'chmanchi turk-mo'g'ul qabilalarining hayotiy sharoiti erkinligi bilan ularni «O'zi bek» deb atalgani tufayli yuzaga kelgan deyiladi. Ba'zida esa «O'zbek» nomi O'zbekxon(1312–1342)gacha, umuman, tarixda bo'lmagan, o'zbeklar o'z nomini ana shu xonning ismidan olganlar degan noto'g'ri fikrlar uchraydi (35/60-bet). Bu kabi asossiz fikrga qo'shiluvchi olimlar safiga N.A.Aristov, A.Yu.Yakubovskiy, P.I.Ivanov, G.Xovors, A.Vamberi, M.A.Chaplichka kabilalar kiradilar. Bizningcha, bu olimlar qisman XV asr yozma manbalari, jumladan, Hamidulloh Mustofiyi Qazviniy, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy kabilarning asarlari asosida shu xulosaga kelishgandir. Har holda, bunday xulosada o'zbeklar-

ning nomlanishi uchun asos bo'lgan «O'zbek» atamasining etnik tomoni ilmiy jihatdan to'liq yechilgan deb bo'lmaydi.

Ikkinchidan, ba'zi manbalarda «O'zbek» so'zining kelib chiqishini O'zbekxonning nomi bilan bog'liq, deb qarash asossiz, balki «O'zbek» etnosini Oq O'rda ulusidagi ko'chmanchi turk-mo'g'ul qabilalari nomidan kelib chiqqan, deyiladi. Ammo «O'zbek» so'zi etnonim shaklda O'zbekxondan qariyb yuz yil keyin Oltin O'rda xonligida yuzaga kelgan (35/60-61-betlar), deb qaralganda ham davr nuqtai nazaridan xatolikka yo'l qo'yiladi.

O'zbeklarning kelib chiqish tarixini o'rganishda taniqli olimlarimizdan M.G.Vahobov, A.Asqarov, B.Ahmedov, I.Jabborov, Sh.Karimov, R.Shamsiddinov, X.Doniyorov kabi bir qator boshqa tadqiqotchilar ham «O'zbek» etnosi eng qadimgi urug' va qabilalar nomini ifodalab kelganligini o'z asarlarida qayd etganlar. Ammo bu etnonimning eng qadimgi holati haqida aniq bir ma'lumot bermaganlar. Masalan, M.G.Vahobov o'zbeklarning O'rta Osiyodagi eng qadimiy xalqlardan biri bo'lganligini e'tirof qilib, uning, asosan, XIX asrdagi etnik tarkibi va etnik hududini ko'rsatib bergan (56). A.Asqarov va B.Ahmedovlar esa «O'zbeklar yaxlit xalq sifatida X asrga kelib shakllandi. Hududiy, iqtisodiy, madaniy va til birligiga ega bo'ldi. Uning etnik jihatlari takomillasha borishi va etnik tarixi shundan keyin ham, to ularni millat darajasiga ko'tarilguniga qadar davom etdi» degan haqiqatga mos keladigan fikrlarni bayon etganlar (18/75-bet).

Hatto, olimlar o'zbek elatining shakllanishini miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalaridan boshlab butun antik davr davomida etnik ildizi hozirgi O'zbekiston hududida yashagan mahalliy aholi bilan bevosita bog'liq bo'lgan, degan fikrlarni aytganlar. Haqiqatan ham har bir xalqning shakllanish jarayoni birdaniga kechmaydi, balki bir necha o'n asrlar davom etadi. Ammo ularning ba'zilarini nomlanish masalasi tarixiy manbalarda aks etmasa, hal etish juda qiyin bo'ladi. Ushbu yuqorida aytilgan fikrlarda xuddi shu masala oydinlashgan emas. Bizningcha ham «O'zbek» etnonimi juda qadimiy bo'lib, taniqli turkshunos olimlar qayd etganlaridek, turkiy-run bitiklaridagi az(azi) // o'z(o'zi) elati (qabilasi)ning nomidan

kelib chiqqandir (57/72-bet). Umuman, bu haqda bizning ikki yo'nalishdagi qarashimiz bor.

Birinchidan, deyarli barcha tarixiy manbalarda «O'zbek» atamasini ko'chmanchi elatlar, aniqrog'i, qipchoq urug'lariga bog'liq holda qaraladi. Qipchoq urug'lari esa juda qadimdan mavjud bo'lib, O'rta Osiyo hududida miloddan oldingi III–II asrlardan (hatto undan oldingi davrlardan) beri yashab kela boshlagan. Lekin u vaqtlarda bu yerdagi qipchoqlar boshqa turkiy elatlarning umumiy soniga nisbatan ancha ozchilikni tashkil etganlar. Ularning son jihatdan ko'payishi X asrlardan boshlangan (34/94-bet). Shuning uchun qipchoqlar orasidagi «O'zbek» nomidagi urug' ham nisbatan keyinroq XII asrlardan boshlab ko'zga ko'ringandir. Ehtimol, qayd etganimizdek, Mahmud Koshg'ariy nazarida bu urug' kichik tuyulgandir. Shu sababli u o'zbek urug'i haqida o'z devonida ma'lumot bermagan.

Ikkinchidan, «O'zbek» atamasi VI–VII asrlardagi turk xoqonligi tarkibidagi «ko'k turk» deb atalgan qabilalar asosida «O'z» (o'zbek) urug'i kichikroq guruh-qavm nomi sifatida yuzaga kelgan. Ular asta-sekin kattalashib, o'z xoqonlari va beklilik tarzidagi davlatlariga ega bo'lganlar. Enasoy sohillarida «O'z bekligi» borligini, jumladan, 742-755-yillarda g'arbiy turk xoqonligida Uzmish tigin hukmronligi bo'lgan (57/375-bet). Kultigin bitiktoshidagi «O'z xalqi va uning Bars begiga xoqon nomining berilishi» kabilalar haqida aytilgan yuqoridagi fikrlarimiz buni tasdiqlashi mumkin. Bu davrlarda mavjud bo'lgan kishi ismlari, joy va davlat nomlari ham ushbu urug' etnonimi bilan bog'liq bo'lgan. Umuman, «Az» va «O'z» atamalari yozuvidagi shaklining o'xshashligini hisobga olsak, etnos sifatida qadimdan bir xil ma'noda qo'llanilgan va «O'zbek» etnonimining asosini tashkil etgan. «O'z» urug' nomi, «Bek» hokimlik darajadagi davlat nomidan tashkil topgan. **«O'zbek» etnosi VI–VII asrlardan yuzaga kelib, X asrdan so'ng ko'pgina turkiy urug'lar birlashuvidan yirik qabilaga va elat nomiga aylana boradi.** Bu jarayonning yanada tezlashuvida Oq O'rda va Oltin O'rda davlatlari hududidagi urug'larning «O'zbek» nomi bilan atalib, birlashuvi va kuchayib ketishi asosiy sabab bo'ldi, xolos. Bunga faqat O'zbekxonning

ismi emas, balki o'sha davlat tarkibidagi o'zbek nomli urug'larning kuchayishi, yiriklashuvi va katta mavqega ega bo'lganligi ham muhim rol o'ynagan. Shu sababli XIV–XV asrlarda Oltin O'rda va Xorazm o'lkalari va elatlari allaqachon o'zbek nomini olgan edilar. Movarounnahrning markazlarida esa turkiy o'zbek, sart nomli qabilalar birlashuvi asosiy o'rin egallaydi. Shayboniyxon boshchiligida ko'chmanchi qipchoq o'zbeklarning kelishi bu yerlardagi turkiy o'zbeklar, o'g'uz o'zbeklar, sart o'zbeklar va boshqa qabilalarning ham umumiy «O'zbek» nomi bilan atalishini tezlashtirdi. O'zbek tili ham shu jarayonda rivojlana bordi. Bu jarayon o'zbek millatining mahalliy holatdan to'liq shakllanish davrigacha davom etdi.

O'zbek tilining, ayniqsa, adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida yozuv va uning yodgorliklari muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvimiz tarixi ham umumturkiy xarakterga ega. Qadimgi turkiy yozuvlar umumturkiy yozuvlar sanaladi. Ular hozirgi turkiy xalqlarning barchasiga tegishlidir.

AJDODLARIMIZ QO'LLAGAN YOZUVLAR

Yozuv har bir xalqning uzoq o'tmishi, tarixi va madaniyatini belgilovchi eng ishonchli dalil, tarix ko'zgusi sanaladi. Yozuv paydo bo'lgan davrdanoq o'sha xalqning tarixida o'chmas sahifa boshlanadi. Bu sahifa insonlar tarixining yozma shaklda boshlanishi hamdir. Shu bois insoniyat tarixining yozuvdan oldingi davri haqida hozirgacha to'liq va aniq ma'lumot yo'q. To'g'ri, ilm-fanda bu haqda ba'zi bir taxmin va farazlar bor. Lekin ular ham yozuv manbalaridan kelib chiqadigan xulosalardir.

Yozma manbalarda qayd etilishicha, yozuvlar hozirgi holatga yetib kelgunga qadar uch bosqichni bosib o'tgan. Birinchi bosqich – eramizdan oldingi Shumer (misr, xet, xitoy) toshli (shakli) yozuvlari, ikkinchi bosqich – g'arbiy-yahudiy bo'g'in yozuvlari, uchinchi bosqich – yunon (alfavitli) oromiy, suriyoniy, moniy yozuvlarining yuzaga kelishi bilan belgilanadi (58/2-8-betlar). Qadimgi finik – geksox yozuvlari ham ana shu alfavitli yozuvlarining dastlabki namunasi hisoblanadi. Xullas, alfavitli yozuvlar eramizdan avvalgi

IV–II asrlardan boshlab ko'payib, rivojlanib borgan. Jumladan, Xuroson va Movarounnahrning o'zida asrimizning I–VIII asrlaridanoq o'nga yaqin yozuvlar qo'llanilgan. Masalan, yunon-baqtar, oromey, suriyoniy, moniy, sanskrit (hind yozuvi), xorazmiy, turkiy-runiy yoki dulbarchin (O'rxun-Enasoy), sug'd, uyg'ur, arab yozuvlari nomlari bilan yuritilgan qadimiy yozuvlar shular jumlasidandir. Yozma manbalarda qayd etilishicha, bu yozuvlarning barchasi eramizdan avval paydo bo'lgan. Ammo bu yozuvlarning ko'plari bizning davrimizga qadar birin-ketin biri ikkinchisini siqib chiqarishi natijasida iste'moldan chiqib qolgan. Shuning uchun bu kabi yozuvlarda bitilgan yodgorliklarni hozirgi davrdagi kishilar uchun o'qish, o'rganish ancha mushkul bo'lib qolgan.

Qadimiy yunon-baqtar, oromey, suriyoniy, sanskrit va boshqa yozuvlar Movarounnahr turkiy elatlari orasida unchalik keng tarqalmagan bo'lsa-da, bu o'lkaning qadimiy madaniy markazlarida turkiy elatlar orasida ham qisman qo'llanilgan, ya'ni qo'shni elatlar, davlatlar bilan o'zaro aloqa-munosabatlarida, yozishmalarida ishlatilgan. Bu haqda tarixiy yozma manbalar, arxeologik topildiqlar guvohlik bermoqda.

Ko'hna baqtar (Baqtriya) tili, yozuvi haqida va uning qadimgi davrlarda hozirgi Movarounnahr o'lkalarida, jumladan, O'zbekiston mintaqasida ham qo'llanilganligi to'g'risida yozma manbalarda ko'plab fikr-mulohazalar bor (58/2-8-betlar). Lekin ushbu yozuvning qo'llanilishi o'lkamizda keng o'rin olmagan. Olimlarning qayd etishlaricha, hozirgi Surxon vohasida qadimgi baqtar yozuvidan foydalanilgan. Masalan, *«Ilk va rivojlangan o'rta asrlarda Surxondaryo havzasining o'rta va yuqori oqimida unchalik katta bo'lmagan tarixiy-madaniy viloyat joylashgan edi. Uni Chag'aniyon deb atashgan...Chag'aniyon nomi... VI asrning oxiridan to VIII asrga qadar baqtriya yozuvida zarb etilgan kumush tangalarda... islomgacha bo'lgan yozma manbalar va bitiklarda ham bir necha marta uchraydi... Chag'aniyonda uzoq vaqtlargacha, aniqrog'i, VIII asrdagi arab istilosiga qadar baqtriya yozuvi qo'llanilib kelingan.... chag'aniyonliklar qaysi*

tilda so'zlashgani aniqlanmagan, lekin ular baqtar tilining biron shevasida so'zlashgan bo'lishi kerak» (59/12-14-betlar). Demak, qadimgi turkiy elatlar orasida baqtar tilining ma'lum bir shevasida so'zlashuvchilar ham yashaganlar.

Tarixiy manbalarda o'tmish yozuvlarning, ayniqsa, sharq xalqlarining qadimiy yozuvlari oromey alifbosi ta'sirida yaratilgan, deb qayd etiladi. Jumladan, qadimiy xorazmiy, dulbarchin (O'rxun-Enasoy), sug'd va boshqalar. Shulardan oromey yozuvi eng qadimgi yozuvlardan sanaladi. Bu alifboning Movarounnahr o'lkalaridagi qadimiy elatlar yozuvlariga ta'siri haqida olimlarimizning fikrlari ko'p. Masalan, oromey yozuvi «eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida qadimgi Eron Ahmoniylar davlati tasarrufiga kirib, uning idora boshqaruv tizimida amal qilgan. Oromey yozuvi va oromey tili mahkamachilik bilan Xorazm o'lkasida ham tanish bo'lgan. Amaliyot uchun qulay 22 harfli alifbo (oromey) yozuvi tez orada Xorazm tilining fonetik talablariga moslashtirilgan. Natijada yangi Xorazmiy yozuvi shakllana boshlagan»(60). Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, oromey alifbosi eramizdan oldingi asrlarda boshqa alifboli yozuvlardan ancha oldin shakllangan bo'lgan. Lekin Xorazmda ham bu yozuv o'z holicha keng tarqalgan emas, balki o'zgartirilgan holda yangi alifbo uchun asos bo'lgan...

Qadimiy hindlarning sanskrit yozuvi ham mashhur bo'lgan. Ushbu yozuv namunalari Termiz shahrining qadimiy o'zani Qoratepa xarobalaridan topilgan. U yerda kushonlar davriga xos qadimiy ibodatxona mavjud bo'lgan. Arxeologik qazilmalar natijasida ushbu manzilgoh xarobalaridan ajdodlarimizning qadimiy bitiklari ham topilgan edi. Qadimiy hindlarning sanskrit yozuviga o'xshash bo'lgan ushbu bitik yodgorliklari til jihatidan ham turkiy, ham hindcha yozilgandir. Demak, kushonlar davrida turkiy elatlar orasida qadimiy hind-sanskrit yozuvidan ham foydalanilgan (58/20-21-betlar).

Yuqorida qayd etilgan yozuvlar orasida sug'd yozuvi Movarounnahrda ko'proq tarqalgan. Chunonchi, Xuroson va Movarounnahr o'lkalaridan topilgan qadimiy sug'd bitiklari fikrimizni tasdiqlaydi.

Sug'd alifbosi ham eramizdan oldingi yozuvlar kabi Xuroson va Movarounnahrda tarqalgan. U ham bir qancha yozuvlarning shakllanishiga asos bo'lgan. Sug'd yozuvi bu o'lkalardagi ba'zi elatlar (ya'ni sug'diy-turkiy elatlar) orasida VII–VIII asrlargacha qo'llanilib kelingan. Masalan, Zarafshon daryosining yuqori oqimi, Mug' tog'ining etaklaridan, Panjikent, Samarqand, Qashqadaryo va boshqa joylardan VII–VIII asrlarga tegishli yozuv yodgorliklari, ayniqsa, Samarqand shahrining eski o'rnidan topilgan (Afrosiyob) yodgorliklari orasidagi sug'd yozuvlari eramizgacha va asrimizga teng yoki turli davrlar haqida guvohlik beradi¹. Bu kabi yodgorliklar haligacha keng o'rganilgan emas, albatta. Sug'd yozuvi ham boshqa alifbolar kabi bu o'lkaga arab istilochilari kirib kelishi va arab yozuvining keng joriy etilishi bilan iste'moldan chiqarilgan. Yuqorida qayd etilgan yozuvlarning barchasi turkiy xalqlar orasida u yoki bu darajada qo'llanilgan, ammo ushbu yozuvlar bilan birgalikda ularning (turkiy) o'z alifbolari ham bo'lgan.

Til va yozuv har bir elat/xalq/ning eng yuksak madaniy va ma'naviy qadriyatlaridan biri hisoblanib kelingan. Ushbu qadriyatlar tarixi boshqa xalqlar kabi turkiy xalqlarda ham qadimiydir. Turkiy xalqlarning o'ziga xos tili va yozuv (alifbo) tarixi borki, 2500 yillik davr bilan o'z ichanadi. Masalan, eramizdan oldin shakllangan xorasimiy (xorazmiy), dulbarchin (turkiy-run yoki O'rxun-Enasoy), turkiy-uyg'ur (qadimiy uyg'ur) nomlari bilan atalib kelinayotgan yozuvlar va bitik yodgorliklari bizgacha yetib kelgan. Xuddi ana shu ko'hna topildi bitiklari ularning yoshini aniqlashga dalil bo'lmoqda. Uzoq o'tmish haqida guvohlik beruvchi ushbu bitik yodgorliklarining har biri o'ziga xos tarixga ega. So'nggi yillardagi arxeologik topildiqlar, tarixiy yozma manbalar bo'yicha olimlarimiz tomonidan olib borilgan ilmiy

¹ Sug'd so'zi «Avesto» (Yasht kitobi)da «sug'da», «sug'uda» shakllarida uchraydi. Qadimgi sug'dlarning makoni Gava nomi bilan beriladi. «Gava» so'zi ishtirok etgan joy nomlari Qashqadaryo viloyatida anchagina uchraydi: Gavdara/Gaudara/, Gavxona/Gauxona/, Gavgog'/Gavgog'/, Gavcho'qqi/Gavcho'qqi/ kabilar shular jumlasidandir (A.Sa'dullayev, 16/47,48,50-betlar).

tadqiqot ishlarida ularning har biri haqida ma'lum bir xulosalar aytilib kelinmoqda. Jumladan, ilmiy tadqiqot ishlari tahlili shuni tasdiqlaydiki, qadimgi Xorazm elati, tili va yozuvi juda ko'hna tarixga ega bo'lgan. Olimlarimizning tasdiqlashicha, xorazmliklar ahmoniyalar davriga qadar ham, aniqrog'i, eramizgacha bo'lgan II ming yillikning ikkinchi yarmidan elat sifatida tashkil topgan edilar¹. Arxeologik tadqiqotlarning guvohlik berishicha, Xorazmda miloddan oldingi VI–V asrlardayoq yirik shaharlar mavjud bo'lgan. Masalan, Janbosqala miloddan oldingi II–I asrlarda Xorazmdagi ko'hna shaharlar orasida ko'zga tashlanadigan shahar bo'lgan. Tuproqqal'a esa asrimizning boshidan poytaxt ahamiyatiga molik shahar hisoblangan. IV asrning boshlarida Fir(fil) qo'rg'oni atrofida barpo etila boshlangan Qiyot shahri mamlakat poytaxtiga aylangan va u X asrga qadar shu mavqeda saqlanib kelingan. Ana shunday madaniylashgan yurtning elati o'ziga xos tillariga ega bo'lishi bilan birgalikda eramizga qadar IV–II asrlardayoq o'z yozuvlarini (alifbolarini) ham yaratishga ulgurishgan. Ushbu ko'hna til va yozuv Beruniy yashagan davrlarda yoki XI asrlarda ham xorazmliklarning zaruriy ehtiyojlarini qondirish maqsadida kundalik turmushlarida foydalanib kelingan.

Xorazm tili forsiyga nisbatan boshqa til tarmog'iga (guruhiga) mansub bo'lganligi sababli forsiy tilda so'zlashuvchilar unga tushunmaganlar. Forsiylar uchun bu til va bu yozuv tushunarli bo'lmagan. Shuning uchun Xorazmshohlar G'aznadagi elchilari bilan bo'lgan yozishmalarida o'z yozuvlari va tillaridan fikrlarini sirli, maxfiy saqlash (shifr) vositasi sifatida foydalanganlar (61).

Ko'hna Xorazm yozuvi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ushbu qadimiy yozuv tarixiy taraqqiyotini to'rt bosqichga bo'lib o'rganilgan: 1) Eramizdan avvalgi IV–II asrlarda oromey yozuvi asosida shakllanib mustaqil Xorazm (alifbo) yozuvi yo'lga kirishi; 2) Eramizdan avvalgi I asr milodiy III–IV asrlargacha bo'lgan davri, ya'ni qadimiy Xorazm tili talabla-

¹Xorazm «Avesto» tilida «xvarizam» shaklda uchraydi. «Avesto»ning /Yasht kitobidagi/ ma'lumotlariga zamondosh Xorazm yodgorliklari mil. avv. IX–VIII asrlarga oid Amirobod madaniyati nomi bilan atalgan (A.Sa'dullayev, 16/51-bet).

riga mos keladigan orfografik qoidalari asosida shakllanib bo'lishi; 3) V–VII asrlarda Xorazm yozuvining ravon xat uslublari devon mahkamachiligida amal qilgan husnixat shakllariga ega bo'lishi; 4) Arab yozuvi ta'siridagi yangi ko'rinishdagi arabiy-xorazmiy yozuvining shakllanishi (60).

Ushbu ko'hna yozuvning 1,2-bosqichlari uning tarixiy taraqqiyotidagi ilk davri, ya'ni oromey yozuvi bilan bog'liq bo'lgan davrlari sanaladi. Xorazmiy yozuvining 3-bosqichi uning mustaqil alifbo yozuvi sifatida to'liq shakllangan davri desa bo'ladi. Afsuski, xuddi ana shu shakllangan alifbo boshqa qadimiy yozuvlar kabi arab istilosi davrida arab yozuvining majburiy ravishda keng joriy etilishi natijasida umri qisqartirilgan. Bu yozuv ham iste'moldan chiqqan.

Turkiy elatlar orasida keng qo'llanilgan qadimiy yozuvlardan biri dulbarchin (turkiy-run) yozuvining o'tmish tarixi ham ancha uzoq davrlar bilan o'lchanadi.

Ilmiy-tarixiy asarlarda umumturkiy tilning miloddan avvalgi III–II asrlargacha Oltoy-Xun davrlari mavjud bo'lganligi haqida ma'lumot bor. Oltoy va Xun davrlarida turkiy, totor, tungus, manjur, kores, yapon kabi tillari bir oilaga, hatto hozirgi Skandinav-Yevropa tillaridan ba'zilar ham shu tillar oilasiga kirgan. Bu til oilasining yagona bir tili bo'lgan (62/113–117-betlar). Keyinchalik bu til oilasi bir necha til guruhlariga, ya'ni turk-mo'g'ul, tungus-manjur kabi mustaqil tillarga bo'linib ketgan. Hozirgi davr olimlarimizning fikriga ko'ra, umum Xun davlatining chegarasi Markaziy Osiyodan Sharqiy Yevropagacha bo'lgan. Ammo Oltoy davlati haqida to'liq ma'lumot yo'q. Shu kabi eramizdan oldingi Oltoy-Xun davridagi umumelat (oila) tili, jumladan, turkiy til va uning bitiklari (namunalari) bo'yicha ham biror-bir dalil, ma'lumot yo'q, chunki ular bizgacha yetib kelgan emas. Bizgacha yetib kelganlari esa milodiy davrlarga tegishlidir.

Milodiy asrdan boshlab turkiy elatlar va ularning tili va yozuvi taraqqiyotida muhim bir rivojlanish davri boshlangan. Jumladan, V–VI asrlarga tegishli qadimgi turkiy tilning yozma namunalari o'zida aks ettirgan bitik yodgorliklar hozirgi davrgacha yetib kelgan. Bu yodgorliklardagi bitiklar shundan dalolat beradiki, turkiy elatlarning ushbu yozuvi ancha oldingi

davrlarda shakllangan bo'lgan. Xuddi shu V–VI asrlardan boshlab, anchagina mustaqillikka ega bo'lgan ikki davlat – Sharqiy va G'arbiy Xun davlatlari tashkil topgan edi. Bu davrlardan boshlab turkiy-mo'g'ul oilasidagi qator qabila tillari alohida-alohida holda mustaqillanib borayotganligi, so'ng turkiy til qavmlari-elatlarining birlasha boshlaganligi va umumturkiy tilning shakllanishi uchun zamin yaratilayotganligi sezilarli darajada bo'lgan.

VII–VIII asrlarda g'arbiy turk xoqonligi Movarounnahr-dagi turkiy qavmlarga ham o'z ta'sirini o'tkaza boshlagan, ular turkiy eftalitlar hukmronligini tugatib, xoqonlikni joriy etishgan. Manbalarda qayd etilishicha, X asrgacha Turk-Tukyu xoqonliklari hukmronlikni o'z qo'lida saqlab kela olgan. Turk-Tukyu xoqonliklari davrida ham qadimiy dulbarchin va uyg'ur yozuvlari qo'llanilgan. Lekin dulbarchin yozuvi turkiy elatlar orasida ancha keng va katta hududda tarqalgan bo'lsa-da, VII asr oxirlaridan boshlab iste'moldan chiqqa boshlagan.

Dulbarchin yozuvi eramizdan oldingi III–II asrlarda shakllangan. Lekin uning hozirgi davrda aniqlangan yodgorliklari V–VII asrlarga tegishli bo'lib, fan olamiga XVII asrdan, asosan, XIX asrdagina ma'lum bo'lgan.

Qadimgi turkiy tilning dulbarchin yozuvi yodgorliklarini dastavval rus-yevropa olimlari tomonidan Mo'g'uliston, Qozog'iston va O'rta Osiyo o'lkalaridan topib, fan olamiga ma'lum etishgan. Bu yozuv bitiklari o'qilishi qiyin bo'lganligidan skandinav-german tillarining qadimiy yozuvi – «run»ga (runa – sirli, yashirin demakdir) nisbat berib nomlaganlar. Ba'zi olimlar esa bu yozuvning topilgan joyiga nisbat berib, «O'rxun-Enasoy yozuvi» bitiklari deb nomlashgan. Qadimgi Xitoy manbalarida, jumladan, temuriylar davridagi mashhur tarixnavis olim Ibn Arabshoh (1389–1450)ning «Ajoyib al-makdir fi navoyibi Taymur» asarida ham ushbu qadimiy turkiy tilga xos bo'lgan yozuv «Dulbarchin» nomi bilan atalganligi qayd etilgan.

Qadimgi turkiy tilning ushbu yozuvi haqida fan olamiga birinchi bo'lib 1692-yili Amsterdam shahrining burgomistri N.Vitzin ma'lum qilgan edi. Shundan so'ng bir qator olimlar o'z ilmiy axborotlari, ilmiy tadqiqotlarida bu yozuv haqida

ma'lumot bera boshlagan edilar. Masalan, 1696 -yili rus olimi S.Ramezov, 1730-yilda shved olimi I.Stralenberg, rus olimi N.M.Yadrensevlar shular jumlasidandir. Ushbu yozuv topilgan vaqtdan qariyb ikki asr o'tgach, 1893-yildan boshlab daniyalik olim V.Tomsen va rus olimi V.V.Radlov qadimgi «turkiy-run yoki dulbarchin» yozuvi bitiklarini o'qishga muvassar bo'lishdi. Ayniqsa, bu borada taniqli sharqshunos olim S.Ye.Malovning ishlari diqqatga sazovordir. U O'rxun-Enasoy yozuv yodgorliklari bo'yicha ketma-ket ikkita kitobini chop ettirdi (63,64).

Dulbarchin yozuvining kelib chiqishi, yaratilish davri haqida hozirgacha olimlarimiz orasida munozarali fikrlar aytilib kelinmoqda. Jumladan, 1970-80-yillar davomida ushbu yozuv bo'yicha qilingan axborot va tadqiqotlarda dulbarchin yozuvi (qadimgi run yoki O'rxun-Enasoy yozuvi) turkiy elatlar orasida shakllanib, keng qo'llanilgan, degan fikrlar bayon qilingan (63,64,66). So'nggi yillardagi arxeologik topildiqlar guvohligi asosida esa olimlarimizning fikrlari birmuncha o'zgardi. Ular ushbu yozuvni eramizdan oldingi III–II asrlarda ham keng qo'llanilganligini va uning shakllanishi asrimizga tengdosh ekanligini qayd etishmoqda (67). Har holda so'nggi yillarda aytilgan fikrlarda haqiqat bor, deb o'ylaymiz. Shu bilan birgalikda, ushbu yozuv dastavval O'rxun-Enasoy atroflarida yoki Mo'g'uliston, Sibir yerlarida yashovchi turkiy elatlar orasida qo'llanilgan degan fikrlarga qaraganda, dulbarchin yozuvini dastavval Movarounnahr, Uyg'uriston yerlarida yaratilgan, degan yangicha fikrlar aytilmoqda. Bu kabi fikrlarga biz ham qo'shilamiz.

Darhaqiqat, Movarounnahr o'lkalarida olib borilayotgan tarixiy-arxeologik tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'layotgan ko'plab topildiqlar, yozuv yodgorliklari yuqoridagi fikrni tasdiqlamoqda. Ushbu o'lkalardan topilgan qadimiy turkiy yozuv yodgorliklarining soni ham yildan-yil oshib bormoqdaki, olimlarimiz qayd etganlaridek, dulbarchin yozuvi, ehtimol O'rxun-Yenisey tomonidan g'arbga emas, balki Markaziy Osiyodan Sharq tomonga tarqalgandir (67). Bu yozuvning turkiy elatlar orasidan iste'moldan chiqishiga esa Sharqda qadimgi turkiy-uyg'ur yozuvining, Markaziy Osiyoda esa arab yozuvining keng joriy etilishi sabab bo'lgandir.

Ushbu o'rinda qayd etish lozimki, bizningcha, o'sha davrlarda Movarounnahr hududlarida yashovchi turkiy qabila-elatlar orasida qadimgi turkiy va turkiylashgan sug'diy yozuvi (ya'ni turkiy-run va sug'diy) yozuvi asosida vujudga kelgan yangi alifbo xati shakllangan. Bu yozuvdan Koshg'ardagi turkiy-uyg'ur qabila elatlari ham foydalanganlar. XI asrning mashhur tilshunos olimi Mahmud Koshg'ariy o'zining «Devonu lug'otit turk» asarida bu yozuv haqida quyidagicha ma'lumotlar bergan:

“Turkiy tillarda qo'llaniladigan asosiy harflar soni 18 ta. Turkcha yozuvda shular qo'llaniladi. Bu asosiy harflardan boshqa talaffuzda ifodalanuvchi yana yettita harf borki, turkiy so'zlar bu harflarsiz ishlatilmaydi. Barcha xoqonlar va sultonlarning kitoblari, yozuvlari qadimgi zamonlardan shu kungacha Qashqardan Chingacha hamma turk shaharlarida shu yozuv bilan yuritilgan» (1-t, 47-50-65-betlar).

Mahmud Koshg'ariyning ushbu ma'lumoti ehtimol qadimgi turkiy va sug'diy yozuvlari asosida shakllangan umumturkiy yozuv haqidagi fikrimizga to'g'ri kelsa kerak. Chunki Mahmud Koshg'ariy ushbu yozuvni «turkcha yozuv» deb, turkiy tillarning barchasida qadimdan qo'llanilishini uqtirgan.

Mahmud Koshg'ariy devonining oxirida qabila va elatlar haqida keltirilgan ma'lumotlarda uyg'urlarning tili va yozuvi haqida quyidagicha fikr bildirilgan:

«Uyg'urlarning tili turkchadir. Lekin ularning yana bir tillari bor. O'zaro o'sha tilda so'zlashadilar. Yozuvlari bu kitob boshida (65-bet/U.S.) ko'rsatilgan 24 harfli yozuvdir. Lekin yana bir yozuvlari borki, devon va kitoblarini u xat bilan yozadilar» (491-bet). Ba'zi manbalarda qadimgi turkiy-uyg'ur yozuvini sug'd xatining taraqqiy etgan shakli sifatida qarashlar mavjud, albatta (68/4-bet). Jumladan, qadimgi sug'diy yozuv VI–VIII asrlarda turkiy qabila elatlari orasidagi turkiylashgan turkiy-sug'd yozuvining shakllanishiga asos bo'lgan. Bu yozuv qadimgi sug'diy yozuvidan farq qilgan. Turkiy tillar qonuniyatlariga bo'ysundirilgan, tamoman yangi yozuv sifatida shakllangan va sug'd yozuvi bilan parallel ravishda qo'llanilgan. Ba'zi manbalarda «Mahmud Koshg'ariy, bunda turkiy-runiy yozuvni ko'zda tutgandir», deb ta'kidlanadi (69/21-bet).

Darhaqiqat, turkiy-runiy yozuvi Xitoyda (Uyg'uristonda) Dulbarchin nomi bilan yuritilganki, Mahmud Koshg'ariy o'z devonida shu yozuvni ko'zda tutgan bo'lishi ham mumkin. Qoraxoniylar davlatining hududida islomgacha bo'lgan davrlarda ham va hatto undan so'nggi (X–XIII) asrlarda ham ushbu yozuvdan uyg'urliklar foydalangandir. Bu yozuv uyg'ur, mo'g'ul, manchjurlarning yozuvlariga asos bo'lgan. Bu kabi fikrlar ancha haqiqatga yaqindir. Ushbu yozuvda turkiy-runiy va sug'd yozuvlariga xos bo'lgan harf-belgilar borki, bu xususiyatlar uni qadimgi turkiy-runiy va sug'd yozuvlarining rivojlantirilgan, taraqqiy etgan shakli bo'lgan, deb qarash mumkin. Arab yozuvi ushbu turkiy alifboni asta-sekin iste'moldan chiqarib qo'ydi.

Ammo, Hirot, Samarqand, Yazd, Istambul kabi ilmfan, adabiyot va san'ati rivojlangan madaniy markazlarda turli xil yozuvlarni biladigan maxsus xattot va kitobotchilar tayyorlangan. Jumladan, qadimgi turkiy yozuvlarni o'qiydigan va yozadigan mutaxassislardan Samarqandda Zaynul Obidin, Hirotida Abu Malik, Hasan Qora Sayil Shams, Yazdda Mansur baxshi, Istambulda Abdurazzoq baxshi kabilarning nomlari mashhur bo'lgan, ular turkiy-uyg'ur yozuvi kitobotchiligida taniqli xattotlar sanalganlar (68/7-8-betlar). Bu yozuv ehtimol, so'nggi (X–XIII asrlarda) sharqiy turkiy elatlar tilida, ayniqsa, uyg'urlar va mo'g'ullar orasida nisbatan kengroq saqlanib qolganligi sababli, uyg'ur yozuvi nomi bilan ataladigan bo'lgan. Temuriylar davrida ham bu yozuv uyg'ur xati nomi bilan qisman qo'llanilgan.

Temuriylar davrida turkiy-uyg'ur yozuvi ba'zi sohalarda o'z mavqeiga ega bo'lgan. Shaxsan Sohibqiron Amir Temur va shahzodalar ko'rsatmalari bilan bu yozuvdan ochiq-oydin foydalanib kelingan. Jumladan, 1391-yili Sohibqiron Amir Temur buyrug'i bilan «Oltin Cho'qqi» tog'ida o'yib yozilgan turkiy-uyg'ur xatidagi bitik, Umarshayx (1463-y.), Temur Qutlug' (1397-y.), Abdusayid (1469-y.), To'xtamish (1393-y.), Shohruh (1422-y.) kabilarning yorliqlari va ba'zi bir muqaddas va noyob kitoblar ham temuriylar devonxonalarida turkiy-uyg'ur yozuvida ko'chirtirilgan (70/45-51-betlar). O'sha davr madaniy markazlarida, ayniqsa, Movarounnahr

va Xuroson madaniy muhitida turkiy-uyg'ur yozuvi asosidagi kitobotchilik alohida o'rin egallagan. Tarixnavis Ibn Arabshohning «Ajoyib-al-maqdir fi navoyibi Taymur» asarida yozilishicha, Movarounnahrda (Chig'atoy davlatida) «tilxat, maktub, farmon, xat, kitob, bitim, solnoma, she'r, qissa, hikoyat, hisob, xotira va devonga tegishli hamma ishlar chingizona tuzuklar» turkiy-uyg'ur yozuvida yozilgan. Bu yozuvni bilgan kishi xor bo'lmagan... (71/39-42-betlar). Turkiy-uyg'ur yozuvi o'sha davr turkiy qabila, elatlar tilining nutq tovushlarini ifodalash uchun ancha qulayliklarga ega bo'lgan. Qadimgi turkiy-runiy va arab xatida unli tovushlar yozuvda ko'p hollarda ifodalanmaydi. Turkiy-uyg'ur yozuvida esa unlilar har doim ifodalanadi. Turkiy-uyg'ur yozuvidagi bu afzallik turkiy tillarga xos bo'lgan fonetik singarmonizm (unlilar uyg'unlashuvi) qonunining amalda bo'lishi uchun to'liq qulaylik tug'diradi. Shu kabi cho'ziq unli larni ifodalash mumkin bo'lgan. Turkiy-uyg'ur yozuvi o'ngdan chapga yoki yuqoridan pastga qarab yozilgan va o'qilgan (58/16-17-41-betlar). Aytilganlar asosida umumturkiy tildagi yozuv-alifbolarida qo'llanilgan harflar bo'yicha quyidagicha xulosaga kelish mumkin: 1) Hozirgi O'rta Osiyo mamlakatlari hududlaridan topilgan yozuv manbalari til materialidan ma'lum bo'ladiki, turkiy qavm-elatlari qadimdan o'zining alifbo tizimiga ega bo'lgan. Ularning alifbolari quyidagicha harf tizimiga ega bo'lishgan: 1) Xorazm yozuvi 22 harfli alifbodan iborat bo'lgan. Eramizdan avvalgi V–IV asrlarda shakllangan bo'lib, u milodiy XI–XIII asrlargacha uchrab turgan (60). 2) Sug'd yozuvi ham 22 (ba'zi manbalarda 19) harfli alifbo shaklidan iborat bo'lib, miloddan oldingi III–II asrlarda yuzaga kelgan va u XI–XIII asrlargacha ba'zi bir manbalarda uchraydi (58) 6–7-betlar). 3) Turkiy-runiy yozuvlar oromey-xorazmiy alifbolari asosida eramizdan avval III–II asrlarda yuzaga kelgan bo'lib, 41 harfli (ba'zi manbalarda 28 yoki 35 ta harfli) alifbo shaklidir (21/12-bet; 63/17-bet; 72/6-bet). Bu alifbo asrimizning V–VIII asrlarigacha iste'molda bo'lgan. 4) Sug'diy yozuv asosida shakllangan turkiy alifbosi 18 harfdan iborat bo'lib, u bizningcha, Movarounnahrda keng iste'molda bo'lgan. Bu yozuv sug'diy alifbo bilan parallel VII–

IX asrlargacha qo'llanilgan. 5) Qadimgi uyg'ur yozuvi eramizdan oldingi davrlarda yuzaga kelgan bo'lib, 24 harfdan iborat alifbo shaklidir. Bu yozuv asosan, uyg'ur, mo'g'ul, manjur va qisman boshqa turkiy qavmlar orasida tarqalgan bo'lib, X–XIV asrlargacha qo'llanilgan. 6) Arab yozuvi ham oromey alifbosidan yuzaga kelgan bo'lib, turkiy elatlar bu alifbodan VIII–XX asrlargacha foydalanganlar. Arab yozuvi aslida 16 asos (belgi) harfdan tuzilgan bo'lib, undan qo'shimcha belgilar orqali 32 harfli alifbo shakli hosil qilingan. Turkiy qavmlar yuqorida nomlari tilga olingan alifbolar bilan birlikda yana bir qancha yozuvlardan foydalanganlar. Ammo ular keng iste'molda bo'lmagan.

Demak, o'tmishda turkiy yozuvlar orasida qadimgi turkiy-uyg'ur yozuvi ancha yashovchan bo'lgan, u turkiy xalqlar orasida so'nggi davrgacha qo'llanilgan. Lekin bu yozuv ham arab yozuvi bilan raqobat qila olmagan va asta-sekin iste'moldan chiqqan. Turkiy yozuvlarning barchasi o'z o'rnini arab yozuviga bo'shatib berdi. Arablar istilosidan so'ng boshqa xalqlar kabi turkiy elatlarning deyarli barchasi arab dini va alifbosini qabul etishga majbur bo'ldilar. Shu tariqa turkiy xalqlar o'zlarining qadimiy yozuvi, uzoq tarixga ega bo'lgan madaniy yodgorliklarini o'qish va o'rganishdan asta-sekin mahrum bo'ldilar.

Arab yozuvi Arabistondagi qadimiy yozuvlardan sanaladi. Bu yozuv ham eramizdan oldingi davrlarda shakllana boshlagan va islom dinining muqaddas kitobi «Qur'on» yozuvi sanalgan. Shuning uchun ham islom bayrog'i ostida arablar bosib olingan o'lkalarda «Qur'on» va uning yozuvini o'rganishni majburiy tarzda joriy etdilar.

Jumladan, bu yozuv Xuroson va Movarounnahr o'lkalaridagi xalqlar orasida VIII asrdan boshlab keng qo'llanila boshlandi. Ayniqsa, diniy, ilm-fan, maorifiy sohalarda asosiy yozuv sanaldi. Shu tariqa u 1930-yilgi yozuv islohiatiga o'zbek xalqi orasida amalda bo'ldi, hatto 40-yillargacha keng qo'llanilib kelindi. Bu yozuvda qariyb 12 asr mobaynida turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi o'zining jahoniy bilimini, adabiyoti va tarixini, umuman, madaniy-ma'naviy yodgorliklarini yarata oldi.

Demak, ushbu qayd etilgan yozuvlar va ularda bitilgan yozma manbalar turkiy xalqlarning o'tmish madaniy-ma'naviy merosining sarchashmalari sanaladi. Shuning uchun ham turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining qadimiy yozuvi, yuksak ma'naviyati va oliy darajadagi mafkurasining ildizlari nihoyatda uzun va sermazmundir. Xuddi ana shu ildizdan avlodlarimiz asrlar osha ma'naviy ozuqa olib kelmoqdalar va uni rivojlantirib, taraqqiy ettirib, boyitib hozirgi avlodlarga yetkazishga harakat qilmoqdalar.

Har bir ma'naviy qudrat faqat ona tilida va shu tilda bitilgan adabiyotdagina shakllanadi, deydilar. Shuning uchun ham har bir davrda imkoniyat darajasida bobokalonlarimiz bu sohaga ahamiyat berib kelishgan. Hatto, arab, mo'g'ul istilolari davrida ham ona tilimiz e'tibordan chetda qolmagan. Uyg'ur, arab yozuvi asosida turkiy til yodgorliklari yaratilganligi ma'lum.

Xullas, ushbu yuqorida qayd etilgan yozuvlar ajdodlarimizning alifbolari ham qadimiy ekanligidan dalolat beradi.

AJDODLARIMIZ QOLDIRGAN YOZMA MANBALAR

Manbalarda ta'kidlanganidek, turkiy qavmlarning tarixi (yozuv tarixi bilan o'Ichansa) 2500 yilga teng kelishi mumkin. Jumladan, Almati shahri yaqinidan, to'g'rirog'i, Issiqko'l atrofidagi Eski qo'rg'onidan topilgan qabriston topildig'i bu fikrni tasdiqlaydi. Bu noyob ma'lumot (hujjat) kumush likopchadagi bitikdir. Undagi bitikdan (qabr 1250 yil keyin qad ko'targan) O'rxun obidalaridagi Ko'k Turk harflari bilan yozilgandir. Bu bitik olimlarimiz tomonidan o'qilib, miloddan oldingi V asrlarga tegishli yodgorlik deb topildi (67/2-son). Ammo milodiy asrdan avvalgi davrlarini to'liq tiklash va u haqda to'liq tasavvurga ega bo'lish qiyin. Chunki jamiyat taraqqiyotidagi ayrim ziddiyatli voqealar, tarixiy shart-sharoitlar bilan bog'liq holda ularning deyarli hammasi yo'q qilingan yoki unutilib yuborilgan, bizgacha yetib kelganlari ham turli xarobalarda, qabristonlarda, yer osti qatlamlarida ayanchli holda saqlangandir. Ikkinchidan, eng qadimgi davr bitiklarning harflari yoki til xususiyatlari so'nggi davrga nisbatan ancha o'zgarishlarga uchragan, hatto tamoman boshqa shaklga

o'tgan. Jumladan, qadimgi xorazmiy tili arab istilosi davridayoq, xususan, X–XI asrlarda turkiy tilning o'g'uz lahjasiga ko'chib, shak, massagetlar davridagi shaklini allaqachon yo'qotgan edi. Shuning uchun ham hozirgi paytda qadimgi xorazmiy tili haqida bizgacha yetib kelgan oz sonli yozma yodgorliklar asosidagina fikr yuritish mumkin bo'ladi. Hatto, milodiy V–VIII asrlarda yaratilgan qadimgi turkiy-runiy va turkiy-uyg'ur yozuv yodgorliklari tili ham IX–XIII asr yozma yodgorliklari tilidan ancha farqlanadi. Hozirgi tilimizga nisbatan esa eskirgan, tushunilmaydigan holga kelib qolgan. Shunga ko'ra, qadimgi turkiy yozuv manbalarini ikki bosqichga bo'lib o'rganish mumkin: a) V–X asrlar yozma manbalari; b) X–XIV asrlar yozma manbalari. V–X asr yozuv manbalariga xorazmiy, dulbarchin yoki turkiy-runiy (Urxun-Enasoy), qadimgi uyg'ur yozuvlarining yodgorliklarini kiritish lozim bo'ladi. X–XIV asr yozuv manbalariga esa turkiy-uyg'ur va arab yozuv yodgorliklari kiradi.

V–IX asrlar yozuv manbalari. Qayd etilgan yozuv manbalaridan xorazmiy yozuv yodgorliklari ancha qadimiy tarixga ega. Ammo bu qadimiy tarix boshqa yodgorliklarga qaraganda deyarli o'rganilgan emas, desa ham bo'ladi. Bu yozuv manbalarining qadimgi davri tili haqidagi ma'lumotlar so'nggi asrlarda yuzaga chiqqan arxeologik topildiqlar orqali aniqlanmoqda. Ba'zi hollarda esa ilmiy manbalarda tasdiqlanganidek, «Muqaddimat al-adab», «Kunuat ul-muniya» kabi qo'lyozma manbalarda — Abu Rayhon Beruniy asarlaridagi qadimgi xorazmiy tilidan saqlanib kelingan namunalar asosida fikr yuritilib, unutilgan xorazmiy tili qurilishining qisman lug'aviy-nutqiy (fonetik), grammatik tuzilishini aniqlashga harakat qilinmoqda (60).

Qadimgi xorazmiy yozuv yodgorliklari haqidagi manbalar, asosan, 1930–1940-yillardan yuzaga chiqqan boshladi. Bu borada S.P.Tolstov, V.A.Livshits kabi sharqshunos-arxeolog olimlarning xizmatlari buyukdir. Jumladan, S.P.Tolstov o'zining 30-40-yillar davomida olib borgan kuzatishlari natijasi sifatida 1948-yili «Drevniye deli Oksa i Yaksarta» kabi qator kitoblarini nashr ettirdi. Ushbu kitoblarida «Tuproqqal'a» dan topilgan yozma yodgorliklari asosida xorazmiy alifbosi harflari

shakllarini, asosan, aniqlab berishga muvaffaq bo'ldi. Ayniqsa, V.A.Livshitsning Tuproqqal'a, To'qqal'a, Mazdahkan kabi joylardan topilgan xorazmiy yozuv yodgorliklarining o'qilishiga hissasi katta bo'lgan, jumladan, o'zbek olimlaridan M.Isoqov ham hozirgi xorazmiyshunoslik ishlarini davom ettirmoqda. Olimning ta'kidlashicha, xorazmiyshunoslik yo'nalishidagi tadqiqotlar endigina keng quloq yoymoqda. Uning qo'lida xorazmiy yozuvi yodgorliklarining to'liq ro'yxati jamlangan. Olimning 1992–94-yillarda chop ettirgan maqolalari ko'pchilikning diqqatini o'ziga jalb etdi. Afsuski, xorazmiy yozuv yodgorliklari hozircha to'liq o'qilib, uning matnlari, turkiy-runiy yozuvlari darajasida ham o'rganilgan emas. Bu qadimiy yozuv yodgorliklari to'liq, har tomonlama o'rganilsa, miloddan avvalgi V–IV asrdan boshlab, milodiy IX–X asrlargacha bo'lgan o'g'uz-turkiy qavmlarning til qurilishi haqida ham ma'lum darajada tasavvurga ega bo'lish mumkin. Xullas, hozircha xorazmiy-turkiy yozuv yodgorliklari haqida faqat umumiy ma'lumotlarga egamiz, uning til qurilishi haqida aniq yoki to'g'ri fikr aytish qiyin.

Qadimgi turkiy yozuv yodgorliklaridan yana bir turi dulbarchin yoki turkiy-runiy alifbosida bitilgan. Ammo bu yozuvdagi bitiklardan bizgacha V–VIII asrlarga xos bo'lgan manbalar yetib kelgan. Dulbarchin (turkiy-runiy) yozuvidagi eng yirik bitik yodgorliklariga quyidagilar kiradi: **1) Ungin (ongin) bitiktoshi.**

Eng qadimiy va yirik yodnoma bo'lib, 689 yoki 692-yillarga tegishli. Turkshunos olim V.V.Radlov bitikning 1885-yilda asl matni va transkripsiyasining nemischa tarjimasini bilan nashr ettirdi. **2) To'nyuquq bitiktoshi.** 712–716-yillarda toshga o'yib yozilgan bo'lib, 1897-yilda Ye.Klemens Shimoliy Mo'g'ulistondagi Bain Sokto manzilidan topgan. V.V.Radlov uning 1899-yilda fotosurati, transkripsiya va nemischa tarjimasini nashr ettirdi. **3) Kultigin bitiktoshi.** 732-yilga tegishli bo'lib, bitiklari yaxshi saqlangan. Uni o'lkashunos olim N.M.Yadrensev 1889-yilda Mo'g'ulistonning Kosha Saydam vodiysi O'rxun daryosining Ko'kshin irmog'i atrofidan topgan va 1891-yilda Ungin bitiktoshi yozig'i bilan birga nashr ettirgan. **4) Bilga xoqon bitiktoshi.** N.M.Yadrinsev 1889-yilda Kulti-

gin bitiktoshi bilan birga Ko'kshin atrofidan topgan. V.V.Radlov uni Kultigin bitiktoshi yozuvi bilan birga nashr ettirgan. **5) Kulchur bitiktoshi.** VIII asrga tegishli yodgorlik bo'lib, 1912-yilda polyak olimi V.Katvich Mo'g'ulistonning Ulan-Bator yaqinidagi Iks-Xushotu manzilidan topgan va rus sharqshunos olimi A.N.Samoylovich bilan birgalikda 1928-yilda nashr ettirgan edi. **6) Myunchur bitiktoshi.** VIII asrga yoki taxminan 719-yilga tegishli yodgorlik bo'lib, 1909-yilda fin olimi G.I.Ramstedt Shimoliy Mo'g'ulistonning Selenga daryosi yaqinidan topgan va 1913-yilda tarjimasini chop ettirgan edi. **7) Irq bitik (folnoma).** Bu bitikning qo'lyozmasini ingliz olimi A.Steyn Xitoydagi «Ming budda g'ori» ibodatxonasidan topgan bo'lib, uni 1912-yilda daniyalik olim V.Tomson nashr ettirgan (21/ 4-5-betlar). Bu qayd etilgan bitik-toshlarning til xususiyatlari V–VIII asrlar turkiy xoqonligidagi qabila, qavmlar tilini aks ettiradi.

Turkiy-uyg'ur yozuvidagi qadimgi turk davrining yodgorliklari orasida ko'proq saqlanib qolgani buddiy(diniy)-axloqiy mavzudagi bitiklar bo'lib, ularning eng yiriklari va muhimlari quyidagilardir: 1) «**Oltin yoruq**» asli qadimgi hind-sanskritcha «Suvarnaprabxasa» nomli yozuv yodgorligi bo'lib, turkiycha «Altun Onglug yaruq yaltruqlug' qopda qoturmush nom aligi», ya'ni «Oltin nurli (jiloli) muqaddas kitob» tushunchasini ifodalaydi. Fanda qisqa «Oltin yoruq» yoki «Oltin jilo» nomlari bilan yuritiladi. Buddha diniga oid bo'lgan bu asarni X asrda beshbaliqlik Singku Seli Tutung tomonidan turkiy tilga o'girilgan. Afsona va rivoyatlar asosida yaratilgan bu asarning bizgacha 10 ga yaqin nusxasi yetib kelgan. Bu asarning mukammalroq nusxasini 1909–1911-yillarda rus turkshunos olimi S.Ye.Malov Suchjou shahriga yaqin Vungshagu nomli manzildan topgan va V.V.Radlov bilan hamkorlikda 1913–1917-yillarda nashr ettirgan. 2) «**Maytri simit**» asari. 27 bo'limdan iborat ushbu kitobning to'liq nomi «Maytri simit nom bitik» bo'lib, Prtarashit ismli kishi eroniy tildan turkiy tilga tarjima qilgan. Aslida u dastavval qadimgi hind tilida yaratilgan. Ushbu asarning mukammal nusxasi 1959-yilda Yah'yo Rahim ismli kishi tomonidan Sharqiy Turkistonning Kumul yaqinidan topilgan. Asar VIII–IX asrlarda

ko'chirilgan degan taxminlar bor (68) 12-13-betlar). **3) «Xuastuanift» (monaviylarning tavbanomasi).** Bu yodgorlikning uch nusxasi bor, ular Peterburg, Berlin, London shaharlaridagi muzeylarning noyob qo'lyozmalar xonasida saqlanmoqda. Ostona(Turfon)dan topilgan qadimgi turkiy-uyg'ur yozuvida bitilgan nusxasi L.V.Dmitriyeva tomonidan 1963-yilda lotin alifbosida ruscha tarjimasini nashr ettirildi. «Ming budda g'ori» ibodatxonasidan topilgan Berlin va London nusxalari moniy yozuvidadir. Turkiy tilda bitilgan nusxasi esa A.Lekok tomonidan 1910–1911-yillarda Berlin va London shaharlarida nashr ettirilgan edi.

Asarning ba'zi bir til xususiyatlari qadimgi turkiy-runiy (O'rxun-Enasoy) bitiklariga yaqinligini hisobga olgan holda, u V–VI asrlarda turkiy tilga tarjima qilingan degan taxminlar bor (68/13-bet).

Shuningdek, Turfondan topilgan «Sekiz yukmak» (nemis olimlari V.Bang, A.fon Gaben va turk olimi G.R.Rahmatiy-lar 1934-yilda Berlinda nashr ettirganlar), «Shahzodalar Qalayanamqara va Papamqara haqida qissa» (1914-yilda fransuz olimi B.Pello tomonidan fransuzcha tarjimasini nashr ettirilgan) hamda VII–X asrlarda va undan keyingi davrlarda yaratilgan juda ko'p yuridik-huquqiy, kichik hajmli she'riy asarlar ham bizgacha yetib kelgan (74/41-bet). Bu kabi yozma yodgorliklarda ham adabiy til, ham xalq so'zlashuv tili xususiyatlari aks etgan, umuman, ular o'sha davrlar til qurilishi holatini o'rganishda muhim manba sanaladi (75/101-107-betlar).

X–XIV asrlar turkiy tilini ifodalaydigan yozuv manbalari. Yuqorida qayd etilgan kichik hajmdagi she'riy parchalarning ba'zilari va turkiy qavmlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotini o'zida aks ettirgan yuridik-huquqiy hujjatlarning, turli sohadagi yozishmalarning bir qismi IX–X asrlar badiiy adabiy til xususiyatlarini aks ettiradi. Ulardagi gap tuzilishlarining ixcham-soddaligi o'sha davrlar so'zlashuv uslubining umumturkiy adabiy ko'rinishi shakllanayotganligidan dalolat beradi (63/208-bet). Ayniqsa, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» (1069–1070), Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» (1072–1084), Ahmad Yugnakiyning

«Hibat ul-haqoyiq» (XII asr), «O'g'uznoma» (XIII asr), «Tafsir» (XII–XIII asrlar), Alining «Qissai Yusuf» (1232), Nosiriddin Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy» (1309–1310) kabi qator asarlari X–XIII asr umumturkiy adabiy tilining namunalari hisoblanadi. Bu kabi yozma asarlarning yuzaga kelishi umumturkiy adabiy tilining shakllanishidan darak berar edi. Ularda o'sha davrlarda shakllangan umumturkiy adabiy tilga xos barcha xususiyatlar aks etgan. Bu davr turkiy tillar taraqqiyoti uchun muhim o'rin egallaydi. Bu davrda birinchidan, asrlar bo'yi kichik-kichik sheva va dialektlar sifatida shakllanib kelayotgan mahalliy adabiy tilning birlashgan holda umumturkiy adabiy tilga aylanishi yoki umumturkiy tilning shakllanganligi bilan xarakterlanadi. Ikkinchidan, bu davrda turkiy qavmlar asta-sekin elat, xalq sifatida shakllanib, mustaqil holda ajralib chiqishi va xalq tillarining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Demak, turkiy xalqlarning, jumladan, o'zbek xalqining va ular tilining alohida shakllanish jarayoni xuddi ana shu davrlar bilan o'lanishi lozim bo'ladi.

XIII–XIV asrlarda ba'zi arab mamlakatlarida turkiy xalqlar o'mi yuqori mavqega ega bo'lganligi sababli arablarning turkiy tilga qiziqishini kuchaytirgan. Ayniqsa, 1162–1250-yillarda ayubiylik hukmronligi davrida Misr va Suriyada turkiy elatlarning ta'siri kuchayib, hokimiyat asta-sekin turklar qo'lga o'tgan. 1250–1550-yillarda turkiy xalqlarning hukmronligi, ya'ni Mamluk — Qipchoq — O'g'uz davlati tashkil topgan. Bu mamlakatda turkiy til davlat tili darajasiga ko'tarilgan. Natijada hukmron til — turkiy tilda ko'pgina asarlar yozila boshlangan. Ayniqsa, Chingizxon va uning avlodlari qo'shinlari safida Janubiy-Sharqiy Yevropaga turkiy elatlarning kirib kelishi hamda ko'chmanchi turkiy elatlarning Oltin O'rda (Xorazm xonligi) bilan Mamluk davlati o'rtasidagi aloqaning kuchayishi tufayli turkiy-qipchoq-o'g'uz tillarining ta'siri ortdi. Xullas, turkiy tilga qiziqish yanada kuchaydi. Ko'plab lug'at va grammatik, ya'ni til bilimiga doir asarlar yozila boshlagan edi. Ular fanda qipchoq-o'g'uz yodgorliklari deb ham yuritiladi. Bu asarlardan quyidagilarni qayd etish mumkin: 1349-yilda noma'lum avtor tomonidan yozilgan «Tarjimon turkiy va arabiy», Asiruddin Abu Xayyon al-Andalusiyning «Kitob al-axloq lil-lison al-atrak» (XIV asr), Jamoliddin abu Muhammad Abdulloh Turkiyning «Kitob lug'at al-mushtaq fi lug'atit-turk val-qifchoq»

(XIV asr), 1343-yilda Xalil ibn Muhammad ibn Yusuf al-Konaviy tomonidan ko'chirilgan «Tarjimon turkiy va ajami va mo'g'uli» yoki «Kitobi majmu-u-tarjimon turki va ajami va mo'g'oli» (XIII–XIV asrlar), yana avtor noma'lum «Kitob at-tuhfat-uz-zakiyatu fil-lug'otit-turkiya» kabi asarlar shular jumlasidandir. Ilmiy ishlarda ushbu asarlar haqida ma'lumotlar bor, ular olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan.

TURKIY VA O'ZBEK TILLARINI TASNIFLAB O'RGANISH

O'zbek adabiy tili tarixini o'rganishda, turkiy tillarni tasnif qilish va davrlashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ikki masala bir-biri bilan bevosita bog'liq. Chunki o'zining lug'at boyligi, tovush tartibi va grammatik xususiyatlari jihatidan ko'pchilik turkiy tillar bir-biriga juda yaqin turadi. Ammo ular o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq ham qiladi. Bu xususiyatlarni aniqlash esa turkiy tillar tasnifi bilan bog'liqdir.

Umuman, davrlashtirish uchun o'zbek tili va unga urug'-dosh turkiy tillarning kelib chiqishi, taraqqiyot bosqichlari, o'zaro munosabatlarini o'rganish va tasniflash zarur.

Turkiy tillarni o'rganish va ilmiy tarzda maxsus tasniflash, asosan, XIX asrdan boshlanadi. Turkiy tillarni tasniflashda ko'proq geografik nuqtai nazar asos qilib olinadi. Ma'lumki, geografik tasnifda qardosh tillarning hududiy yaqinligi, yondosh yashash sharoiti nazarda tutiladi. Ammo ularning ba'zilarida bu hodisaga qisman rioya qilmaslik hollari ham seziladi.

Turkiy tillarni ilk bor ilmiy nuqtai nazardan tasnif qilgan olim V.V.Radlovdir. U o'zining birinchi tasnifida turkiy tillarni uch guruhga bo'ladi: 1) shimoliy guruh; 2) janubiy guruh; 3) qurama turdagi guruh.

So'nggi guruhni yana g'arbiy va sharqiy kichik guruhlariga ajratadi. V.V.Radlov o'zining keyingi tadqiqotlarida bu tasnifni qayta ishlab chiqadi, yana ham takomillashtiradi va turkiy tillarni to'rt guruhga bo'ladi:

1. Sharqiy guruh (bunga oltoy va chulim tillari, xakas, shor, tuva va enasoy turklarining tillari kiradi);

2. G'arbiy guruh (bunga Sibir tatarlari, boshqird, tatar, qirg'iz, qozoq va qoraqalpoq tillari kiradi);

3. O'rta Osiyo guruhi (bunga uyg'ur va o'zbek tillari kiradi);

4. Janubiy guruh (bunga turkman, ozarbayjon va turk tillari kiradi).

A.N.Samoylovich esa turkiy tillarni tasnif qilishda fonetik prinsipga asoslanadi. U turkiy tillarni olti guruhga bo'ladi.

1) R guruhi. Bu tillarda qadimgi turkiy tildagi «z» (va keyincha «y» ga o'tgan) tovushi «r» tovushi bilan aytiladi: azaq-(ayaq) — araq — oyoq kabi. Bu guruhga eski bulg'or va hozirgi chuvash tillari kiradi.

2) D guruhi. Bu tillarda «z» tovushi «d» tovushi bilan aytiladi. Bu guruhga tuva, karagas, salar tillari, qadimgi uyg'ur va o'rxunen-soy turklari, umuman, uyg'ur va shimoli-sharqiy turkiy tillar kiradi (adzaq/adak-oyoq kabi).

3) Tau guruhi. Bu tillarda tog' so'zi tau tarzida aytiladi. Bu guruhga oltoy, qirg'iz, qumiq, qorachoy-bolqor, tatar, boshqird, qaraim, no'g'ay, qozoq yoki umuman, shimoli-g'arbiy turkiy tillar kiradi.

4) Tag'liq guruhi. (Bunda so'z shunday aytiladi.) Bu guruhga eski o'zbek tili, hozirgi uyg'ur va o'zbek tillari — janubi-sharqiy turkiy tillar kiradi.

5) Tavli guruhi. (Bunda tog' so'zi shunday aytiladi.) Bu guruhga Xorazm o'zbek tili shevasi, qipchoq-turkman tillari kiradi.

6) Ol guruhi. Bunda bo'l fe'li o'l tarzida aytiladi. Bu guruhga ozarbayjon, turk, gagauz kabi janubi-g'arbiy turkiy tillar kiradi (76/77).

S.Ye.Malov o'z asarlarida turkiy tillar tasnifiga doir bir qator qiziqarli fikrlarni bayon qiladi. U mavjud tasniflarga qilingan o'zining qo'shimcha va ilovalarida eskirgan xususiyatlarning saqlanishi hamda yangi xususiyatlarning hosil bo'lishi jihatidan barcha turkiy tillarni to'rt guruhga bo'ladi: 1. Eng qadimgi tillar. 2. Qadimgi tillar. 3. Yangi tillar. 4. Eng yangi tillar. S.Ye.Malov turkiy tillardagi til orqa g, g' va bir necha orqa qator unilarning old qator tovushiga o'tishi, qadimgi tillarda jarangsiz undoshlarning, yangi tillarda esa jarangli undoshlarning ko'pligi kabi fonetik hodisalarni o'z tasnifi uchun asos qilib oladi (63/ 6-7-betlar).

Mana shu tasnif asosida S.Ye.Malov turkiy tillarning rivojlanish tarixini uch davrga bo'ladi:

1. Turkiy tillarning «d-lash» davri. Bu hodisa qadimgi runiy va uyg'ur yozuvi yodgorliklari uchun xos xususiyatdir. So'z o'rtasi va oxirida «y» tovushi «d» tarzida aytiladi: adaq (ayaq), adir (ayir), qod (qo'y) kabi.

2. O'tkinchi davr. Bu davrda turkiy tillar «d-lash» hodisasidan «y-lashishga» o'ta boshlaydi: kidim > kiyim, kedin > keyin, adir > ayir kabi.

3. Turkiy tillarning «y-lashish» davri. Bu davrda turkiy tillarning tabaqalanishi va ajralib chiqishi kuchayadi, alohida xalq tillarining tashkil topishiga zamin tayyorlanadi (77/ 17-bet).

Turkiy tillarni tasniflashda N.A.Baskakovning xizmatlari, ayniqsa, samarali bo'ldi. Uning asarlarida turkiy tillarning ilmiy-nazariy jihatdan ancha mukammal geneologik tasnifi beriladi. Bu tasnifga ko'ra turkiy tillar dastlabki ikki katta tarmoqqa ajratiladi: 1) g'arbiy xun tarmog'i; 2) sharqiy xun tarmog'i.

G'arbiy xun tarmog'i to'rt shoxobchaga bo'linadi:

1) Bulg'or shoxobchasi. Bunga qadimgi bulg'or, xazar va hozirgi chuvash tili kiradi.

2) O'g'uz shoxobchasi. Bu shoxobchaga qadimgi o'g'uz va hozirgi turkman, gagauz, ozarbayjon, turk tillari kiradi.

3) Qipchoq shoxobchasi. Bunga qaraim, qumiq, qrim tatarlari, tatar, boshqird, qoraqalpoq, qozoq tillari kiradi.

4) Qarluq shoxobchasi. Bu shoxobcha tarkibiga qadimgi uyg'ur tili, eski o'zbek tili va hozirgi uyg'ur, o'zbek tillari kiradi.

Sharqiy xun tarmog'i esa ikki shoxobchaga bo'linadi:

1) Uyg'ur-o'g'uz shoxobchasi. Bunga qadimgi o'g'uz tili va hozirgi tuva, karagas, yoqut, xakas, shor tillari kiradi.

2) Qirg'iz-qipchoq shoxobchasi. Bu shoxobchaga qadimgi va hozirgi qirg'iz tili va oltoy tillari kiradi. O'z navbatida yuqorida ko'rsatilgan guruhlarining har biri yana bir qancha guruhlariga bo'linadi (74/223-228-betlar).

N.A.Baskakov o'zining ana shu tasnifi bilan bog'liq ravishda turkiy tillarning rivojlanish tarixini quyidagi davrlarga bo'ladi:

I. Oltoy davri (miloddan oldin III asrlargacha). Turkiy tillar taraqqiyotining eng qadimgi ilk bosqichi bo'lib, bu

davrning muayyan sanalari fanda aniqlangan emas. Chunki bu haqda tarixiy hujjatlar yo'q.

II. Xun davri (miloddan oldingi III asrdan milodiy V asrgacha).

III. Qadimgi turk davri (V–IX asrlar).

IV. O'rta turk davri (IX–XV asrlar).

V. Yangi turk davri (XV–XX asrlar).

VI. Eng yangi davr (XX asr) (78/110-113-betlar).

O'ZBEK TILINI DAVRLASHTIRIB O'RGANISH

O'zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish bir tomondan o'zbek xalqining tashkil topishi, etnik tarkibi, uning o'ziga xos murakkab tarixiy rivojlanishi jarayoni bilan bog'langan bo'lsa, ikkinchi tomondan, qadimgi umumturkiy adabiy til qurilishida hamda hozirgi turkiy tillar tasnifida o'zbek adabiy tilining tutgan o'rni, uning o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar bilan bog'langandir. O'zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish bo'yicha olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariy fikrlar, umumiy qoidalar bir-biridan keskin farq qiladi.

Turkiy tillarni tasniflash va uning taraqqiyoti tarixini davrlashtirish bilan bog'liq ravishda o'zbek adabiy tili tarixi ham olimlar tomonidan turlicha davrlashtiriladi. Jumladan, S.Ye.Malov o'zbek adabiy tili tarixini uch davrga bo'lib o'rganadi:

- 1) Uyg'ur adabiy tili;
- 2) Chig'atoy adabiy tili;
- 3) O'zbek adabiy tili.

Bu davrlashtirishga ko'ra hozirgi o'zbek adabiy tili chig'atoy adabiy tilidan kelib chiqqan. Chig'atoy (eski o'zbek) adabiy tili esa o'z navbatida, uyg'ur adabiy tilidan kelib chiqqan (63/5, 221-betlar; (77) 17-bet).

A.N.Samoylovich o'zbek adabiy tili tarixini uch davrga bo'ladi:

1. Qoraxoniylar davri adabiy tili (X–XI asrlar). Bu davr Qoraxoniylar davlatida shakllangan va keng qo'llanilgan sharqiy turkiy adabiy til va shu tilda yozilgan asarlar bilan ajralib turadi.

2. O'g'uz-qipchoq adabiy tili (XII–XIV asrlar). Bu davr Xorazmda o'g'uz-qipchoq dialekti negizida rivojlangan g'ar-

biy turkiy adabiy til hamda bu yerda yaratilgan asarlar bilan bog'langan.

3. O'rta Osiyo turkiy adabiy tili (XIV–XX asrlar). Bu davr tili shu asrlar davomida turkiy — eski o'zbek adabiy tilida yaratilgan asarlar bilan bog'langan. Hozirgi o'zbek adabiy tili esa O'rta Osiyo turkiy adabiy tilining davomi deb qaraladi (79) 1-23-betlar, 77/17-18-betlar).

A.M.Shcherbak o'zbek adabiy tili tarixini to'rt davrga bo'lib o'rganadi:

I. O'zbek adabiy tilining eng qadimgi davri (X–XIII asrlar). Bu davr asosan, sharqiy turkiy adabiy til hamda ma'lum darajada g'arbiy turkiy adabiy til bilan bog'langan.

II. O'zbek adabiy tilining o'rta — «chig'atoy» tili davri (XIV–XVII asrlar). Bu davr tili, asosan, eski o'zbek adabiy tili hamda shu tilda yozilgan asarlar bilan bog'langan.

III. O'zbek adabiy tilining yangi davri (XVII–XVIII asrlar). Bu davr xonliklar davri adabiy tilini qamrab oladi.

IV. O'zbek adabiy tilining eng yangi davri (XIX–XX asrlar) (80/32-33-betlar).

O.Usmonov o'zbek adabiy tili tarixini besh davrga bo'ladi:

I. Qadimgi turk tili davri (VI–IX asrlar).

II. Qadimgi o'zbek tili davri (IX–XII asrlar).

III. Eski o'zbek tilining ilk davri (XII–XIV asrlar).

IV. Eski o'zbek tili (XIV–XIX asrlar).

V. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili (81).

G'. Abdurahmonov o'zbek adabiy tili tarixini quyidagicha davrlashtiradi:

I. Eng qadimgi turkiy til (VII asrgacha bo'lgan davr).

II. Qadimgi turkiy til (VII–XI asrlar).

III. Eski turkiy til (XI–XIII asrlar).

IV. Eski o'zbek adabiy tili (XIV–XIX asrlar).

V. Yangi o'zbek adabiy tili (XIX–XX asrlar).

VI. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili (77/19-bet).

G'.Abdurahmonov o'zining keyingi ishlarida o'zbek adabiy tili (me'yorlari) tarixiy taraqqiyotini besh davrga bo'ladi:

1. Qadimgi turkiy adabiy tili VI–X asrlar mobaynida amalda bo'lgan til bo'lib, bu tilda qadimgi turkiy yozma yodgorliklari yaratilgan.

2. Eski turkiy adabiy tili XI–XIII asrlar davomida yaratilgan «Qutadgʻu bilig», «Hibat ul-haqoyiq», «Oʻgʻuznoma», «Muhabbatnoma», «Qisasi Rabgʻuziy» kabi badiiy-adabiy asarlar tilidir.

3. Eski oʻzbek adabiy tili XIV–XVIII asrlar mobaynida shakllanib, boyib takomillashgan adabiy tildir. Bu tilda Lutfiy, Sakkokiy, Durbek, Atoiy, Navoiy, Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Abulgʻoziy Bahodirxon, Turdi kabi buyuk shoir va yozuvchilar qalam tebratgan.

4. Yangi oʻzbek adabiy tili XIX asrning ikkinchi yarmida shakllangan. Bu tilda Amir Umarxon, Nodira, Muqimiy, Zavqiy kabi shoirlar ijod qildi. Bu davrdan boshlab matbuot tili kelib chiqdi.

5. Hozirgi zamon oʻzbek adabiy tili. Bu davrga xos Fitrat, Choʻlpon, Oybek, A.Qodiriy, A.Qahhor, Gʻafur Gʻulom, H.Olimjon va boshqa yozuvchi hamda shoirlarning tilidir (13/36-bet). Bu til XX asrning 20-yillaridan shakllana boshlagan milliy til yoki (millat) tilidir.

Xullas, bu masala yuzasidan turli olimlar bayon qilgan fikrlarni umumlashirib va ularga tayangan holda, oʻzbek adabiy tili taraqqiyotini quyidagicha davrlashtirish mumkin:

I. Oʻzbek adabiy tilining qadimgi (ilk) umumturkiy til davri (V asrdan X asrgacha). Bu davrlarning V–VII asrlari oltoy va xun tili davrlari bilan uzviy ravishda bogʻlangan bosqichi boʻlib, soʻnggi, ayniqsa, X–XIII asrlar tilidan oʻziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Ammo bu davr tilini nisbatan ilk qadimgi til bilan umumiy birlikka egaligini ham inkor etib boʻlmaydi.

II. Eski turkiy adabiy tili davri (X–XIII asrlar). Bu davr qadimgi va yangicha shakllanayotgan turkiy tillarning aloqadorligini belgilovchi zanjirdir.

III. Oʻzbek adabiy tilining eski oʻzbek adabiy tili davri (XIII asrning oxiridan XX asr boshlarigacha). Bu davr oʻzbek tili mahalliy dialektlar va xonliklarga boʻlingan holda rivojlanayotganligi bilan xarakterlanadi. Ammo bu davr tili ham oʻziga xos umumiy birlikka ega boʻlgan.

IV. Oʻzbek adabiy tilining umummilliy oʻzbek adabiy tili yoki hozirgi oʻzbek adabiy tiliga koʻchish davri (XX asrning 30-40- yillaridan to hozirgi davrgacha).

IKKINCHI BOB

OʻZBEK ADABIY TILINING UMUMTURKIY DAVRIDAGI TARAQQIYOTI BOSQICHLARI

a) **Ilk (qadimgi) bosqichi.** Ilmiy manbalarda taʼkidlanganidek, oʻzbek tili turkiy tillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun umumxalq oʻzbek tili, jumladan, oʻzbek adabiy tili turkiy tillar oʻtmish tarixi bilan bevosita bogʻliq ravishda oʻrganiladi. Turkshunoslik manbalarida turkiy tillarning eramizdan oldin Oltoy davri boʻlganligi taʼkidlanadi. Bu davrda turk-moʻgʻul, tungus-manchjur, yapon-koreys tillari tarmoqlari va ularga xos boʻlgan qavmlar bir oilani, yaʼni oltoy tillar oilasini tashkil qilganligi aytiladi. Hatto, bu tillarni fin-ugar, samoyed tillar shoxobchalaridan tashkil topgan oʻrol tillar oilasi bilan aloqador deb qarab, Ural-Oltoy davri haqida ham maʼlumotlar beriladi. Oltoy tili yozma yodgorliklari yoʻqligi va qadimgi tarixiy manbalarda maʼlumotlar qayd etilmaganligi sababli bu til va uning qoʻllanilish davri aniq emas, «ammo oltoy tillari maʼlum, yaʼni oltoy tilining rivojlanishi jarayonida tashkil topgan **turk, moʻgʻul, tungus, manchjur** tillari maʼlum» (78/6-7-betlar, 82/45-bet). Demak, oltoyshunoslik bilimlarining majmuiga koʻra, umumxalq turkiy tillarining, jumladan, umumxalq oʻzbek tilining tarixini eramizdan avvalgi oltoy davridan boshlash lozim boʻladi. Qayd etish lozimki, oltoy tillari maʼlum bir davrga kelib boʻlinib ketgan edi. Taxminan turkiy tillar tarixiy taraqqiyotida eramizdan oldingi IV–III asrlarda Xun davri boshlangan. Maʼlumki, xunlar turkiy elatlarning eng katta qabilalaridan boʻlgan. Ular oʻsha davrlarda skiftar (sak, massaget, sarmat va boshqalar) qoʻl ostida boʻlgan yerlarning katta qismini bosib olganlar, yaʼni Oʻrta Osiyo, Qozogʻiston, Sharqiy Sibir (Yevropa), Shimoliy Moʻgʻuliston, Manchjuriya va Xitoy (Uygʻuriston) kabi hududlardagi qabilalarning yerlarida hukmronlik qilganlar. Bu katta birlashuv milodiy V asrga kelib ikkiga boʻlinib ketadi. Natijada turkiy tillar Sharqiy va gʻarbiy xun tarmoqlariga boʻlingan edi. Bu davrda turk xoqonliklari hukmronligi boshlanadi. Turkshunoslikda bu davr qadimgi turk

tili davri deb ataldi (78/110-113-bet). Qadimgi turk tili davri V–XIII asrgacha bo'lgan davmi o'z ichiga oladi. Boshqa turkiy tillar kabi o'zbek tilining tarixi oltoy davridan boshlansa, o'zbek adabiy tilining tarixi yozma yodgorliklari ma'lum bo'lgan ana shu qadimgi turk davridan boshlanadi. Shu kabi bu davrning adabiy tili va yozma yodgorliklari ham hozirgi barcha turkiy xalqlarga mansub deb qaraladi.

Turkshunos olimlarning fikricha, qadimgi turkiy tilning dastlabki davrlarida Oltoy-Xun til mushtarakligi mavjud bo'lgan. Turkshunos olim N.A. Baskakovning bu borada yozgan asarlarida ko'pgina ma'lumotlar beriladi. Olimning yozishicha, Oltoy-Xun tillari taraqqiyoti davridagi «d/t, s/z — y-r» yoki «r-s/z-d/t-y» va «n/y» fonetik xususiyatlar (62/148-166-betlar) ya'ni undoshlar mosligi qadimgi turkiy til davrida ham qabilalar dialekti-lahjalarida mavjuddir. Jumladan, **adrylmoq** (ayrilmoq), **ibriz** (ilvris), **kuchsir** (kuchsiz), **chig'on** (chig'ay) (**kambag'al**), **qon** (**qoy**) (**qo'y**), **qanu** (**qayu**) (**qaysi**), **qazyn** (**qayin**) (**qayinog'a**), **ata** (**xata**) (**ota**), **ana** (**xana**) (**ona**) kabi dialektal xususiyatlar Oltoy-Xun tillari taraqqiyotini eslatadi (28/66-68-betlar).

Hozirgi tunguscha «t» va manchjurcha «s» tovushi turkiy-mo'g'ul tillarida «i» unlisi oldidan «ch-sh» tovushiga mos keladi. Jumladan, chuvashcha «cher» boshqa turkiy tillarda «**tiz, tize**» — **diz, dize** (**tizza**), «**chyorne**» (**tiraq, tirnoq**) kabi misollar ham turkiy tillarni tungus tiliga, chuvash tilini esa mo'g'ul tiliga yaqinlashtiradi (74/30-bet).

Xun davrida turkiy tillar ham ko'pgina urug' va qabilalarning tillari sifatida mavjud ekanligini ta'kidlagan edik. Bu davrda ularning «r-l» tillari (qadimgi avar, bulg'or va hozirgi chuvashlarning o'tmishdoshi) hamda «z-sh» tillarga (qadimgi o'g'uz, qirg'iz, qarluq va qipchoqlar) ajralishi davom etar edi. Bu jarayonni turkiy-runiy bitiklar mazmunidan ham anglash mumkin. Fonetik qurilish va leksikadagi «-s/z» va «l-sh/j» tarzida moslashish hodisasining qoldiqlarini hozirgi oltoy va bir qator turkiy tillarda uchratish mumkin: «r-s/z:» **bas-bormoq va bir-bormoq; ko'z va ko'r** (ko'rmoq); «l-sh/j»: **belek — bilak-tirsak va besh-bej** (chuvashcha **pilek-besh**), **bish bulg'a** (bulg'amoq) kabi.

Umuman, o'tmishda mavjud bo'lgan Oltoy-Xun umumxalq til birligini qadimgi turkiy til davri va hozirgi turkiy tillarni tarixiy-qiyyosiy usulda o'rganish orqaligina aniqlash mumkin bo'ladi. Demak, umumturkiy tillar, jumladan, umumxalq o'zbek tilining tarixi Oltoy-Xun til birligi davridan boshlansa-da, bu haqdagi ma'lumotlar qadimgi turkiy til, ya'ni turk xoqonligi yozma manbalari til materialini o'rganish orqaligina yuzaga chiqadi. Shuning uchun ham ta'kidlaganimizdek, barcha turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek adabiy tilining shakllanish davri V–VI asrlardan boshlanadi, desak to'g'ri bo'ladi.

Qadimgi turkiy tilning bu ilk davri, aniqrog'i, VI–X asrlargacha bo'lgan qadimgi turkiy va runiy va qadimgi turkiy-uyg'ur bitiklarining til materiallari X–XIII asrlarda yaratilgan asarlarning til materiallaridan farqli tomonlari borligi adabiyotlarda ko'rsatilgan. Chunki ma'lum tarixiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida turkiy tillar tarkibidagi urug' va qabila tillari ajralib chiqishi yoki qo'shilish hollari mavjud. Bu esa qabilalar til birligiga ma'lum darajada ta'sir etadi. Shuning uchun ham ba'zi ilmiy adabiyotlarda turkiy tillarning tasnifida va davrlashtirishda o'zbek tilini, jumladan, adabiy tilini «Qadimgi turkiy (adabiy) til» va «Eski turkiy (adabiy) til» davrlariga bo'lib o'rganish tavsiya etiladi. O'zbek adabiy tilining har ikkala bosqichi yaxlit holda qadimgi umumturkiy adabiy tili davri sanaladi. Chunki o'zbek tili bu davrlarda ham umumturkiy til tarkibidan ajralib chiqqan emas edi.

O'zbek adabiy tilining ilk qadimgi turkiy davri yozma manbalariga turkiy-runiy (O'rxun-Enasoy) va turkiy-uyg'ur (VI–X asrlardagi) bitiklar yodgorliklari kiradi. Bu davr qabilalarining asta-sekin bo'linib, ajralib chiqayotganligi yozma yodgorliklar matnlari mazmunidan anglashilib turadi. Shunga qaramay, bu davr qabilalarining umumtili Oltoy-Xun umumturkiy til birligi asosida taraqqiy etganligi sezilib turadi.

O'zbek adabiy tilining ilk qadimgi turkiy (VI–X asrlardagi) davri haqida quyidagicha xulosaga kelish mumkin. Qayd etganimizdek, bu davr tili o'zining ba'zi bir fonetik va morfologik xususiyatlari jihatidan birmuncha o'ziga xoslikka

ega. Ilk qadimgi turkiy tillarning fonetik qurilishiga xos xarakterli belgilaridan biri «d»lashishdir. Bu davrlar turkiy tillarda tarixiy jihatdan qadimgi «r>t/d > s/z» undosh tovushlarining «y» ga o'tish hodisasi paydo bo'ladi va rivojlanadi. Masalan, XI asrda «y — c/z» mosligi Mahmud Koshg'ariyning devonida sanab o'tilgan tillardan faqat qarluq qabila ittifoqi tarkibiga kirgan chigil tilida saqlanib qolgan. Jumladan, chigil tilida qisman qipchoq, o'g'uz, yag'mo qabilalari tilida ham «**azoq**» (**ayaq**), **azig'**(**ayiq**), (tozti) to'ydi va yamak, suvor, bulg'or qabilalarida esa azaq, azig', tozdi kabi so'zlar «y» undoshi o'rnida «z», «dz» talaffuzli undoshi qo'llanilgan. Bu kabi misollar devonda ko'pgina o'rinlarda uchraydi («z» undoshi «dz» tarzida talaffuz etiladi).

Eng qadimgi «r» mosligi xun davridan oldingi bosqich uchun xos bo'lib, hozirgi mo'g'ul tillarida va faqat hozirgi chuvash tilida saqlangan. **Bu erser arzylar turguluk orun ol** (ammo bu (yer) azizlar turadigan yerdir (21/115-bet). Ancha keyingi «t/d» va «s/z» mosligi xun davridan rivojlangan. Turkiy tillarning o'zida esa «t/d» va «s/z» mosligining «y» undoshiga o'tishi hodisasi qadimgi turkiy va ayniqsa, IX asrdan so'nggi davr uchun xarakterlidir. Xuddi shu davrlarda qadimgi «t/d» va «s/z» hodisasi ko'pgina turkiy tillarda asta-cekin «y» bilan almashadi. Hatto, bu hodisa turkiy-runiy va qadimgi turkiy-uyg'ur yodgorliklari tilida ham rivojlanganini ko'ramiz. Mahmud Koshg'ariy devonida misollar orqali bir qator (qipchoq, tuxsi, o'g'uz, yag'mo kabi) qabilalar tilida «t/d-s/z» mosligi muvoziy holda ishlatilganligi va keyinchalik ular o'rnida «y» qo'llana boshlanganligi aniq ko'rsatiladi (28) I tom, 68, 94, 112-betlar). Masalan, **adyrylmaqlыg' pushushum yeme yoq, ычыр — ayrilmoqlik tashvishim ham yo'q.** (9-Oltin yoruq) (21/155-bet). **Turk bodun qаныm bolmayin Tabg'achda adrylти.** Turk xalqi xoni bilan bo'lmayin, Tabg'achdan ayrıldı. (2-Tunyuuq, 21/71-betlar); **azrilishdi-ayrishdi -olar ikki ayrishdi, (uzgurdi), uyg'urды-uyg'otdi; azaq (adzak) ayaq-oyoq; angig' (azig') ayыg'-yaramas, yovuz; sezrak-siyrak** (68/33-bet, 28/64-betlar) kabilar shular jumlasidandir. «Devonu lug'otit turk»da «azyg'» ayiq ma'nosida izohlangan (I tom, 68, 55, 94).

O'rxun-Enasoy va turkiy-uyg'ur yozuvi yodgorliklarining matnlarida ko'rsatilishicha, qadimgi turkiy tillarda umumiy belgi sifatida so'zning o'rtasi va oxirida «s/z-y» mosligiga nisbatan «t/d» ning bo'lishi bilan bir qatorda, bu tillarni bir-biridan ajratuvchi belgi sifatida n/n-y mosligi ham bo'lgan (74/44-bet). Masalan, o'rxun va uyg'ur yozuviga doir bitik-toshlarda, ayrim matnlarda «**Qanda, qon, anyg'**» **anyg'-ayyg'** so'zi yaramas, yomon, yovuz) shaklida uchrasa, boshqalarida esa «**Qayda, qoy, ayig'**» tarzida qo'llanadi. Qadimgi turkiy til fonetik xususiyatlari jihatidan yana quyidagilar bilan ajralib turadi: Urxun-Enasoy va turkiy-uyg'ur yozuvi yodgorliklarida sakkizta unli tovush qo'llanilgan. Bular — til oldi «e, s, y, i» va til orqa «a, o, u, ы» tovushlaridir. Ba'zi ilmiy ishlarda «e (ye)» til oldi, o'rta keng, lablanmagan unli tovushi ham borligi aytiladi. Ayrimlarida esa bu tovush uchrasa-da, hali fonema holiga kelgan emas, deb ko'rsatiladi. Shuningdek, 18 ta undosh tovushlari borligi qayd etiladi. Masalan, «v, d, k, g» portlovchi jarangli, «z, y» sirg'aluvchi jarangli; «p, t, k, g» portlovchi jarangsiz; «s, sh» (sirg'aluvchi jarangsiz; «ch» portlovchi-sirg'aluvchi, affrikat va «m, n, (n) ng» portlovchi burun, «i» sirg'aluvchi, «r» titroq sonor undosh tovushlari kabi (66/60-63-betlar).

Tovushlar uyg'unligi — singarmonizmning ikki qonuni, ya'ni tanglay uyg'unligi va lab uyg'unligi qonuni to'la saqlangan: **Bile Tonyuuq ben ozum Tabg'ach eline qilintim (tarbiyalandim).** **Tur(u)k bodun Tabg'achqa qorur (qaror) erti (1-Tunyuuq)** (21/71-bet).

Bu holni qo'shimchalarning ko'p shaklliligi ham tasdiqlaydi: **-lyq/lik, -luq/luk; -lyg'/lig, -lug'/lug; -qu/ku, -g'u/gu; qi/ki, -gy/gi** kabi (ot va sifat yasovchi qo'shimchalar); **-qych/kich, g'ych/gich, -quch/kuch, -g'uch/guch** (ot yasovchi) kabi barcha so'z turkumlaridagi qo'shimchalarning ko'p shakllarga egaligini ko'rish mumkin. Unli tovushlarning uyg'unligi kabi unli va undoshlar mosligi ham bo'ladi. Bu haqda turkshunos olim A.N.Kononov o'z asarida keng ma'lumot beradi (66/67-bet).

Qadimgi turkiy til bitiklarida ba'zi unli almashinib qo'llangan hollar ham mavjud. e>i; el- il (el-elat); a>ы>u;

ag'az-ag'yz, balaq-balyq, tapag'-taryg'-tapug' (xizmat), qapag'-qaryg'-qapug'; ы>u: min-mun; suchug (suchik-suchug) suchuk (chuchuk); i>u: qurq (quru/quruq); mina (muna/mana); o>u; soq-suq/suqmoq); o>u>i qorqunch-qorqunch; syg'un-sog'un-sug'un (urg'ochi) kabilar.

Shu kabi ba'zi undoshlar ham o'zaro almashinib qo'llangan: b > m; ben — men; bin — min — mun (men; b > v: eb — ev (uy); ab — av (ov), sab — sav (so'z); sub-suv; p>b: apa-aba; qapaq-qabaq; b>p>v: yubqa — yupqa — yuvga — yuyqa (yupka, mayin) kabi (57). Shuningdek, bargu — barasi, turgu-turasi, chumchuq-chumuk, tamg'a-qamaq, barg'an-baran, urgan-uran kabi tovush o'zgarishi, qo'shilishi (ortishi) tushib qolish hodisalari ko'p uchraydi. Bu kabi xususiyatlar hozirgi tillarda ham bor.

Qadimgi turkiy til o'zining leksik xususiyati, so'z boyligi jihatidan ham qisman farqlanadi. Qadimgi turkiy til lug'atida bo'lgan so'zlarning asosiy qismini o'sha davrdagi turkiy urug' va qabilalarning tillari uchun umumiy bo'lgan so'zlar tashkil qiladi. Ulardan ba'zilar farqlansa-da, ko'pchiligi turkiy tillar taraqqiyotining keyingi davrlarida ham keng iste'molda bo'lgan. Ular ko'pgina turkiy tillardagi kabi hozirgi o'zbek adabiy tilida ham ayrim o'zgarishlar bilan qo'llanmoqda. Ayniqsa, turkiy tillarning qadim davrlarida keng qo'llanilgan bir bo'g'inli va ikki bo'g'inli so'zlar hozirgi tilimizda ham keng qo'llaniladi. Masalan, az(sz), sz(o'z), ash(osh), ach(och), Ych(uch), ot (o't), et(go'sht), aq (oq), su(suv), ata/xata(ota), ana/xana(ona), sav/sab(so'z), ksk(osmon), kun,altyn(oltin) kabi juda ko'p so'zlar borki, hozirgi ma'nolarda qo'llanilgan. Shu kabi tangri, bodun, og(ona); aba(ona), ota od(dunyo), charuq(choriq) bag'ir(jigar), og'lan (yosh yigit), inch(tinch), yag'i(dushman), bilig(ilm), ben(men) tag'udu-taqaqu(ovuq), o'zkaru(-qaru-ga qo'shimchasi), oturu(keyin), taqi (yana), achi(aka), azi(aslo,sira), bangu(mangu), yama(ham), barz/bars, kendu(o'zi), asig' kabi juda ko'p so'zlar eski o'zbek tilida mavjud.

Ma'lumki, turkiy tillar tarixida juda ko'p qardosh va qardosh bo'lmagan qabilalar tili aralashib ketgan, albatta. Ba'zan qardosh tillar uzoqlashib, o'z til oilasidan qardosh

bo'lmagan til oilasiga o'tib ketish (divergansiya) hodisasi sodir bo'lgan bo'lsa, ba'zan buning aksi ham (konvergansiya) yuz bergandir. Ba'zan tillarning teng holatdagi munosabatlaridan ikki tillik (bilinivizm) hodisasi vujudga kelgandir. Masalan, qadimgi sug'diy, xorazmiy kabi tillar mustaqil til sifatida mavjud bo'lgan edi, ammo bu tillar asta-sekin turkiylashib ketdi. Oldingi holati yo'qolib ketdi. Sug'diy tilning bir qismi ma'lum davrlargacha ikki tillik holatda bo'lib, so'nggi (XI—XII asrlardan so'ng) bu til tamoman yo'q bo'lib ketdi. Turkiy qabilalarning bir qismi (eftalit-sak-massaget, sarmat va xunlarning) o'zga yerlarda yashaganlari, o'sha mahalliy qabilalarga aralashib tillari ham singib ketishdi. Masalan, Sibir, G'arbiy Yevropa va boshqa yerlardagi ko'pgina turkiy tillar o'sha hududdagi qabilalar tili bilan aralashib, o'z ona tillarini o'zgartirib yuborganlar. Ba'zan qo'shni davlatlar aholisi bilan bordi-keldi natijasida o'zaro ta'sir (adstrat) xususiyatlar paydo bo'ladi. Bunday xususiyatlar ma'lum bir davrlar oralig'ida o'zga elatlarning hukmronligi paytida (yunonlar, forslar, mo'g'ullar va boshqalar hukmronligida) «bosqinchi til»ni majburiy singdirish natijasida ham yuz beradi.

Xullas, qadimgi turkiy tilda ham xuddi shu hodisalarni ko'rish mumkin. Natijada turkiy tillarning eng qadimgi davrlaridan boshlab, o'zga tillar xususiyatlari o'rtnashib, singib kelgan. Xuddi shu holni qadimgi turkiy-runiy va turkiy-uyg'ur bitiklarida uchratish mumkin: abxak (sanskritcha) — xavfsiz; chuldan (qadimgi eron tili) — unvon; chambu-divir (sanskritcha) — koinot, olam; sui (xitoycha) — gunoh; tensi (xitoycha) — osmon o'g'li; chang(xitoycha) — tarmoq; bayan (sanskritcha) — baxt; luchan (sanskritcha) — nuroniy; maharaj (sanskritcha) — hokim; pryan (sanskritcha) — hujra; chan(xitoycha) — piyola; bau(xitoycha) — pul; teang(xitoycha) — xazina; tsuy(xitoycha) — gunoh; chanchu(xitoycha) — o'qlov; chang (xitoycha) — cholg'u; ajun(sug'dcha) — dunyo; bag(sug'dcha) — bog'; boshiq(sug'dcha) — ashula, qo'shiq; farishta(sug'dcha); xushti (sug'dcha) — muallim; ruch(sug'dcha) — kun; rushan — (sug'dcha) — yorug'lik, sarvag'(sug'dcha) — saroy; mag' (sug'dcha) — oy; vag'shiqa(sug'dcha) — daho, ruh; shashad

(forscha) — **shoh, xon** kabilar. Ayniqsa, qadimgi turkiy tilning soʻnggi davrlari tilida arab va fors tillarining taʼsiri kuchli seziladi.

Bu haqda oʻz oʻrnida fikr yuritamiz. Yuqorida qayd etilgan qadimgi umumturkiy soʻzlarning ayrimlari isteʼmoldan chiqib qolsa, ayrimlari turli oʻzgarishlar (ayniqsa, fonetik oʻzgarishlar)ga uchragan holda qoʻllaniladi. Masalan, ug(ona), sug(lashkar), kunchuy (xonim), boʻgda(xanjar), iig (yaxshi), sugut(nayza) kabilar eski oʻzbek tili davridan boshlab isteʼmoldan chiqib qolgan. Shu kabi **adgud, azruq, ayruq, ayiriq; adrul, azrul, ayiril; yaruq (KT), churuq (tuva tilida), yoruq (eski oʻzbek tilida); alb/alp (KT), alb (moʻgʻul), alp (eski oʻzbek); tagʻudu (KT), takuaa (moʻgʻulcha), tangoh (xokascha), taqagʻu (MK), tagʻiq (qirgʻizcha), tovuq (oʻzbekcha), ten (KT), chen(ten) (chuvashcha), tin (boshqirdcha), tong (oʻzbekcha); tirik//KT), chere(chuvashcha), diri (ozarb), tirik (oʻzbekcha)** kabi soʻzlar fonetik oʻzgarishlar bilan qoʻllaniladi (57/63)¹.

Qadimgi turkiy tilning grammatik qurilishidagi oʻziga xos belgilaridan biri turkshunos olim S.Ye.Malov qayd etgan koʻplik qoʻshimchasining oʻtmishdagi «-t/-d» shakli Kultigin bitiklarida qoʻllanishidir: **tarqan-(birligi) — tarqat (koʻpligi)** (63/50-51-betlar), **shadara-(shad,* ara-birligi, shadarut koʻpligi), alpagu(birligi) — alpagut(koʻpligi)** kabilar (21/128-Bh-31). Bizningcha, qadimgi turkiy til davrida bu qoʻshimcha oʻz maʼnosi (vazifasini) allaqachon yoʻqotgan boʻlib, koʻplik maʼnosi, asosan, «-lar/lar» qoʻshimchasi orqali anglashiladi.

Shu kabi egalik va shaxs-son qoʻshimchalari tarkibida («-z/iz» qoʻshimchasida) koʻplik maʼnosi qolgan desa boʻladi. Tushum kelishigining — (-ы,-u)g, (-i,-u)gʻ qoʻshimchasi: **bodunugʻ — xalqni (KT-II); elig yil isig, kuchug bermis — ellik yil ishini, kuchini sarflaydi(KT-8); turk bodun ach erte, uch yulqul alip egit (t) im-turk xalqi och edi, u otlarni olib boqdim, (Bil.x-38)** shaklda keng qoʻllanilgan.

¹ Ushbu misollar 57/63-lugʻatlaridan olindi.

Joʻnalish kelishigining — **geru/gʻaru, -keru/qaru, -re/ra, -ru/ru** kabi qoʻshimchasi: **Tabgʻach gʻaru — tavgachga, (tomon), qytany gʻaru — Xitoyga (tomon) Tun. 9; qanagʻym ben ebgaru tusheyin, tedi — xoqonim men uyga tushayin dedi (Tun.31); angaru— oʻnga, Sharqqa (Tun.20)** shakllarda koʻp qoʻllaniladi.

Qadimgi vosita kelishigining -/i, -ы/n qoʻshimchasi qurol-vosita, birgalik, vaqt-payt, joyga munosabat kabi grammatik maʼnolarni ifodalab kelgan: **suchig sabym yymshaq agʻym arygʻ, ыraq bodunugʻ ancha yagʻutur ermis — shirin soʻzi, yumshaq debosi bilan aldab, yiroq xalqni shu xilda yaqinlashtirar ekan (KT-5). Qangʻym qagʻan yeti yegirmi erin tashiqmis — otam xoqon oʻn yetti er bilan (chetga) chiqib ketgan (Kt-II). Singirin, tamirin, yorgelmish songukler... — pay bilan, tomir bilan chirmalgan suyaklar (Olt.Yo. 614.p) ysluzin ashdyim, kechigsizin kechdimiz — yoʻlsiz oshdim, kechiksiz kechdim (Tun — 35) (66/159-160-betlar).**

Son soʻz turkumining qadimgi turkiy tilga xos boʻlgan — **inch/ynch, -unch/unch, -nti/nty, -agun/egʻun** qoʻshimchali shakl-lari: **onunch-oʻninchi (Bil.x. 10), uchunch-uchinchi (Olt.Yo.5), yetinchi-yettinchi, ekinchi-ikkinchi (Kt-45), shuningdek yeti yigirmi yashima — 17 yoshimda (Bil.x-24), sekiz yegirmi yashima — 18 yoshimda (Bil.x.24), otuz artiqi uch — oʻttiz uch (Bil.x.34), bir tuman artyqy yeti — oʻn yetti ming (Bil.x.I), uchegun sulelim — uchovlab qoʻshin solaylik (Tun.21)** shaklda bitiklarda keng qoʻllanilgan (66/112-bet).

Olmoshning eng qadimgi shakllaridan: **ben/ban, kendu-/kentu, ne, kamug, anaqaya** kabilar ancha uchraydi: **Ben ancha termen, ban bile Tonyuquq — men shunday deganman, men bilan Tonyuquq (Tun.37), ban sanga ne ayayym — man sanga nima deyin (Tun.32): banga aydy — manga aytdi (Tun.31): On Oq beklari bodunyr qot (kelti)- Oʻn Oʻq beklari, xalqi hammasi keldi (Tun.45), kentu konlinte ыncha tep (Olt.Yo.21)-oʻz koʻnglida shunday deb: kentu yanilytgʻ — oʻzing yanglishding (KT.23): Toʻquz ogʻuz bodun kentu bodunim erti — Toʻqqiz oʻgʻuz xalqi oʻz xalqim edi (KT.44): qamuq**

baliqqa tegdim kunladim (Ungin.I)— hamma shaharga yetib bordim; **turuq qara qamug'** — turk fuqarosi: hammasi, barchasi (KT.8): **qaburtmish qamug'i** — turg'izibdi hammasini (KT.12): **qamug'ı besh otuz suledimiz** — hammasi bo'lib 25 marta lashkar tortdik (KT.18): **anaqaya olgeli yatur erti** — ana-mana o'ladigan bo'lib yotar edi (Olt.Yo-609-22): **сықылып anaqaya olgeli turur biz (Olt.Yo.)** — siqilib, ana-mana o'laman deb turubmiz, kabilarni bitiklarda ko'rish mumkin.

Sifatdoshning qadimgi turkiy tilga xos bo'lgan — **tuq/to'k, duq/do'q: yorıkdıuq** (Tun.61), qazg'antuq (Tun.61), qyilyımaduq (Kt.5), bilmeduk (Kt.24), barduq (Kt.24) yurgan, qozongan, qilinmagan, bilmagan, borgan; **tachi/tachy, -dachi/dachi**): edgu kirtechi sen, ebinge kirtechi — sen, bunsuz boltachy-sen (Bil.h.14) — ezgulik ko'rajaksan, uyingga kirajaksan. betashvish bo'lajaksan kabi; **-geli/g'aly, -gli/g'ly, -g'uluq**: alg'ali kelti (Bil.h.32). Yuyka irkilin topulg'ali uchuz ermish, yinchge irkilig szgeli uchuz, yuyqaqalyın bolsar, topulg'uluk alp ermish (Tun.13) — yupqa yig'inini to'playdigan (uchun) oson emish, ingichka yig'inni uzadiganga oson, yupqa qalin bo'lsa to'playdigan bahodir kerak; **-ıy,i/gma**: keligme (Tun.43) — kelgan, keladigan: yatyg'ma (Tun.47)-**yetadigan**: ichikime — ichikdi, bodun bolti, slugme shti (Bil.h.37) — taslim bo'lgan, taslim bo'ldi, xalq bo'ldi, o'ladigan o'ldi kabi grammatik shakllari hamda fe'ning shart maylining «-ser/sar», istak maylining — **elim/alim** kabi affikslı shakllari ancha keng qo'llanilgan: yorisar (Tun.74), — yurisa; sebim erser (KT.II)—so'zim bo'lsa Turk qag'ang'aru sulelim, temish, angaru sulemaser, qachan angirser, ol bizni (Tun.20) — turk xoqoniga lashkar tortaylik depti, unga lashkar tortmasa, qachon g'azablansa, u bizni yo'q (qiladi): any yoq qyisalym temish (Tun.21)—uni yuqotaylik debti; terilelim (Tun.33) — yig'ilaylik, yig'ilamiz; su yorilim (Tun.29) kabi. Shuningdek, qadimgi bitiklarda, **-mez-/mas-zun/sin**), **-daqy/teki(dagi)**: bolmazun (Tun.54) — bo'lmasin: bermez/o'ng. 8), bilmez ermish (Tun.6) — bilmas emish, bermas: balyqdaqy (KT.12) — shahardagi, tag'daqi yoki elligig elsiretmis, qag'anlyg'yg qag'ansyratmis, yag'ych baz qylmys, tizligig so kurmis, bashlyg'yg yukuntur (KT.15) — davlatli (ellili)gini davlat-

sizlantirgan, xoqontini xoqonsizlantirgan, dushmanni el qilgan, tizzasi borini cho'kkalagan, boshi borni ta'zim qildir... kabi qadimgi tilga xos shakllar keng qo'llanilgandir.

Qadimgi turkiy tilning sintaktik qurilishi ham ma'lum davrdagi adabiy til qolipiga (shakliga) kelgan bo'lib, so'z birikmalarining turlicha ko'rinishlari, so'zlarning sintaktik aloqaga kirishgan bo'laklari, ularning ifodalanishi va tartibi jihatidan X—XIII asrlar, hatto hozirgi turkiy tillarga ancha yaqin turadi. Shuningdek, unda sodda va qo'shma gapning har xil turlarini, ko'chirmavamurakkab tipli qo'shmagaplar keng ishlatilganligini ko'rish mumkin. Masalan, so'zlarning o'zaro birikuvida, bog'lanishida hokim va tobelik munosabatlar mavjudligi va bu munosabat asosida yuzaga keladigan so'z birikmasi tarkibidagi bo'laklarning o'zaro aloqaga kirishida uch usul (ya'ni bitishuv, boshqaruv va moslashuv)dan foydalanilishi ilmiy adabiyotlarda qayd etiladi: Az bodun (KT.42-2) — Az xalqi, Az bodun yag'ı boltı (KT.42-2) — Az xalqi dushman bo'ldi. Eki aylıg' kishi og'lan (Irk.bit.80) — ikki oylik o'g'il bola kabi moslashuv...Tabg'ach qaganqa yag'ı bolmys (KT.-9) — Tabg'ach xoqoniga qarshi bo'libdi; echim qag'an birle ilgeru (KT.17) — amakim xoqon bilan Sharqqa kabi boshqaruv: Ozim saqymym (KT.49-4) — o'zim alam chekdim. Biz az biz (Ungin 7) — kabi moslashuv usullari shular jumlasidandir. Gap bo'laklari va uning turlari deyarli hozirgi tilimizdagidek (21/42-64-betlar).

Shunday qilib, qadimgi turkiy til davrining birinchi bosqichi (V—X asrlar)dagi turkiy tillarni «t-d», «s-z» va «y» guruhidagi tillarga (dialektlarga) bo'lish mumkin. Ana shu bo'linish (tabaqalanish) jarayoni davom etadi. Yuqorida qayd etilgan leksik, fonetik va grammatik kabi til qurilishi haqidagi ma'lumotlar qadimgi turkiy til davrining birinchi bosqichiga (V — X asrlarga) xosdir. U barcha turkiy tillarning, jumladan, o'zbek adabiy tilining (yozma shaklining) ilk davri sanaladi.

b) Adabiy til taraqqiyotining ikkinchi bosqichi. Qadimgi turkiy tilning bevosita taraqqiy etgan ikkinchi bosqichi X asrdan boshlanadi. Ikkinchi bosqichda turkiy tillar, jumladan, o'zbek adabiy tilining rivojlanishi turkiy qabilalari til birligining ikki tarmog'i asosida davom etadi: g'arbda o'g'uz-qip-

choq-qarluq urug' va qabilalar guruhlarining hamda Sharqda uyg'ur-qarluq-chigil, qisman, qipchoq qabila guruhlarining til birligi asosida umumturkiy adabiy til shakllana boshlagan edi. Umumturkiy adabiy tilning to'liq shakllanish davri ko'pgina adabiyotlarda X — XIII asrlar bilan belgilanadi. Darhaqiqat, bu davrlarda barcha turkiy xalqlarning adabiy tillari uchun asos bo'lgan umumturkiy adabiy til shakllangan edi. Xuddi ana shu umumturkiy adabiy til tarkibida qabila-elat tillarining ichki (tabaqalanish) rivojlanish jarayoni ham boshlangan edi. Demak, turkiy qabila-elatlarning ichki rivojlanishi natijasida turkiy tillarning ajralib chiqishiga olib keladi. Shuning uchun bu davr adabiy tilida ham o'ziga xos xususiyatlar yuzaga keladi. Jumladan, birinchi bosqichda ustun holat, asosiy rol o'ynagan «t/d» guruh tillari o'z o'rnini qadimgi turkiy tillar taraqqiyotida keyinroq paydo bo'lib rivojlangan «y» — guruh tillariga bo'shatib beradi. Bu «t/d» til qoldiqlari qisman tuva, yoqut kabi bir necha tillardagina saqlanib qolgandi.

Shu asosda qadimgi turkiy davrning ikkinchi bosqichida barcha hozirgi turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili (adabiy tili ham) umumiy tarzda tashkil topadi, ularning uzil-kesil shakllanish, rivojlanish jarayoni keyingi asrlarda yanada davom etadi. Qadimgi turkiy tilning ikkinchi bosqichini, qayd etganimizdek, «eski turkiy (adabiy) til» davri deb yuritilgan. Biz ham o'sha atamani shartli ravishda (ikkinchi bosqichi sifatida) qo'llaymiz.

Adabiy-tarixiy manbalarning ko'rsatishicha, eski turkiy adabiy til o'z davriga nisbatan ancha rivojlangan, aniq bir qolipga tushirilgan til hisoblanadi. U judakattalug'at boyligiga, xilma-xil uslubiy vositalar tizimiga egadir. Muayyan voqea-hodisalar ham, murakkab mavhum tushunchalar, turli ruhiy kechinmalar ham bu tilda ancha sodda, aniq va jonli tarzda ifoda etilgandir. Eski turkiy adabiy tilning boyligi, uning turlicha uslublari va xilma-xil ixcham tasviriy ifoda vositalarining ma'lum qolipga tushishi shunday tarixiy shart-sharoit bilan bog'langanki u dastlabki davrlardan boshlab qandaydir birgina turkiy til yoki sheva-dialekt bilangina chegaralanmagan edi. Balki, ma'lum shevalar, dialektlar negizida shakllanganligiga qaramay, o'z tarkibi jihatidan ham, qo'llanish darajasi va doirasi

tomonidan ham barcha turkiy qabila va urug'larning umumiy tili sifatida xizmat qilar edi. Eski turkiy adabiy til o'sha davrdagi ko'pgina turkiy til va shevalarga juda yaqin bo'lganligi sababli nihoyatda katta hududda keng tarqalgan edi, shu hududda yashagan xalqlarning o'zaro aloqa vositasi xizmatini o'tardi.

So'zlashuv tilidan¹ ma'lum darajada farq qilishiga qaramay, eski turkiy adabiy til hamma joyda (turkiy xalqlar yashaydigan hududlarda) turkiy tillarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida o'sha davrdagi so'zlashuv tillari ham unga sezilarli ta'sir qilgan. Keyinroq esa eski turkiy adabiy til ko'pgina umumxalq turkiy adabiy tillarining tashkil topishida asos bo'lib xizmat qilib, asta-sekin shu tillar adabiy tilga singib ketadi. Shu bilan birga eski adabiy tilga o'sha davrlarda ancha rivojlangan, ma'lum adabiy-badiiy an'analarga ega bo'lgan arab va fors tillarining ta'siri ham sezilarli darajada bo'lgan edi. Ayniqsa, eski turkiy adabiy tilning lug'atiga, badiiy tasvir usullari, ifodalilik kabilarda samarali ta'sir etgan. Chunki bu davrlarda arab va fors tillarining mavqei ancha yuqori bo'lgan edi.

Shuni eslatish kerakki, eski turkiy tilga mos bo'lgan ko'pgina leksik, fonetik hodisalar, grammatik shakllarda o'zgarish yuz beradi. Jumladan, qadimgi turkiy adabiy tilning ilk bosqichidagi bitiklarda, asosan, sakkizta unli tovush borligi qayd etilgan edi, uning ikkinchi bosqichi — eski turkiy adabiy tildagi yozma yodgorliklarida esa to'qqizta unli tovush qo'llanganligini ko'ramiz. Til oldi va til orqa qator undoshlarida shakli yaqinlashish, o'xshashlik hodisasi yuz bergan va tovush birikuvlari uyg'unligi hosil bo'lgan. Boshqa tillardan so'z qabul qilish qadimgi turkiy adabiy tilga deyarli xos bo'lmasa-da, eski turkiy adabiy tili bosqichida arab va fors tillaridan o'zlashgan so'zlar anchagina o'rin olgan. Til qurilishi jihatidan ilk turkiy adabiy tilga xos bo'lgan — ba'zi bir leksik-grammatik shakllar eski turkiy adabiy tilda iste'moldan chiqib qoladi yoki iste'mol doirasi nihoyatda cheklangan bo'ladi. Masalan, qurol vosita

¹«Jonli so'zlashuv tili», «og'zaki so'zlashuv tili» kabi atamalarni biz faqat «so'zlashuv tili» nomi bilan atashni lozim ko'rdik.

kelishigi «-(i)n» iste'moldan chiqadi yoki grammatik ma'no-lari yo'qoladi, chiqish kelishigi esa **-dan/tan** tarzda shakllana boradi. **-g'ly/-gli**, **-igme/ыгма**, **-duk/duq**, **-techi/tachy**, **-u/u**, **-ser/sar**, **zun** kabi ko'pgina qo'shimchalarning ba'zilari iste'moldan chiqadi yoki fonetik shakl (**-u,i/b**, **-se/sa**, **-sin (sun)**, **-gen/gan** kabi)lari o'zgaradi; me'yor holiga keladi. Adabiy tilning bu kabi rivojlanishida o'sha davr ijod ahlining xizmati katta bo'lgan. Ayniqsa, xalq orasidan etishib chiqqan yozuvchi va shoirlar o'z asarlarini eski turkiy tilda ijod qilish bilan birlikda o'z hududiy milliy lahjalaridagi xususiyatlarni ham adabiy tilga kirita boradilar. Natijada, shakllanib kelayotgan o'sha davrdagi hududiy nisbatan milliy tillar mustaqil o'ziga xos adabiy tilga ega bo'la boradi. Bu bosqich turkiy tillarning umumturkiy tildan mustaqil tarzda ajralib chiqish davri hisoblanadi. Jumladan, eski o'zbek adabiy tilining rivojida ham xuddi shu jarayon davom etayotgan edi.

v) Adabiy tilning uchinchi taraqqiyot bosqichi. Shuni ta'kidlash lozimki, eski turkiy til davrida yetishib chiqqan o'zbek xalqining yetuk ijodkorlari shakllanayotgan eski o'zbek tilida yozish bilan birga o'sha vaqtda o'zbeklar so'zlashgan tildan ma'lum darajada farq qilgan umumturkiy adabiy tilni ham rivojlantirishga hissa qo'sha olganlar. Bu adabiy tilning aniq bir adabiy yo'nalishiga, me'yorga kelishiga ahamiyat berganlar. Shuning uchun eski o'zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiy etishida eski turkiy adabiy tilning ta'siri va ahamiyati katta bo'ldi. Bu ta'sirni eski o'zbek adabiy tilining hamma sohalarida aniq ko'rish mumkin. Bu, avvalo, tilning lug'ati uchun xos hodisadir. Eski turkiy adabiy til qadimgi turkiy adabiy tilning davomi bo'lib, u uzoq davrlar voqea-hodisalarni, turli-tuman predmet, harakat va ularga xos belgi-xususiyat, mavhum tushunchalarni aniq, ravshan ifoda etuvchi katta so'z boyligiga ega edi. Bu so'zlarning asosiy ko'pchiligi eski o'zbek adabiy tili, shuningdek, boshqa turkiy tillar uchun umumiy bir xilda tushunilar va qo'llanar edi. Jumladan, qarindoshlikka, kiyim-kechak va ko'pgina uy anjomlariga doir so'z va atamalar, oziq-ovqat, ichimliklar, parranda va hayvonlar nomlari, jumladan, **acha/eka/eza—opa** (I t, 114-10; 116-28); **baldiz — boldiz**, xotinining singlisi, **qayinsingil** (I t,

426-8), **boldir og'ul — o'gay o'g'il** (I t, 425-6); **etik — etik**, **oyoq kiyimi** (III t, 298-9), **etukchi-etikdo'z** (II t, 54-10), **bashmak-to'pik — oyoq kiyimi** (I t, 433-22, II t, 317-22); **ash — osh-taom nomi** (I t, 109-11), **et — et**, **go'sht** (I t, 70-22), **bal — bol-asal** (III t, 171-1); **taqag'u — tovuq** (I t, 135-7), **echku — echki** (I t, 109-4), **bars — qoplon** (I t, 330-12), **eshkak/eshyak — eshak** (I t, 134-24, 37-13) kabi. Mahmud Koshg'ariy devonida turli sohalar bo'yicha qo'llanilgan so'z va atamalar ko'pchilikka tushunarli bo'lgan va eski o'zbek adabiy tilida ham aynan qabul etilgan.

O'sha davrlarda yozilgan asarlarda **artuq — ko'p-oshuq**, **ezgu — yaxshi**, **achun/ajun — dunya**, **yav-yag'ly — dushman** kabi turkiy, turkiy-forsiy, turkiy-arabiy sinonimik qatorlar: *ot tesa ag'iz kuymas. quruq qashuq ag'bizqa yaramas, quruq ssz qulaqqa yaqishmas; bir qarg'a birla qish kelmas; tag' tag'qa qavushmas, kishi kishige qavushur; ikki qochqar bashi bir ashichta (qozonga) pishmaz; qarg'a qariysyn kim bilir, kishi alasin (olasini) kim topar* (83) kabi maqol va hikmatlar shu kabi ixcham iboralar, badiiy-tasviriy ifoda vositalarining keng iste'molda bo'lganligi ham eski turkiy adabiy tilning lug'at boyligi keng va sermazmun ekanligidan dalolat beradi. Bu kabi lug'at boyligi eski o'zbek adabiy tiliga aynan shu holda qabul etilgan. Ammo bu fikrdan eski turkiy tilning barcha lug'at boyligi eski o'zbek tiliga to'liq ko'chgan (mos keladi), degan xulosa chiqmasligi kerak. Chunki eski o'zbek adabiy tili umumturkiy adabiy til tarkibida shakllangan bo'lsa-da, u asta-sekin o'ziga xos (eski turkiy adabiy tildan farq qiladigan) leksik boyligiga ega bo'la borgan. Eski turkiy tildagi ko'plab so'zlar iste'moldan chiqqan, ba'zilari esa, chegaralangan holdagina qo'llaniladigan bo'lib qolgan.

Eski turkiy adabiy tilning eski o'zbek adabiy tiliga, shuningdek, boshqa turkiy tillar ta'siri, ularning munosabati faqat lug'at sohasi bilangina cheklanmaydi. Bu ta'sirning eng muhim tomoni shundan iboratki, eski turkiy adabiy til negizida eski o'zbek adabiy tilining fonetika va grammatika sohasidagi o'z qoidalari hamda shakllari tizimi tashkil topdi. Shuni qayd qilish kerakki, eski turkiy tildagi bu qoida va shakllar aynan o'zicha, qanday bo'lsa, shundayligicha eski o'zbek adabiy

tiliga qabul qilinmaydi, balki uning negizida, undan boshqacharoq, eski o'zbek tilining o'ziga xos bo'lgan yangicha qoida shakllari tizimi tashkil topadi.

Demak, eski turkiy adabiy til bir tomondan qadimgi turkiy tilning davomi, rivojlangan, umumturkiy adabiy til sifatida shakllangan bosqichi sanalsa, ikkinchi tomondan boshqa turkiy adabiy tillardagi kabi eski o'zbek adabiy tilining ilk shakllanayotgan bosqichi hisoblanadi. Jumladan, qadimgi turkiy adabiy tilning birinchi bosqichiga xos bo'lgan til qurilishi va uning qoidalar tizimi eski turkiy adabiy til davrida rivojlanib, muvofiqlashib ma'lum bir qolipga tushgan, hamma turkiy elatlar uchun tushunarli adabiy tilga aylangan edi. Shu kabi bu jarayonda umumturkiy adabiy tildan ajralib chiqqan tillar, jumladan, eski o'zbek adabiy tilida yanada o'ziga xos davom etdi. Qadimgi turkiy tilning so'nggi bosqichi, umumturkiy adabiy til davrida mavjud bo'lgan til qoidalari eski o'zbek adabiy tilida yana ham puxtaroq, ixchamroq va milliylikka tomon takomillasha bordi. Bu davrda yangi qoidalar va shakllarning paydo bo'lishiga asosiy omil yuzaga keldi. O'zbek adabiy tilining so'nggi to'rtinchi bosqichi haqida alohida (qo'llanmaning 2-qismida) fikr yuritiladi.

Xullas, qadimgi turkiy yozma manbalari til qurilishi materiallarida, ayniqsa, leksik boyligida barcha turkiy xalqlar, shu jumladan, o'zbeklar ham o'zlarining o'tmish tillarini belgilab olishlari mumkin bo'ladi. Ulardagi o'zaro farqlar esa uzoq tarixiy taraqqiyot bilan bog'liqdir. Chunki jamiyat taraqqiyotida har bir ijtimoiy hodisa o'ziga xos rivojlanishda bo'ladi, ularning asosi esa bari bir ma'lum darajada saqlanib qoladi. Ana shu hodisani, albatta, hisobga olish lozimdir. Shuning uchun ham har bir davr yozma yodgorliklari va uning til xususiyatlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki xomaki, asossiz mo'ljal bilan ma'lum bir xalq va uning tiliga yaqin yoki uzoqligini aniqlash xatolikka olib keladi. Balki, ularni ma'lum davrlar asosida va bosqichlarga bo'lib, qiyoslab o'rgangandagina har bir tilning o'tmishini aniqlab bo'ladi. Bu masala alohida tadqiqotni talab etsa-da, ushbu ishda qisman to'xtalishni lozim topdik.

UMUMTURKIY ADABIY TILI TARKIBIY BOSQICHLARINING O'ZARO MUNOSABATI VA ULARNING O'ZBEK ADABIY TILIGA ALOQADORLIGI

Ko'pchilik ilmiy manbalarda eski o'zbek adabiy tilining ilk bosqichi X–XIII asrlardan boshlangan, deb qayd etiladi. Bu fikr bir tomonlama to'g'ri. Ammo umumturkiy adabiy tilining ilk davri hisobga olinmay qolgan. Chunki umumturkiy adabiy tilning ilk bosqichi manbalarda turkiy til davri deb nomlanib, V–VI asrlardan boshlanadi. Bu davrning yozma manbalari O'rxun-Enasoy yoki Dulbarchin, ba'zan turkiy-runiy yozuv yodgorliklari nomi bilan fanda ma'lumdur. Xuddi ana shu davr adabiy tili yodgorliklari bilan eski turkiy adabiy til nomi bilan yuritilgan yozma manbalar tili bir-biriga juda yaqindir. Buni qiyoslab o'rganganda yaqqol ko'rish mumkin, albatta. Eski turkiy adabiy til yozma yodgorliklariga esa Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq», Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig» va Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarlari kiradi. Ushbu asarlar, ayniqsa, «Devonu lug'otit turk» asarining til materiali bilan O'rxun-Enasoy, qadimgi uyg'ur yozuv yodgorliklari til materiali bir-biriga yaqinligi tilshunoslarga ma'lumdur. Demak, X–XIII asr yozma yodgorliklari til xususiyatlari V–VII asr yozma manbalari tiliga o'xshashdir. Eski o'zbek adabiy tilining ilk davrlarini V–VII asrlardan boshlangan degan fikrni aytish to'g'ri va to'laqonli bo'ladi. Shuningdek, «Qadimgi» va «eski» davrlar umumturkiy adabiy tilining ikki bosqichi sanalib, boshqa turkiy tillar kabi eski o'zbek adabiy tili uchun ham ilk bosqichlar sanaladi. Eski o'zbek adabiy tilining qadimgi turkiy til va eski turkiy tili bosqichlaridagi ba'zi bir farqlar bo'lishidan qat'i nazar, ularda umumiylik, yaqinlik tomonlari kuchlidir. Ta'kidlaganimizdek, til qurilishining barcha sohalari qiyoslaganda bunga to'liq ishonch hosil qilish mumkin. Jumladan, fonetik jihatdan unlilar va undosh tovushlarning soni hamda barcha fonetik hodisalar deyarli aynan saqlangan. To'g'ri, tovushlarning talaffuz me'yorlari so'nggi bosqichida ancha stabillashgan, ular o'rtasidagi farqlar ba'zi lahjalarda saqlanganligini ko'rish mumkin. Masalan, o'z davrining mohir

tilshunosi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida «Tilda va lahjalarda bo'lgan farqlar haqida» bergan ma'lumotlari bu fikrni to'liq tasdiqlaydi. U bu haqda o'z devonida quyidagicha yozadi:

«Tub so'zlarda o'zgarishlar kam bo'ladi. So'zlardagi o'zgarish harflarda, ba'zi harflarning almashinuvida, tushunuvidadir. Masalan, «yoy» bilan boshlangan ot va fe'llarning bosh harfini o'g'uz ham qipchoqlar alifga yoki «j» ga aylantiradilar. Chunonchi, turklar musofirni — yelkin desalar, ular (o'g'uzlar) — elkin deydi; turklar — yalig' suvp desalar, ular ылыг' suvp deydi. Shuningdek, turklar dur, marvaridni — yinju desalar, o'g'uzlar — jinju deydi. Turklar tuyaning uzun yungini yug'du desalar, ular jug'du deydi. So'z o'rta-sida yoki oxirida kelgan «yoy» ni arg'ular «n» ga almashtiradilar. Masalan, turklar — qoy(qo'y) desalar, ular — qon(qo'n) deydi. Turklar kambag'alni — yug'ay desalar, ular -jыг'an deydi. Turklar — qayu nen (qaysi narsa) desalar, ular — qanu nen deydi.

So'z boshidagi «m» harfini o'g'uzlar, qipchoqlar va suvorinlar «b» ga aylantiradilar. Masalan, men bardim desalar, ular — ben bardum deydi. Turklar sho'rvani — mun desalar, ular — bun deydi. So'zdagi «t» ni o'g'uzlar va ularga yaqindagilar «d» ga aylantiradilar, chunonchi, tuyani — teve desalar, o'g'uzlar — devey deydi. Turklar teshikni — st desalar, ular — od deydi.

Turkiy qabilalar tilida qo'llanilgan ko'pgina so'zlardagi «d» harfi o'g'uzlarda «t» bo'ladi. Masalan, «xanjarni» turklar «bugda» desalar, ular «bukta». deydi. Shunga o'xshash yana ko'pgina so'zlar bor. Ular hammasi shu asosdadir. «b» bilan «p» mahrajari orasida «p» harfini o'g'uzlar va ularga yaqin turuvchilar «vov»ga aylantiradilar. Chunonchi, turklar uyni — epv desalar, o'g'uzlar — ev deydi. Turklar ovni — avp desalar, ular — av deydi» (I t. 66-68-betlar).

Mahmud Koshg'ariy tomonidan keltirilgan ma'lumotlar qadimgi turkiy tilning ilk bosqichidagi o'ziga xos xususiyatlar bo'lib, ular qadimgi turkiy tilning ikkinchi (eski turkiy til) bosqichida dialektal xususiyatlar sifatida saqlanganligidan dalolat beradi. Boshqa jihatlari, ya'ni tub so'zlardagi

o'zgarishlar, so'z boyligi va grammatik jihatlari o'zgarishlar kam bo'lgan degan xulosaga kelinadi.

Olimning qadimgi turkiy tilning ilk davrlariga xos bo'lgan «d/z-y» dialektlar — tillar haqidagi ma'lumotlari muhim ahamiyatga ega. Yuqorida qayd etilgan qon-qoy(qo'y), kanu-qayu (qaysi), ayniqsa «de/z» undoshining «y» ga ko'chish hodisasi ko'pgina qabilalar tilida saqlanganligini ta'kidlab, aniq misollar asosida bergan ma'lumotlari yanada xarakterlidir. Masalan, «Yag'mo, to'xsi, qipchoq, yabaqu, tatar, qayjumul va o'g'uzlar hammavaqt «z»ni so'zda «yoy»ga aylantiradilar va hech mahal «z» bilan so'zlamaydilar. Chunonchi, ulardan boshqalar qayin daraxtini — qadzyn desalar, bu qabilalar — qayyn deydi. Chigil va boshqa turkiy qabilalar tilida «dz» bilan aytilgan so'zlar qipchoq, yamak, suvar, bulg'orlar hamda ruslarga va Rumga qadar borib taqaladigan boshqa qabilalarda «z» ga almashtiriladi. Masalan, turklar oyoqni adzaq desalar, ular azaq deydi. Chigil turklari qarinq tozty — qorinq tuydi desalar, ular tozdy deydi. Boshqa ot va fe'llarda ham shunga qiyos qilish kerak».

Xulosa qilib aytganda, chigillarda «z» bilan aytiladigan so'zlar yag'mo, to'xsi, o'g'uz va Chinga qadar cho'zilgan yerlarda yashovchi ba'zi arg'ularda «yoy» bilan almashadi. Rungacha bo'lgan qipchoq va boshqa qabilalarda bu harf «z» ga aylantiriladi (28/It, 65-67-68-betlar). Ushbu ma'lumotlardan ham ko'rinib turibdiki, qadimgi turkiy adabiy tilining ilk bosqichiga (Oltoy-Xun davrlariga) xos xususiyatlar Koshg'ariy davrida ham dialekt va shevalarda (qabila va urug' tillarida) qo'llanilib kelingan. Qayd etilgan ma'lumotlardan tashqari, qadimgi turkiy tildagi turli xil fonetik hodisalarni eski turkiy adabiy tili bosqichida ham mavjudligi Koshg'ariy devonida misollar asosida tahlil etib berilgan. Jumladan, «So'z boshidagi har bir alif (unli tovush)ni xutanliklar, kanjaklar «x» ga almashtiradilar... ular turkiy so'zlarda yo'q tovushni kiritganlar. Masalan, ular atani — xata deydi, anani — xana deydi. «r» harfi ba'zan «l» ga almashadi... Ba'zan «z»> «s» ga va «s»> «z» ga almashadi...

Vaqt otlarida va joy otlarida qo'llanuvchi «g'» harfini o'g'uzlar «a» ga almashtiradilar: barg'u yer o'rnida barasy

yer deyдилar. Turklar — turg'ur og'ur — turush vaqti desalar, o'g'uzlar — turasi og'ur deyдилar. Shuningdek, «k» harfi «g» ga, «k» harfi «q» ga almashadi (28/I t. 69-bet).

Koshg'ariy devonida harflarning almashishidan tashqari, yana tushib qolishi yoki qisqarish hodisalari ham mavjudligi ta'kidlanadi:

«So'zlarda harf tushirish xususiyatiga kelganda, o'g'uz va qipchoqlar otlar va ishning ko'p qayta ishlaganini bildiruvchi fe'llarning o'rtasida kelgan «ch» ni hamma yerda ham tushirib qoldiradilar. Masalan, turklarda — chumchuq desalar, qipchoqlar va o'g'uzlar — chumuk deyдилar. Bo'g'iz (tomoq)ni turklar — tamg'aq desalar, o'g'uz va qipchoqlar — tamoq deyдилar. «Shu kabi ba'zi bir fe'l turkumidagi so'zlar: barag'an (turklarda) baran (o'g'uzlarda), urag'an (turklarda) uran (o'g'uzlarda) shakllarda qo'llanilgan». Olimning yozishicha, «Talaffuzda yengillik bo'lsin uchun o'g'uzlar «k» ni tushirib qoldirganlar» i kabi «fe'llarda shu ma'nodagi so'zlarda «g» o'rniga almashib keladigan, «k» ni ham tushirganlar. Hamma turkiy tillarda ham shu yozilgan qoidalar asos» sanalgan (28/I t. 69-bet).

Demak, qadimgi turkiy adabiy tilning ilk bosqichi bilan so'nggi eski turkiy-o'zbek adabiy til bosqichidagi ba'zi fonetik jihatlarining farqlari tilda yuzaga kelgan tarixiy rivojlanish bilan izohlanadi. Ayniqsa, grammatik va leksik ko'rinishda yuz bergan o'zgarishlar unchalik katta emas. Balki, ilk davr adabiy tili eski turkiy adabiy tilga asosiy manba (baza) sifatida xizmat qilgan va ana shu manba asosida yangi yasamalar, yangi ma'nolar bilan boyib, uslubiy-grammatik jihatdan silliqlashib, davr talabiga mos tarzda umumturkiy adabiy tilga aylana borgan. To'g'ri, uzoq tarixiy taraqqiyot va davr talabi yoki o'z davriga mos holda til materialini o'zgarib boradi va u asta-sekin o'zining dastlabki davridan ancha uzoqlashgan tarzda o'zgarishga uchrashi tabiiy. Ammo har bir davrning o'zidan oldingi va o'zidan keyingi bosqich bilan uzviy bog'liqligi esa saqlanib qoladi. Bu bog'liqlik zanjirsimon tarzda oldingi bilan so'nggi davrni o'ziga bog'laydi. Xullas, umumturkiy adabiy tilning har ikkala (qadimgi turkiy adabiy til va eski turkiy adabiy til) bosqichi uzviy bog'langanligi shubhasizdir.

Shuningdek, bu qadimgi umumturkiy adabiy til shu asosda boshqa qardosh turkiy xalqlar adabiy tillaridagi kabi, o'zbek tiliga ham bog'lanadi va uning ilk davrlari sanaladi.

Tarixiy rivojlanishning katta bir qismini tashkil qilgan bu davrlarda, ta'kidlaganimizdek, mamlakat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy voqealar va turli tarzda iqtisodiy-madaniy munosabatlar bilan bog'liq ravishda adabiy til bir qator o'zgarishlarga uchraydi. Adabiy tilning qurilishi, jumladan, fonetik tizimida ma'lum o'zgarishlar sodir bo'lib, adabiy til me'yorlari qat'iylashadi, yana ham rivojlanadi. Ta'kidlash lozimki, o'zbek xalqining tashkil topish jarayonida uning etnik tarkibi ancha murakkab va xilma-xilligi, tarkibiy qismlari (dialektlar birligi) o'rtasida o'ziga xos (sezilarli darajada) til tafovutlarining mavjudligi davom etadi. Bu jarayon uning o'ziga xos murakkab tarixiy rivojlanish sharoiti bilan bog'liq bo'lishi, chunonchi, bu hodisa o'zbek xalqining tarixan juda ko'p urug' va qabilalarning bir-biriga yaqinlashuvi va birlashuvi natijasida tashkil topganligi bilan ham izohlanadi.

Ma'lumki, o'zbeklar etnogenezining shakllanishi uzoq va juda murakkab tarixiy jarayonda kechgan bo'lib, uning tarkib topishida Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'ida, hozirgi O'zbekiston yerlarida eng qadimgi davrlardan yashab kelgan sak, massaget, eftalit va boshqa qabilalar uyushmasi (bular Xun xoqonligi aholisining ham asosiy qismini tashkil qilgan), shuningdek, sug'diylar, xorazmiylar va baqtriyaliklar ilk asos sifatida muhim o'rin egallashgan. Jumladan, xalqimizning etnik tarkibini sinchiklab tekshirib, unga tarixiy jihatdan nazar tashlasak, o'zbek elati tarkibiga juda ko'p qardosh va qardosh bo'lmagan qabila-urug'lar aralashib, qo'shilib ketganligini bilamiz. Ularning bir qismi turkiy elatlar bilan azaldan aralashib yashab kelgan bo'lsa (ayniqsa, fors-tojik urug'lari), ba'zilari esa (ya'ni arablar, hindlar, yevropaliklarga xos qabila va urug'lar) turli davrlarda har xil sabablar bilan Markaziy Osiyodagi qabila-urug'lar bilan aralashib ketganlar. Davrlar o'tishi bilan ular mahalliy turkiy elatlarga, jumladan, turkiy-o'zbeklarning etnik qatlamiga asta-sekin singib qo'shilib ketganlar. Shuning uchun ham o'zbek urug'lari tarkibidagi ularning azaliy (arab, mo'g'ul kabi) o'z nomlari saqlanib

kelingan. Jumladan, turkiy urug'-qabilalaridan juda ko'p o'zbeklar tarkibiga singib ketib, ular ham o'zbekning qoraqalpoq, qirg'iz, qozoq kabi urug'lari nomi bilan atalib kelinganiga sabab bo'lgan. Xuddi ana shu jarayonning yuz berishini xulosalab, ba'zi olimlar o'zbek xalqi (millati)ning shakllanish jarayonini va etnik tarkibini uchga bo'ladilar (34/7-11-betlar):

1) Qadimdan to XIV asrgacha turkiy nom bilan atalib kelingan asosan, o'troq holda yashashga moyil bo'lgan turkiy o'zbek qabilalari;

2) Qipchoq-o'zbek qabilalari;

3) O'g'uz-o'zbek qabilalari (51/54-bet).

□Turkiy-o'zbeklar qadimdan Markaziy Osiyoda, jumladan, Movarounnahr, hozirgi O'zbekiston yerlarida yashab kelishgan bo'lib, ular tarkibi (ittifoqi)ga qarluq, chigil, tuxsi, yag'mo, yaboqu, tangut, arg'u kabi ko'pgina urug' va qabilalar kirgan. Shuningdek, qisman, tojik elatlariga mansub bo'lgan ba'zi qabila-urug'lar bu birlikka qo'shilib ketgan degan fikrlarni inobatga olish mumkin.

Yuqorida qayd etilgan urug'-qabilalar eftalitlar, jumladan, turk xoqonligi tarkibida ham mavjud bo'lgan va ular ko'pgina manbalarda sak, massagetlar uyushmasi yoki qabila (ittifoqi) ning umumiy nomi bilan ham yuritilgan. VI asr o'rtasidan boshlab eftalitlar davlati zaiflashib, uning yerlari G'arbiy □urk xoqonligi hukmronligiga o'tadi. Xuddi shu davrlardan boshlab o'troqlashgan turkiy urug'-qabilalar soni □oshkent, Farg'ona, Zarafshon hududlarida, umuman, Markaziy Osiyoda oshib boradi va turkiylashish jarayoni kuchayadi. Ayniqsa, qoraxoniylar hukmronligi davrida bu jarayon yanada tezlashadi. Xuddi ana shu davrda tamoman o'troqlashgan turkiy elatlar boshqa qardosh turkiy xalqining birinchi etnik tarkibini tashkil qiladi.

□Turkiy elatlar orasida qipchoqlar qadimiy va katta qabilalardan sanaladi. Jumladan, bu qabilaning ko'pchilik qismi turkiy o'zbek xalqining ikkinchi etnik tarkibini tashkil etgan. O'zbek nomi bilan atalgan urug'larning asosiy qismi ham ana shu qabila tarkibida bo'lgan. Ba'zi manbalarda yozilishicha, qipchoq-o'zbeklar qadimgi davrlarda turkiy xalqlarning

qipchoq guruhiga kiruvchi ming, yuz, qirq, o'n qipchoq, nayman, qangli, qiyot, qo'ng'iroq, mang'it, uyshin va shuningdek, kenagas, jaloir, misit, do'rmon, qutchi, burqut, bahrin kabi urug' va qabilalar asosida tashkil topgan. Qadimgi davrlarda ular asosan Itil(Volga) va Dunay daryolari, Xazar (Kaspiy), Orol dengizlari, O'rol tog'lari va G'arbiy Sibirdagi Irtish, Enasoy daryolari bo'ylarida hamda Yettisuvda yashaganlar. Yettisuvda tuzilgan turk xoqonligida ham ular ancha yuqori mavqega ega bo'lganlar (34/8-9-betlar). Ularni ba'zi manbalarda poloveslar va kumanlar deb ham ataganlar (84/1003-bet). Qipchoq qabilasi va unga tegishli urug'lar birlashmasi haqida V-VIII asrlar yozma yodgorliklari O'rxun-Enasoy bitiklarida, ayniqsa, XI asr yozuv manbalaridan Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» nomli asarida muhim va ishonchli ma'lumotlar bor.

Umuman, qipchoq o'zbeklari hozirgi o'zbek xalqining shakllanishida turkiy-o'zbeklarning ikkinchi tarkibiy qismi sifatida qatnashgan. Ularning Markaziy Osiyo, Movarounnahr va Farg'ona vodiysida ham qadimdan yashab kelishgani va chorvadorlik, dehqonchilik bilan shug'ullanishgani manbalardan ma'lum.

O'zbek xalqining shakllanishida o'g'uz o'zbeklari uchinchi tarkibiy qismi sifatida qatnashgan. Ular ham eng qadimgi turkiy qabilalardan bo'lib, O'rxun-Enasoy va ayniqsa, Mahmud Koshg'ariyning devonida ancha katta va nufuzli mavqega ega bo'lgan qabila sifatida ta'riflanadi. Bu qabila va uning urug'lari haqida ishonchli ma'lumotlar, shuningdek, Abulg'oziy Bahodirxonning «Shajarai turk» va «Shajarai tarokima» kabi asarlarida ancha keng ma'lumotlar berilgan. O'g'uz qabilasi va uning urug'lari asosida hozirgi Ozarbayjon, Usmonli turk, □urkman kabi ko'pgina xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Chunonchi, o'zbek xalqi tarkibidagi xorazmiyliklar va ularning tili (dialekti) ana shu qadimgi o'g'uz qabila-urug'lari ta'sirida tarkib topib, qadimgi Xorazm tilining iste'moldan chiqishiga olib kelgan. O'g'uz o'zbeklari Buxoro va Qoraqalpog'iston hududlarida ham anchagina mavjud.

Xullas, o'zbek tilining barcha davrlardagi yozma manbalari tilida o'g'uz tilining ta'sirini sezish mumkin. Umuman,

qayd etilgan yuqoridagidek etnik qabilalar keyinchalik Xuroson va Movarounnahrda, to'g'rirog'i, Temuriylar davlatida «turk, turkiy» xalq (elat) nomi bilan atalgan o'zbeklarni va ularning tillari «turkiy, turkcha», keyinchalik to'liq bir nom, ya'ni o'zbek atamasi bilan shakllanishiga asos bo'lgan edi.

Ana shu o'zbek xalqi va tilining shakllanish jarayonida Movarounnahrning yuqorida qayd etilgan tub aholisi, urug' va qabilalaridan tashqari, qayd etganimizdek, Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Janubiy Sibir, Oltoy va Tuqyu xoqonligi tarkibida yashab kelgan turkiy qabila-urug'lar va ular tillarining ham ta'siri katta bo'ldi. Chunki ular tarkibida qadimdan o'zbek nomi bilan yuritilib kelingan qabila-urug'lar ham mavjud bo'lib, keyinchalik ushbu nom o'zbek xalqining umumiy nomiga aylanishiga, tilining esa «O'zbek tili» deb atalishiga olib kelgan edi. O'zbek tili va xalqining shakllanishiga asos bo'lgan ushbu qayd etib kelingan uch etnik qatlamning o'troqlashib, aralashib ketishi va ularning har jihatdan bir-biriga ta'siri VI–VIII asrlardan kuchayib ketgan edi. Garchi arablar tomonidan O'rta Osiyoning bosib olinishi turkiy-o'zbek urug' va qabilalarining birlashishini birmuncha sekinlashtirgan bo'lsa-da, lekin o'zbek elatining shakllanish jarayonini to'xtata olmadi. O'z navbatida IX asrlarda tashkil topgan Somoniylar davlati tarkibida qarluq-chigil, uyg'ur, tuxsi, yag'mo, yaboqu, tangut, arg'u urug'lari va qisman o'g'uz-xorazm hamda turkiylashgan sug'diylar (sug'daklar) mavqei ko'tarilib, turkiy-o'zbek tilining shakllanish jarayoni davom etdi. Ayniqsa, X asrda shimolda qarluq, yag'mo, chigil qabilalar ittifoqining kuchayishidan Yettisuvda qudratli Qoraxoniylar davlati barpo etiladi va ular Somoniylar davlatini, umuman, Movarounnahrni bosib olib, turkiy qabila va urug'larni birlashtirib oladi. Bu davrda turkiy urug' va qabilalar hamda ularning tillari bir-biriga ancha yaqinlashadi. Natijada o'sha davrlarda qarluq-chigil-uyg'ur dialekti asosida shakllangan Sharqiy Turkiston adabiy tili bilan sal keyinroq Xorazm vohasidagi o'g'uz-qipchoq lahjasi negizida rivojlangan g'arbiy adabiy tilning o'zaro bog'lanishidan (74/46-bet) umumturkiy adabiy til yuzaga kelgan. Xuddi ana shu umumturkiy adabiy tili o'zida aks ettirgan Mahmud Koshg'ariyning «Devonu

lug'otit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asarlarini ko'rsatish mumkin. Bu asarlar umumturkiy adabiy tilning yana ham taraqqiy etishida, uning adabiy til me'yorlarining ishlanilishi, ma'lum bir qolipga (shaklga) kelishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu asarlar umumturkiy adabiy til namunasi sifatida o'zbek adabiy tilining ilk shakllanishida bevosita ta'siri kuchli bo'lgan. Shuningdek, ikkinchi tomondan, Xorazmda yaratilgan o'g'uz-o'zbek dialektida yozilgan adabiy-badiiy asarlarda, jumladan, Rabg'uziyning «Qisas ul-anbiyo», Durbekning «Yusuf va Zulayho», Xorazmiyning «Muhabbatnoma»si, Alining «Qissai Yusuf» dostonlari tili ham umumturkiy adabiy tilning namunasi sifatida o'zbek adabiy tilining shakllanishi va yanada rivojlanishida muhim o'rin egallagan.

Mo'g'ullar istilosi Markaziy Osiyoda madaniyat va adabiyotning taraqqiyotida anchagina salbiy iz qoldirgan bo'lsa-da, bu davrda xalq og'zaki ijodi namunalari bilan birga yuqorida qayd etilgan yozma adabiyotga doir badiiy asarlar maydonga keldi. Shunga ko'ra, o'zbek yozma adabiy tiliga nisbatan uning so'zlashuv adabiy tili turi kengroq tarqalgan va taraqqiy etgan edi. Natijada, shu davrda o'zbek tilining umumxalq xarakteri, adabiy til bilan so'zlashuv tilining o'zaro bog'liqligi ancha kuchaydi. Shuning uchun adabiy tilda shu davrdagi urug' tillarining xususiyatlari saqlanib qoladi. Bu esa o'sha davrda yozma adabiyotning, yozma badiiy asarlarning kam tarqalganligi bilan ham izohlanishi mumkin. Shu kabi adabiy tilda dialekt xususiyatlarining saqlanib qolishiga, uning Sharqiy va g'arbiy turkiy-adabiy til negizida tashkil topganligi sabab bo'lgandir. Har holda, qarluq-chigil-uyg'ur hamda qipchoq va o'g'uz dialektlarining bir-biri bilan qo'shilishi, aralashib ketish jarayoni kuchayishi natijasida shu dialektlar birligi negizida umumiy eski o'zbek tili shakllangan. Ilmiy adabiyotlarda bu til g'ayriilmiy ravishda «chig'atoy (adabiy) tili» nomi bilan yuritilgan. Bu nom bilan atalgan til qadimda ham, o'sha davrda ham bo'lmagan. Balki, Chig'atoy xonligi hududidagi o'zbek adabiy tili bo'lgan, albatta. Chig'atoyning ona tili esa mo'g'ul tili sanaladi. Mo'g'ul tili esa hech qachon Movarounnahrda hukmron til bo'la olgan emas. Shunga ko'ra, taniqli sharqshu-

nos olim V.V.Bartold mo'g'ullar istilosi ularning (mo'g'ullarning) o'zidan ko'ra turklarning taqdiriga ko'proq ta'sir qildi, ya'ni turkiy til asta-sekin mo'g'ullar barpo qilgan davlatlarning tiliga aylanib qoldi, deb ta'kidlagan edi (85/17-bet). Demak, bu davr tilini eski o'zbek adabiy tili deb atash maqsadga muvofiqdir. Eski o'zbek adabiy tilining umumturkiy tilga munosabati qarluq-chigil-uyg'ur va qipchoq urug'lari til birligi asosidagi adabiy tilda yaratilgan asarlar til materiallarini kuzatganda yanada oydinlashadi.

Eski o'zbek adabiy tili umumturkiy adabiy tilning davomi, (undan ajralib chiqqandan so'nggi) taraqqiy etgan bir tarmog'i sanaladi. Tilshunos olim N.A.Baskakovning ta'kidlashicha, qoraxoniylar davri adabiy tili asosida rivojlangan va keyinroq «chig'atoy tili» nomi bilan yuritilgan til sharqiy qarluq-chigil-uyg'ur tillari hamda g'arbiy o'g'uz-qipchoq yoki Oltin O'rda-Xorazm tillari unsurlarini o'zida birlashtirgan holda taraqqiy etadi. Bu til O'rta Osiyodagi barcha yozma adabiy tillarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi (74/54-bet).

Qoraxoniylar davri, aniqrog'i, qarluq-chigil-uyg'ur til birligining eski o'zbek adabiy tiliga munosabati yoki ta'sirini o'rganishda «Qutadg'u bilig», «Devonu lug'otit turk», «Hibat ul-haqoyiq», qisman, «Devoni hikmat» kabi asarlar muhim rol o'ynaydi.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» (Baxt keltiruvchi bilim) kitobi turkiy tilda (1069–1070) yaratilgan birinchi katta hajmdagi badiiy, falsafiy-didaktik asar (doston) bo'lib, XI asr adabiy tili, adabiyoti va tarixining nodir yodgorligi sifatida katta ilmiy-tarixiy qimmatga ega. Bu asar xalq og'zaki ijodining ta'siri ostida yaratilgan yozma adabiyotning turkiy tildagi dastlabki namunalaridan biridir. Buni asarning mundarijasi, badiiy-tasviriy vositalari, asarning tili va unda ishlatilgan maqollar, hikmatli so'z va iboralar ham ko'rsatib turibdi. Jumladan, «Qutadg'u bilig»da qo'llanilgan bir qator hikmatli so'z va iboralarning o'sha davr qabilalar tilida ham keng ishlatilganligini «Devonu lug'otit turk», «Hibat ul-haqoyiq» asarlarning til materialidan ham sezish mumkin. Bu asar til jihatidan X–XII asrlarda O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistonda tashkil topgan turkiy adabiy tilda yaratilgan bo'lib, Qoraxoniylar

davlati tarkibiga kirgan barcha turkiy qabilalar uchun tushunarli bo'lgan, ular tilidagi umumiy xususiyatlarni birlashtirgandir. Buni «Qutadg'u bilig»ning kirish qismida keltirilgan «**Machin alimlari va hakimlari qamug' ittifoq boldiylar, kim Mashriq vilayatinida, Turkiston ellerinde Bug'raxan tilinche (2 a) bu kitobdin yaxshiraq hargez kim ersa tasnif qilmadi. Bu kitob qayu padshahqa ya qayu ыqlымqa tegdi erse g'ayat o'zluqindym, nihayatydy keche korklYglYqYndin ul ellernin hukamalari alymlary qabul qylyb, tekme biri-bir tYrlYg at laqab berdiler:chinliklar. «Adab ul-muluk» at berdiler Machin malikynyn nadymlary «Aymn ul-mamlakat» atadilar. Mashryqlyg'lar «Ziyat ul-umara» teb aydyilar, eranlyg'lar «Shahnamai tYrki» tedylar, ba'zilar «Pandnamai muluk» temyshlar. Turanlyg'lar «Qutadg'u bilig» teb aytmishlar» (86/48-bet). Ushbu satrlardagi «**Buhraxon tilincha» iborasi Bug'roxon qo'l ostida birlashgan turk davlatidagi til ma'nosida qo'llanilgandir (86/13-bet). Shunga qaramay, ba'zi ilmiy adabiyotlarda ushbu asar tilini birgina qabila (elat) tiliga xos deb qaralgan xato fikrlar ham bo'lgan. Jumladan, taniqli turkshunos olim V.V.Radlov «Qutadg'u bilig» ni nemis tiliga to'liq tarjima qiladi, ammo asar transkripsiyasida qo'pol xatolikka yo'l qo'yadi. U asarni uyg'ur tiliga nisbat berib, uyg'urlashtirishga harakat qiladi. Shved sharqshunos olimi V.Tomsen tomonidan ushbu xatolik tanqid qilinadi. V.Tomsen asarni ilmga zid tarzidagi zo'rma-zo'raki uyg'urlashtirish holatlarini fonetik qonunlar, vazn va qofiya qoidalari asosida mukammal ko'rsatib beradi. S.E.Malov esa bu asarni «chig'atoy tili»da (ya'ni eski o'zbek tilida—U.S.) yozilgan asarlardan hisoblasa-da, boshqa bir o'rinda uni uyg'ur musulmon yodgorligi deb ko'rsatadi. Umuman, ilmiy adabiyotlarda «Qutadg'u bilig» asari turkiy tillarning qaysi birining tiliga mos kelishi (yoki turkiy tillarning qaysi biriga mansubligi masalasida turli xil fikrlar mavjud (87/6-8-betlar). Bu haqda o'zbek olimi Q.Karimov «Qutadg'u bilig» asarining o'zbekcha nashrining kirish qismida birma-bir fikr bildirgan. Olim «asar tili o'sha davr turk qabilalari tillari asosini o'zida aks ettirgan. Binobarin, «Qutadg'u bilig»ni XI asrda yashagan biror xalqning yoki qabilaning adabiy yodgorligi degan qat'iy bir****

fikrga kelish noto'g'ri bo'ladi», deb to'g'ri xulosaga keladi (86/5-42-betlar). Darhaqiqat, «Qutadg'u bilig» asarining muallifi Yusuf Xos Hojib tomonidan yuqorida qayd etilgan fikrlar ham ushbu xulosaning to'g'riligini tasdiqlaydi.

«Qutadg'u bilig»ning muallifi o'z asarining hammaga tushunarli bo'lishi uchun o'sha davrdagi barcha turkiy qabilalar tilida mavjud bo'lgan umumiy va xususiy tomonlarni hisobga olgan holda ularni umumlashtirgandir. Muallif til taraqqiyotidagi hodisalarni sezgan holda o'sha davr tiliga mos ravishda ko'pgina grammatik shakllar, leksik-uslubiy xususiyatlarni qo'llaydi. O'z asari tilining soddaga, hammaga tushunarli, uslub jihatdan so'zlashuv tiliga yaqin, ravon, silliq bo'lishiga katta e'tibor beradi. O'z asari orqali qabila-elat tillarida so'z qo'llash tajribasi asosida o'sha davr adabiy tilini ko'p yangi so'z va iboralar bilan boyitishga, ularni ma'lum me'yorga keltirishga harakat qiladi.

Chunonchi:

*Oqush körki suz-ul bu til körki suz,
Kishi körki yYz-ul bu yuz körki kuz.
Tili birle yantluq sözi suzleyur,
Sözi yaxshi bolsa yYzi suvlanur (100-bet/*

kabi misralarida shoirning «zakovat ko'rki so'zdir, bu tilning ko'rki so'zdir, inson o'z so'zini tili orqali so'zlashi»-ni qayd etadiki, bu bilan u o'z davrining mohir tilchisi, badiiy so'z sohibi sifatida gavdalanadi. Shuning uchun ham muallif o'z asarining tiliga, har bir so'zning ma'nosiga qiymati-qudratiga, uslubiy xususiyatiga e'tibor bilan qaragan. O'sha davr tilida ma'noli so'z hosil qilish usullaridan mohirlik bilan foydalangan. Jumladan, so'z yasashidagi affiksatsiya usulidan keng foydalana olgan. Masalan, XI asrga qadar, asosan, fe'l o'zagiga «-ka» qo'shimchasi qo'shilib faqat «**bilka**» so'zi yasalgan bo'lsa, XI asr tilida bu so'zning (boshqa affikslar orqali) ma'nolari kengaygan:

*Neku tor eshitkil tojik bilkasi,
Biliklik kishilar kishisi bo'lur.*

Shu kabi ikki xil qo'shimcha bilan bir xil ma'nodagi so'zlar yasalgan: **bil+im, bil+ik, ir+im, ir+ik** kabi.

Morfologik usulda turli xil so'z shakllarini hosil qilish asar tili uchun xarakterli tomonlardan biridir. O'sha davr tili uchun ko'pgina so'zlarda yangi ma'nolar hosil qilishda birinchi marotaba qo'shimchalar qo'llash «Qutadg'u bilig»dan boshlangan, deb ta'kidlaydi professor S.M.Mutallibov.

Masalan: **Terimchi, tag'achi, o'tukchi, yachy, sig'yg'chy, padachy ya oqchy, yaychy** kabi. «Qutadg'u bilig» asarida o'sha davr so'zlashuv tilida keng qo'llanilgan so'z yasash usullaridan biri (**yavg'on osh, oqsoqol, qotirma bo'rk, oy bitig kabi**) qo'shma so'z shaklidir. Masalan, **Bitikchige achg'u kerek ich sözin**. Ushbu misrada «**ich**» va «**so'z**» so'zlarining birikuvidan yangi («**sir**») ma'noli so'z yasalgan. XI asrgacha faqat bittadan shaklga ega bo'lgan so'zlarning sinonimik qatorlarini yaratishda ham shoir o'z hissasini qo'shishga harakat qilgan. Masalan, «**sevinch**» (sevinmoq) so'zining sinonimi sifatida «**Qosh yozmoq**», «**tabassum qilmoq**» ma'nosida «**ko'z yozmoq**» shakli qo'llanilgan: **Sevindi ilk yazdy qashyn, közin**. kabi. Shuningdek «**tikmoq**» so'zi asosan «**ekmoq**» ma'nosida qo'llanilgan bo'lsa Yusuf Xos Hojib esa o'z asarida bu so'zni «**yaratmoq**» ma'nosida ham qo'llagan: Ksnimak uchun tenri tikti sani. Shoir «**ko'ngil**» va «**ko'z**» so'zlariga «**boy**» so'zini qo'shib «**saxovatli, lo'bar**»; «**rost/to'g'ri**» ma'nolarida qo'llanilib kelingan «**chin**» so'zining esa «**haqiqiy, samimiy**» kabi ma'nolarini yaratgan:

*Tili chin butun ham kuzi, könli bay.
Yarag'ay ani chin farishta dese,
Chinin uzige alg'yl yarat yalg'anyin.*

Demak, Yusuf Xos Hojib o'z asarida o'sha davr uslubiga mos shakllarni yarata olgan (87/154-155-betlar).

Ta'kidlash lozimki, asar tilida qadimgi turkiy til xususiyatlari ham anchagina mavjud. Qadimgi turkiy til xususiyatlari nuqtai nazardan «Qutadg'u bilig» asarida «**y**» o'rnida «**d**» qo'llash hodisasi ustun turadi. Masalan, «**kedin – keyin/18k:52-bet**), **qadyin-qayym (49:70-bet)**, **kudegu-kuyugu –**

kuyovi (49:70-bet), bedukluk — buyuklik (6:64-bet), qadg'usy-qayg'usi (39:68-bet), o'danmaq-o'yanmoq — uyg'onmoq (85/62-bet) kabi.

Yoki: *Eki kadyn erdi kudegu eki,*
Bular erdi odrum budunda egi (70-bet) —
ikkisi qaynisi, ikkisi kuyovi edi, bular xalq orasida yaxshilardan edi.

Aqy erdi elgi yureki beduk
Biliglyg' saqoinuq kur aty beduk (70-bet) —

qo'li ochiq, himmati buyuk edi, bilimli, tadbirli, nomi ulug' edi.

So'z oxirida kelgan jarangsiz undoshlarning jaranglashishi ham ancha sezilarlidir: **byshyg'**, **bashyg'**, **evlug (86-bet)**, **bilig-tilig (106-bet)**, **bushaqlyq (108-bet)**, **saqllyq (126-bet)**, **amulluq (142-bet)** kabilar. Bunday hodisani «Devonu lug'otit turk» asarida ham ko'rish mumkin. Aksariyat hollarda jo'nalish kelishigi affiksining **-ka(ke)** shakli keng qo'llanadi, **-ga(ge)** shakli esa nisbatan cheklangan holda ishlatiladi:

Tuzu elke tegdi elig edgusi,
Ajunqa yadylly bu javy kusu (126-bet)

-elining ezguligi barcha elga nasib bo'ldi, uning shuhrati, ovozası jahonga yoyildi; **padshah orniga tushmysh (48-bet)**. Ba'zi o'rinlarda vosita kelishigining qo'shimchasi **-/i/n** ham uchraydi:

Kunun turdy turg'a tunun yatg'aqym,
Tanundi qyuyqsiz bag'yrsaqllyqyn (146-bet)

-kunduzlari posbonlikda, kechalari soqchilikda turdi, hech og'ishmay sidqidillik bilan xizmat o'tadi.

Kishilik olmoshlaridan munar, anar, sener shakllari qadimgi jo'nalish kelishigining «-ar» qo'shimchasi bilan kelgandir:

O'qush-ul sener edgu andlyg' adash (106-bet)
-zakovat senga ezgu ontli do'stdir.

Munar ma vazyrnin yag'ug'yi teyur (58-bet)
-bunga ham vazirning yaqini degan.

Orun ul torutti orun yo'q anar
Anymisiz orun yoq muqir bol munar (66-bet)
-o'rinni u yaratgan, unga o'rin yo'qdir, uningsiz o'rin ham yo'qdir, iqrar bo'l bunga.

Yalavach anar berdi ekki qydyyn (70-bet)
Munar menzetu keldi sha'ir so'zi (164-bet)
-bunga qiyoslash uchun shoir so'zi juda mos keldi.

Chiqish kelishigi esa qadimgi turkiy tilning ilk davriga nisbatan shakllanganligi ko'rinadi (ko'pincha tanvin bilan keladi). Tushum kelishigining **-ny/ni** shakliga qaraganda **-y/g'**, **-i/g** shakli juda kam uchraydi. Asarda fe'ning qadimgi «-sar» qo'shimchasi faqat «-sa/se» shaklida qo'llanilgan: *Köni sözlese söz kör asg'yi ökush (206-bet)*.

Fe'ning bo'lishsizlik shaklini yasovchi «-mas» qo'shimchasi «-maz»: **yanilmaz** -yanglishmas (90-bet), **birikmaz** -birikmas (64-bet) shaklida ham qo'llanilgan.

Sifatdoshning -duq/duk, -g'ly/gli qo'shimchali shakllari ham uchraydi: **mene kelmeduk** — menga kelmagan (594-bet). **Ara kumeduk-teg** — goho ko'rmagandek (118-bet); **Özi bilmemedukni** — o'zi bilmaganini (324-bet). **toqyg'ly** — oluvchi (96-bet), **yurugli** — yuruvchi (112-bet), **oqyg'ly közi** — o'quvchi ko'zi (120-bet).

O'tgan zamon sifatdoshining qadimgi «-mish/mish, «-techi/dachy» qo'shimchalari bilan birgalikda **-gen/g'an** shakllari ham qo'llanilgan: **tuttachi** — tutuvchi (72-bet), **sozledechi** — so'zlovchi (92-bet), **keldechi** — keluvchi (90-bet), **yaruttachy** — yorituvchi (86-bet), **aymysh** — aytмыш (208-bet), **qylmysh** (336-bet), **tilemish** (394-bet). **Esizlik ot-ul ot kuyurgen bolur, Yolinda kechik yoq stulgen bolur (98-bet)**.

Asarda o'xshatish, chog'ishtirish ma'nolarini ifodalovchi «-teg/deg» qo'shimchasi keng qo'llanilgan: **Ag'yrladi menteg tapug'siz qulug'** — menday toat-ibodatsiz qo'lini aziz tutdi (116-bet). Asarda «-dek» qo'shimchasining «-teg» shak-

lida qo'llanilishi haqida tilshunos Q.Karimov fikr bildirib, «-teg» affiksini «g» va «y» tovushlarining almashinishi va metateza hodisasi asosida «yetmoq» fe'ldan yuzaga kelgan bo'lishi mumkin, deb taxmin qiladi: teg-tey-yat, ya'ni yeturgil-teyurgil-tegurgil (86/42-bet). Tiriklik tedukkun bu yelteg kechar kabi.

Xullas, «Qutadg'u bilig» asaridagi qayd etilgan fonetik, grammatik va ba'zi bir leksik xususiyatlardan ko'rinib turibdiki, unda ham qadimgi turkiy, ham so'nggi (eski) turkiy adabiy tiliga xos tomonlar mavjuddir. Chunonchi, ta'kidlangan («d-z-y» undoshlardagi) lahjaviy fonetik xususiyatlar, so'z yasalishi va grammatik vositalardagi rang-baranglik leksikasidagi: **nen (112-bet), adun, qut (112-bet), ked (101-bet), chyg'ay (106-bet), udug (124-bet), ujuz (106-bet), bodug (126-bet)** kabi qadimiy va **cherik (54-bet), xazina (56-bet), hunar (56-bet), xon (56-bet), xalq (68-bet), tenri (68-bet), ata-ana (68-bet)** kabi so'nggi eski o'zbek tili bosqichidagi so'zlarning mavjudligi xarakterlidir.

Asarda arab va fors-tojik tillaridan o'zlashtirilgan ko'pgina so'z va iboralarni uchratish mumkin: mashriq, kitob, laqab, xoin, ayb, ashyo, visol, firoq, dushman, fisq, jabr, azad, hurmat, rivoyat, fano, sahoba kabilar. Asarda sharqiy guruh lahjalaridan unumli foydalanilgan va ular umumxalq turkiy adabiy tilining tarkibida o'z o'rnini mustahkamlagan. Markaziy Osiyo doirasida bu tilning keng o'rin olishida ushbu asarning ahamiyati katta bo'lgan.

Shuni ham qayd etish lozimki, Yusuf Xos Hojib g'arbiy qabilalar, to'g'rirog'i, hozirgi O'zbekiston hududidagi qabilalar tilini ham o'z asarida aks ettirgan. Chunonchi, Afrosiyob va uning el-yurti haqida bergan aniq ma'lumotlari shoirning bu o'lka bilan yaqindan tanish ekanligini to'liq tasdiqlaydi: **«Turk beglari orasida oti belgilik, Tunga Alp Er edi quti belgilik. Bilimli—buyuk, hunari—talay. Bilimli, zakovatli, xalq orasida sarasi. Tojiklar uni Afrosiyob deb ataydilar. Bu Afrosiyob ellarni o'z tasarrufiga olib tutdi»** (86/103-bet) kabi.

Xullas, «Qutadg'u bilig» asari shakllanayotgan umum-turkiy adabiy tilini ma'lum darajada tizimlashga, mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu kabi adabiy tilning yangi xususi-

yatlarini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Boshqacha qilib aytganda, eski turkiy tilning turlicha uslublarini shakllantirish, tartibga keltirish va yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu asar asosida dastlab barcha turkiy tilning adabiy-badiiy uslubi, turkiy nazm uslubi tashkil topdi. Ushbu asar shakllanayotgan turkiy elatlarning yozma nutqini, tilini o'zida to'liq aks ettirganligi tufayli uning ta'siri barcha turkiyzabon hududlarda keng tarqalgan. **Yusuf Xos Hojib o'z asaridagi yozma nutq til materialiga tilshunos sifatida yondasha olgan.** Buni biz uning asaridagi quyidagi fikrlaridan ham anglashimiz mumkin bo'ladi. **«Bu yozma nutq tili juda ezgu til bo'ladi. Yozma nutq usuli juda yaxshi usuldir. Barcha ezgu so'zlar yozuvda bo'ladi. Yozuvda bo'lganligi uchun so'z unutilmaydi, (abadiy) qoladi. Yozuvchilar kitob yozmaganda edi, hikmatni, bilimni qanday qilib bilarding. Bilimdon, donolar yozib qoldirmaganda, bizlarga o'tmishni kim aytib berardi. Kishilar o'rtasida bu yozuv bo'lmasa, og'zaki so'zga kim ishongan bo'lardi... ..so'zga usta, ezgu afol (bo'lish) kerak... Tildan chiqadigan ezgu so'z oqar suv kabidir. Bu (suv) qayerga oqsa, hammayoqda chechak unadi»** (86/431-433- betlar). Demak, shoir tilga, yozuv tiliga va uning bayon uslubiga alohida e'tibor bilan qaragan. Shuning uchun ham adabiy-badiiy uslubning eng muhim belgisi va xususiyatlaridan bo'lgan estetik vazifasi, uning ta'sirchanligi, obrazlilik, badiiy nafosat, zavq berish kabilar bu asarda to'la mujassamlashgandir. Unda ijtimoiy hayot, turmushning turli sohalar bilan bog'liq ravishda ijtimoiy nutq uslubiga xos so'z va iboralarning keng ishlatilganligini ko'rish mumkin. Xullas, «Qutadg'u bilig» turkiy tillar, jumladan, o'zbek adabiy tilining ilk yozma shaklini o'zida aks ettirgan muhim manbalardan biri sanaladi. U o'zbek adabiy tili tarixiy taraqqiyotini o'rganishda munosib o'rin egallaydi.

Eski o'zbek adabiy tilining ilk davrlarini o'rganishda Mahmud Koshg'ariyning «**Devonu lug'otit turk**» asari nihoyatda qimmatli yozma manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu asarning bevosita tilshunoslikka bag'ishlanganligi, unda X—XI asrlar til materiallari (urug' va qabilalar tillari) maxsus o'rganilganligi bilan yozma manbalardan alohida ajralib turadi.

«Devonu lug'otit turk» asarining dastlabki qismlari 466 hijriyda yozilgan. «Bu kitobni yozgan yilimiz to'rt yuz oltmish oltinchi (466) yilning muharram oyida ilon yili kirgan edi» (1-t., 331-bet). Ushbu asar uch tom dan iborat bo'lganligi sababli (muallifning izohidan ma'lum bo'lishicha), uning to'liq yozilib bitgan yili hijriy 469-yilga to'g'ri keladi. Bu haqda devonda yana shunday ma'lumotlar beriladi: «Nok yili turklarning o'n ikki yillaridan biri. Bu kitobni yozgan yilimiz to'rt yuz oltmish to'qqizinchi yil, ya'ni nok yili edi» (3-t., 170-bet) yoki «Kitob yozishga 464-yil jumodiyul avvalning boshlarida kirishgan edim. To'rt qayta yozilib, tahrir qilinib, 466-yil jumodiyul oxirning 12-sida tugadi» (3-t., 453-bet). Bu kabi aniq ma'lumotga qaramay, asarning yozilish sanasi ilmiy adabiyotlarda turlicha beriladi. Mahmud Koshg'ariy ushbu asaridan oldin «Javohirun naxvi fi lug'otit turk» — «Turkiy tillarning nahviga oid gavharlar» nomli kitobini ham yozgan edi (1-t., 62-bet). Afsuski, ushbu asar bizgacha yetib kelmagan. Shu kabi olimning tarjimai holi haqidagi ma'lumotlar ham yetarli emas. Ilmiy adabiyotlarda olimning tug'ilgan sanasini taxminan XI asr boshlariga to'g'ri keladi, deb ta'kidlanadi.

Mahmud Koshg'ariy o'zining bobolarini so'z boshidagi «a» tovushini «ha» qilib so'zlovchi qabilalardan deb ko'rsatgan. Bu kabi fonetik xususiyatga ega bo'lgan qabilalardan o'zbek elati orasida ham bo'lganligini tarixiy yozma manbalar va hozirgi o'zbek dialekt va shevalar tili materiallari to'liq tasdiqlaydi. Bu xususiyat so'nggi davrlarda eski o'zbek tilida keng o'rin olgan. Devonda bu qabila tilida faqat «a» unlisi «ha» tarzida talaffuz qilinishi qayd etilgan bo'lsa, eski o'zbek tilida («O'» ni «ho'», «o» ni «ho», «u» ni «hu» tarzida talaffuz etish kabi hollari vujudga kelib) bu xususiyat ancha kengaygan: o'kuz-ho'kuz, ovich-hovuch, upladi-hupladi, aridi-horidi, arra-harra, ul-hul, ulkar-hulkar kabi. Bu qabilalarning til xususiyatlari hozirgi qoraqalpoq, qurama, Farg'onaning ayrim tumanlarida, Qorabuloq va boshqa hududlarda yashovchi aholi lahjalari tilida uchraydi. Mahmud Koshg'ariy ana shu qabilalar avlodidandir deyish mumkin (1 t., 17-bet). Bundan Mahmud Koshg'ariy faqat o'zbek xalqiga taalluqli ekan, degan xulosa chiqmasligi kerak, balki bu qabila vakillari boshqa turkiy xalqlar

tarkibida ham bo'lganligini va bu kabi dialektal xususiyatlar ularda ham uchrashini inkor qilib bo'lmaydi, albatta. U barcha turkiy xalqlarning faxrii avlodi va ardoqli olimidir. Devondagi «Men turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarini to'pladim, turli xil so'z xususiyatlarini o'rganib aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligimdan emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim. Bo'lmasa men tilda ularning eng yetuklaridan, eng katta mutaxassislaridan... edim» (1 t., 44-bet) kabi ma'lumotlar yuqoridagi fikrni to'liq tasdiqlaydi.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda «Qutadg'u bilig» asari singari «Devonu lug'otit turk»ni ham turkiy xalqlarning qaysi biriga tegishli yoki qaysi elat tilini aks ettirganligini aniqlash haqida g'ayriilmiy fikrlar mavjuddir. Jumladan, ushbu asarning ilk tadqiqotchilaridan S.Brokelman va Bosim Atalay kabi olimlar «Devonu lug'otit turk» uyg'urcha va Istambuldagi bir lahja merosi, deb hisoblaganlar (87/9-bet). Bu fikr ham g'ayriilmiydir. Chunki, asardagi ma'lumotlar bu kabi fikrlarni tamoman rad etadi. Chunonchi, Mahmud Koshg'ariy o'z devonida Kichik Osiyo (Rumo) dan tortib Sharqiy Turkiston (Xitoy)ga qadar hududlarda yashagan 50 dan oshiq turkiy urug' va qavmlar, jumladan, 20 dan oshiq yirik qabilalar va ularning tillaridagi lahjaviy (dialektal) xususiyatlari haqida aniq ma'lumotlar beradi:

«Turklar aslida 20 qabiladirlar... Sharqdan boshlab har bir qabilaning turarjoylarini birin-ketin tartib bilan ko'rsatdim. Rumdan kun chiqargacha bo'lgan musulmon va boshqalarni zikr qildim. Runga yaqin birinchi qabila bejenek so'ng qifchoq, og'uz, yamak, boshg'irt, basmyl, so'ng qay, so'ng yebaqu, so'ng tatar, so'ng qirg'iz keladi. Qyrg'yzlar Chin yaqinidadir. Bu qabilalar hammasi Rum yonidan kun chiqargacha cho'zilgandir. So'ng chigil, tuxsi, yag'ma, ыg'raq, charuq, jumul, uyg'ur, tanut, xitoy — «chin»dir. So'ngra tavg'ach, bu mochindir. Bu kabilar Janub va Shimol o'rtasidadir» (1 t., 64-bet) kabi. Shuningdek, ularning tillari haqida quyidagicha ma'lumotlar berilgan: «... sug'dak, kanjak, arg'ular kabi ikki

tilda so‘zlashuvchilardir, xo‘tanlilar, tubutlar va tanutlarning ba‘zilari ikki tilda so‘zlaydiganlar va boshqa shaharlarga borib yurganlar tilida buzuqlik bordir. Bular bu yerlarga so‘ng kelgandirlar... tubutlarning tillari alohidadir. Shuningdek, xo‘tanliklarning ham... ayrim tillari bor. Tubutliklar ham, xo‘tanliklar ham turkchani yaxshi bilmaydilar... jabarqaliklarning uzoqda turishlari, Mochin bilan ularni katta dengiz ayirib turgani uchun ularning tillari bilinmaydi. Mochinlar va chinliklarning alohida tillari bo‘lsa ham, shaharliklar turkchani yaxshi biladilar, bizlar bilan yozishmalari turkchadir... Uyg‘urlarning tillari turkchadir, lekin o‘zlari bir-birlari bilan so‘zlashganda boshqa bir tillari ham bor... Men bungacha so‘zlaganlarim shahar xalqidir. Sahroyilardan bo‘lgan jumullarning tillari alohidadir... turkchani ham biladilar. Shuningdek, qach, yabaqu, tatar, basmil qabilalarining har birining tili o‘ziga xosdir. Shu bilan birga, ular turkchani ham yaxshi biladilar. So‘ngra qayg‘uz, qaypchaq, og‘uz, tuxsi, yag‘ma, chigil, ыg‘raq, jaruq tillari ham turkchadir. Yamak va bashg‘irt tillari bularga yaqindir. Rungacha cho‘zilgan bulg‘ar, suvar, bejeneklar tili bir xildagi so‘zlarning oxiri qisqartirilgan bir turkchadir.

Tillarning yengili o‘g‘uzcha, eng to‘g‘risi, yaxshisi yag‘ma, tuxsi qabilalarning tili va shuningdek IIa(III), Ertish(Irtish), Yamar, Etil vodiylaridan uyg‘ur shaharlarigacha bo‘lgan joylarda yashovchilar tilidir. Bularning ichidagi eng ochiq va ravon til xoqoniya (xoqonliklar) o‘lkasida yashovchilarning tilidir. Bolosog‘unliklar sug‘dcha va turkcha so‘zlaydilar. Taraz (Tolos) va Madinatul bayza shaharlarining xalqlari sug‘dcha ham turkcha so‘zlaydilar. Ispijab (Ispanjob – hozirgi Chimkent) dan to Bolosog‘ungacha bo‘lgan arg‘u shaharlarining hammasida yashovchilarning tilida ham kamchilik bor. Koshg‘arda kanjakcha so‘zlashadigan qishloqlar bor. Shahar o‘rtasida turuvchilar xoqoniy turkchasida so‘zlaydilar» (I t., 64-66-betlar) kabilar shular jumlasidandir. Hatto, bu qabilalarning o‘ziga xos lahjaviy (dialektal) xususiyatlari haqida qimmatli ma‘lumotlar berilgan.

Asarda turkiy qabilalarning o‘ziga xos yozuvlari borligi ham ta‘kidlangan: «...xo‘tanliklarning ayrim yozuvlari bor va tillari bor...

Uyg‘urlarning tillari turkchadir, lekin o‘zlari bir-birlari bilan so‘zlashadigan boshqa tillari ham bor. Yozuvda... 24 harfli turkcha alifboni qo‘llaydilar, xatlarini shu yozuv bilan yozadilar. Uyg‘urlarning ham, chinliklarning ham boshqa yana bir yozuvlari bor. Kitoblarini, idora ishlarini shu xat bilan yuritadilar. Chinliklar va musulmon bo‘lmaganlardan boshqalar u xatni o‘qiy olmaydilar. (I t., 65-bet) kabi. Asarning lug‘at qismida ba‘zi so‘zlarning izohida ko‘pgina turkiy urug‘-qabilalar va ular tilidagi dialektal xususiyatlar haqida ham yo‘l-yo‘lakay ma‘lumotlar berilib borilgan. Demak, Mahmud Koshg‘ariy devonida 70 ga yaqin turkiy urug‘ va qabilalar haqida ma‘lumotlar bor. Asardagi bu ma‘lumotlarni faqat bir elatga yoki hozirgi turkiy xalqning birigagina tegishli deb qarash mutlaqo xatodir. Balki bu ma‘lumotlar turkiy xalqlarning barchasiga tegishlidir. Unda qayd etilgan urug‘-qabilalar hozirgi barcha turkiy xalqlarning va ular tilining shakllanishiga asos bo‘lgandir. Shuning uchun «Devonu lug‘otit turk» asarini ham faqat bitta turkiy lahja asosida yozilgan va bitta qabila (elat)ga tegishli deb bo‘lmaydi, balki o‘sha davrdagi barcha qabilalar yozma yodgorligi va ular tilini umumlashtirgan holda o‘rganishga bag‘ishlangan asardir. Shu kabi hozirgi barcha turkiy xalqlarning mushtarak yozma yodgorligidir. Jumladan, o‘zbek xalqi ham haqli ravishda ushbu asarni o‘ziga tegishli tarixiy yozuv yodgorligi sifatida o‘rganishga haqlidir. Chunki, ushbu asarda O‘zbekiston va bu hududdagi shaharlar hamda turkiy-o‘zbek xalqining o‘tmishi, ajdodlari va ularning tillari haqida ham qimmatli ma‘lumotlar bor. Bu haqda oldingi sahifalarda fikr bildirilgan. Jumladan, devonda «eng ochiq va ravon til xoqoniya o‘lkasida yashovchilar tilidir» (I t., 66-bet), «Afrosiyobni turklarning ulug‘ xoqoni (xoni), uni Tunga Alp Er deb atar edilar. Yo‘lbars kabi kuchli bahodir odam, demakdir. Tunga yo‘lbars jinsidan... filning kushandasi» (III t., 379-bet). «Xon-turklarning boshliqlari. Afrosiyobning bolalari ham xoqon deb yuritiladi. Afrosiyob xoqondir» (III t., 172-bet) «Barsg‘on-Afrosiyob o‘g‘lining nomi, Barsg‘on shahrini bino qilgan shudir. Mahmud Koshg‘ariyning otasi shu shahardandir» (III, 424-bet) kabi ma‘lumotlar bevosita o‘zbeklarning o‘tmish tili va avlodlari tarixiga tegishlidir.

albatta. Yuqorida qayd etilgan urug'-qabilalar nomining anchagina qismi o'zbek urug'lari ro'yxatidan o'rin olgan. Buni hozir ham o'zbek dialektlari til materiallarida, joy nomlari tarkibida uchratish mumkin. Shu kabi ulardagi til qurilishi (lahjaviy til xususiyatlari ham) o'zbek dialekt va shevalari tilida mavjud, hatto hozirgi tilda ham ba'zilari turli fonetik o'zgarishlar bilan qo'llaniladi. Jumladan, o'zbek tilining leksik, fonetik va grammatik sohalaridagi materiallari bilan qiyoslab ko'rilsa bu fikrimiz to'liq tasdiqlanadi. Har holda, devonning til materiallariga asoslanib fikr yuritish eng to'g'ri yo'ldir. Ushbu asar professor S.M. Mutallibov ta'kidlaganidek, birgina hududdagi qabila tilining so'z boyligini izohlovchi lug'at kitobigina emas, balki butun O'rta Osiyo, Qozog'iston doirasida, yanada aniqrog'i, Chindan boshlab butun Movarounnahr, Farg'ona, Buxoroga, Xorazmga (jumladan, Qozog'istonning ko'pgina hududlariga) qadar keng va katta qadimiy zaminda yashagan urug' va qabilalar birligi, ular tilining umumiy va lahjaviy jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan filologik asardir. Devondagi ma'lumotlarga qaraganda, o'sha davrda somoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar davlatlari (so'ng xorazmiylar) tevaragida bir qancha g'arbiy guruh qabilalari uyusha boshlagan bo'lsa, sharqiy guruh qabilalari Qoraxoniylar davlati atrofida uyushib, turkiy qabilalar tilida ma'lum darajada birlik yuzaga kelgan edi. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari yuzaga kelgan davrlarda esa xuddi ana shu ikki guruh qabilalari yagona hukmronlikda, qoraxoniylar davlatida birlashgan edi. Xuddi ana shu birlik — qabilalar va ularning til birligi devonda to'liq aks etgan. Masalan, Mahmud Koshg'ariyning «**Turk shaharlarini somoniylardan qo'lga olgan bobolarimiz bekni behrgir der edilar**» kabi izohi yuqorida aytilgan fikrlarni tasdiqlaydi (I t., 136-bet). Uyg'ur qabilasi esa ana shu ittifoqqa birikkan sharqiy guruh qabilalaridan biri edi, xolos. Mahmud Koshg'ariyning quyidagi ma'lumotlaridan buni anglash qiyin emas: «**Uyg'ur Zulqarnayn turk shohi bilan sulh qilganda, Muhammad Jaqir To'nqaxonning o'g'li Isroil To'g'ontekin otasidan menga shunday xabar keldi. Zulqarnayn uyg'ur viloyatiga yaqinlashgach, turk xoqoni unga to'rt ming odamni yo'lladi... (uyg'ur) viloyatda beshta shahar**

bo'lib, u yerning aholisi g'irt kofir va nihoyatda (uk) otuvchilardir, u qurgan besh shahar ismi (bular) So'Imi, Qochu, Janbaliq, Beshbaliq, Yangibaliq shaharlaridir» (I t., 136-137-betlar) kabi. Shuning uchun devonni «uyg'urcha» yoki hozirgi boshqa turkiy tildan birining lahjasigagina xos deb qaralsa, asarda qayd etilgan boshqa qabilalarni inkor qilishga va yuzaga kelayotgan qabila ittifoqini, undagi umumturkiy adabiy tilni tan olmaslikka olib keladi. Qabilalar va ularning tili haqida fikr yuritish masalasi Mahmud Koshg'ariy davrida ham ancha murakkab bo'lgan. Qabila va urug'lar mavqei, o'rni ham (o'sha davrda yangilanib turgan davlatlar, hukmdorlar ta'sirida tez-tez o'zgarib borgan, ba'zan yangi urug' va qabilalar yuzaga kelgan yoki) ko'zga chalinmagan kichik urug'lar mavqei ko'tarilib qolgan va birlashma nomi ham o'zgartirib turgan. Shuning uchun ham bu hodisani tezda payqash yoki qamrab olish qiyin bo'lgan va bu masala o'sha davr yozma manbalarida har xil aks etgan. Jumladan, Mahmud Koshg'ariyning yozishicha: «**Chinga qadar cho'zilgan Jayhun qirg'oqlarida yashovchilarni o'g'uzlar chigil deb ataganlar. Bu xatodir. Bu yerlarda yolg'iz chigillar emas, ko'pgina qabilalar ham yashaganlar**» (I t., 29-bet). «**Chigil — uch xil qabila nomini ifodalagan: 1) Barsagan quyisidagi Quyas shaharchasida yashovchi ko'chmanchilar. 2) Tiroz yaqinidagi shaharchada yashovchilar... 3) O'g'uzlar shahriga yaqin yerlarda yashovchilar... shu nom bilan har yoqqa tarqalgan urug'lardir. O'g'uzlarning chigillardek kiyingani, yoki ularning urf-odatlarini qiluvchi turklarni ham chigil deb ataganlar...**» (I t., 374-bet).

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Mahmud Koshg'ariy qabilalar va ular tillari haqidagi masalalarni mukammal o'rganishga harakat qilgan. Devondagi ma'lumotlar faqat XI asrgagina xos bo'lmay, ular oldingi (Oltoy-Xun) davrlariga ham borib taqaladi. Quyidagi so'zlardagi fonetik xususiyatlar va izohlarda buni sezish mumkin. Bu misollar V–VI asrlar tilini eslatadi: **arqadi** — alqadi (I t., 280-bet), «**irra** — izza-uylash (I t., 74-bet), **qach** — qancha (I t., 311-bet), **san** — siz (I t., 346-bet), **qon** — qo'y (I t., 67-bet), **arqa** — alqa (I t., 280-bet), **talqa** — tarqa (I t., 402-bet), **kedin** — keyin

(I t., 230-bet) **sidduk** – siydik (I t., 369-bet), **beduk** – butun (I t., 459-bet), **chyg'an** – chig'ay (I t., 67-bet), **qanda** – qayerda (I t., 395-bet), **azg'yr** – ayg'ir (I t., 121-bet), **azri** – ayri (I t., 146-bet), **azaklig'** – oyoqli (I t., 167-bet), **uzug'** – uyg'oq (I t., 94-bet), **YzY** – uyqu (I t., 75-bet), **usuz** – uyqusiz (I t., 143-bet), **kuzug'** – quduq (I t., 426-bet), **yzle** – o'yla (I t., 137-bet), **azym** – ayrim (I t., 105-bet), **ag'uj** – ag'iz-og'iz (I t., 88-bet), **ben** – men-men (I t., 67-bet), **mun** – bun-buni (I t., 67-bet) kabi misollarda qadimgi «r-z; r-l, ch-n; n-y; d-z, z-y, j-z, b-m» kabi fonetik xususiyatlar kuzatiladi. Bular haqida «Devonu lug'otit turk»da ba'zi izohlar ham berilgan: «O'g'uzlar ba'zi so'zlardagi «r» harfini «z» ga almashtiradilar». Chunonchi: **alduzdi** (aldirdi) kabi. (II t., 92-bet), «arqadi: ol anin evin arqadi -u uning uyini alqadi... Bu so'zdagi «r» harfi «l» o'rnini almashgan» (I t., 280-bet), «talqa» – g'o'ra uzum «L» (harfi) «R»ning o'rniga almashgan (I t., 402-bet), «Qanda» so'zidagi «y» harfi «n» ga o'zgar-gan. Uning asli esa **qayudadir** « (I t., 346-bet), qanaq – qaymoq. Arg'u va bulg'or tilida bu yerdagi «y» tovushi «n» ga almashtirilgan. «Ikkinchi shaxs olmoshi o'rnida **sen** ham, **siz** ham qo'llaydilar. Bunda «z» harfi «n»ga almashgan» (I t., 346-bet); «Chigil va boshqa turkiy qabilalar tilida «z» (**dz**) bilan kelgan so'zlar qipchoq, yamak, suvar, bulg'arlar hamda ruslarga va Rumga qadar borib tarqalgan boshqa qabilalar tilida «z» ga almashtiriladi» (I t., 68-bet). Masalan, oyla (peshin, tush vaqti – o'g'uzcha), qipchoqlar «y» ni «z» ga almashtirib **özla** deydilar» (I t., 137-bet), **Bazram** – shodlik va yoqimli kun... o'g'uzlar esa hayit kunini **bayram** deydilar...ular (o'g'uzlar) odatdagicha «z»/dz/ni «y»ga almashtirganlar (I t., 447-bet), bu o'rinda ma'noda o'zgarish ro'y bergan. Chunki johiliyat davrida bunday bir so'zning kelib chiqishini talab qiladigan bayramning o'zi bo'lmagan. Agar bo'lganda edi, turkiy xalqlar uni bilgan bo'lur edilar. Holbuki, uni bilmaydilar. «z» harfini «y»ga aylantirib talaffuz etuvchilargina bitadilar» (III t., 191-bet), «ayig' -o'g'uz, qipchoq, yag'mo tillarida azig' (adzig') tarzida ham qo'llaniladi» (I t., 112-bet): ag'uj-ag'Yz-og'iz so'zi kabi so'z oxiridagi «z» bilan yoki «ch» («j») bilan ham yozilishi mumkin (I t., 88-bet);

qanaq – qaymoq, arg'u va bulg'orlar tilida bu yerdagi «y» (tovushi) «n» ga almashtirilgan (I t., 365-bet) kabilar. Mahmud Koshg'ariyning izohlaridan qadimgi turkiy tilning ilk davrlariga xos bo'lgan ayrim umumturkiy fonetik xususiyatlar XI asr tilida dialektal-arxaik holatga aylanib qolganligi yaqqol sezilib turadi. Boshqacha qilib aytganda, ilk adabiy tildagi umumturkiy xarakterga ega bo'lgan yuqorida qayd etilgan fonetik hodisalar Koshg'ariy davrida ba'zi qabilalar tilidagina qo'llanilib, umumturkiy adabiy til doirasidan chetlasha borgan va dialektal xususiyatga aylangan.

Mahmud Koshg'ariy an'anaviy arab lug'atchiligidan farq qiladigan o'ziga xos turkiy lug'atchilik an'anasini boshlab berdi. U buyuk tilshunos sifatida tilshunoslikning barcha sohalari bo'yicha (o'z lug'atidagi so'zlarni va qabilalar tilini izohlash jarayonida) yo'l-yo'lakay ma'lumotlar berib, nazariy fikrlar ham bayon etib bordi. U devonda o'sha davr umumturkiy adabiy tilining (qabilalar shevalarini qiyoslash asosida) fonetik, leksik so'z yasalishi va morfologik xususiyatlarini yangicha usulda tahlil etib beradi. Lug'atlarda bu kabi masalalarni yoritish tilshunoslikda yangicha va murakkab usul hisoblanadi. Shuning uchun lug'atlarda, asosan, bu masalalar yoritilmagan. Ana shunday murakkab usulda ish tuta olgan Koshg'ariy o'ziga xos mahorat bilan lug'atdagi so'z ma'nolarini fonetik qonuniyatlar, hodisalar orqali ochish uchun zaruriy o'rinlarda qabila-urug' tillari nutq tovushlarini qiyoslaydi va shu yo'l bilan umumturkiy adabiy tili fonetikasini yoritishga erishadi. Asarda fonetikaga doir maxsus bo'lim ajratilmagan bo'lsa-da, ayrim o'rinlarda bu masalaga anchagina sahifalar bag'ishlangan. Ayniqsa, asarning muqaddima qismida, shu kabi kitobning ikkinchi qismida (39-74-betlarida) yozuv va harf, harf va tovush hamda nutq tovushlarining o'ziga xos xususiyatlari, qo'llash va talaffuz me'yorlari anchagina keng yoritilgan.

Shuningdek, lug'atning deyarli har bir sahifasida qisqa-qisqa bo'lsa-da, nutq tovushlarining (harflarning) qo'llanishi va talaffuzlari haqida fikrlar bayon etilgan. Bu bilan olim lug'atchilik va fonetika sohasida anchagina foydali ishlarni amalga oshirgan. Jumladan, u lug'atchilikda ilk bor so'z va atamalarining etimologiyasini aniqlashda fonetik qonunlarning

o'zni va ahamiyatini ishonchli tarzda ko'rsatib, undan mohirlik bilan foydalanadi. U fonetika sohasiga bir qancha yangiliklar qo'sha olgan. Jumladan, tovush va harflar munosabatini birinchi marotaba aniqlagan va u o'z davridagi turkiy yozuvda qo'llanilgan harflarning turkiy til tovushlarini mukammal holda ifodalashga qodir emasligini ta'kidlab, alifbo yozuviga o'zgarishlar kiritishni (isloh qilishni) dadillik bilan ko'tarib chiqdi. Yozuvdagi bu kabi nuqsonlarni yo'qotish yo'lini aniq qilib ko'rsatib o'z taklifini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Mahmud Koshg'ariyning ushbu g'oyasi, ilmiy bashorati hozir ham turkiy xalqlar alifbosi, jumladan, o'zbek yozuvi uchun ham o'z kuchini saqlab kelmoqda.

Mahmud Koshg'ariyning fikricha, o'sha davrda 18 ta harf turkiy tildagi nutq tovushlarini to'liq aks ettirmagan. Buning uchun u turkiy alifboni isloh qilish kerak va unga qo'shimcha harflar qo'shish lozim deb biladi. Masalan, u bu haqda quyidagicha yozadi:

«Turkiy tillarda qo'llanadigan asosiy harflar soni 18 ta. Turkcha yozuvda shular qo'llaniladi... Bu asosiy harflardan boshqa talaffuzdagina (yozuvda emas) ifodalanuvchi yana yettita harf borki, turkiy so'zlar bu harflarsiz ishlatilmaydi... Bu harflarni talaffuz qilishda turklardan boshqalar qiynaladilar» (I t., 47-48-betlar). Tilshunos olim turkiy til alifbosidagi ushbu kamchilikni yo'qotish yo'lini ham ilmiy asosda ko'rsatib beradi. U yangi harflarni hosil qilishda eng oson yo'lni qo'llaydi, ya'ni turkiy alifbodagi mavjud harflardan ba'zilarining ustiga maxsus harfiy belgilar va nuqtalar qo'yishni tavsiya etadi (I t., 48-49-betlar).

Mahmud Koshg'ariy o'z davrida ilk bor fonema bilan harf tushunchalarini farqlab, uni fonetik qonun sifatida targ'ib eta olgan. U fonemaning so'z ma'nosini farqlash uchun xizmat qiluvchi nutq tovushlari va ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan tilning eng kichik asosiy birligi ekanligini to'g'ri tushungan. Buni devondagi misollar tahlilidan yaqqol sezish mumkin. Chunonchi, «buz — bo'z (yumshoq, Y unli bilan): bo'z — kulrang (qattiq, u unli bilan)» (III t., 134-bet), «tor — qattiq» o(o') bilan kelsa qush va baliq tutadigan to'r, ov to'ri, matrap va yoyma kabi ma'nosida (III t., 133-bet); «tör —

yumshoq», «ö»/o' bilan uyning to'ri: törga kech-to'rga o't» kabi ma'noda (III t., 133-bet), «utush — yumshoq talaffuz etiladigan «u» bilan o'yinda yutish» (I t., 92-bet); qattiq talaffuz etiladigan «O'» o'tmoq (turtmoq) fe'li anglashiladi (I t., 92-bet); ot — o't, olov ma'nosida keladi (I t., 78-bet), «öt» so'zida «ö» ingichka talaffuz etiladi va teshik (yoruq) ma'nosida keladi; o't(ot) qopchig'i ma'nosida ham ingichkaroq talaffuz qilinadi (I t., 79-bet). «Ördi-o'rди. Ol sach ördi (I t., 183-bet), Ordi — o'rди. Ol ot ordi (I t., 183-bet) kabi. Bu so'zlar tarkibidagi «o, ö, u, Y» unllari nutqda o'ziga xos farqlanuvchi talaffuzga egaligi bilan har qaysisi alohida mustaqil fonema sanaladi va ular yozuvda to'rt harfni talab etadi, ya'ni «o» qattiq, «ö» yumshoq, «u» qattiq, «Y» yumshoq kabi. Bunday xususiyatlar eski o'zbek tilida to'liq saqlangan, hozirgi o'zbek dialekt va shevalarida ham mavjuddir. Mahmud Koshg'ariy undosh tovushlar haqida ham ko'pgina ma'lumotlarni bergan. Undoshlarning paydo bo'lishiga ko'ra (lab, til (tish), bo'g'iz tovushlari), aytilishi (talaffuziga) ko'ra (portlovchi, sirg'aluvchi, jarangli, jarangsiz, burun-sonor, qorishiq kabi) hamda nutq jarayonida yuzaga keladigan turli xil fonetik hodisalar, o'zgarishlar, ayniqsa, assimilyatsiya, dissimilyatsiya kabi hodisalar misollar orqali yoritilgan. Masalan, undosh tovushlardan... «d» (harfi) «p, t, ch, k» kabi to'rtta qattiq harflar bilan qo'shilsa (yonma-yon kelsa) «t»ga almashadi. Chunonchi, **tapti** — tepti, **tutti** — tutdi, **qachtı** — qochdı, **chskti** — cho'kdi kabi. Ba'zan «q», «k» ta'sirida «d» ni «t» ga aylantiradi. Chunonchi, **öl mena baqtı** kabi (II t., 41-bet). Ushbu misollar assimilyatsiya hodisasiga mos keladiki, bu kabi fonetik xususiyatlar eski o'zbek adabiy tilida ham, hozirgi tilimizda ham o'z mazmunini saqlab keladi. «Devonu lug'otit turk»da turkiy (qabila) tillarida qo'llanilgan so'zlardagi undoshlarning tor va kenglik, qattiq va yumshoqlik, ikki undoshning qator kelishi, tushib qolishi kabi holatlar misollar orqali tahlil etilgan (I t., 66-69-betlar). Bu kabi hodisalar ham o'zbek tilining hamma davrlarida mavjuddir. Devonda boshqa tillarga xos bo'lgan undosh tovushlarning o'zlashuviga doir ma'lumotlar ham bor. Jumladan, «**arab tilidagi «itboq harflaridan to, zo, sin, zod» va hind tiliga xos**

bo'lgan «h» bo'g'iz undoshi turkiy tillarda yo'qdir» (I t., 48-49-betlar) kabilar.

Devondagi ba'zi bir tovush almashinuvi natijasida turkiy tillarda jumladan, o'zbek tilida hosil bo'lgan bir xil ma'nodagi qo'sh shaklli so'zlarning hosil bo'lishi tarixi haqida muhim misollar bor. Jumladan, **cho'chishdi, chalishdi, cho'kdi, cho'kka** «so'zlari qadimda» **suchushdi** (II t., 98-bet), **salishdi** (II t., 122-bet), **sukdi, sukka** shaklda ham qo'llanilgan. Hozirgi tilmizdagi «soch — choch, sochishdi — chochishdi, sichqon — chichqon, musicha — muchicha, sachiq — chachiq, sapchish — chapchish, sangdon — changdon, sachali — chachali (to'y) kabi bir qator so'zlar qadimgi turkiy tildan singib qolgan (II t., 29-bet). Darhaqiqat, til taraqqiyoti jarayonida lug'atlar ko'pgina so'z shakllari va ularning ma'nolari o'zgarishlarga uchrab kelgan. Bunday so'zlarning asl (dastlabki) shakllari va ma'nolari tarixini, umuman etimologiyasini o'rganishda fonetik qonuniyatlar ham muhim o'rin tutadi. Jumladan, devonda juda ko'p so'zlar borki, ular qadimda bir necha xil ma'nolarni anglatadi. Bunday so'zlar eski o'zbek tilida ham va hozirgi tilmizda, ayniqsa, o'zbek dialekt-shevalari tilida ham uchraydi, ularning ba'zan shakllari, ba'zilarining esa ma'nolari o'zgargandir. Masalan, devonda «**chomurdi**» so'zi **cho'mildir, sho'ng'itdi** (II t., 89-bet) ma'nosida izohlanib, **chomurdi** (II t., 90-bet), **chomushdi** (II t., 90-bet) shakllarda ham berilgan. Bu so'zlar hozirgi tilmizdagi cho'miltirdi, cho'mildi shaklda yuvinoq ma'nosini beradi. Eski o'zbek tilida va dialektlarida «**chomdi**» shakli **sho'ng'idi, cho'kdi, g'arq bo'ldi** ma'nolarida ham qo'llaniladi. Asosan, yuvinoqning sinonimi sifatida, **cho'milmoq, sho'ng'imoq, cho'kmoq, g'arq bo'lmoq** ma'nolarida keladi.

Sag'urdi so'zi devonda **ichdi, shimdi, ho'pladi** (II t., 84-bet) ma'nolarida va **simurdi — simirdi** (II t., 90-bet) shaklida ham berilgan. Bu so'zning o'zbek tilida **sag'urdi** shakli qo'llanilmaydi, balki **ichmoq, shimirmoq** (simirmoq), **ho'plamoq, shimimoq** va **tupurmoq** kabi ma'no-shakllari bor. Devonda «**chalishdi**» so'zi **ochildi, kurash tushdi** ma'nosida izohlangan. Shu kabi «**solishdi**» so'zi **qoqishdi, silkishdi** mazmunida qo'llanilishi izohlanadi (II t., 121-122-betlar). «**Chalishdi**»

so'zi o'zbek tilida **oyoqqa chalib yiqitish, chilinmoq — depinmoq; chalmoq** ma'nolarida qo'llaniladi, «**solishdi**» so'zi esa o'zbek tilida **urishdi** ma'nosida keladi.

Devonda «**O'pmoq**» so'zi **o'pmoq va ichmoq** ma'nolarida qo'llanilgan: **Opdi** — o'pdi: **ol meni opdi** — u meni o'pdi (I t., 176-bet); **opdi** — ichdi. **Mun opdi** — sho'rva ichdi. Bu so'z sho'rvaga o'xshash suyuq narsalarni ichishda ham qo'llaniladi (I t., 176-bet) kabi. O'zbek tilida bu so'z faqat bitta ma'noda (o'pish-o'pmoq) qo'llaniladi. «**Upurdi**» (I t., 186-bet), **Opladi** (I t., 281-bet), shakllari esa ho'plamoq tarzida uchraydi. **Qaruyqti** (II t., 30-bet) — qamashdi, charchadi ma'nolarida izohlangan so'z o'zbek tilida «**horiqdi, horidi**» shaklida, «**charchadi**» ma'nosida keladi, qamashdi ma'nosi esa **ko'zning horiqishi** ma'nosida qo'llaniladi, shuningdek, ko'zning kuchli yorug'likka (yog'du, nurga) bardosh beraolmasligi ma'nosida qamashdi shakli ham qo'llaniladi: quyosh nuridan ko'zning qamashishi kabi. **Aznadi** (I t., 234-bet) so'zi esa eski o'zbek va hozirgi tilda «**aynidi**» shaklda keladi. Devonda bu kabi misollar juda ko'pdir.

Xullas, Mahmud Koshg'ariy so'zlarning omonimlik, sinonimlik xususiyatlarini nutqiy jarayondagi fonetik hodisalar bilan bog'liq ekanligini ishonarli misollar asosida tahlil etgan. Shu asosda o'ziga xos fonetik qoida yaratadi, fonetik hodisalarning tilda mavqeini ko'rsatadi. Umuman, u fonetikani tilshunoslikning alohida mustaqil sohasi sifatida ilmiy tarzda asoslab beradi. Sinchkov olim o'z davri lug'at sostavidagi so'zlarni imkoniyat darajasida to'plab, uch turkumga ajratadi. So'zlarni turkumlarga bo'lib o'rganish qadimgi yunonlarda, so'ngroq hind va arablar grammatikasida qo'llanilgan. Bulardan tashqari, hozir ham ba'zi xalqlar o'z grammatikalarida bu tasnifdan foydalanib kelishmoqda.

Mahmud Koshg'ariy ushbu qadimiy tasnifdan foydalanган. Bu haqda u quyidagicha fikrlarni yozgan: «*Kitobni sakkiz asosiy bo'limda chekladim...har bir bo'limni otlar (ismlar) va fe'llar tarzida ikki qismga ajratib berdim. Otlarni oldin, fe'llarni esa otlardan keyin o'z sirasiga qarab, boblarga ajratib, o'z o'rnida oldinma-keyin ko'rsatdim. Tushinishi oson bo'lsin uchun asarda arabcha istiloh (termin)lar qo'lladim. Kitob tuzish*

oldidan Xalil ibn Ahmadning «Kitob ul-ayn» asarida tutgan tartibni qo'llash, iste'moldan chiqqan so'zlarni ham bera borish fikri menda tug'ilgan edi. Bu tartib arab tili bilan ikki uloqchi ot singari teng poyga qilib uzub borayotgan turk tilini to'liqroq yoritish jihatidan ham yaxshi edi. Lekin men o'quvchilarning foydalanishi masalasiga asostandim. Men iste'moldan chiqqanlarini tashladim. Men tutgan tartib to'g'riroqdir» (I t., 45-46-betlar). Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Mahmud Koshg'ariy o'z lug'atida dastavval qadimgi arab tilshunosligi maktabining asoschilaridan biri Xalil ibn Ahmad (hijriy 1070-yilda vafot etgan)ning «Kitob-ul ayn» asarida tutgan tartibni qo'llash istagi bo'lsa-da, turkiy tilning o'ziga xos tabiati hamda til taraqqiyotining o'z davriga munosabati, umuman, lug'atchilik va tilshunoslikda yangicha usulni qo'llashni afzal ko'radi. Bu davrda turkiy tilning mavqei ancha ko'tarilganligi, Sharqda nufuzli tillardan sanalgan «arab tili bilan ikki ot singari teng poyga qilib uzub borayotgan»ligini nazarda tutib «turkiy tilni to'liqroq yoritish»da, balki «ko'pchilikka tushunilishi oson bo'lgan yangicha, yanada sodda yo'lni tanlaydi». Lekin shunga qaramay, turkiy tilning dastlabki bosqichini o'z davri tili bilan bog'lash, uning davomiyligini ta'minlash maqsadini nazardan soqit qilmaydi. U qadimgi turkiy tildagi ko'pgina so'z va grammatik shakllardan ham qiyosiy tarzda foydalanib, ularga o'rni bilan izohlar beradi. Olim bu haqda shunday yozadi: «Ulardan ba'zi namunalarinigina ko'rsatib, bosh-qalarini shunga qiyos qilishni o'quvchilarning o'zlariga havola qildik. Qisqartish va yengillatish maqsadida bu asarni mendan oldin hech kim tuzmagan va hech kimga ma'lum bo'lmagan alohida tartibda tuzdim. Bu ishda men asarning qiymatini oshirish, boshqalarga (foydalanuvchilarga) esa osonlik tug'dirish maqsadida, puxta qo'llanma bo'lsin deb, har bir qabilaning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra qiyosiy qoidalar tuzdim... So'ngra men har bir qabilaga mansub so'zlarning yasash xususiyatlarini va qanday qo'llanilishini qisqacha izohlab ko'rsatish uchun alohida yo'l tutdim» (I t., 46-47-betlar) kabilar.

Haqiqatan ham, ta'kidlaganimizdek, Mahmud Koshg'ariy o'z davrida turkiy tilshunoslikni boshlab berib, lug'atchi-

likda, jumladan, tilning fonetik, so'z yasash, morfologik sohalarini o'rganishda yangicha tartib va qoidalar yaratgan. Ularni yoritishda qadimgi hamda o'z davri dialekt va shevalar tili materiallaridan qiyosiy foydalangan. Bu usul hozir ham o'z qiymatini saqlab kelmoqda. Eski o'zbek tili davrida ko'pgina tilshunos-lug'atchilar Mahmud Koshg'ariy ta'limoti asosida o'z asarlarini yaratdilar. Jumladan, turkiy-o'zbek adabiy tilining asoschilaridan Alisher Navoiyning til bilimiga doir «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida Koshg'ariy qo'llagan usulning ta'siri yaqqol seziladi. Afsuski, ushbu ta'limotga-usulga o'zbek tilshunosligida e'tibor kamdir.

Koshg'ariyning asari aslida izohli lug'atlar turiga kiradi, ammo unda til bilimining barcha sohaları haqida o'ziga xos usulda (ya'ni lug'atda izohlanadigan so'zlar orasida) ba'zan keng, ba'zan qisqacha grammatik ma'lumotlar berilgan. Chunki oldingi asari («Javohirun nahvi fi lug'otit turk»)da grammatika haqida maxsus ma'lumotlar bergan. Bu haqda devonda shunday yozilgan: «Birlilik, ko'plik, oshirish, chog'ishtirish, kuchaytirish, kelishiklar masalasi va boshqalar ham zikr qilinmadi. Chunki biz bularni «Javohirun nahvi fi lug'otit turk» («Turkiy tillarning nahviga oid gavharlar») ismli ayrim asarimizda berdik. Nahvga oid qoidalar u asardan qaralishi kerak (I t., 62-bet).

Mahmud Koshg'ariyning ushbu asari topilganda edi, umumturkiy til va tilshunoslik tarixining qadimgi davri haqida yanada muhim ma'lumotlarga ega bo'lar edik. Shunga qaramay, Mahmud Koshg'ariyning devonida leksikologiya, fonetika, so'z yasalishi va morfologiya haqida anchagina etarli ma'lumotlar o'z aksini topgan. Devonda ot, sifat, son, olmosh, fe'l va uning turli (ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi va boshqa) shakllari, hatto yordamchi so'zlar (bog'lovchi, ko'makchi, yuklama, undov va taqlidiy so'zlar) haqida ham ma'lumotlarni topish mumkin. Bular haqida taniqli o'zbek olimlaridan G'.Abdurahmonov, S.Mutallibov, Sh.Shukurov-larning maxsus ilmiy asarlarida ma'lumotlar bor (77, 87, 88 kabi).

Mahmud Koshg'ariy devonidagi til faktlarini eski o'zbek tili bilan qiyoslab ko'rilsa, so'z yasashda ishtirok etgan barcha

grammatik vositalar deyarli farqlanmaydi. Soʻz turkumlari va ularga xos boʻlgan soʻz shakllari, grammatik kategoriyalar ham deyarli bir xillikka ega. Toʻgʻri, devonda qabilalar tilini qiyoslaganda ularning oʻziga xos shevalari bilan oʻsha davrdagi umumturkiy adabiy tilida qadimdan qoʻllanilib kelinayotgan baʼzi soʻz shakllari va grammatik xususiyatlar ham keltirilib chogʻishtiriladi. Xuddi shu holatdagi til materiallarining baʼzilari eski oʻzbek tiliga mos kelmasligi mumkin. Ammo bu holatni faqat Koshgʻariy davri adabiy tili bilan eski oʻzbek adabiy tili davrini ajratuvchi faktor deb qaramaslik kerak. Balki, bunday qiyoslash usuli ilk adabiy til bilan soʻnggi davr adabiy tilini bogʻlaydi. Tarixiy taraqqiyotdagi barcha til bosqichlarini uzluksiz bogʻliq holda rivojlanayotganligini koʻrsatishga xizmat qiladi. Chunki oz boʻlsa-da, Koshgʻariy davri adabiy tiliga xos boʻlgan baʼzi bir xususiyatlar eski oʻzbek tilida ham (ayniqsa, ilk davrida) uchraydiki, ularni tushunish va aniqlashda ana shu dialektal yoki arxaik vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahmud Koshgʻariyning devonida oʻsha davr umumturkiy adabiy tilida koʻpgina soʻz yasovchi qoʻshimchalar oʻz aksini topgan. Masalan, **-ga/a:** bilga (bilimdon), **agʻa** – ulugʻ yoshli donishmand (**agʻ** – aql, ziyraklik (I t., 51-bet); **-ma/ma:** kesma, **örma** (soch) (I t., 51-bet), **qatma** – qatlama (I t., 98-bet), **suzme** (I t., 407-bet), -u,i/t: **kizut** – kiyit (I, 51-bet), **eget** – yanga (I t., 85-bet), **a/ch** : **kömech** – non (I t., 51-bet), **sevinch** (I t., 51-bet); -/i/sh : **bilish** (I t., 51-bet), **urush** (I t., 52-bet), **toqush** (I t., 52-bet); -(u) gʻ, -(a) gʻ: **arigʻ** – sof, toza (I t.,52-bet), **satigʻ** (I t.,355-bet), **yaylagʻ**, **qishlagʻ** (I t.,52-bet), -gʻu/gu, — **qi/gi**, -si: **urgʻu** (I t.,52-bet), **kesgu** (I t.,53-bet), **supurgi** (I t.,53-bet), **bichesi** – bichgich (I t.,53-bet), -/a/q,-/ga/q: **taraq**, **ergek** (I t.,53-bet), **kesek** – boʻlak (I t.,372-bet); -chi/chi: **umduchi** – tilanchi (I t.,159-bet), **arkuchy** – vositachi (I t.,159-bet), -ligʻ/liq urugʻlugʻ (I t.,164-bet), **adashliq** (I., 165-bet) kabi ot turkumini hosil qiluvchi qoʻshimchalar, shuningdek, **barmaq**, **kelmek** (II,45-bet), **bardachy**, **turdachy** (II t.,41-54-betlar), **qyiligʻy**, **tyinigʻy** – tiniq, **yurgyy** (II t., 47-bet), **barduqy**, **barmaduqy**, **barduq** – bordi (II t.,48-bet), **turdugʻy**–

turdi, **keldug-keldi** (II t.,48-bet), **bargʻil** , **kirgil** , **bargʻuchi**, **kelguchi** (II,55-56-betlar), **sagʻquchi** , **sagʻqyl** – **sogʻgil** (II t., 55-bet), **bargʻan**, **kelgen** (II t.,57-bet), **baryqsaq**, **kelygseg** (II t.,59-bet), **berguluk** (II t.,60-bet), **keligli**, **barygʻli** (II t., 61-bet), **barmysh**, **kelmysh** (II t.,66-bet), **berduk**, **kelduk** (II,66-bet), **baran**, **kelen** -boraman, kelaman; **baryan**, **kelyren** – borarman, kelarman (II t.,68-bet), **bargʻay**, **kelgey**, **bargʻylyr** (II.,70-bet), **tergelir** (II t.,71-bet), **bargʻu**, **kelgu** (II t., 71-bet), **kelsedi** (I t., 278-bet), **barsady** (I t., 278-bet), **bargʻun**, **kelgun** (II t., 72-bet) kabi feʼl shakllarini keng qoʻllanilganligining guvohi boʻlamiz.

«Devonu lugʻotit turk» asarida **a:k** – oq, **a:l** – toʻq sariq (I t.,110-bet), **ala**–ola (I t.,117-bet), **saryiq/saryigʻ** (I t., 355-bet), **qyzyil**, **yashyl** (I t., 375-bet), **ezgu** – yaxshi (I t.,137-bet), **qurugʻ/quruq** (I t.,356-bet), **achygʻ** (I t., 94-bet), **arygʻ** – sof, toza (I t., 95-bet), **ushaq** – kichik, mayda/I t., 97-bet), **qaranqu** – qorongʻi (III t., 297-bet) kabi sifatlarga xos boʻlgan baʼzi xususiyatlar haqida maxsus fikr bildirilgan:

«Oʻgʻuzlar yumaloq narsa toʻgʻrisida oshirib soʻzlamochi boʻlganda, «tes tegirme» deytilar. Bu qoidaga xilofdir. Chunki narsalarning ranglarini tavsiflashda soʻzning bosh harfini olib, unga «b» qoʻshish umumturk tillari uchun qoidadir. Oʻgʻuzlar esa «m» qoʻshadilar. Toʻq koʻk rangli narsani turk-lar «köp-kök (desalar), oʻgʻuzlar «köm-kök» deytilar... «sarigʻ» soʻzining oshirma sifatini «sap-sarigʻ» tarzida qoʻllaydilar... Shuning kabi boʻsh yer, ochiq yer maʼnosidagi «yazi» soʻzining oshirma sifatini «yap-yazi» deytilar. Butun oshirma sifatlar shu tarzda yasaladi, ammo «b» oʻrnida «c» qoʻllash qoidaga yotdir» (I t., 317-bet) kabi.

Sifatlarning ushbu shakllari eski oʻzbek tilida va hozirgi tilimizda ham isteʼmol qilinadi. Sifatlarning Mahmud Koshgʻariy tomonidan qayd etgan yuqoridagidek shakllari eski oʻzbek tilida keng qoʻllanilishini Alisher Navoiy ham oʻzining «Muhokamat ul-lugʻatayn» asarida maxsus taʼkidlagan.

Qadimgi turkiy adabiy tilda son turkumiga oid soʻzlar va ularning turlari (har xil qoʻshimchalar bilan kelgan shakllari) ham devonda aks etgan. Bu haqda Koshgʻariy quyidagicha yozadi:

«**Ikkinch** — ikkinchi. O'zidan oldingi sonning davomi ekanini va ma'lum sira-tartibda ekanini bildirish uchun o'ndan kam bo'lgan son so'zlari o'zagiga «n» va «ch» orttirish qoidadir: **tortinch** — to'rtinchi, **beshinch** — beshinchi kabi. Buni har qanday son so'zlariga qo'shish ham mumkin: **onunch** — o'ninchi, **yigirminch** — yigirmanchi kabi. Bu qat'iy qoidadir (I t., 151-152-betlar). Shu kabi tartib sonning «**ikindi** — ikkinci (I t., 158-bet) shakli ham uchraydi: **olar bir ikindini kuvushdilar** — ular biri ikkinchisini (bir-birini) quvishdilar (II t., 113-bet), «**sekson**—sakson, **toqson**-to'qson sonlari asli **sekiz on** — sakkiz o'n, **toquz on** — to'qqiz o'n shaklda bo'lib, ikki so'z keyin birlashib ketgan» (I t., 410-bet), «**Uchni o'ttiz so'zi bilan ham yuritadilar. Men buni Kongutda yag'molarning tilidan eshitdim. Ular o'ttuz ichalim deb uchtadan ichganlarini o'z ko'zim bilan ko'rdim**» (I t., 159-bet). Devonda qo'llanilgan olmoshlarning deyarli barcha turlari eski o'zbek tili davriga mos keladi. Shu bilan birgalikda, qadimgi turkiy tilga xos bo'lgan va eski o'zbek tilining (XIV asrdan) so'nggi davrlarida iste'moldan chiqqan ba'zi shakllari ham mavjud: **qamug'** — hamma (I t., 357-bet), **andag' aydim** — o'shanday, shunday, aytdim (I t., 140-bet), **ush** — shunday, xuddi hozirgina, shu onda; **ush mundag' qil** — xuddi shunday qil; **ush keldugum bu** — hozirgina kelib turganim (I t., 72-bet), **kendu** — o'zi (I t., 396-bet), **ne** — nima (I t., 81-bet), **nu** — nima (III t., 233-bet), **ne tersan; nu tersan** — nima deysan, (nu) bu so'zning asli negudir, **a va g** harflari tushirilgan (III t., 233-bet), **neme** : **nama yavuz nen** — bu qanday yomon narsa (III t., 233-bet), **netek** — qanday, qalay (I t., 373-bet), **nechuk** — nega, nima uchun (I t., 379-bet), **nerik** — nima kerak (I t., 273-bet), **qan, qanda** — qayerda (I t., 395-bet), **qach** — qancha (I t., 311-bet), **sa** — sen ma'nosidagi so'z: **sa ayurman** — senga aytaman (III t., 225-bet), **sen** — sen. Turklar bu so'zni kichiklarga, xizmatchilarga hamda so'zlovchidan daraja, martaba, yoshda quyi bo'lgan kishilarga nisbatan aytdilar. O'zlaridan yuqori, hurmatli kishilarga «**siz**» deyдилar. O'g'uzlar aksincha qo'llaydilar, ya'ni kattalarga «**san**», kichiklarga «**siz**» deb qo'llaydilar. Ko'pchilikda ham shuni ishlatadilar. Qoida shudir. Chunki, «**siz**» **ko'plikdir** (I t., 326-bet), **ben**(o'g'uz-

cha) — men: **ben bardim** — men bordim. Turklar men deyдилar (I t., 325-bet) kabi qadimgi o'zlik, ko'rsatish, birgalik, so'roq olmoshlarining ba'zilari XV asrdan so'nggi eski o'zbek adabiy tilida iste'moldan chiqqan.

Qadimgi turkiy adabiy tilning ilk davrlari tilida qo'llanilgan ba'zi bir yordamchi so'zlarning shakllari devonda ham o'z aksini topgan. Masalan, **taba** — jo'nalish kelishigi qo'shimchasi o'rnida qo'llanuvchi so'z (qo'shimchasi): **menin taba keldi** — u mening yonimga keldi; **taba** — tomon, qarshi, teskari (III t., 235-bet), **tabaru** — tomonga (I t., 416-bet), **otru** — qarshi, to'g'ri, ro'parasi (I t., 98, I t., 147-bet), **tegul/degul** — unday emas (I t., 374-bet); **ep, ap, ab** — ta'kid va kuchaytirish ko'makchisi (I t., 170-bet), **egin, tegu** — gacha (I t., 333, III t., 255-bet), **tegre/tegrek** — atrof, tevarak (I t., 337, I t., 442-bet), **ashnu** — oldin, ilgari (I t., 150-bet), **kedin** -keyin (I t., 230-bet), **daqı** (II t., 227-bet), **taqı** — yana, tag'in (III t., 246-bet), **yama**—ham; **yalqsa yama yag' ezgu, kuysa yema kun ezgu**—odam yog'dan to'yib, lohaslansa ham u totsiz taomdan yaxshidir. (III t., 440-bet), **aban** — agar (I t., 153-bet), **qali**—agar, basharti (III t., 251-bet) kabi bog'lovchilar; **tab** — bop, yetarli ma'nosidagi yuklama; **Bu ash mena tab** — bu osh menga bop (I t., 308-bet); **-la/le** — albatta, aniq, ta'kidlash ma'nosida (III t., 231-bet), **-chu/chı** — kuchaytiruv: **kelchı** — albatta **kel**; **barmachu** — zinhor borma (III t., 225-bet); **-mat** — shunday (I t., 311-bet); **-kya** — ta'kid, kichraytirish, erkalash ma'nolaridagi yuklama keng qo'llanilgan: **og'ulqiya**—o'g'ilcham (III t., 184-bet), **Erkiya** — ergina, **yerkia** — ercha (III t., 185-bet), «**-kiya**» shakli VI—VII asrlarda ham qo'llanilgan. Uning turkiy tillarda qadimdan qo'llanilib kelinayotganligi sababli bo'lsa kerak, bu haqda Mahmud Koshg'ariy o'z asarida maxsus fikr bildirgan (III t., 184-bet). Jumladan, Kultigin Oltin yoriq yozma yodgorliklaridagi — **onaqaya olgeli yatur erti** — ana-mana o'ladigan bo'lib yotar edi; (Oltin yoruq, 609—22 va 611—1), **Ulug' Erkin azqınya erin tezib bardi** — Ulug' Erkin ozgina yigiti bilan qochib ketdi (Kultigin-ulug' bitig-34); **azqıyna turk bodun** — ozgina turk xalqi (To'nyuquq-9) kabilar. Ushbu qadimgi yozuv yodgorliklari tilida bu vosita hozirgi davrdagi

olimlar tomonidan ikki shaklda va ikki ma'noda izohlangan. Bizningcha, Mahmud Koshg'ariy tomonidan qo'llanilgan «-qiya» shakli va izohlangan ma'nolar to'g'ridir.

O'sha davr tilida qo'llanilgan undov va taqlidiy, modal so'zlar ham devonda anchagina keng o'rin olgan: «**chaq-chuq** — o'tin, suyak va yong'oq kabi narsalarning singan vaqtidagi tovushni bildiradigan so'z; **chaq-chuq etti**, degan gap shu ma'noda qo'llanilgan (I t., 300-bet), **zaq-zaq** — qo'chqor urishtirishda qo'llanilgan so'z; **saq-saq** — hushyor bo'l ma'noda; **chek-cho'p-laxta-luxta, chuk-chuk(chix-chix)** — tuyani cho'ktirish; **chik-chik** — echkilarni chaqirish (I t., 321-bet), **qurt-qurt** — ot yem yeganda chiqadigan tovush; **qarch-qurch-g'arch-g'urch** (I t., 329-bet); **qars-qars** — qarsak, chapak chalish (I t., 333-bet), **ach-«hoy, hoy, he»** ma'nolardagi qo'llangan undov so'z (I t., 71-bet); **op-op-tur-tur** (I t., 15-bet), **uva/ova** — ha, labbay: **a, av**—hayronlik, taajjub ma'nosida (I t., 75-bet), **ay** — av (I t., 76-bet) **ava** — afsus, attang, essizgina demakdir, **ava-ava** (I t., 116-bet); **ki** — hay ma'nosini beruvchi undov so'zdir; **qi beru kel** — xey beri kel (III t., 230-bet) kabilar shular jumlasidandir. Olimning ba'zi grammatik vositalar haqida bergan qisqa-qisqa ma'lumotlari til taraqqiyotining ma'lum bir bosqichlarini bog'lab o'rganish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, turkiy tillar taraqqiyotining so'nggi davrlarida ko'plik ma'nosi, asosan, bitta grammatik vosita («-ler)lar» qo'shimchasi bilan ifodalaniib kelingan. Eski o'zbek adabiy tilida ham, hozirgi tilimizda ham «-lar» ko'plik ma'nosining yagona grammatik vositasi sanaladi. Ammo qadimda ko'plikni ifodalashda bir necha qo'shimchalar qo'llanilganligi haqida ilmiy adabiyotlarda ma'lumotlar ham bor, albatta. Xuddi shunday ma'lumotlardan biri Mahmud Koshg'ariy asarida uchraydi. Masalan, devonda «-t», «on» kabi qadimgi qo'shimchalar haqida keng izoh berilmagan bo'lsa-da, ba'zi bir misollar tahlilida yo'l-yo'lakay fikrlar aytilganligini ko'ramiz: «**tegit-tegin** so'zining ko'pligidir... Bu shakldagi ko'plik qoidaga xilofdir: **uka tegit** — oddiy xalqning kattalari, shohning kichik o'g'illari demakdir... (I t., 337-bet) yoki «**Buzrach yeme qordurdi, Alpaguttmn azyrdy (It., 161-bet) -Budzaj yaboqu qutirdi** —

botirlarin ayirdi (saraladi); kuche birligi, kuchet ko'pligi (kuchot — Xorazmda yashovchi turklar (I t., 338-bet va I t., 385-bet) kabi. Lekin ko'plikning ushbu «-t» qo'shimchasi ancha oldingi davrlardayoq (V–VI asrlar yozma yodgorliklari tilida ham) iste'moldan chiqqanligi aniq. Shuning uchun ham olimning «Bu shakldagi ko'plik qoidaga xilofdir», degan fikri asoslidir. Jumladan, «Qoidaga xilof ravishda «**Eron**» (erlar) so'ziga o'xshash «**O'g'lon**» deb ham jam qiladilar. Aslida bu so'zning ko'plik shakli og'ullar bo'lishi kerak edi. **Eran** — erlar, erkaklar. Ba'zan ko'plik shaklida shunday qo'llaydilar (I t., 105-bet). Bularning har ikkisini birlik shaklida qo'llaydilar» (I t., 103-bet) degan fikrlari ham bor; «-on» qo'shimchasini o'sha davrda ba'zi bir shevalarda qisman qo'llanilganligini aytsa-da, olim uni turkiy adabiy tiliga xos emas deb biladi.

«Devonu lug'otit turk» asaridagi ma'lumotlarga qaraganda, o'sha davr adabiy tilida kelishik qo'shimchalarining ba'zi shakllarining iste'mol doirasi cheklanib qolgan, ular sanoqli o'rinlardagina qo'llanilganini ko'ramiz. Jumladan, jo'nalish kelishigining **-qaru/g'aru, -kuru/guru, -ra/ru** shakllari va vosita kelishigining **-/i,u/n** qo'shimchasi ba'zi bir so'zlar tarkibida qo'llaniladi: **yag'uyqaru kirish qurdim** (indeks-471-bet) — dushman (tomon)ga hujum boshladim (II t., 88-bet), **qysh yayg'aru suvlenur** — qish yoz bilan so'zlashur (III t., 294-bet), **emgak kōru ulindi** — mashaqqatga chalindi (I t., 212-bet); **tabaru** — tomonga; «**taba**» tomon ma'nosidagi ko'makchiga «-ru» (jo'nayalish kelishigi qo'shimchasi) qo'shilgan (I t., 416-bet), **anar** — unga demakdir: **anar aydim** (I t., 119-bet), **Munar tegir ulug'lik** — bunga ulug'lik tegar (I t., 335-bet), **tatig' közre tikanin tubra**—totning ko'ziga ur, tikanni tubidan uz (II t., 325-bet), **erdemsizin ökunöe enmeguzche anar** — ilm (hikmat) sizlik unga o'kinch, uyat beradi (I t., 253-bet) kabilardan tashqari devondagi kelishiklarning barcha qo'shimchalari eski o'zbek tilida iste'mol qilinadi. Ushbu qadimgi shakllari esa eski o'zbek tilining XV asrgacha bo'lgan davrlariga xosdir.

Demak, umumturkiy adabiy tilning quyi bosqichiga xos bo'lgan ba'zi fonetik. so'z yasalishi va morfologik xususiyat-

lari eski o'zbek tilining XIII–XIV asrlar tilida uchraydi. (Bu haqda o'z o'rnida fikr bildiriladi.) Ushbu qadimiy xususiyatlarni hisobga olmasak, umumturkiy adabiy tilning grammatik jihatlari farqlanmaydi. Farqli tomonlari esa tabiiyki, til taraqqiyotining tarixiy bosqichlari jarayoni bilan bog'liq hodisa sanaladi.

Umumturkiy adabiy tilining lug'at boyligini, ayniqsa turli sohalari haqida ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishda «Devonu lug'otit turk» asari nihoyatda muhim manbadir. Turkiy, jumladan, o'zbek tilida qadimdan qo'llanilib kelinayotgan so'z va atamalar til tarixiy taraqqiyotini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Mahmud Koshg'ariy ular haqida hatto, maxsus to'xtalgan, izohlar bergan. Jumladan, qon-qarindoshlikka oid so'z va atamalar haqida quyidagicha ma'lumotlar berilgan:

«**Yurj** — xotinning o'g'il ukasi. Erning aka-ukasi bilan xotinning aka-ukasini farq qilib shunday deyiladi. Erning kichik ukasiga «**ini**» deyiladi, yoshi katta bo'lsa «**ichi**» deyiladi. Erkaklarning o'zidan kichik qiz ukasiga «**sinil**» deyilib, o'zidan katta qiz birodariga «**aka**» deyiladi: xotinning o'zidan kichik birodariga «**baldiz**» deyilib, o'zidan kattasiga «**aka**» deyiladi» (III t., 13-bet). Asarda muallif tomonidan qarindoshchilikka xos so'zlarning dialektal tomoniga ham alohida ahamiyat beriladi. Masalan, «**aba** — ona (o'g'uzcha). Qarluq turkmanlari «**apa**» deyдилar, tubutlar tilida esa «**ota**» ma'nosida. Bu xususiyatda arab tilining izi bo'lsa kerak (I t., 113-bet), **uma** (tubutlar tilida) — ona. Arablardan qolgan bo'lsa kerak (I t., 118-bet). Ular (ya'ni qanjaklar va ko'tanliklar) otani «**hata**», anani «**xana**» deyдилar (I t., 68-bet); **eke** — opa. O'g'uzlar **eva** deyдилar (I t., 116-bet), asosan ana-ona: anin anasi; ata — ota anin, atasi; og'ul — o'g'il: anin o'g'li (III t., 227-bet), **qadash** — **qardosh** — otasi bir aka-ukalar (III t., 392-bet). Bir qarindan tug'ilgan ikki bolani qarindosh deyish ham shuning uchundir. Qarin — qoringa — dosh qo'shilganda «**hamkorlik**» degan ma'no chiqadi. Bir emchakni emishgan ikki bolaga ham **emukdash** deyiladi. Birodar, yaqinga «**Qadash**» deyiladi: asli idish ma'nosida «**Qa**» dir. Unga «**-dash**» qo'shilgan, bir idish, bir qarindosh ma'nosini anglatadi (I t., 336-bet), **ashtal**

og'ul — kenja o'g'il (I t., 130-bet), **qansyiq og'ul** — o'gay o'g'il, **qansyiq ata** — o'gay ota (III t., 393-bet), **baldyr qyz** — o'gay qiz (I t., 425-bet), **qazym** — qayin (qayin ota, ona, uka, singil, aka). Qipchoqlar «z» bilan talaffuz qiladilar (I t., 383-bet): **namyja** — boja (I t., 417-bet), **kelin** — kelin (I t., 384-bet), **egatlik** — kelin-kuyovga egachi bo'lgan (yanga) (I t., 166-bet), **kökun** — xola (III t., 250-bet), **chыqan** — xolaning o'g'ly, jiyan (I t., 382-bet), **tag'ay** — amaki (III t., 256-bet), **dada** (o'g'uzcha) — dada, ota (III t., 239-bet) kabilar. Qarindoshchilik atamalarining ba'zilari qabila-lar tilida har xil shaklda bo'lib, ma'nolari ham ba'zan farqlangan. Shuning uchun ham Mahmud Koshg'ariy ularni o'z o'rnida izohlab o'tadi. Devonda «**xotin**» ma'nosidagi so'z **uragut** (I t., 157-bet), **qatun** (I t., 388-bet), (III t., 223-bet), **ishlar** (I t., 140 bet), **qazuz** (I t., 346-bet), **kis** (I t., 318-bet) kabi shakllarda beriladi: **urag'ut okmaklandi** — xotin zirakli bo'ldi, zirak taqdi (I t., 305-bet); **ol ishlar bosh** — u xotin bo'sh, ozod bo'ldi; u xotinni ozod qildi, tashladi (I t., 318-bet); **анын kisi** — uning xotini (I t., 318-bet); **uzuk** — xotinlar laqabi: sof, oltin kabi toza, pok xotin ma'nosida oltun uzuk deyдилar (I t., 101-bet).

Umumturkiy adabiy til davrida qo'llanilgan hayvonot, qush-parranda va hasharotlarga doir so'z va atamalar haqidagi ba'zi ma'lumotlardan quyidagilarni ko'rsatish mumkin: **at** — ot (I t., 70-bet), **arkun** — yovvoyi otdan qochgan xonaki baytal bolasi, eng chopqir ot (I t., 132-bet), **ыкылach** — sho'x uchqur ot (I t., 157-bet), **qulun** — ayg'ir, toycha (I t., 383-bet), **qulun** — toy (I t., 221-bet); **ылqы** — yilqi (I t., 244-bet), **toquz ot** — qashqa ot (I t., 345-bet), **torig' (at)** — to'riq ot (I t., 354-bet), **tosan** — toycha (I t., 382-bet), **chulku at** — to'q sariq ot (I t., 404-bet), **kulan** — qulon, yovvoyi eshak (I t., 392-bet), **qatyr** — xachir (I t., 344-bet), **eshkek/eshyak** (I t., 134, 137-betlar) **сыг'ыр** — sigir (I t., 344-bet), **inek** — sigir (I t., 135-bet); **o'g'uzlar toshbaqaning urg'ochisini inak deyдилar**; **ud** (chigilcha) — sigir (I t., 135-bet), **buzag'u** — buzoq, **ökuz**: **evadagi buzag'u ökuz bolmas** — uyda o'sgan buzoq ho'kiz bo'lmaydi (I t., 417-bet); **turbi** — bir yoshli buzoq (I t., 393-bet), **qotuz**—qo'tos,

yovvoyi sigir (I t.,346-bet), **buqa** — buqa (III t.,246-bet), **irk** — qo'y, to'rt yoshga qadam qo'rgan qo'y (I t.,78-bet), **echku** — echki (I t.,149-bet), **azma** — bichilgan qo'chqor (I t.,150-bet), **qo'chinor** — qo'chqor (I t.,311-bet), **og'laq** — uloq (I t.,141-bet), **keyik** — kiyik (I t.,229-bet), **titir** — urg'ochi tuya (I t.,342-bet), **bug'ra** — erkak tuya (I t.,397-bet), **erkach** — taka, erkak echki (I t.,120-bet), **baldyr qozi** — ertagi qo'zi (I t.,425-bet), **azg'yr** — ayg'yr (I t.,121-bet), **azg'yroq** — qulog'i oq, tanasining ba'zi joylari qora, echki, taka suratidagi bir turli kiyik (I t.,161-bet), **arслан** — arslon (III t., 419-bet); **arqar** — arqor, urg'ochi tog' echkisi, tog' qo'yi. (I t.,139,398-betlar); **asri** — qoplon (I t.,147-bet), **bars** — qoplon (I t.330-bet). Turklar o'n ikki xil hayvon ismini o'n ikki yilga ot qo'rganlar: **Sichg'an** — sichqon (yili), **ud** — sigir (yili), **bars** — bars (yili), **tavishgan** — quyon (yili), **nek** — timsoh (yili), **yilan** — ilon (yili), **yund** — ot (yili), **bajin** — maymun (yili), **tokag'u** — tovuq (yili), **it** — it (yili), **to'nuz** — to'ng'iz (yili) (It.,331-bet). Asarda ularning ba'zilari haqida kengroq izohlar beriladi. Chunonchi, «**Qush-qush**» jamlikni bildiruvchi turdosh ot. Keyin bularni bir-birlaridan farqlashda ayrim so'zlar qo'shiladi: **orun qush** — oq lochin, **qara qush** — burgut, **teva qush** — tuyaqush, **yun qush** — tovus, **el qush** — il qush, qirg'iy (I t.,319-bet) kabi. Shuningdek, **sanduvach** — bulbul (I t.,481-bet), **qarg'ylach** — qaldirg'och (I t.,479-bet), **sun-dylach** — sava (I t.,479-bet), **qashg'alaq** — qashg'aldoq, o'rdakdan kichikroq suv qushi (I t.,480-bet), **közgunek** — lochin va qarchig'ayga o'xshash xoldor qush (I t.,481-bet), **ordak** (I t.,480-bet), **ubub** — po'pishak qush (I t.,107-bet); **air bori** — yoldor bo'ri (I t.,108-bet), **chumili** — chumoli (It.,419-bet), **kapali** — kapalak (I t.,419-bet), **syg'un** — bug'u (I t.,388-bet) kabi juda ko'p hayvon, parranda qush va hasharotlar nomlari qisqa-qisqa izohlangan. Bu kabi izohlar boshqa sohalar bo'yicha ham bor. Jumladan, «**Eruk** — shaftoli, o'rik, olxo'ri mevalarning umumiy ismi; ular biror sifat bilan bir-birlaridan farq qiladilar: **tulug eruk** — shaftoli; **saryg' eruk** — o'rik; **qara eruk** — olxo'ri kabilar. Asarning boshqa

o'rinlarida ham turli mevalarning nomlari qayd etiladi: **armurt** — olmurit, nashvati (I t.,120-bet), **ayva** — behi (I t.,137-bet), **qag'un** — qovun (I t., 388-bet), **xojunak** — xushbo'y va naqshli qovun-handalak (I t., 450-bet), **bökan** — tarvuz (I t.,380-bet), **omshuy** — sariq olxo'ri (I t.,138-bet) kabilar. Asarda **arpa** — arpa (I t.,144-bet), **tarig'** — tarig', bug'doy, umuman, barcha don ekinlari ma'nosida (I t.,354-bet), **futurkan**—gurunch (It.,475-bet), **burchaq** — loviya (It.,433-bet), **bug'day** — bug'doy (III., 258-bet) kabi g'alla-don ekinlariga oid atamalar; **ebmak** — non (I t., 126-bet), **churak** — churak non, kulcha (I t.,369-bet); **qatma** — qatlama (It.,407-bet), **ugra** — xamir osh (I t.,147-bet), **tutmach** — xamirli ovqat (It.,422-bet), **kömech** — ko'mach. O'choq cho'g'iga tutib pishirilgan non (It.,341-bet), **uzitma** (uyitma) — suzma (I t.,161-bet), **suzma** — suzma (I t.,407-bet), **qimiz** — qimiz (It.,346-bet) kabi oziq-ovqat va ichimliklar nomlari; **Eliklik** — qo'lqop (It.,168-bet), **ichmak** — po'stin/I t.,127-bet), **charuq** — choriq (It.,362-bet), **kimsan** — do'ppi (I t.,410-bet) kabi kiyim-kechakka oid so'zlar; **an** — yuz, yonoq (I t.,76-bet), **bash** — bosh (III t.,165-bet), **qabaq** — qovoq (I t.,363-bet), **qulaq/qulqaq** — quloq (I t.,364-bet), **elig** — qo'l (I t., 102-bet), **ag'uj**, **ag'yz** — og'iz (I t.,88-89-betlar), **jsyjalaq** — jimjiloq barmoq (I t.,499-bet), **enak** — ikki jag' (I t.,154-bet), **qarын** — qorin (I t.,383-bet), **erin** — lab (I t., 106-bet), **tyrnaq** — tirnoq (III t.,393-bet), **opka** — o'pka (I t.,148-bet), **bilak** — bilak (I t.,366-bet) kabi tana a'zolariga oid so'zlar; **atg'aq** — qorinda sariq yig'ilishi kasalligi/I t., 140-bet), **anumi** — moxov kasalligi (I t.,155-bet), **chekak** — chechak kasalligi/I t.,369-bet), **sarig' kezik** — sariq kasalligi (I t.,372-bet), **inaku** — kindik ichi-kulaniga o'xshash kasallik (I t.,155-bet); **irvi** — hindcha dori nomi (It.,148-bet), **urag'un**— hindcha dori nomi (I t.,156-bet), **churni** — surgu dorisi (I t., 408-bet), **xasni** — bolalarni semirtiradigan dori (I t., 408-bet) kabi shifokorlikka oid atamalar; **bitik** — kitob, yozuv, tumor, ilm, hikmat, aql, bilimlilik (I t.,366-bet), **bilga** — hakim, hikmatshunos, olim; bilag'on, donishmand, aqlli (I t.,403-bet), **bogu** — donishmand, bilimdon (III t.,248-bet) kabi ilm-fan sohasiga oid so'zlar; **su** — askar, qo'shin

(I t., 251-bet), **pusug'** — pistirma (I t., 352-bet), **cherik** — urush safi, qo'shin safi (I t., 369-bet), **tolum/tolim** — urush quroli (I t., 377-bet), **say yaryiq** — sovut (III t., 173-bet), **atim** — mergan (I t., 104-bet), **atish** — otishma (I t., 92-bet), **ashuq** — temir qalpoq, dubulg'a (I t., 97-bet), **basig'** — to'satdan, qo'qqis-dan hujum qilish (kechki, tungi hujum) (I t., 352-bet), **batraq**—bayroq (I t., 432-bet), **tug'** — tug', bayroq — (III t., 140-bet), **and** — ont, qasam (I t., 78-bet) kabi harbiy sohaga xos atamalar haqida ham ma'lumotlar borki, biz bulardan ba'zilarinigina ko'rsatishni lozim topdik.

Ma'lumki, tarixiy yozma manbalarning deyarli barchasiga koinot/astronomiya/bilan bog'liq juda ko'pgina so'z va atamalar haqida ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, Mahmud Koshg'ariyning asarida ham o'sha davr tilida qo'llanilgan osmon jismlariga oid ba'zi atamalar izohlangan:

«Yulduz — hamma yulduzlar uchun aytiladigan umumiy nom. So'ng ular farq qilinib, **Mushtariy** (Yupiter) yulduzi — **Eratur;** Mezon yulduzi — **Qaraqush;** Surayyo yulduzi — **Ulkar;** Yetti qaroqchi — **Yetikan;** Qutb yulduzi — **Temurqazuq;** **Mirrix** (Mars) yulduzi — **Baqyrsoqym** nomlari bilan ataladi» (III t., 47-bet) kabi.

Umuman, Mahmud Koshg'ariy XI asr tilida keng iste'molda bo'lgan turli sohalarga oid so'z va atamalar haqida imkoniyat darajasida to'liqroq ma'lumot berishga harakat qilgan. Bu asar mazmunidan sezilib turadi. Asarda barcha ma'lumotlar o'sha davr adabiy tilini o'rganish uchungina emas, balki juda ko'p sohalarning tarixiy taraqqiyotini o'rganish uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Xullas, «Devonu lug'otit turk» asarining ilmiy qiymati buyukdir. Ushbu asar, birinchidan, faqat umumturkiy tilning XI asrdagi so'z boyligini aks ettiruvchi kitobgina emas, balki o'sha davr ijtimoiy-tarixiy hodisalari bilan bog'liq bo'lgan turli sohalar haqida ma'lumot beruvchi tarixiy-qomusiy asardir. Asarda o'sha davrga oid tarixiy-jug'rofiy ma'lumotlar, xalq og'zaki ijodiga xos sermazmun hikmatlar o'z aksini topgan. Asarda birgina xalq maqollari va matallaridan iborat 300 dan ortiq hikmatlar to'plangan (83). Shuningdek, 820 misradan ortiq turli mavzudagi she'rlar (ikkilik va to'rtliklar shaklidagi

misralar) berilgan. Hikmatlar va she'riy misralar tahlili alohida tadqiqotni talab etadi.

Asarda turkiy xalqlarning, jumladan, o'zbek xalqining ajdodlari, ya'ni urug' va qabilalar masalasi ham alohida ahamiyat bilan qaralgan. Ushbu masalaning yoritilishi boshqa tarixiy manbalarnikidan o'ziga xosligi, ilmiy jihati bilan ancha farqlanadi. Ko'pgina tarixiy manbalarda ushbu masalaga qabilaning mavqeiga qarab yondashib, so'zlashuv tilidagi hikoya va afsonalarga bog'lab o'rganiladi. Mahmud Koshg'ariy esa o'z asarida ularni eslatib o'tsa-da, asosan, bu sohaga ilmiy yondashishga harakat qiladi. Jumladan, o'sha davrdagi qadimiy qabilalardan o'g'uz, chigil, uyg'ur, qipchoqlarning mavqei ancha yuqori bo'lgan. Shunga qaramay, ularning barchasiga teng qaraydi. Ya'ni, o'zlariga yaqin bo'lgan urug' va qabilalar tili guruhiga teng qaraladi. To'g'ri, ba'zi qabilalar, chunonchi, o'g'uz qabilasining etnik jihati haqida aniq bir ma'lumot berilmasa-da, ularga xos bo'lgan urug'lar nomma-nom sanab ko'rsatiladi, shuningdek, tillari ancha keng tahlil etiladi, ya'ni boshqa qabilalar, o'sha davr adabiy tiliga yaqin bo'lgan turk (xoqoniya), chigil qabilasi va unga yaqin urug'lar tillari bilan asar davomida qiyoslab o'rganiladi. Ammo ular tiliga umumiy tarzda turkiy til ichida-qobig'ida teng qaraladi.

Mahmud Koshg'ariy qabilalar tilining umumturkiy til qobig'ida, ularning urug'doshligi, lahjaviy xususiyatlarining yaqinligiga qarab, asosan ikki guruhga bo'lib, qiyoslab o'rganadi, ilmiy-nazariy mushohada yuritadi, xulosalar yasaydi. Masalan, «**Chigil, yag'mo, tuxsi, qashg'ar, arg'u, barsag'an, uyg'ur va Yuqori Chingacha** bo'lgan qabilalarning hammasi sifatdoshni buyruq ma'nosidagi fe'l oxiriga-g'uchy/guchi qo'shib tuzsalar. **o'g'uz, qipchoq, yamak, yag'mo, arg'ular va suvorlardan pachanakkacha** bo'lgan ko'chmanchilar tilida o'tgan zamon fe'lidan tuziladi. Chunki, ular o'tgan zamon fe'li «**bardı**»dan «**bardacha**» tarzida ishlovchini anglatuvchi sifatdoshni yasaydilar. Bu faqat ularga xosdir. Chunki ko'pchilik turkiy qabilalar, chunonchi, chigillar va boshqalar tilida ishlovchini bildiruvchi sifatlar (ya'ni sifatdoshlar) buyruqlar yasaladi» (III t., 41-54-betlar). «**Yag'mo, tuxsi, chigil, arg'u, uyg'ur to Chingacha** bo'lgan hamma qabilalar o'tgan

zamon fe'lini «-di» qo'shib yasashda ittifoqdirlar. Chunki, bardır kabidir. Chunki, bu fe'l bor buyrug'iga «-di» qo'shib yasalgan. Bu qoida hamma turklarga umumiydir. O'g'uzlar va qipchoqlarning ba'zilar — suvorlar «-di» o'rniga «-duk» qo'shadilar. Bularga birlik va ko'plik ham bir shaklda farqsizdir, bir xilda **men ya ko'rduk** (birlikda), **biz ya kurduk** — biz yoy ko'rdik (ko'plikda) qo'llaydilar (III t., 64-bet); hamma qabilalarda bir xil bo'lgan kelasi zamon fe'lidagi barıyman, kelurman» shakllaridagi so'zlar o'g'uzlarda «**baran**», «**keluran**» shakllarda qo'llaniladi. Fe'ning **ko'raran** shakli turklarda ko'raran tarzida qo'llansa, o'g'uzlar «**ko'raran**» shaklda qo'llaydilar. Turklar usuli qoidaga muvofiqdir. O'g'uzlar talaffuzi esa qoidaga muvofiq emas (II t., 68-bet).

«Turklar hurmatli kishilarga nisbatan, garchi u kishi yolg'iz bo'lsa ham «**bardıyız**» deyilar. Holbuki, «-ıy ıy» aslida ko'plikni bildiruvchi qo'shimchadir. O'g'uzlar buni faqat ko'plikda qo'llaydilar. **Bardıyız hammanız** — hammangiz bardıyız demakdir. Bu yerda o'g'uzlar talaffuzi qoidaga muvofiqdir (II t., 52-bet) kabilar.

Asarda ba'zi urug'larni ushbu guruhlardagi qabilalardan etnik jihatdan farqlanishi qayd etilsa-da, ularning tillari — lahjalari ham shu ikki guruh atrofida yoritib borilgan. Aytılganlardan ko'rinib turibdiki, qabilalar va ularning tillariga munosabat teng holda qaralgan.

Ikkinchidan, qabilalar tilidagi lahjaviy xususiyatlarni yoritib, turkiy tillar tarixiy dialektologiyasiga poydevor qo'yilgan.

Uchinchidan, tillarni qiyosiy tarzda o'rganish usuli tilshunoslikda birinchi martaba qo'llanib, unga asos solingan. Bu fikrni yuqorida qayd etilgan dalillar to'liq tasdiqlaydi. Asarda hatto, qardosh bo'lmagan tillar ham turkiy til (turkiy qabilalar tili) bilan qiyoslab o'rganilgan. Masalan, «arab tilida fe'llarning o'tgan zamon shakli kelasi zamon va masdar shakllaridan farq qiladi (II t., 39-bet). Arab tilida hamma fe'llarda ham o'tgan, kelasi zamon shakllari va masdarlar bir-biriga mos kelmaydi. Turkiy tillarda bunday emas. Turkiy tillarida ikki, uch, to'rt, besh harf va undan ortiq harflilik fe'llarning o'tgan, kelasi zamon shakllari va masdarlarning hammasida moslik

bo'ladi (II t., 40-bet); «Öran» — bu so'zni men forschadan olingan deb gumon qilaman. Chunki, xarob bo'lgan narsaga forslar «**vayron**» deyilar. O'g'uzlar forslar bilan juda aralashib ketganlari uchun bir qancha turkcha so'zlar o'rniga forsha so'zlarni qo'llaydilar. Demak, asarda juda keng hududlarda tarqalgan turkiy qabila-elatlar tili — lahjalari yoritilishi bilan birgalikda o'sha davrlarda qabilalar tilida yuzaga kelayotgan umumturkiy til birligini keng joriy etish va shakllanib kelayotgan umumturkiy adabiy tilni asoslash, yanada rivojlantirish kabi nihoyatda murakkab vazifa bajarilgandir. Bu haqda muallifning o'zi tomonidan devonda juda aniq fikrlar bayon etilgan (I t., 48-49-betlar). Bizningcha, muallif tomonidan ta'kidlangan mas'uliyatli va shu kabi sharafli vazifa imkoniyat darajasida to'liq bajarilgandir.

To'rtinchidan, devonning turkiy tilshunosligidagi eng muhim ahamiyatli tomonlaridan asosiysi shuki, lug'atchilikka doir asarda til qurilishiga va uning lahjaviy hamda adabiy me'yorlariga doir anchagina nazariy masalalar ham bayon etilgan. Jumladan, so'z va uning ma'nolari ba'zi bir etimologik tomonlari, uslubiy xususiyati, morfologik qurilishlari ham nazariy, ham amaliy jihatdan tahlil etilgan. Bu haqda yuqorida juda ko'p ma'lumotlar qayd etildi. Lug'at asarida bu kabi usulda tilshunoslik sohalarining talqin etilishi o'sha davr turkiy lug'atchiligi uchun yangilik edi. Hozir ham bu uslub o'z qiymatini yo'qotgan emas.

Shunday qilib, qomusiy olim Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida X—XII asrlarda Chindan O'rta Osiyogacha bo'lgan katta hududda yashagan turkiy urug' va qabilalar hamda ular bilan aralash yashagan ba'zi qavmlar, elatlar haqida, ularning tillari, lahjaviy xususiyatlari har tomonlama izohlab berilgan. Ushbu asar turkiy xalqlarning qadimdan hozirgacha davom etib kelayotgan leksik boyligini, tarixi va etnografiyasini, hududiy (jug'rofiy) yashash sharoiti, tarqalish yerlari yozuv-madaniyati, adabiyoti va san'atini o'rganishda juda katta qimmatga ega bo'lgan ilmiy-tarixiy, lingvistik manba hisoblanadi.

X—XII asrlardagi umumturkiy adabiy tilini o'zida aks ettirgan mushtarak yozma yodgorliklardan biri «**Hibat ul-**

haqoyiq» asari hisoblanadi. Ushbu asar badiiy-didaktik xarakterga ega bo'lib, o'z davrining iste'dodli adibi Ahmad Yugnakiy qalamiga mansubdir. «Hibat ul-haqoyiq» asari XV–XVI asrlargacha turkiy elatlar orasida keng tarqalgan. Bu fikrni ba'zi yozma manbalar tasdiqlaydi. Alisher Navoiy o'zining «Nasoim ul-muhabbat» nomli asarida Adib Ahmadning nomini va uning «Hibat ul-haqoyiq» asaridan ba'zi misralarni eslatib o'tishi shular jumlasidandir. Ammo bu asar keyingi asrlarda adabiyot maydonidan chetlashib, unutilib qolgan. Faqat XX asrdan boshlab qayta yuzaga chiqqan. Unutilib qolgan ushbu asarning topilishi va qayta kitobxonlarga taqdim etilishi, adabiyot maydonidan o'z o'rnini egallashiga dastlab taniqli turkshunos olimlardan Najib Osim, Arat Rahmatiytlarning xizmatlari katta bo'lgan. Ular ushbu asarning bir necha qo'lyozmalarini topib, shular asosida qiyosiy matnini tuzish, uni to'liq holga keltirish, ayrim izohlar bilan indeks lug'atini tuzish kabi muhim ishlarni amalga oshirdilar. Shuningdek, Ye.E.Bertels, S.Ye.Malov, F.Kuprillizoda, T.Kavalskiy, J.Denilarning ushbu asar bo'yicha yozgan maxsus maqola va taqrizlari muhim o'rin egallaydi (89/3-16-betlar). Keyinchalik, A.N.Başkakov, A.M.Shcherbaklar ham o'zlarining ba'zi ilmiy ishlarida ushbu asar yozilishi davri bo'yicha fikr bildirganlar. Ushbu asar bo'yicha o'zbek olimlari ham muhim ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar. Ayniqsa, tilshunos olim Q.Mahmudov tomonidan bajarilgan ushbu sohadagi ishlar o'zbek adabiyoti va o'zbek tili tarixini o'rganishda yanada muhimdir. U 1964-yilda «Hibat ul-haqoyiq» tilining fonetik va morfologik xususiyatlari» nomli nomzodlik dissertatsiyasini yozdi, 1972-yilda «Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asari haqida» nomli monografiyasini nashr ettirdi. Uning ushbu ilmiy tadqiqotlarida Ahmad Yugnakiy va uning asari haqida ancha mukammal ma'lumotlar berilgan. Ayniqsa, olimning monografiyasida «Hibat ul-haqoyiq» asaridagi til materialining fonetikasi, morfologiyasi tahlil etilishi bilan bir qatorda arab yozuvdagi tanqidiy (qiyosiy) matni, transkripsiyasi, sharh va lug'ati berilganligi o'zbek tilining tarixiy jihatini, tarixiy grammatikasini belgilash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ahmad Yugnakiyning tarjimai holi va asarining yozilish sanasi kabilar haqida aniq va to'liq ma'lumotlar yetishmaydi. Faqat «Hibat ul-haqoyiq» asari va adib haqida ba'zi bir qisqacha ma'lumotlar berilganligi ma'lum, xolos. Chunonchi, adibning ismi Adib Ahmad, otasining oti Mahmud Yugnakiy, tug'ilgan yeri Yugnak shahri ekanligi asarda quyidagicha yozilgan:

235 — *Adib Ahmad atim-adab, pand sözum,*
 237 — *Анын, ush chыqartым bu turkcha kitab,*
 247 — *Adibның yeri atı Yugnek erur.*
 248— *Атасың аты Маһмудий Yugnekiy,*
Adib Ahmad og'ly yoq ol hech shaki (89 / 230-231-betlar).

«Hibat ul-haqoyiq»da adib tug'ma ko'r ekanligi va asar 14 bobdan tashkil topganligi, shoir o'z davrining yetuk adibi va fozillaridan bo'lganligi ham qayd etilgan:

243— *Tug'a körmes erdi adibning közi,*
Tuzettim bu o'n tort bab ichre sözi.
 245.— *Adiblar adyibiы fazillar bashы,*
Gohartin söz aymış azın söz bishi.

Darhaqiqat, adibning ko'zi ko'r bo'lsa-da, she'riyat maydonida sog'lom va mashhur ijodkor sifatida tanila olgan. Uning asari hammaga manzur bo'lgan. Shuning uchun ham Navoiy Adibning ko'zi ko'r bo'lsa-da, qalb ko'zi ochiq, sog' kishilarga nisbatan ravshan, tushunarli edi, deb yozgan. Shu kabi turkiy qavmiga taalluqli bo'lib, turkcha she'r aytishda nihoyatda mohir bo'lganligini ta'kidlaydi (89/10-bet). Demak, Alisher Navoiydek so'z san'atkorining nazariga tushgan va unga manzur bo'lgan «Hibat ul-haqoyiq» asari Ahmad Yugnakiyning turkiy tildagi badiiy ijodi naqadar buyukligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, umumturkiy adabiy tilining jonkuyar asoschisi Mahmud Koshg'ariy tomonidan «turkiy yozuv» deb atalgan (va uyg'urlar orasida ancha keng tarqalganligi sababli

keyinchalik uyg'ur yozuvi nomi bilan mashhur bo'lgan) alifbo Ahmad Yugnakiy davrida Sharqiy Turkistonda ancha keng, jumladan, Movarounnahrda ham qo'llanilar edi. Shuning uchun ham adib o'z asarini dastavval qoshg'ar tilida yozilganligini, ya'ni turkiy tilda, turkiy yozuvda bitilganligini ta'kidlagan. Bu fikrni adib tomonidan aytilgan quyidagi misralar to'liq tasdiqlaydi:

237. *Анын уш чықартым бу туркча kitab,
Kerek qil teb ey dost kerek qil itab (230-bet).*

Ammo so'nggi davr ilmiy manbalarida «Qutadg'u bilig» va «Devonu lug'otit turk» asari kabi «Hibat ul-haqoyiq»ni ham uyg'ur tilida yozilgan deb g'ayriilmiy fikrlar qayd etilgan. Jumladan, A.M.Shcherbak asar yozilgan joy Yugnak shahrining geografik o'rni, davri, tili va qoshg'ar shahrining o'sha vaqtdagi etnik tarkibi, tarixiy sharoitiga e'tibor bermasdan, muallifning o'zi «qashg'ar» tilida yozilgan deb aytganligini dalil qilib, «Hibat ul-haqoyiq»ni uyg'ur tilida yozilgan deb noto'g'ri xulosa chiqaradi. Balki, qadimgi turkiy yozuv boshqa turkiy elatlarga nisbatan, uyg'urlar va mo'g'ullar orasida ancha keng qo'llanilgan, shu sababli uni «qashg'ar yozuvi», «mo'g'o'l xati» da yozdim degan ma'noda aytilgan fikr deb qarash lozim. Chunki muallif «Eger bilse qashg'ar tilini ar kishi, Bilur ol adыbным nekim айтмышы», deb yozgan so'zlaridan uyg'ur yozuvini o'qiy olgan kishi adibning nima haqda yozganini tushunadi, degan ma'no chiqadi. Chunki, turkiy elatlar bir-birining tilini bilgan va tiliga tushungan. Qadimgi turkiy uyg'ur yozuvigina ba'zi qavmlar orasida juda kam qo'llanilganligi sababli adibning asari o'qilishi qiyin bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, yuqorida qayd etganimizdek, muallif o'z asarini «turkcha kitab» deb aniq qilib aytgan (230-bet). Shu sababli, taniqli sharqshunos olim S.Ye.Malov XI–XIII asrlarda yozilgan asarlar qaysi alifboda yozilishidan qat'i nazar, chig'atoy tili (eski o'zbek tili-*U.S.*) uchun ham asos bo'lganligini ta'kidlaydi (89/19-bet).

«Hibat ul-haqoyiq»da adibning tug'ilgan yeri Yugnak shahrining tabiiy sharoiti «**ajab sayohatgoh, dam oladigan, ko'ngil**

yayraydigan sof havо joyligi» haqida qisqacha ma'lumot berilsa-da, bu shaharning qayerda, qaysi hududda joylashgani haqida aniq ma'lumot yo'q. Tarixiy manbalarning ba'zilari, chunonchi, **Ibn Xavqal Ibnul Yaqub kabi olimlar asarlarida Yugnak shahri Samarqand atrofida o'rtnashgan deyiladi.** So'nggi davr olimlari, jumladan, Najib Osim qoraxoniy xonlaridan Sotiq Bug'roxon tomonidan Yugnak shahri qamal qilingani, Ye.E.Bertels Yugnak shahri Farg'ona vodiysida, V.V.Bartold esa Samarqand hududidagi tumanlarning birida joylashgan, degan fikrlarni aytishgan. Shuningdek, Turkiston (Yassi) shahrining 20-25 km sharqi-janubida joylashgan tepalik Yugnak shahrining xarobasi bo'lsa ajab emas kabi har xil ma'lumotlar beriladi (89/14-bet).

Umuman, ko'pchilik ma'lumotlarda Yugnak shahri Samarqand viloyati hududida, deb qaraladi. Asarning yozilish sanasi ham olimlar tomonidan har xil belgilanadi. S.Ye.Malov asar X-XII asrlarda (63/316-bet), N.A.Baskakov XI-XII asrlarda (74/171-bet), A.M.Shcherbak 1480-yilda (90/27-28-betlar), Q.Mahmudov esa XII asr oxiri va XIII asr boshlarida yozilgan (89/173-bet) deb hisoblaydilar. **Biz ham Ahmad Yugnakiyni XII-XIII asrlar oralig'ida Samarqand viloyatida tavallud topgan, asar ham shu davr oralig'ida yozilgan degan fikrga qo'shilamiz.**

«Hibat ul-haqoyiq» asarini qaysi turkiy elatga va uning tiliga mansubligi haqida fikr yuritish uchun tilshunos olim Q.Mahmudov qayd etganidek, avval til materialini har tomonlama (leksik, fonetik va grammatik qurilishi xususiyatlarini) sinchiklab o'rganib chiqish lozim. Shunda asarning qaysi xalq tiliga yaqinligi yoki ko'proq mansubligi ma'lum bo'lishi mumkin. Chunonchi, asarning til materialining leksik, fonetik va grammatik jihatlari bir tomondan «Qutadg'u bilig»ka yaqinlashsa, ikkinchi tomondan, «Qisas ul-anbiyo» (XIII-XIV asrlar yodgorligi)ga o'xshab ketadi (89/16-bet). Qadimgi turkiy tillardagi yodgorliklarni bir necha o'n yillar davomida ilmiy asosda chuqur o'rganib tekshirgan turkshunos olim S.Ye.Malov «bu yodgorliklarning til materiali ko'pchilik turkiy tillarning qadimgi tarixi uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ko'pdan beri turkshunoslar ixtiyorida

uyg'ur yozuviga doir bir qancha yodgorliklar bor... Qat'iy qilib aytganda, ular uyg'ur tilida yozilgan emas. Ular faqat uyg'ur alifbosi bilan yozilgan. O'rta Osiyo chig'atoy tili (eski o'zbek tili)dagi musulmon olamining yodgorliklaridir» kabi fikrni bejiz aytmagan (63/221-222, 316-321-betlar). Chunki XII-XIII asrlar, ayniqsa XII-XIV asrlar yozma yodgorliklari xoh arab yozuvida yozilgan bo'lsin, xoh uyg'ur yozuvida bitilgan bo'lsin ularning tili uyg'ur tilidan farqlangan (bu davrlarda Markaziy Osiyodagi turkiy elatlar orasida) adabiy til sifatida «**chig'atoy tili**» deb atalgan eski o'zbek adabiy tilida bo'lib, uning mavqei yuqori bo'lgan va keng tarqalgan... Shuning uchun ham bu til badiiy adabiy til sifatida ham ancha ta'siri kuchli bo'lgan. Bu til X asrgacha bo'lgan turkiy-uyg'ur tillaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlangan. U davrdagi asarlarning tili XV–XVI asrlar tiliga bog'lanadi. Shuning uchun ham Ye.E.Bertels o'z maqolasida «Hibat ul-haqoyiq» asari qadimgi turkiy adabiy tili (so'nggi bosqichi-*U.S.*)dan eski o'zbek adabiy tiliga o'tishda «ko'prik» vazifasini o'tashini va asardagi leksik, fonetik va grammatik xususiyatlarning o'zaro mushtarakligidan sezish mumkinligini ta'kidlaydi (91/42-bet).

Darhaqiqat, asarning yozilgan o'rni Yugnak shahri Sharqiy Turkistonda emas, balki G'arbiy Turkiston hududida joylashganligi va unda bu yerdagi qabilalar tilining bevosita ta'siri bo'lishi aniq, albatta. Shuning uchun uni bevosita uyg'ur tiliga munosabati kuchli yoki uyg'ur tilida yozilgan deyish to'g'ri kelmaydi. Umuman, qoraxoniylar hukmronligi davrida, ayniqsa, Markaziy Osiyo –Movarounnahr hududi ular hukmronligiga o'tgandan so'ng vujudga kelgan badiiy asarlarning til xususiyatlari qadimgi turkiy til va uyg'ur tilidan leksik, fonetik, grammatik xususiyatlari bilan farqlangan. Ammo ularni uyg'ur yozuvida bitilganligi sababli shartli ravishda uyg'ur tilidagi asarlarga nisbat berish an'anaga aylanib qolgan edi. Shu sababli ham ko'pgina manbalarda Markaziy Osiyoda yaratilgan uyg'ur yozuvidagi asarlar uyg'ur tili yodgorligi sifatida qayd etilgan.

Xullas, Ahmad Yugnakiy va uning asari bu yoki u elatning tiliga to'liq mos kelishi masalasini munozara qilish bizningcha o'rinsizdir. Chunki o'sha davrlardagi asarlar tilida

umumturkiy til xususiyatlari mavjud bo'lib, u so'nggi davrlarda ham davom etgan. Chunonchi, qorluq, chigil, o'g'uz, uyg'ur, qipchoq, yag'mo va boshqa qabila-elatlar tili G'arbiy yoki Sharqiy adabiy-badiiy muhitning shakllanishida so'zsiz qatnashgan. Xuddi shuningdek, qoraxoniylar davrida tashkil topgan adabiy-badiiy muhit eski o'zbek tilida qay darajada o'z aksini topgan bo'lsa, uyg'ur tilining rivojlanishida ham o'shanchalik ta'siri bo'lgan.

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, qoraxoniylar sulolasi o'g'uz qabila birlashmasidan ajralib chiqqan yag'mo qabilasiga mansub bo'lgan. Yag'mo qabilasi tilida so'zlashuvchi elatlarni «**Xoqoniya avlodi**» deb qaralgan. Agar u davr adabiy tilini «**Xoqoniya tili**»ga nisbat berilsa, u til tor doiradagi til ma'nosini bildiradi. Aslida esa qoraxoniylar davri adabiy tili sifatida «**Xoqoniya tili**»ni emas, balki, **chigil** guruhidagi qabilalar tili ko'rsatilsa to'g'riroq bo'ladi. Chunki, chigillar O'rta Osiyoda eng qadimiy va yirik qabilalardan biri bo'lib, ularning tili katta hududga tarqalgan.

Mahmud Koshg'ariyning ma'lumotiga ko'ra, bu qabila uch yirik qabiladan tashkil topgan. Ular Iskandar Zulqarnayn yurishlari davrida ham bo'lgan. Bu qabila ittifoqiga kirgan qabilalar Movarounnahrda Xitoy(Sharqiy Turkiston)gacha bo'lgan hududlarda yashaganlar. Amudaryo bo'ylaridan tortib Yuqori Chinga qadar hududlarda yashagan qabilalarning ko'pchiligi chigillardan iborat bo'lgan. Mahmud Koshg'ariy devonida o'g'uz va turk-chigil qabilalar tilining lahjalari ko'proq tilga olinadi. XI asrdan boshlab badiiy asarlarda ham ko'proq chigil qabilalari tili ustun bo'lgan. Bu qabila XIV asrlardan so'ng ham nufuzli qabilalardan hisoblangan. Chunonchi, Alisher Navoiy Iskandar Zulqarnayn yurishida qatnashgan Movarounnahrda chigil, yag'mo kabi qabilalarning nomlarinigina tilga olganligi (42/669-bet), Muhammad Solihning «Shayboniyнома»sida Shayboniyxon va Bobur lashkarlari safida **chigil(chug'ul)** va **yag'mo** urug'lari bo'lganligi (49/165-177-betlar), hozir ham o'zbek urug'lari nomlari qatorida dialekt va shevalarda **chug'ul/chuvulloq/chug'uloq** shakllarda G'allaorol tumanida uchraydi. Demak, chigil qabila-urug'larining qadimiy va nufuzli ekanligidan

ko'pgina qabilalar ular ittifoqiga kirgan va shu bois qoraxoniylar davri umumturkiy adabiy tilining shakllanishida yetakchi o'rinlarni egallashgan.

Qoraxoniylar hukmronligi davrida, qadimgi uyg'urlar Xitoy chegarasiga (o'sha asrlarga nisbatan) yaqin **Sulmi, Kuju, Jonbaliq va Yangibaliq** degan shaharlarda va uning atroflarida yashaganlar. Uyg'urlarning nomini ham o'sha vaqtlarga nisbatan faqat Koshg'ar shahri bilan bog'liq qilib qo'yish to'g'ri kelmaydi. Har holda «Devonu lug'otit turk», «Qutadg'u bilig» kabi, «Hibat ul-haqoyiq», «Qisas ul-anbiyo» va boshqa asarlar O'rta Osiyoda yashagan barcha turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining ota-bobolari tomonidan ijod qilingan (89-20-betlar), deb qarash eng to'g'ri fikrdir. Shunga binoan, «Hibat ul-haqoyiq» asarini eski o'zbek tilining ilk davrlari yodgorligi sifatida uning til materialini o'rganish, o'zbek adabiy tilining taraqqiyot jarayonini belgilash uchun tarixiy manbalardan biri deb hisoblaymiz.

«Hibat ul-haqoyiq» til materialining fonetik xususiyatlari eski o'zbek tili fonetik qurilishiga mos keladi. Jumladan, turkiy tillarda qadimdan mavjud bo'lgan unlilar uyg'unligining — singarmonizm qonunining amalda bo'lishi, shu asosda **9 unli** fonemasi mavjudligi va undoshlarning deyarli barcha xususiyatlari eski o'zbek tili bilan mushtarakdir. Ammo ba'zi bir o'ziga xos xususiyatlari bilan XIV asrdagi so'nggi eski o'zbek adabiy tilidan farqlanadi. Chunonchi, «e» unlisining til orqa «q, g', x» undoshlari bilan yonma-yon kelishi qoidaga muvofiq emasligi, birinchi bo'g'inda «e» unlisi iste'moldan chiqqan yoki ilk qadimgi turkiy tilga xos so'zlarda uchrashi: **erem** — odob, xulq; **ediz** — ko'p, sanoqsiz; **edregen/edregen** — to'plagan, **belek** (26-27-betlar) kabi'. Ammo asardagi til oldi «e» unlisi birinchi bo'g'inda kuchsiz holatga ega bo'lib, «e»(ye) tovushi talaffuziga moyildir. Shuning uchun bu unli keyingi bo'g'inlarda «e»(ye) tarzda, ya'ni eski o'zbek tilidagidek, mustaqil fonema sifatida talaffuz etiladi. Demak, bu hodisa o'sha davr adabiy tilida «e» tovushining mustaqil — yangi fonema sifatida vujudga kelganligidan

¹Q. Mahmudov, «Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asari haqida» (89), olingan misollar va betlar shu manba asosidadir.

darak beradi. Asar tilidagi bu xususiyat, qadimgi turkiy va eski o'zbek adabiy tili davrlari tilini bog'laydi. Shuningdek, singarmonizm qonuni, ya'ni, asosan unli tovushlarning talaffuz me'yorini belgilovchi qoidaning asar tilida amal qilishi va ba'zan, ayniqsa, arab, fors kabi o'zga tillardan o'zlashgan so'zlarda bu qonunning buzilishi (89/42-betlar), har ikki davr tiliga xos holatni eslatadi. Masalan,

*130. Sevumek tileseñ kishiler ara,
Ahyi bol ahyılık seni sevdurur (224-bet).*

Ushbu misralarda unlilar talaffuzi singarmonizm qonuniga mos holda yo'nalganini ko'rish mumkin. O'sha davrdagi boshqa yozma yodgorliklarida bo'lganidek, asar tilidagi qadimgi «y» undoshi o'rnida «z» undoshining qo'llanish hollari ham uchraydi: **qazgu** — qayg'u (213-229-bet), **kezim** — kiyim (84-222-bet), **kedzin** — keyin (179-222-bet), **qozi** — qo'yi (141-223-bet), **azaqqa** — oyoqqa (228-230-bet), **ediz/eziz** — baland, buyuk (25-30-219-bet), **qozub** — qo'yib (24-222-bet) kabilar. Asarda XI–XIII asrlar tiliga xos bo'lgan sonor tovushlardan so'ng jarangli «d» undoshiga o'tish hodisasi ham uchraydi. **Ezguşindin** (189-228-bet), **tökuldi** (72 – 221-bet), **tilindin** (71 – 221-bet), **qoldi** (101-223-bet), **kendu** (203-228-bet), **tendeçhi** (229-230-bet) kabi. Ammo asarda «d» o'rnida «t» qo'llanilishi ancha ustun; bilan «t» yondosh kelganda, ba'zan sonorlardan so'ng ham «d» o'rnida «t» undoshi qo'llanilgan. Ayniqsa, chiqish kelishigining qo'shimchasi ba'zi hollardagina **-dın/din** shaklda qo'llanilgan bo'lsa-da, asosan, hamma o'rinlarda «t» undoshi bilan (ya'ni **-tın/tin** shaklda) qo'llaniladi. Umuman, ushbu asar o'z davridagi boshqa asarlarga nisbatan fonetik jihatdan qadimgi turkiy tilga xos bo'lgan ba'zi bir xususiyatlardan qat'i nazar eski o'zbek adabiy tiliga ancha yaqin turadi. Bu xususiyatni asarning morfologik jihatlarida kuzatish mumkin.

Asarda qadimgi turkiy tilga xos bo'lgan ba'zi grammatik vositalar tamoman qo'llanilmaydi. Jumladan, jo'nalish kelishigining **-qaru/g'aru, keru-geru** shakllari qo'llanilmaydi, asosan, **-ga/ge, -ka/ke, -g'a/qa, -e/a** shakllari qo'llanilgan.

Vosita kelishigi o'z ma'nosini yo'qotgan, iste'moldan chiqqan. Tushum kelishigining qadimgi **-ug'/ug'** shakli boshqa asarlarga nisbatan ancha keng qo'llanilgan, ammo asosan **-ny/ni**, **-un/un** shakllari kam ishlatiladi.

Asarda sifatdoshning qadimgi **-tachy/techy**, **-dachy/dechy**, **-tendachy** — taqdirlovchi (229-230-bet), **qaydachyq'a** — qiluvchiga (164-226-bet) kabi; **-g'ly/gli**: **oqug'li** (39-220-bet), **berigli** (232-230-bet) kabi; **-dug'/dug'**: **keltug'uncha** — kelguncha (270-bet), **turdugun** — tutganing (218-229-bet), **-g'u/qu,-ku/gu**: **og'lag'u** — ovlaydigan (107-223-bet), **kelgu** — keladigan (116-224-bet) kabi shakllari sanoqli o'rinlarda uchraydi. Aksincha, **-gan/g'an** affiksli sifatdoshlar unumli qo'llaniladi. Shu kabi asarda fe'lining **atquchy** — otadigan, otuvchi (76-222-bet), **umg'uchy** — umid qiluvchi, umidvor (106-223-bet), **kesguchi** (182-227-bet), **og'guchi** — buyuruvchi, tarqatuvchi, maqtovchi (225-229-bet), **ayurmen** — aytaman (127-bet) **sözleyur** — so'zlaydi (127-bet); **barg'usi** — boradigan (128-bet), **yatyban** (138-225-bet), **bildurur** — bildiradi (54-221-bet), **artturur** — orttiradi (129-224-bet) kabi shakllari ham qo'llanilgan. Bu xususiyatlar eski o'zbek tiliga ham xosdir.

Asar tilida qo'llanilgan olmoshlardan **kendu** (203-228-bet), **munar** (224-229-bet), **ajar** (128-224-bet), **qamug'** (74-222-bet), **negu** (65-221-bet), **neluk** (198-228-bet), **ar** — har (251-231-bet), **qayu** — qayerda (118-224-bet) kabi qadimgi tilga xos xususiyatlar bilan birlikda **men** (136-224-bet), **sen** (114-223-bet), **ol** (ul) **-u** (138-225-bet), **oshul** (229-231-bet), **hech** (248-251-bet), **qayda**, **bu**, **qany**, **kim** (210-229-bet), **necha** (87-222-bet) kabi eski o'zbek tiliga mos shakllari ham keng qo'llanilgan.

Asarda son so'z turkumining **iki qol dinarny ol on qol qylur** — u ikki (dona) hovuch dinarni o'n (dona) hovuch qiladi (156-226-bet), **bir** (77-222-bet), **iki** — eki (77-222-bet), **ikinch** (78-222-bet), **tort** (18-219-bet), **min** (131-228-bet), **mindan biri** — mingdan biri (102-203-bet), **tortilanch** (17-219-bet) kabi shakllari qo'llanilgan.

Asarda sifat va ravish darajalarini ifodalashda **«-raq/-rek»** qo'shimchasi qo'llanilgan hamda belgi-xususiyatni o'xshatish, qiyoslashda qadimgi turkiy tilga xos **«-dek»** qo'shimchasining **«-tek»** shakli ham uchraydi: **vafasizraq** (221-229-bet), **skushrek**

(219-229-bet); **Simektin edizrek tutar himmat ol** — u Simat yulduzidan balandroq himmatga ega (25-213-bet); **Salabat ichinde Umartek juvan** (27-219-bet) kabi. Asarda qo'llanilgan sifatlar va ravishlarning ifodalanishi eski o'zbek tilidan deyarli farqlanmaydi. Jumladan, farqli jihatlari ham bor: **koni** — to'g'ri, **telim** — ko'p; **ediz** — ko'p sonsiz, yuksak; **orun** — oq, nurli porloq; **ary**, **aryq** — toza, **tuz** — tuzun — tuzuk, to'g'ri, yaxshi kabi qadimgi turkiy tilga xos so'zlar asarda sifat va ravish turkumi ma'nolarini ifodalab kelgan. Shuningdek, eski va hozirgi tilimizdagidan farq qilmaydigan belgi-xususiyat bildiruvchi **«Qyzyl, ulug', ken, -yaqyn, ozuq — uzoq, achyq, suchuk»** kabi so'zlar ham qo'llanilgan (105, 106-betlar).

Asarda qo'llanilgan yordamchi so'zlar shakl va ma'no jihatdan XI–XIV asrlar tiliga mos keladi. Shu sababli ular boshqa so'z turkumlari kabi bir tomondan eskirgan shaklda (qadimgi tilga xos), ikkinchi tomondan yangi shakllarda qo'llanilganligini kuzatamiz. Chunonchi: **«taba, tabaru — sari, tomon; uza, uzele — uzra, sari; kendin/kezindin — keyindin; on — oldin** (170-bet) kabi qadimgi turkiy tilga xos va **ara — ora; ichra, birle, bile, uchun, so'ng** (108-109-betlar) kabi ko'makchi vazifasida qo'llanilgan so'zlar eski o'zbek adabiy tilida ham mavjud. Asarda qo'llanilgan bog'lovchilardan **-ma/me)-ham, va, yoki, yo** **«ne, ne,.... ne (na), yo, yoki, yoxud qaly/xaly (agar ma'nosida), ham, va, lekin, birle, kim** (171-bet) kabi shakllari eski turkiy va eski o'zbek tiliga ham mos keladi. Asarda **-ma/me, -muu/muu, -muv/muv, -mi (so'roq), -da/de, oq(ta'kid); -tek(qiyoslash, o'xshatish)** kabi ma'nolaridagi yuklamalar (122-bet) qo'llanilgan. Undovlardan **«ey»** (53-220 bet), ayniqsa **«aya»** (ayo) (123-224-bet) shakli ancha keng qo'llanilgandir.

Asar o'zining leksik xususiyatlari bilan o'sha davrdagi qadimgi turkiy tilning so'nggi bosqichi (eski turkiy) adabiy tilining lug'aviy so'z boyligini aks ettiradi. Hamma uchun tushunarli, sodda, qo'shma, yasama kabi umumturkiy so'zlar asar lug'atining asosini tashkil etadi. Chunonchi, az-oz. **azuq — ozuq-ovqat, ayaz — ayoq, ayt, al — ol, ana — ona, ata — ota, artuq — ortyq, arslon, at — ot, atly, achyq, ash — osh, ag'yz — og'iz, ezgu, el — el, xalq, em—davo, baylyq — boylik, barlyq, bash, bezak, bek, berk, boz, deniz/teniz—**

dengiz, dil-til, ich, ish, yavuz, yalg'an, yana, yani, yarag'liq, yaqyn, yigit, yiraq, yumshaq, yuz (bet), yo'q, yut, kir, kichik, kishi, sach, sanch, sag', sevlmek, silyiq, sir, suchuk, tavar, tansyiq, tetik, tiken, til, tirik, uzun, uyat, ulug', ushaq, chyn, chyqar, ot - o't, oq - o'q, ot - o'tmoq, qari - keksa, qul, kuch, qush, qol - qo'l kabi ko'plab so'zlar hozirgi tilimizga to'liq mos keladi. Ushbu qayd etilganlar qatori yana umumturkiy tilga xos - artaq/artag' - buzoq; arqytsh - karvon; asyiq/asyg' - foyda achun - dunyo, olam; aqyr - hurmat; og'ar, eva - tez, shoshqin; edra - to'plamoq, eksil - kamaymoq, qisqarmoq; ertem - adab, fazilat; belek - sovg'a; buzun - xalq, el, bush - achchiq, g'azab, ich - kasal, izi - xudo, egam, yazuq - gunoh; yaryn - erta, u dunyo, qiyomat; yag'an - fil; yeg yig - yaxshi, kez - juda, yaxshi, kizle - yashirmoq, mun - tub, asos, yanglishmoq, ozmoq; sarng'u - yopinchiq, kafan; saqynch - qayg'u, hasrat, saqysh/saqyn - o'y, fikr, mulohaza; ser - sabr qilmoq; seren - chetlanmoq, tortinmoq; son - g'arb, so'ng, oxir, chap, so'l, tarx - don, terk - tez, tezlik; tona - qo'rqmas, bahodir, botir, bayat - xudo; ubut - uyat, nomus, oriyat, uzun - uyg'onmoq, ahmoq, tuban; uya - avlod, ajdod; uchuz - arzon, jo'n; ug'an - xudo, cher - tuzmoq, saflamoq; yozmoq optan - uyalmoq, nomus qilmoq; oram - ko'cha; qaly - agar; qach - ko'p; qyz - qimmat, qocha - qari, keksa kabi so'zlar ham keng o'rin olgan. Shuningdek, asarda arab-fors tiliga xos o'zlashma so'zlar ancha keng qo'llanilgan, hatto lug'atdagi alifbo tartibidagi so'zlarning bir guruhi faqat arab-fors(asosan, arab) tiliga xosdir. Masalan, lug'atdagi **v, ch, j, z, p, r, g', x, sh, h** kabi harflar bilan boshlangan so'zlar deyarli hammasi arab-fors tiliga xosdir. Asarda qo'llanilgan adab, adib, alim - olim, oshkora, amanat, amir, asal, baxt, bayt, baxil, vafa - vafu, gul, davlat, dona - dono, darmon, dunya, dushman, do'st, javr-jabr, jan, jon, zamon, zar, zahar, zikr, zinhor, ibadat, kissa - cho'ntak libas - libos, lazzat, maydon, masal, masjyd, mijaz, muddat, navbat, nafis, niqab, raqs, rohat, sabab, savab, salam, sandug' - sanduq, takabbur, umr, ukm - hukm, fazilyat, xabar, xalq, xata - xato, xislat.

shakar, g'azab, g'arib, hasrat, haq, hunar kabi qadimdan o'zlashgan so'zlar shular jumlasidandir.

Bu so'zlar eski va hozirgi tilimiz lug'atida o'zlashib qolgan hamda ko'pchilik uchun tushunarlidir. Hammaga tushunarli so'zlar bilan bir qatorda ko'pchilikka tushunilishi qiyin bo'lgan arab-forscha so'zlar ham asarda mavjud. Masalan, vudd/vird (**a**) - sevgi, muhabbat; jod (**a**) - saxiy; gostax (**f**) - qo'pol, odobsiz; basal (**a**) - piyoz, jah (**a**) - amal, martaba; jumat (**a**) - jonsiz tabiat; inad (**a**) - qaysarlik; kuzaf (**a**) - yolg'on, yovuv; qavi (**a**) - kuchli kabi arabcha-forscha so'zlar shular jumlasidandir.

Asarda fors tiliga nisbatan arabcha so'zlar ko'p qo'llanilgan. O'rni bilan ta'kidlash lozimki, asar leksikasidagi ba'zi bir so'z shakllari hozirgi o'zbek tili shevalarida uchraydi. Masalan, aram - harom, azil - hazil, adya - hadya, alal - halol, yid - hid, ukm - hukm, unar - hunar, ыsab - hisob, aq - haq, dil - til, juvab - javob, yavu - yavuq (yaqin), yit - yitmoq, yo'qolmoq, yılan - ilon, kedin - keyin, kissa - cho'ntak, uzaroq - uzoqroq, xoy(qoy - qo'y, ugret - o'rgat, haza) aza - motam, qaza - qazo, o'lim, emdi - endi, egri - qiyshiq, egilgan kabilar. Jumladan, Jizzax shevasida «**kedin**» so'zi «**ketin**» shaklda keyin ma'nosida, «**kissa**» so'zi Samarqand-Buxoro tipli shevalarda «**kista**» shaklda «**cho'ntak**» ma'nosida qo'llaniladi va boshqa so'zlarni ham xuddi shunday izohlash mumkin. Asar leksikasida eski o'zbek tiliga xos so'zlar ko'plab uchraydi. Masalan, **asyiq** (foyda), **ag'u** (zahar), **egu** (yaxshi), **elik** - qo'l, **elin** (peshona, manglay); **emgak** (mehnat), **en**(yuz, bet, yanoq), **bilik**(bilim, ilm); **bile**, **birle**, **biti**(bitmoq), **burk**(bo'rk, bosh kiyimi), **valekin**; **dinar**, **dunya**, **yazuq**, **yag'ы**(yov, dushman); **munы** - buni, **muncha** - bunga; **rabat** - rabot-ko'cha; **so'nek** (so'ngak, suyak); **tuz**(tekis, to'g'ri), har, **hich**(hech) kabilar¹.

Demak, yuqoridagidek leksik xususiyatlardan ko'rinadiki, eski turkiy adabiy tilning turli shevalari/qabilalar tili/hisobiga

¹Misolalar asar asosida tuzilgan lug'at qismidan olindi. 247-299-betlar.

va arabcha-forscha soʻzlarni oʻzlashtirish yoʻli bilan taraqqiy etganligini, umumturkiy adabiy tilning yangicha shakllangan jarayonini koʻrsatadi.

Xullas, «Hibat ul-haqoyiq» asari leksik, fonetik va grammatik jihatdan birinchi navbatda X–XII asrlarda qoʻllangan turkiy adabiy tilning barcha xususiyatlarini aks ettiradi, umumturkiy qabila tillarining ancha rivojlanganligini, maʼlum tizimga kela boshlaganligini koʻrsatadi. Shu bilan birga bu asar oʻzining til xususiyatlarida maʼlum tafovut va farq boʻlishiga qaramay, koʻp jihatdan XIII–XIV asrlarda yozilgan asarlarning tili bilan umumiylikka ega. Ayni vaqtda, bu asar orqali umumturkiy adabiy tilning soʻnggi bosqichi, yaʼni eski turkiy adabiy tilidan eski oʻzbek tiliga oʻtishda katta qadam qoʻyilganligini ham aniq bilib olish mumkin boʻladi. Xususan, bu asar oʻsha davrdagi turkiy qabila tillarining oʻzaro yaqin munosabatini, ularning rivojlanishi natijasida dastlab oʻzbek xalq tilining tashkil topishi tezlashganligini, shuningdek, boshqa turkiy elat tillarining shakllanish jarayoni davom etayotganligini tasdiqlaydi. Umuman, qayd etilgan asarning til materiallaridan koʻrinib turibdiki, u Koshgʻardan to Xurosongacha boʻlgan turkiy elatlar tilini oʻzida aks ettirgan va hammaga manzur boʻlgan. Jumladan, Alisher Navoiy oʻzining «Nasoyim ul-muhabbat» asarida «Hibat ul-haqoyiq»ning muallifi Adib Ahmad Yugnakiy ijodini ulugʻlab bunday yozadi: **«Va aning tili turk alfozi bila mavoiz va nasoikka goʻyo er-mish. Keyli elning muqtadosi ermish. Balki aksar turk ulusida hikmat va nuqtalari shoyeʼdur»** va uning quyidagi baytini keltiradi (misralarda qisman oʻzgarish bor):

*45 . Sonekke yilik tek eranga bilik,
Eran körki aql, ol ssneknin yilik (92/157-bet).*

(Soʻngakda ilik boʻlishi lozim ekanligi kabi er kishiga bilim kerakdir. Er kishining koʻrki aqlidir, soʻngakning koʻrki esa ilikdir).

Demak, Ahmad Yugnakiy va uning «Hibat ul-haqoyiq» asari Sharqiy Turkistondagina emas, balki Movarounnahr, Xuroson va boshqa yerlarda ham mashhur boʻlgan. Uning asari

til jihatdan barcha turkiy elatlarga tushunarli boʻlib, sevib oʻqilgan, shuning uchun Alisher Navoiy davrida ham oʻz taʼsirini saqlab kelgan.

Eski oʻzbek adabiy tili tarixiy taraqqiyotining ilk bosqichlariga oid asarlardan biri **Ahmad Yassaviyning «Hikmat» nomi bilan yuritilgan sheʼrlar toʻplami** hisoblanadi. Bu sheʼrlar toʻplami adabiy muhitda «Devoni hikmat» nomi bilan mashhur boʻlib kelgan. Afsuski, koʻpgina oʻtmish yodgorliklari qatori «Devoni hikmat» asari ham soʻnggi davrlarda (ayniqsa, inqilob tufayli vujudga kelgan sobiq ittifoq davrida) adabiy muhitdan chetda qolib, unutilish holiga tushgan edi. Chunki **milliy** madaniyatga notoʻgʻri qarash, siyosiy koʻrlik tufayli oʻzbek adabiyotshunosligi, jumladan, oʻzbek adabiy tili tarixini oʻrganishda Ahmad Yassaviyga va uning «Hikmat»lariga biryozlama baho berilib kelindi. Ammo endilikda Oʻzbekiston davlatining mustaqillik yoʻlida oʻziga xos demokratik oʻzgarishlar, iqtisodiy, madaniy islohotlarni amalga oshirishda oshkoralik bilan olib borayotgan odilona siyosati natijasida, tarixiy shaxslarga, ularning faoliyatlariga, ijodlariga toʻgʻri yondashilib, Ahmad Yassaviyning ijodi adabiy muhitda oʻz oʻrniga qaytarildi. «Devoni hikmat» sheʼrlar toʻplami birinchi bor mukammal holda oʻzbek tilida qayta-qayta nashr etildi (93 va 94).

Ushbu oʻrinda qayd etish lozimki, adibning shaxsiyati, shaxsiy faoliyatiga oid maʼlumotlar yetarli emas. Uning shaxsiy faoliyati haqida baʼzi manbalarda qisqacha maʼlumotlar berilib, 1 166(562) yilda Yassa/Turkiston/da vafot etganligi qayd etiladi (95/187-bet). Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat»ining toʻplam holiga keltirilish tarixi, yaʼni qachon va kim tomonidan ushbu ish bajarilganligi va undagi sheʼrlarning adib qalamiga mansubligi, til va uslub jihatlarining qadimgi tilga munosabati kabi masalalari haqida ham adabiyotlarda har xil fikrlar mavjud. Darhaqiqat, «Devoni hikmat»ning ilk qoʻlyozma nusxalari bizgacha yetib kelmagan. Uning qisman XV, asosan, XVII asrlarda tartib berilgan bir qator qoʻlyozmalari bizgacha yetib kelgan. XIX asrning ikkinchi yarmida ushbu asar Qozon, Toshkent va Istanbulda bir necha martaba nashr etilganligi maʼlum, xolos. Til va uslub jihatdan «Devoni hikmat»ning

nusxalari bir-biridan katta farqlanadi. Devonga kiritilgan she'rlar to'lig'incha XII asr tiliga mos keladi, deb bo'lmaydi. Shunga qaramay, turk olimi M.F.Kuprilizoda «u o'z xususiyati bilan «Qutadg'u bilig» asariga yaqin turuvchi tilda yozilgan», deb qaraydi. Turkshunos olim A.K.Borovkov ushbu xulosaga fikr bildirib, Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat»i qarluq-chigiluyg'ur lahjasida yozilgan, ammo «Qutadg'u bilig» tiliga yaqinlashmaydi, deb ko'rsatadi. Ayni paytda, olim «Devoni hikmat»ning turli davrlarda turlicha ijodkorlar, xattotlar tomonidan ko'chirilgan nusxalari hamda nashriy nusxalaridagi bir qator farqlarni, o'zgarishlarni hisobga olib, devonga kiritilgan she'rlarning qaysilari bevosita Ahmad Yassaviyga tegishli ekanligini aniqlash qiyin va ularning aslini belgilashga imkon bermaydi, degan fikrlarni ilgari suradi (96/245-248-betlar).

Bizningcha, «Devoni hikmat»ning qayerda, qachon va kim tomonidan ko'chirilganligiga qarab, unda mahalliy shevalarning va ma'lum bir davr tilining unsurlari o'z ifodasini topgan, degan fikrlarda ham har holda asos bor, albatta. Shunga ko'ra, ilmiy adabiyotlarda «Devoni hikmat»ning birorta nusxasi ham XII asr o'zbek tilining yodgorligi bo'la olmaydi, u o'z davrining til xususiyatini aks ettirmaydi, u tildan-tilga, kitobdan-kitobga o'tib borish jarayonida til jihatidan allaqachon o'zgargan yoki zamonaviylashib borgan, degan fikrlar ilgari surilar edi (77/20-bet 95/187-bet; 97/45-bet kabi). Lekin, bu masalada, avvalo shuni eslatish kerakki, turk olimi M.F.Kuprilizodaning «Devoni hikmat»dagi she'rlar «Qutadg'u bilig» asariga yaqin turuvchi tilda yozilgan, deyishiga ham asos bor. Chunki XII asrdan boshlab adabiy-badiiy tilda, jumladan, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», ayniqsa, Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» va Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat» asarlaridan boshlab xalqchillik, soddalik, omma tushunadigan tilda yozishga intilish kuchaygan edi.

Ta'kidlash lozimki, adib Ahmad Yassaviy ham Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariylar kabi o'sha davr-lardagi turkiy tilni ulug'lovchi, uning taraqqiyoti va mavqe-i uchun kurashuvchi ijodkorlardan biri bo'lgan. Zamonasi-

da turkiy tilni mensimay qarovchi ba'zi olimlar va shariat namoyandalari borligidan achinib, ularni qoralagan. Jumladan, quyidagi hikmatida turkiy tilni ulug'lab yozadi:

*Xushlamaydur olimlar sizni oyg'an turkiyni,
Oriflardan eshitsang ochar ko'ngil mulkini.
Oyat, hadis ma'nosi turkiy bo'lsa muvofiq,
Ma'nosiga yetganlar yerga qo'yor bo'rkini.
Qoziy, muftiy, mullalar shariatda rohni,
Orif oshiq olibdur tariqatni arkini.
Amal qilgan olimlar dinimizni chirog'i,
Biroq, minar mahsharda egri qo'yor bo'rkini.
Amal qilsa olimlar dinu oyin yoruqi,
Ko'rsa bo'lur alarni rangi-ro'yi ko'rkini.
Miskin zaif hoja Ahmad, yetti pushtinga rahmat,
Forsiy tilni bilibon xub aytadur turkiyni (193-bet).*

Turkigo'y shoir turkiy tilni ardoqlab, ulug'labgina qolmay, uning so'z boyligini zo'r mahorat bilan namoyish etgan, so'z ma'nolarining barcha qirralarini yoritishga harakat qilgan. Jumladan, u so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra xususiyatlaridan o'rinli foydalana olgan:

*Ummatlarim yozuklarin har juma kech,
Olib kelgay, yo Muhammad, sen muni chech,
Toki yig'lab sajda aylay, tangriga kech,
Mustafoga motam tutib kirdim mano (31-bet).*

Ushbu to'rtlikning birinchisida «kech» so'zi kechqurun, oqshom ma'nosida, uchinchi misrasida esa omonim shaklidagi «bag'ishlamoq» yoki (tangri uchun) «kechmoq» ma'nosida qo'llanilgan.

Hikmatlarda doyim, mudom (107-bet), kuymoq, yonmoq (181-bet), yolg'iz, yakka, yagona (190-bet), ilik, qo'l (190-bet) kabi ma'nodosh so'zlardan (sinonimlardan) keng foydalanilgan:

Qo'l-oyog'ing mahkam bug'ub, amrin tutgil (187-bet).

Men berkitsam ilk-oyoq, jumla guvoh (190-bet) kabi.

Ayniqsa, ba'zi bir misralarda sinonim so'zlardan ma'noni kuchaytirish maqsadida qo'shaloq holda qo'llash usuli keng foydalanilgan:

Ham yakkasen, yagonasen, beshak hozir (190-bet),

Axgar bo'lib, kuyib-yonib uchtim mano (22-bet).

Ushbu sinonim so'zlar alohida holda ham qo'llanilgan, albatta:

Oshiq kuysa, xos ma'shuqi birga kuygay (183-bet).

Asarda «yig'lamoq» ma'nosini ifodalashda so'zlashuv tilida qo'llanilgan bir necha so'zlardan mahorat bilan foydalanilgan: «faryod qilmoq» (49-bet), «zor ingramoq» (65-bet), «o'kirmoq» (113-bet), «bo'zlamoq» (161-bet) kabi. Chunonchi:

*Ma'no o'qqan olim tinmay yig'lab erdi,
Yig'lay-yig'lay ko'zlari a'mo bo'ldi (46-bet).*

Ushbu so'nggi misrada «yig'lamoq» fe'li takror qo'llanilib, undagi ma'no yanada kuchaytirilgan, juda ko'p yig'lash/dan ko'zi a'mo — ko'r bo'ldi degan ma'no ifodalangan.

Xalqi olam yig'ildi, Mansur deb faryod qildi (49-bet).

Holim ko'r deb yoshin sochib faryod etar (183-bet).

Ushbu misralardagi «faryod» so'zidan nihoyatda kuchli, aziyat tortib yig'lash anglashiladi.

*Tavba debon tunlar qubib zor ingragil,
Zor yig'lamay diydorini ko'rsa bo'lmas (108-bet).*

Ushbu misralardagi «ingramoq» so'zi ham «yig'lamoqqa» sinonim bo'lib kelgan.

*«Onam» teyu kecha-kunduz yig'layurlar,
Orib qolgan butalardek bo'zlayurlar,
Yetim qolgan qo'zi yonglig' mangrayurlar,
Nolishiga tosh erib suv bo'ldi, ko'ring (138-bet).*

Ushbu to'rtlikdagi «bo'zlamoq», «mangramoq», «nolimoq» so'zlari aziyat chekib «yig'lamoq» ma'nosida, ya'ni «yig'lamoq»ning sinonimi sifatida qo'llanilgan.

Umuman, san'atkor shoir o'z asarida turli toifadagi so'zlarining ma'no xususiyatiga sinchkovlik bilan yondashib, she'riy ustubiyatda o'rni bilan ulardan mohirona foydalana olgan. Shuning uchun ham misralardagi o'xshatish, mubolag'a-bo'rttirish kabi frazeologik xususiyatlar ham («Nolishiga tosh erib suv bo'ldi» kabi) ancha ta'sirli ifodalangan.

Hikmatlarda qarama-qarshi ma'noli va juft so'zlardan ham mohirona foydalana olgan: **Avval-oxir**: *Avval-oxir xublar ketdi, goldi yolg'uz (40-bet)*. **Yaxshi-yomon**: *o'zi fahm etmayin yaxshi-yomonni (197-bet)*. **Ulug'-kichik**: *Ulug'-kichik yo'l borguvchi urub o'tsun (121-bet)*. **Ichi-toshi**: *Alloh desa beshak yorur ichi-toshi (183-bet)*.

Umuman, qarama-qarshi va juft-takroriy so'zlardan asarda unumli foydalanilgan. Jumladan, **soch-soqolim** (61-bet), **ota-ona** (33-bet), **kuyib-pishib** (101-bet), **og'a-ini** (114-bet), **harom-harish** (97-bet) kabilar.

Ayniqsa, so'z ma'nosini yanada kuchaytirishda shoir so'zni takror qo'llash usulidan o'rinli foydalangan. Masalan, **gul-gul** (91-bet), **oyta-oyta** (22-bet), **turluk-turluk** (82-bet), **kel-kel** (117-bet), **qatra-qatra** (154-bet), **alvon-alvon** (55-bet), **bora-bora** (170-bet), **yroq-yiroq** (234-bet) kabilar shular jumlasidandir. Adib so'z qo'llashda uning badiiy bo'yoqdorligiga ancha e'tibor bilan yondashadi. Badiiy til vositalari va ba'zi so'zlardagi o'xshatish, sifatlash, bo'rttirish-mubolag'a ma'nolaridan ham ustalik bilan foydalana olgan. Buning uchun —

tek(dek, -day, -din, -lik kabi, misli, sifat, o'xshash, yanglig'), **yonglig'**, **suvrat** kabi qator so'zlardan badiiy til vositalari sifatida unumli foydalangan: **-tek/dek,-day**; *Yunustek daryo ichra baliq bo'lsam, Yaqubtek Yusuf uchun zor ingrasam* (155-bet). *Bargi guldek so'lub, tuzub sochilganlar* (162-bet). *Qanot qoqar uchar qushdek ko'nglum maning* (145-bet). *Yozi-qishin bulbuldayin vola bo'lib* (79-bet). *Oshiqlarday doyim-mudom haqni izlar* (107-bet). *Boldin tatlig' erur menga bu mehnati* (53-bet); **Misli**: *Nafsi uluq, ko'ngli tirik, misli malak* (109-bet). *Chin ummatni rangi misli somon erur* (89-bet) **kabi**: *Muhabbatni bo'stonga bulbul kabi* (104-bet), **yonglig'**: *Asal yonglig' suchuk bo'lur tilim maning, Buloq yonglig' o'qar ko'zdin yoshim maning* (145-bet); **suvrat**: *himmat qilib atoga it suvratlik bo'ldiyo* (46-bet); **sifat**: *Yo'l ustida tufroq sifat yo'li bo'lsam* (160-bet) kabilar. Shuningdek:

*Jondin ortuq ko'rgan janonalar,
Yuzi oy, ko'zi cho'lpon mastonalar,
Bo'ylarini hech ko'rmagan begonalar* (138-bet).

*Omi kelsa xas bo'lur, yulduz kelsa oy bo'lur,
Mis kelsa oltun bo'lur darvishlar suhbatidin* (178-bet)

kabi misralardagi mubolag'ali o'xshatishlar va

*Qoling chirog', holing pilta, yog'i yoshing,
Necha aytsam bahra olmas ko'ngli toshing* (68-bet).

Dehqon ermas ketmon chobib non bermasa (64-bet).
To mashaqqat tortmaguncha vasli qayda.

Xizmat qilmay, dardi holat bo'lmas paydo (31-bet).
Ko'ngli qattig', dil ozordin Xudo bezor (22-bet)

kabi xalq tiliga yaqin maqol va hikmatlar ham qo'llanilganki, bu esa shoirning badiiy til uslubiyatida ancha yuksak mahoratga egaligini ko'rsatadi.

Aytilganlar qatorida ta'kidlash lozimki, shoir ba'zan qo'pol-dag'al so'zlardan fikr ta'sirchanligini yanada oshirish uchun o'rinli foydalana olgan: **harom**, **rasvo** (32-bet), **zahri-zaqqum** (47-bet), **tavqi la'nat** (47-bet), **murdor** (54-bet), **badkirdor** (57-bet), **hayvon** (72-bet), **it nafsi** (26-bet), **sharmanda** (112-bet), **devona** (112-bet), **nopok** (158-bet) kabi so'zlar shular jumlasindandir. Chunonchi:

*Bu dunyoni izzatidin o'tmaganlar,
Hayvon erur, balki andin battar erur* (72-bet).

It nafsi uchun bandaga qon tutmasa behroq (126-bet).
Quloq tutmay ul ikkisi o'ldi murdor (58-bet)

kabilardan ko'rinib turibdiki, Ahmad Yassaviy mohir so'z san'atkori sifatida o'z asarida **xalq** so'zlashuv tili uslubidan, xalq og'zaki ijodi janridan mohirlik bilan foydalana olgan. Shuning uchun ham adib o'z zamondoshlaridan ancha ilgari ketgan va adabiy-badiiy ijodda til jihatdan xalqchilikni ta'minlashda tengi yo'q ijodkorlardan biri bo'la oldi. Xalqqa yaqin bo'lish uchun xalq tilida so'zlash lozimligini idrok eta olgan adib, xalq og'zaki ijodi uslubi orqali o'z hikmatlarini o'sha davr islom ma'naviyati tarixiga katta ta'sir eta olishini bilgan. Shu yo'l bilan u turkiy tasavvuf she'riyatining yirik namoyandasi, tasavvufga xos islom falsafiy oqimining asoschisi darajasiga ko'tarilishiga ishongan va shu ishonchga erishgan ham. «Devoni hikmat»dagi she'rlar haqiqatan ham xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan qo'shiq shaklidagi uslubda yozilgan. Ma'lumki, qo'shiq turida yozilgan she'rlar xalq tiliga, diliga juda yaqin turadi. Bu xil she'rlarda umumxalq tiliga xos shakl va istilohlar, badiiy-tasviriy vositalar keng qo'llanadi. Bu orqali tilning sodda, ravonligi ta'minlangan bo'ladi. Demak, «Devoni hikmat»dagi she'rlarning poetik jihatdan xalq qo'shiqlari uslubida va til jihatdan xalq so'zlashuv tilida yozilishi uning turli tabaqadagi kishilar, umuman, omma orasida keng tarqalishiga, xalq qo'shiqlari qatorida kuylanishiga, va'z qilib aytilishiga sabab bo'lgan. Bu she'rlarning kishi ongiga tezda singib, yod olinishi, uzoq asrlar davomida og'izdan-og'izga

ko'chib, yashab, kengayib kelishining boisi ham shunda. Soddalik, sodda tillik adib asarlari tilining so'nggi davrlar tiliga mos kelishiga sabab bo'lgan. Buni biz XIV–XV asrlar ijodkorlari she'rlari bilan qiyoslaganda yaqqol sezishimiz mumkin.

Umumxalq tushunadigan sodda tilda yozishga intilishning eng yaxshi namunalarini keyingi asr shoirlaridan, ayniqsa, Sakkokiy, Atoiy, Lutfiy kabilar asarlarida ko'rish mumkin:

*Kel, ey dilbar, ki bo'ston vaqti bo'ldi,
Gul ochildi, guliston vaqti bo'ldi. (Atoiy)*

*Ul mening jonim, jahonimga salom,
Jondin ortuq mehribonimga salom. (Lutfiy)*

*Ahmad, san ham oshiq bo'l, sidqing birla sodiq bo'l,
Dargohiga oshiq bo'l, jonon bo'lg'on oshiqqlar. (Ahmad
Yassaviy)*

Bizningcha, har uchala shoirning qayd etilgan she'rlarining mazmuniga hamma tushunsa kerak.

Ikkinchidan, quyidagi dalilga diqqat qilishni lozim deb bilamiz. Alisher Navoiy o'zining «Nasoyim ul-muhabbat» asarida Xoja Ahmad Yassaviy Turkiston mulkining mashoyixi ekanligini qayd qilib, uning o'z muridi va shogirdlaridan biri — Hakim ota(asli ismi Sulaymon)ning o'tin terib keltirish voqeasi bilan bog'liq bir rivoyatni keltiradi: «...*Ashabkim, otun teribturler, matbahga kelgunche yag'yn jihatdyin otunlar ul bolg'ondur. Hakim ata tergen otunlarni tonyg'a chirmeb, quruq kelturgendur. Xoja hazratlari degendurlerki, ey farzand, hakimona ish qyldyn va alarga bu laqab andyn qolg'andur va Hakim atag'a hikmat tili g'oya bolubtur. Andoqki, anyn farvoidi atroq arasida mashhurdir. Ul jumladin biri buldurkim:*

*Tiki turg'an tubadur,
Barg'anlarny yutadur.
Barg'anlar kelmas boldy,
Magar manzil andadur (92/154-bet).*

Yassaviyshunos olim I.Haqqulov ta'kidlaganidek, agar ushbu to'rtlikning tili Yassaviy davrining tili ekanligiga gumon yo'q ekan, unda Ahmad Yassaviy hikmatlarining til va uslubining soddaligiga ham shubha qo'zg'ayvermaslik kerak (93/24-bet). Lekin Yassaviy hikmatlarining til jihatdan o'zgarib borganligini ham tamoman inkor qilib bo'lmaydi. Chunki devondagi she'rlarning miqdori va hajmi ham ma'lum davrda kengayganligi, Yassaviy hikmatlariga o'xshatma yoki taqlid tariqasida yaratilgan yangi hikmatlarning adib nomi bilan devonda berilishi yuqoridagi fikrni quvvatlaydi. Ayniqsa, Yassaviy hikmatlaridagi ba'zi so'zlarning o'zgarib borganligini («Tug'gan yerim ul muborak Turkiston» (44-bet) kabi) ko'pgina misralar ham bu fikrni tasdiqlaydi. Chunki ilgari Yassiy deb nomlangan shahar faqat XV asrning oxirlaridan boshlab Turkiston deb yuritilgan (95/188-bet). Shunga qaramay, Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat» asarini qadimgi turkiy tilning so'nggi (eski turkiy) bosqichining, jumladan, eski o'zbek adabiy tilining ilk yodgorligi deb qarash lozimdir. Bu asarda ma'lum darajada o'sha davr adabiy tilining o'ziga xos umumturkiy leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari ham mujassamlashgan. Shuning uchun uni eski o'zbek tilining ilk davri yodgorliklari deb qarash to'g'ridir.

«Devoni hikmat»da qadimgi turkiy tilga xos: **yozuq** — taqdir; gunoh (27-bet), **uqbo** — u dunyo, oxirat (80-bet), **uqba** — do'ng, yuqori, baland (175-bet) **botin ko'zi** — ko'ngil ko'zi (34-bet), **bitti** — bitmoq, yozmoq (34-bet), **tamug'**/**tamuq** — do'zax (52-57-betlar), **tangri** — Olloh, xudo (38-bet), **ug'on** — xudo (44-bet), **ag'mo** — ko'r (46-bet), **suluk** (66-bet), **aso** — hassa (80-bet), **ujmoh** — jannat (52-bet), **qapuq** — eshik (70-bet), **teyu** — deb, deya (72-bet), **taqi** — yana (102-bet), **cherik**/lashkar — qo'shin (60-100- betlar), **sud** — foyda (70-bet), **tigin** — kabi (117-bet), **qobiz** — jon oluvchi azroil (24-bet), **qavl** — so'z (198-bet), **sekiz** — sakkiz (25-bet), **qamug'**/qamuq — hamma, barcha (47-71-betlar), **arig'** — toza, pok (47-bet), **qanda** — qayda (189-bet), **qoz** — qo'y (64-bet), **ilkida** — qo'lida (80-bet), **surug'** — suroq (93-bet), **ummon** — daryo — (96-bet), **qulun** — toy, toychoq (139-bet), **istayu bo'ldi** — istamoq bo'ldi (147-bet), **emgak** —

mehnat (148-bet), **so'ngak** — suyak (176-bet), **suchuk** — chuchuk (177-bet), **eran** (178-bet), **yabon, karkes, chug'uz** — qush nomlari (57-60-82-betlar), **chudoz** — yonmoq, qovurilmoq (181-bet), **qo'bub** — turib (181-bet), **tarafdin** — tomondin (183-bet), **jaqa** — chaqa, yara, xasta, ezilgan, tilingan, yongan (40-bet), **yazdon** — xudo (193-bet) kabi so'zlarning qo'llanilishini ko'rish mumkin. Ammo, devondagi materiallarining asosiy qismi o'zbek tiliga ko'p jihatdan mos keladi:

*O'n to'rtimda tufroq sifat xorlig' torttim,
Hu-hu teyu boshim birlan tunlar qottim,
Ming oltunlik qiymatini birga sortim,
Ondin so'ngra qanot tutub uchtim, do'stlar (10-bet).*

*Alqissa, bu maqom anbiyolar va oriflar va
oshiqlarning maqomi turur...(11-bet)*

kabi satrlarning tuzilishi va undagi so'zlar to'liq eski o'zbek adabiy tiliga mos keladi.

Shuningdek, ko'pgina so'z shakllari hozirgi o'zbek tilining dialekt va shevalarida qo'llanilishini ko'ramiz. Masalan, aydim-aytdim (21-bet), bachcha (onasini judo qilib bachhasidan) — bola (139-bet), chirog', pilta (168-bet), yonglig' (33-bet), yanglig' (167-bet), o'xshash, kabi, -day, -dek; qilgum(44-bet), mani, mandin — meni mendan (48-bet), bilmam (64-bet), chafon-chapon — to'n (79-bet), churg'ulub — chug'urlashib; jo'r bo'lib (81-bet), qaro—qora (82-bet), sufra — surpa (82-bet), jaha — chaha, xasta, yara (40-bet)¹, illiy — illay, oldin, ilgari (100-bet), yiturgan — yo'qotgan (90-bet), ozib — aynib, qaytib, o'zgarib; ozub, ovushqan — almashgan, o'tgan, adashgan, ko'chgan: yaxshi yo'llardan ozib, yomon yo'lga ovushqan (133-bet), yig'och — yog'och (77-bet), oygan/aygan — aytgan (77-bet), yilo — yilan (97-bet), kufrik — ko'prik (149-bet), yoqin/yovuq — yaqin (182-

¹Mahmud Koshg'ariy devonida «jaha»(chaha) tarzida chaqmoqtosh, olovlantiruvchi tosh ma'nosida berilgan /indeks-lug'at, 89-bet/. O'zbek shevalarida esa «chaqa» shakli yara ma'nosida qo'llaniladi.

bet), yerga — indi — yerga (ko'ndi) tushdi (167-bet), qotti — qattiq (180-bet), kun tug'ondin botorg'a-kun chiqardan kun botishga, sharqdan g'arbga (195- bet), ketaram — ketaman (159-bet), qilam — qilaman (159-bet), bilmam — bilmayman (93-bet), kiram — kiraman (159-bet), menim — mening (159-bet), boroling (195-bet), uqmaylar — tushunmaydilar (46-bet), man — men (48- bet), rost — to'g'ri (50-bet), yorlaqa — qo'llab-quvvatlab, tuz — tekis; tog'u tuz (121-bet), yanglig' — kabi, singari, o'xshash (167-bet) kabilar.

Demak, «Devoni hikmat»da qo'llanilgan so'zlarning fonetik xususiyatlari o'zbek tiliga to'liq mos keladi. Ayniqsa, so'z turkumlari tahlilida bu fikrni to'liq tasdiqlash mumkin. Chunonchi, devondagi ot turkumiga oid so'zlar deyarli farqlanmaydi. Atoqli otlar, asosan bir xildir. Arslon bobo, Turkiston, Xuroson, Iroq (44-bet) kabi. Shuningdek, ota-ona, ayol, qarindosh, yo'ldosh (32-bet), og'a-ini (178-bet), qiz (136-bet), o'g'il (136-bet), qaynota (87-bet), bola (139-bet), soch-soqol (61-bet), bosh (34-bet), ko'z, yuz, og'iz (62-bet), qo'l-oyog'/q, yurak, yer, yo'l, tun-kun, ei, pul, so'z, yel, yil, tog', tosh, odam, vatan (32-34-betlar), arig'-ariq (56-bet), daryo (94-bet), mis (178-bet), po'lat, olmos, yoqut (100-bet), oltin (178-bet), yulduz, oy (178-bet), davlat, viloyat (136-bet), tovuq (173-bet) kabi turdosh otlar ham shular jumlasidandir.

Otlardagi kelishik va egalik qo'shimchalari hozirgi tilimizdagidan, asosan, fonetik jihatlari bilan farq qiladi. Ular qadimgi va eski o'zbek tilimizdagidek ko'p variantlilik (singarmonizm qonuni) asosida qo'llanilgan. Masalan, asardagi qaratqich kelishigi **-ing/ung -ning/nung, -ni, -im** qo'shimchalari; tushum kelishigi **-in, -n, -i**; jo'nalish kelishigi **-ga/g'a, qa, -a**; o'rin-payt kelishigi **-da/ta**; chiqish kelishigi **-dan/din, -tan/tin, -dun/tun** shakllari; egalik qo'shimchalarining **-im/um, -ing/ung -imiz/umuz** kabi shakllarda qo'llanishi shular jumlasidandir.

Qayd etish lozimki, jo'nalish kelishigining qadimgi **-qaru/g'aru, -ra/ru**; vosita kelishigining **-i/n**, tushum kelishigining **-ug/ug', -uk/uq** shakldagi qo'shimchalari qo'llanilmagan.

Ammo ba'zi bir so'zlar tarkibida vosita kelishigining *-/i/n* qo'shimchasi uchraydi:

Yolg'on so'zlab, imonsizin ketmang, do'stlar (69-bet).

Oziqsizin yo'lga kirgan yo'lda qolur (100-bet).

Emgaksizin yetmoqligi ermas oson (148-bet) kabi.

Asarda sifat turkumi ma'nosida quyidagi so'zlarni uchratish mumkin: puchak (66-bet), arig' (47-bet), qatra (98-bet), yalang (112-bet), buzug' (71-bet), kir (79-bet), toza (122-bet), yaxshi (65-bet), yomon (48-bet), ulug' (28-bet), shirin (66-bet), totlig' (53-bet), achchig' (38-bet), sarig' (80-bet), yashil (119-bet), qizil, qora (29-bet), oq (22-bet), katta (89-bet), qib-qizil (140-bet) kabilar. Qayd etish lozimki, bu so'zlarning ba'zilari o'rni bilan ravish ma'nosida ham qo'llanilgan.

Devonda qo'llanilgan son turkumiga xos so'zlar o'zbek tiliga to'liq mos keladi, desa bo'ladi. Ba'zan uchunchi, to'rtunchi, o'nunchi (13-bet), ikkov (113-bet), sekiz/sekkiz (42-51-betlar), o'ttuz (51-bet), qirq qori/qarish (86-136-betlar), bir kam o'ttuz (27-bet) kabi shakllari, asosan, fonetik jihatdangina farqlanadi.

Hikmatlarda olmosh turkumiga xos bo'lgan so'zlarning barcha shakllari hozirgi o'zbek tiliga mos kelsa-da, ba'zi bir shakllari qadimiyligi bilan farqlanadi; **qay**: qay ko'ngilga tajalliysin partav solsa (95-bet), **qan(qanda)**; *Miskin Ahmad, qandasen, haq yo'lida nedasen (189-bet), qayu*: qayu taraf ketarimni bilimam (64-bet) kabi. Jumladan, eski o'zbek tilida va hozir ham dialektlarda uchraydigan man (48-bet), san (45-bet), andog', o'shal, na/ne u], nechuk (20-23-betlar), alarni (103-bet), shundog' (104-bet), o'shandog' (70-bet), munda (37-bet), kamina (84-bet), bari (114-bet), barcha (115-bet), hamma (79-bet), har na (20-bet), hech nima (105-bet), hech kim (33-bet), alar (103-bet) kabi shakllari asarda keng qo'llanilgan.

Fe'l turkumiga xos so'zlar quyidagi qo'shimchali shakllarida kelgan: «-duk/duk/dug'» sifatdosh qo'shimchalari bilan;

bo'lduq (147-bet), bo'lduk (70-bet), qilduq (132-bet), ulanduuq (166-bet);

Yo'ldin ozib, shariatni pos tutmaduuq (141-bet).

Niyat qilduuq Ka'baga rizo bo'ling, do'stlar (150-bet).

Ayo do'stlar, quloq soling aydug'umga (23-bet).

Erni ko'rdim ergashtim, istadug'umni so'rdim (173-bet).

Shu kabi fe'l shakllari o'tgan zamon (1-shaxs ko'plik) - **dik** ma'nosini ham ifodalab kelgan: biz qutulduq (76-bet) kabi; «-mish» sifatdosh qo'shimchasi bilan esa ichmish, yemish ne'matlari (111-bet), qilmish, aymish gunohlari (75-bet) kabi shakllarda qo'llanilgan. Masalan:

*Zokirlari jam' bo'lub tuzulmishda,
Zikri samo'din tusuni qurulmishda,
Buyin uqbo dunyosidin urulmishda,
Ko'ngil qushi hazrat tabo uchti bo'lg'ay. (179-bet)*

«-guvchi, -g'uchi g'uvchi/quvchi» kabi sifatdosh va ba'zan harakat nomini ifodalovchi vositalar bilan: ro'za qilg'uvchi, tasbeh aytuvchi (51-bet); Ulug'-kichik yo'l borg'uvchi urub o'tsin (121-bet); «Sen shayxmusen ozg'urg'uvchi xaloyiqni» (77-bet); bil dirguvchi yazdon bor (57-bet); So'rguvchilar kirganda (45-bet); yugrik otga minguvchilar (100-bet); Yuvuvchilar taxta uzra olgay seni (158-bet); -gusi/g'usi; «-guluk/g'uluk» sifatdosh qo'shimchalari bilan: qilg'usi, bo'lg'usi (136-bet), ko'rsatgusi (176-bet), kuydurgusi (56-bet), so'rg'uluq, kelguluk (86-bet); Oxir bir kun ko'rsatgusi senga diydor (73-bet). Mehnatini daryosida mavj urg'usi. Ilmu amal, qilu qollar shavq o'lgusi (126-bet). Bu tengimizga kim kiribon kim chug'usi (127-bet), Xudoyiga g'ariblar belgulukdur, g'aribni erta-ahshom so'rgulukdur (86-bet).

Shuningdek, «-gu/g'u/qu» shakllariga shaxs-son qo'shimchalari qo'shilib so'rg'um, ayg'um (37-bet), qo'rqum (84-bet), bo'lg'ung (142-bet) kabi fe'llar hosil bo'lgan:

Haqiqatlig' chin oshiqg'a tuhfa bergum (37-bet).

Zori qilsang, bandam debon ayg'um seni (37-bet).

Jon berurda bo'lg'ung nuri imondin judo (142-bet);

-ar (+im) , -dur (+man); -turur (durur); tur/dur kabi shakllari ham qo'llanilgan: etarim, ketarim (64-bet), borarim (59-bet), sevindurman (173-bet), qo'rqaturur (56-bet), o'ldurur, so'ldurur, kulturur (80-bet):

Qayu taraf ketarimni bilmam, do'stlar,

Nechuk iloj etarimni bilmam, do'stlar (64-bet),

Dargohingdin o'zga yerga borarim yo'q (59-bet).

Tark etmayin tan-jonin sevindurman demasun (173-bet).

Shayxlik ulug' turur, hazratga eligan ish turur (189-bet).

Muhabbatning sharobidin ichib turur (47-bet).

Kecha-kunduz qo'rqatur haybati bor (56-bet).

It nafsini o'ldurur , qizil yuzin so'ldurur (80-bet).

«**-gan/kan, -g'an/qan**» affiksli o'tgan zamon sifatdoshlari ancha keng qo'llanilgan: qilg'on (151-bet), qo'rq'on (61-bet), kelgan (30-bet), tutgan (137-bet), tutgan (44-bet), kelgon (151-bet); «**-mak/moq**» affiksli harakat nomi: «ichmak», «yemak» (32-bet), «ochmoq» (137-bet), ba'zan, «kelmagi» (101-bet), «aymog'liqni», «kuymoqliqni» (127-bet) shakllarda qo'llanilgan: *Ushbu ishqni yo'li bo'ymoq turur (69-bet). Banda necha yosh yashasa o'lmagi bor (100-bet). Bu dunyoda lahza forig' bo'lmog' qaydo (64-bet). Tariqatni shavqu zavqi kuymak, yonmoq (109-bet) kabilar.*

Ravishdoshlarning quyidagi qo'shimchali shakllari qo'llanilgan: «**-/i,u/b, -/i,u/bon**»:

*Hardam boshi o'rgulub, ko'zi xalqqa telmulub (81-bet).
Qol ilmuni o'qubon, hol ilmiga yetibon (82-bet) kabi.*

«**-u, -yu/yo/yo, yo/yo**»: *Darig' umrum zoye' o'tti, yatu yig'lab (127-bet). Hu-hu teyu/teyu* bu dunyodin o'tar, do'stlar (72-bet). Ishrat qilib, vahdat maydin to'yo(to'ya) ichib (41-bet). Ummat deyubon kechayu kunduz yedi hasrat (49-bet) «**-guncha/g'uncha/quncha**»: otquncha, tortquncha (30-bet), bormag'uncha, kiymaguncha (106-bet), jondin kechmay, cho'mmag'uncha hargiz olmas (107-bet), «**-gali/g'ali**»: Bu qafasni to'tisi parvoz qiladur uchgali (151-bet), Man' etgali Turkistonga keldi, do'stlar (77-bet) kabi «**-gani/g'ani, -kani/qani**»:

Ibrat olib, qoni zardob to'kkani yo'q.

Bu dunyoni orqa tashlab o'tqani yo'q.

Bosh o'ynamay haq vasliga yetgani yo'q.

Yolg'onchidur, haqqa oshiq bo'lg'oni yo'q (122-bet).

Fe'ning buyruq-istak mayli quyidagi shakllarda qo'llanilgan: ayg'um, bergum (37-bet), qotqum (103-bet), bo'lgil (92-bet), kechkil (49-bet), qiig'il (45-bet), qo'rqil (142-bet), kulsun (154-bet), ko'rsun (41-bet), pishsin (148-bet), bitay (81-bet), uxlagay, , yo'qlag'ay (150-bet), sochqay (117-bet), aytaylik (144-bet), ko'chaylik (150-bet), kechaluk (150-bet), aytayluk (118-bet), boruluk (boroluk (113-bet), boroling, ololing, bo'loling (195-bet):

Saharlarda qo'pib toat qilg'um kelur (95-bet).

O'zumni o'zlariga qotqum kelur (103-bet).

Ka'ba sori ko'chaluk, zolimlardin qochaluk,

O'g'il-qizdin kechaluk, rizo bo'ling, do'stlarim (150-bet).

Turkistonga boroling, xizmatinda bo'loling.

Ulush bersa ololing shayxim Ahmad Yassaviy (195-bet).

Hikmatlarda «Qilam» (159-bet), «bilmam» (33-bet), «ketaram» (149-bet), «aylayam» (152-bet) kabi kelasi zamon shakllari ham uchraydi.

Qayu taraf ketarimni bilmam do'stlar (64-bet).

Ujmoq kiram, javlon qilam, na hurlarga nazar qilam (159-bet).

Eshitsun deb jumla-jahon, dunyoni solib ketarim (149-bet).

Rahm aylayam, otim Rahmon, zotim Subhon (152-bet) kabilar.

Ravish turkumi ma'nosida quyidagi so'zlar qo'llanilgan: osta-osta (136-bet), hargiz (46-bet), doyim-midom (68-107-betlar), bir lahza (97-bet), doim (102-bet), mahkam (92-bet), tez (118-bet), qattig' (81-bet), quruq (117-bet), burun (131-bet), oxir (170-bet), hozir (60-bet), yalang (112-bet), tun-kun (39-bet), kecha-kunduz (39-bet), kunduz (75-bet), o'ngda, so'ngda (76-bet), har yon (34-bet), tongla (118-bet), sahar (170-bet), yovug' (37-bet), kech, kecha (31-bet), «-tek»: tek turdi (57-bet), orqa tashlab (163-bet), quyi (178-bet), bir qatra (188-bet), avval-oxir (40-44-bet), ko'b (32-bet), tugal, oxir damda (57-bet), bir kuncha (32-bet), ming yilcha (59-bet), tong otguncha (152-bet), oshiqlarday (107-bet), tongla (152-bet), Yusuftek (155-bet) kabi so'zlar ravish ma'nolarini anglatib kelgandir.

Manbalarda ta'kidlanganidek, turkiy tillarda yordamchi so'zlar tarixan mustaqil so'z turkumlaridan kelib chiqqan. Shuning uchun ham yozma yodgorliklar til materialida ba'zi so'zlarni ham mustaqil, ham yordamchi so'zlar sifatida qo'llanilganligini ko'rish mumkin. Jumladan, «Devoni hikmat» da ham bu holatni kuzatish mumkin. Devonda quyidagi so'zlar **ko'makchi vazifasida** qo'llanilgan: birlan (32-bet), birla (38-bet), bilan (27-bet), bila (22-bet), ila (197-bet), uchun (26-bet), chun (47-bet), ichra (59-bet), yuzung sori (153-bet), kabi (90-bet), yonglig' (94-bet), uzra (45-bet), hazrat sori (113-bet), sari (22-bet), tigin (117-bet) kabi sof ko'makchilar; taginda (46-bet), tegrasida-maloyiklar tegrasida (75-bet), so'ng

(75-bet), so'ngra (23-bet), uzra (79-bet), orqa-orqaga (41-43-bet), qoshinda (195-bet), keyin (169-bet), bob-bobinda (176-bet), bobida (33-bet), taraf (64-bet), o'zga (45-bet), aro (108-bet), ora (105-bet), aro yo'lda (192-bet), yo'liga (102-bet), burun (94-bet) kabi funksional ko'makchilar uchraydi.

Bog'lovchilar quyidagi shakllarda qo'llanilgan: va (84-bet), vale (197-bet) va agar (14-bet), «-u» (64-bet): so'z-u gudoz (153-bet), qishu yoz (64-bet), «-yu» (49-bet): *Doyim g'ami ummat yediyu yemadi ne'mat, Ummat deyubon kechayu kunduz yedi hasrat* (49-bet). *Xudodan qo'rqiyu insofga keldi* (198-bet): «-vu»: *Boshim yostiqdavu jonim ketarda* (170-bet); «**taqi**» -yana (102-103-betlar): *Xonumondin kechib taqi sarson bo'ldum* (180-bet); «**ham**» (44-bet): *Ishsizlarni ham joni yo'q, ham imoni* (65-bet); «**kim**» (59-bet): *ondog' mashoyixlar paydo bo'lg'akim, iblis alayxil-la'na olardin saboq olg'ay* (8-bet); «**deb**» (43-bet), *deyubon* (139-bet):

*Qirq birimda ixlos qildim yo'l topay deb,
Eranlardin har sir ko'rsam men yopay deb,
Piri mug'on izin olib men yopay deb,
Zoti ulug' Xojam, sig'inib keldim sango (28-bet).*

Voy qulunum, bo'tam, deyubon oh uribon (139-bet).

Shuningdek, devonda «**ki**» (47-bet), to (152-bet), toki (162-bet), yana (93-bet), na (75-bet), na...na (77-bet), gohi...gohi (81-bet), agar (139-bet), gar (78-bet), garchi (84-bet), ammo (13-bet), biroq (193-bet) kabi bog'lovchilar ham qo'llanilgan.

Yuklamalarning quyidagi shakllari uchraydi: magar (81-bet), koshki (59-bet), balki (60-bet); **-mu** (168-bet), **-da** (139-bet); **-o'q** (159-bet):

Magar bilgay, g'arib bo'lgan g'ariblar (81-bet).

Koshki men doyim sening yoding bilan bo'lg'ay edim (59-bet).

Hayvon erur, balki ondin battar, do'stlar (72-bet).

Biru borim, diydoringni ko'rarmanmu? (169-bet)

Agar ko'rmay o'lar bo'lsang-da na armon (139-bet).

Majnunlarga Laylo kerak, menga sen-o'q keraksan (159-bet) kabi.

Devonda **undov so'zlardan** ham ancha keng foydalanilgan: oh, voh (77-bet), voy (70-bet), hayhot (55-bet), e-vo (163-bet), ey (163-bet), ayo (70-bet), iloho (48-bet) kabilar.

Devondagi til materialining fonetik jihatlaridan quyidagilarni tavsiflash mumkin. Ma'lumki, qadimgi turkiy til yodgorliklarida, asosan 8 ta unli qo'llanilganligi manbalarda qayd etilgan. «Devoni hikmat»da ham bu unli lar soni va sifati, asosan, saqlanganligini ko'rish mumkin. Ammo bunda XII asr yozma yodgorliklaridan farqli tarzda «ye/e/» fonemasi mustaqil shakllanganligini kuzatish mumkin, ya'ni qadimgi «e» unlisi ikki mustaqil «e/a/» va «e/ye/» fonemasi tarzida talaffuz me'yoriga ega bo'lgan. Qadimgi singarmonizm (ya'ni nutq tovushlaridagi tanglay va lab uyg'unligi) qonuni ham, asosan saqlangan: qo'rqub — qo'rqib (54-bet), o'qub — o'qib (54-bet), bulg'ay — bo'lgay (54-bet), kelgay (31-bet), kuydim (30-bet), uldum — o'ldim (40-bet), qorqqum — qorqqim (84-bet), kurub (41-bet), orgulub — o'rgilib (81-bet), qyilg'yl (47-bet), qulunum (39-bet), ilkida (88-bet), baralun — borolun (113-bet) kabilar. Ammo bu qonunga rioya etilmagan hol-lar ham asarda uchraydi: otdin — o'tdin (59-bet), so'ktim (61-bet), qo'rqib — qo'rqyb (66-bet), kolib — kulmoq (69-bet), qyilg'ay (89-bet), barelyk-boralik (113-bet), quritur (137-bet), konlimiza (139-bet), boldym — bo'ldim (145-bet), ayta — ayto (147-bet), qo'ysin (118-bet) kabilar.

Undosh tovushlarning soni va qo'llanilishi eski o'zbek tiliga to'liq mos keladi. Umuman, turkiy tildagi, xususan, eski o'zbek tilidagi barcha fonetik xususiyatlar «Devoni hikmat» til materialida borligini yuqoridagi leksik, morfologik xususiyatlardan ham sezish qiyin emas. Jumladan, quyidagi misollar bu fikrni yana bir bor tasdiqlaydi. Yumshoq «ye» o'rnida qattiq «a/o/», aksincha, qattiq «a/o/» o'rnida yumshoq

«e» tovushi almashingan: asta-asta (osta-osta) (136-bet), ayuldim (oyuldim—ayrildim (40-bet), ata/ato — ota (84-bet), ana/ano — ona (84-bet), ara/ora — aro (192-bet), qara/qaro — qora (137-bet), saray/sori — sari (146-bet), qarshu/qarshi, baray/ bori — bari, barchasi (109-bet), ayirma (oyirma — ayirma (48-bet), yaqan/yaqang — yoqang (96-bet), yutadur, tutadur/ yuqodur, tutodur — yukadi, tutadi (86-bet), axsham/axshom — oxshom (86-bet) kabilar; «ye-a»: man yigirma tortga kirdim (27-bet); «a-ye»: Sekkizimda sekiz yandin yol achildi (25-bet); «b-m»: munda (21-bet); bunda: muni — buni (31-bet); «p-b»: Ne'matlarni bishganini korar dostlar (79-bet); «n-m»: Emdi boldi axyr mani yuzum qara (34-bet); «d-t»: teniz tushtum, ketti, ichtim (10-bet), achi (175-bet), teyu — deyu (72-bet); «Q-g'»: ... gavhar yanlyg' hikmat aydi (167-bet), qo'rqan chig'ar (66-bet), qo'rqan chiqar. Qonlum qorq'gan, janyim hugan... (61-bet); «p-f»: chafan-chapon — to'n (79-bet), tufraq-tuproq (80-bet), kufruk — ko'prik (149-bet) kabilar; «y-f»: Nafsnı tefib, mehnat yetsa rohat bilgil (90-bet); «z-y»: Kurgenin kurgen yerde suylamas ul (147-bet); «y-n»: Miskin Ahmad, qandasen, haq yo'lida nedesen (189-bet); «v-y»: Vala bolub, bulbul sifat haqni suydi (147-bet); «ch-s»: Boldym suchuk hu aty sahar vaqti bolg'anda (177-bet). Umuman, asarda aydi — aytdi (46-bet), ayuldytm (47-bet) — ayrildim, olub (81-bet); bo'lib, yalan (97-bet); ilon, chech — yech (31-bet); telmurub (181-bet); termurib, qilasa (181-bet), babinda (181-bet) kabi fonetik xususiyatlar mavjud.

Xullas, «Devoni hikmat» til materialining tahlilidan ma'lum bo'ladiki, u umumturkiy tilning so'nggi bosqichi va eski o'zbek adabiy tilining ilk davrlari yozma yodgorligi sanaladi. Unda ham qadimiy turkiy ham eski o'zbek tiliga xos xususiyatlar o'z aksini topgan. Chunonchi, hikmatlar o'z davri tiliga nisbatan so'nggi davr tiliga mosligi, xalq tiliga yaqinligi bilan «Qutadg'u bilig», «Hibat ul-haqoyiq» asarlari tilidan farqlanadi. Devonda, so'nggi davr tiliga xos so'z va iboralar ancha keng qo'llanilgan. To'g'rirog'i, eski o'zbek tili va o'zbek tilining dialekt va shevalariga, ayniqsa, qipchoq-o'g'uz dialektlariga xos xususiyatlar ancha keng uchraydi.

Ikkinchidan, markaziy shahar turdagi dialekt va shevalarga xos qaratqich kelishigi bilan tushum, o'rin-payt kelishigi bilan jo'nalish kelishigi qo'shimchalari almashib kelishi, ayniqsa, fors-tojikcha so'zlarning ancha ko'p qo'llanishi ham mavjud. Shuning uchun ham ushbu asar o'zbek tilining ilk yodgorligi sifatida, adabiy tilimizning shakllanish tarixini o'rganishda alohida o'rin egallaydi.

O'zbek adabiy tilining ilk davrlarini o'rganishda muhim manbalardan biri **Ahmad Yassaviyning zamondoshi va iste'dodli shogirdlaridan biri Sulaymon Boqirg'oniyning** ijodiy merosi hisoblanadi. Ustozi kabi Sulaymon Boqirg'oniyning ham hayotiy faoliyati haqidagi ma'lumotlar to'liq emas. Yozma manbalarda qayd etilishicha, uning tug'ilgan joyi Xorazm viloyatining Boqirg'on nomli hududidir. Uning tug'ilgan yili noma'lum bo'lsa-da, 1186-yilda Boqirg'on qishlog'ida vafot etganligi aniq. U Ahmad Yassaviyning izdoshi va eng yaqin muridi sifatida ko'pgina yozma manbalarda, umuman, turkiy xalqlar orasida Hakim ota nomi bilan mashhur bo'lganligi qayd etiladi. Jumladan, Alisher Navoiy o'zining «Nasoim ul-muhabbat» asarida «Hakim ota — oti Sulaymondur. Xoja Ahmad Yassaviyning murididir... alarga bu laqab andin qolg'andur va Hakim otaga hikmat tili go'yo bo'lubdur» kabi ma'lumotlarni beradi va uning hikmatlari turkiy tilda shuhrat topganligini qayd etadi (98-3-4-betlar).

Manbalarda ta'kidlanganidek, haqiqatan ham Sulaymon Boqirg'oniy tariqatda ham, she'riyatda ham Ahmad Yassaviy an'analarini davom ettirgan turkiy tasavvuf adabiyotining mashhur namoyandasidir. Ustozi kabi Sulaymon Boqirg'oniy ijodi ham sobiq Ittifoq davrida g'ayriilmiy tarzda baholab kelingan edi. Endilikda esa uning bir qator she'rlari, to'rtlik shaklida yozilgan me'rojnoma va hikmatlari hamda «Oxir zamon», «Bibi Maryam» nomli dostonlari chop etilib (98-bet), ular turkiy xalqlarning o'tmish davridagi badiiy-adabiy yodgorligi sifatida e'zozlanib o'rganilmoqda, xolisona baholanmoqda. Uning she'riyati so'zlashuv uslubida xalq og'zaki ijodiga hamohang bo'lganligi sababli tez ommalashib ketgan, turkiy elatlar orasida keng tarqalgan. Shuning uchun ham Ahmad Yassaviy ijodi kabi Sulaymon Boqirg'oniy

she'riyatining til xususiyatlari XII asrdan so'nggi davrlar tiliga mos keladi. Unda qadimgi turkiy tilga xos xususiyatlar ham mavjud bo'lsa-da, asosan, XIII–XV asrlar tiliga yaqinligi yaqqol sezilib turadi.

«**Boqirg'oniy kitobi**» tilining fonetik xususiyatlari Ahmad Yassaviy hikmatlaridagidan farq qilmaydi. Nutq tovushlarining ohangdoshligi, moslanish jihatlari, *singarmonizm* xususiyatlari mavjud.

Masalan, **körub** (21-bet), **bolur** (17-bet), **könulda** (17-bet), **qoyub** (18-bet), **boluban** (24-bet), **turluk** (27-bet), **olumny** (27-bet), **qalg'an** (29-bet), **salg'an** (29-bet), **körmek** (28-bet), **qorqmaq** (28-bet), **kirgil** (28-bet), **qylg'yl** (28-bet), **ögushmekde** (10-bet), **saryg'** (24-bet) kabi so'zlarda unllarning qattiq va yumshoqlik hamda lab mosliklari uchraydi. Ammo bu xususiyat hamisha saqlangan emas, ya'ni ba'zan singarmonizm qonuniga rioya etilmagan holatlar ham uchraydi.

Asarda *nutq tovushlarining almashinuvi*, tushib qolishi, qisqarishi, o'rin almashinuvi kabi turli xil fonetik xususiyatlar uchraydi: **charag'** — chiroq (27-bet), **yaman** — yomon (23-bet), **varg'ay** — borg'ay (57-bet), **benzi/menzi** — beti (24-bet), **muni** — buni (16-bet), **quchan** — quchgan (24-bet), **ayza** — ayza (12-bet), **bilmaz** — bilmas (54-bet), **bizdak** — bizdek (39-bet), **nichka** — ingichka (12-bet), **yulan** — ilon (68-bet) **yilyiq** — iliq (23-bet), **suyi** — suvi (27-bet), **yipak** — ipak (44-bet), **qaytyg'** — qattiq (11-bet), **uyag'** — uyg'oq (26-bet), **tedi** — dedi (34-bet), **tushti** — tushdi (13-bet), **teniz** — dengiz (13-bet), **alma (olmo)** — olma (42-bet), **ulan** — ilon (58-bet), **var** — bor (42-bet), **gezar** — kezar (57-bet), **chanchishar** — sanchishur (65-bet), **menama** — men ham (12-bet), **qiyolim** (65-bet), **qong'um** (33-bet), **bilmam** (13-bet) **almag'a** — olmoqqa (9-bet), **uzrina** — uzriga (10-bet) kabilar.

«Boqirg'on kitobi» *leksik qatlami*, asosan, «Devoni hikmat» asariga mos kelsa-da, *qadimgi turkiy tilga xos* so'zlar ko'proq qo'llanilganligi bilan farqlanadi: **ban** — men (69-bet), **su** — suv (21-bet), **taba** — tomon (22-bet), **nan** — oriyat, uyat, nomus (24-bet), **anuk (onuk)** — mavjud (11-bet), **umg'an** — yomon yoki gunohkorlar boshchisi (11-bet), **menzi/bengzi** — beti, yuzi (13-bet), **-men** — xol; **tekma** —

har bir, turli (26-bet), **katan/katon** — kanop (27-bet), **tabar/tobor**-toqat, chidam (31-bet), **tan(tong)** — ajablanmoq (45-bet), **irinlab, dudoq, ucha (ucho)** — orqa, biqin go'shti (48-bet), **sag' (sog)** — so'l (50-bet), **skush** — ko'p, ancha, talay (53-bet), **ökushmek** — to'planmoq, ko'paymoq (10-bet), **kendu** — o'zi (55-bet), **o'r(o'r)** — qizil, **uftan// (ufut)** — uyat, hayo (57-bet), **alin** — peshona, manglay (52-bet), **ag'izlab** — ko'tarib (63-bet), **ura (uro)** — tanib (68-bet), **skum** — tuda (68-bet) kabilar. Qayd etish lozimki, «Boqirg'on kitobi»da «Devoni hikmat» da kuzatilgan anchagina *qadimgi va eski o'zbek tilida* uchraydigan so'zlar o'ziga xos holda qo'llanilgan: **kapu**—eshik (9-bet), **as'yg** — foyda (10-bet), **tobo, taba** — qarshi tomon (9-bet), **qamug'** — hamma (10-bet), **tamug** — do'zax (10-bet), **anug, anut** — ayyor, mavjud (11-bet), **og'an** — xudo (9-bet), **arig'** — toza (10-bet), **teyu** — deb (10-bet), **chag'ir** — may, ichimlik (11-bet), **kirpich** — g'isht (24-bet), **yazuk** — taqdir, **yazg'an (yozg'on)** — gunoh, ayb; *Afv qilgil azg'anni, yolg'a salgil yazganni* (14-bet), **tekurdi** — yetkazdi, uchrashtirdi, tegizdi (15-bet), **taqsi** — yana (28-bet), **kalavuz, kulovuz** — yetaklovchi, yo'l boshchi; jasus (28-bet), **emgak** — mashaqqat, kulfat (29-bet), **ev** — uy (36-bet), **ilik** — qo'l (39-bet), **teba** — deb (45-bet), **kend** — qo'rg'on, shahar, qishloq (56-bet), **ko'zlik** — soya, ko'lanka (63-bet), **uchmah** — jannat; yuqori (10-bet), **bayaq** — olloh, xudo (9-bet). Bu so'z «Tafsir»da «bayat» shaklda qo'llanilib «xudo» ma'nosida izohlanadi. Boqirg'onda qo'llanilgan «tarxon» (10-bet) — bek so'zi islomdan oldin ham arg'u qabilasining tilida qo'llanilgan (28/I t., 409-13; ar-364-10; ind. 252-bet). Shu kabi **bango** — mango (18-bet), **qorg'u** — mukofot, evaz, ajr (23-bet), **o'runj** — ko'p (20-bet) **o'r** — yuqorilik, baland ma'nosida keladi, umuman, asar tilida eski o'zbek tilining ilk bosqichlari o'z aksini topgan. Asarda qadimiy manbalardagi kabi *arabcha-forscha so'zlar*, ba'zan Qur'on oyatlari qo'llanilgan: **jaza'**—motam, faryod (10-bet), **surin** — orqa, dumba (58-bet), **umg'an** — yomonlikka boshlovchi (10-bet), **mavlim** — ega, sohib; xudo (63-bet), **lazun** — ilohiy ilm (15-bet), **nang** — or, uyat (24-bet), **malakul mavt** — jon oluvchi farishta (9-bet), **tavakkul** — (Ollohga) suyanish, sig'inish (30-bet),

me'roj — zinapoya, yuqori (osmonga, xudo) ga ko'tarilish (70-bet), **chahoryor** (61-bet), **arsh** — osmondagi taxt (73-bet) kabilar. *Ayniqsa, asar tilida qo'llanilgan* «**nicha** — ingichka (12-bet), **manama** — men ham (12-bet), **bizdima-bizni** ham (20-bet), **gezlag'on** — begitgan, yashirgan (13-bet), **bilman** — bilmayman (13-bet), **manim** — maning (13-bet), **doya** (Navoiyda doiya) — istak, orzu, xohish va b. (15-bet), **xesh** (im) — qarindosh (13-bet), **o'qina** — o'qiga, **zavqina** — zavqiga (15-bet), **kun tug'on** — kunchiqar (15-bet), **o'gran** — o'rgan (17-bet), **o'yog'** — uyg'oq (64-bet), **yilon, aymish** — aytmish (20-bet), **suyi-suvi** — suv (27-bet), **tuvg'on** — tug'gan (41-bet), **yipak** — ipak (44-bet), **manglay** — peshona (60-bet), **aso** — hassa (21-bet), **alina** (alina aso olib yugurib kelgay) qo'liga (61-bet), **quchon** — quchgan (24-bet), **oyg'oli** — aytgali, aytishga (60-bet), **vor** — bor (4-bet), **tik** — jim, **tinch: nega yig'larsiz... tik ulturg'il** (45-bet), **ters** — teskari (43-bet), **aymodi** — aytmadi (43-bet), **takya** — suyanchiq, yostuq (27-bet), **sandal** — sandali (54-bet) *kabi so'zlar hozir ham Xorazm, Buxoro, Samarqand tipli shevalarida uchraydi. Asarda qo'llanilgan so'z turkumlari hozirgi tilimizga, aniqrog'i, eski o'zbek tiliga deyarli mos keladi:* odam, bashar (23-bet), bobo (15-bet), bosh, yuz, quloq, dudog', tish, so'ngak, et (48-bet), oyoq, tuk, yol, quyruq (49-bet), ot, teva, gavhar, sim, oltin, yoqut (49-bet), angubin-asal (150-bet), narbon-norvon (51-bet), tamur (52-bet), ko'z, og'iz (52-bet), emchak (54-bet), og'uz, bo'yin (54-bet), ota-ona, o'g'il-qiz (20-bet), osiy (23-bet), kumush (26-bet), mis, oltin (17-bet), katon, tulki, qozsoq, buxurmasak-kiyim nomlari (27-bet), sanduq (13-bet), ko'zgu (16-bet), chirog', yostuq, takya (27-bet), ev (32-bet), yetak, pichoq, ip (31-bet), qo'chqor (40-bet), qulun (64-bet), kiyik (64-bet), qo'l-ilik-bet, yoqut, marjon, nur; xalq, daryo (22-bet), xachir (21-bet), cho'bon (28-bet), yer, ko'k (10-bet), dengiz (15-bet), cho'l (18-bet), xudo (10-bet), ovoz (23), yozuq (24-bet), kirpich (24-bet) *kabi turdosh otlar;* Rum (57-bet), Arslon, Turkiston, Yassi, Bobo Mochin, Qarchig'on (15-bet), Xuroson, Hindiston (16-bet), Qirg'iz, Qipchoq, Chin (26-bet) *kabi atoqli (atama) otlar ko'plab*

uchraydi, ayniqsa, Ahmad, Sulaymon, Ibrohim (15-bet), Abubakr, Umar, Usmon, Ali, Hasan, Husayn (18-bet), Ahad, Samad (19-bet) kabi arabcha nomlar ko'p qo'llanilgan; eski-uski, burk (12-bet), sariq, sarsoq, ko'rk (12-bet), savuq (12-bet), orig', qul (13-bet), o'jiz (13-bet), boldin suchuk (14-bet), chin haqiqat (14-bet), qattig' (31-bet), aziz iymonli qul (22-bet), qizil (41-bet), qozdin savuq, asaldin xush, sutdin o'ring (23-bet), o'tlig' yuzim (23-bet), qurug' (25-bet), halol-harom yemish (26-bet), munlug' onom (38-bet), ko'rclu-ko'rkluk, qaro, ko'k (40-bet), yaxshi (50-bet), yomon (44-bet), yamon (44-bet), ulug'roq (49-bet), kichikroq (49-bet), qaro (56-bet), sorig', yoshil, oq (50-bet), suchukroq, sovuqroq (52-bet), qaro (54-bet) kabi *sifat turkumining turli xil shakllari*; *Son so'z turkumi*: bir (13-bet), ikki (35-bet), uch (37-bet), to'rt (20-bet), besh (26-bet), olti (44-bet), sakkiz (9-bet), to'qquz (9-bet), o'n (9-bet), qirq (18-bet), oltmish (52-bet), yetmish (60-bet), sakson (47-bet), yuz (51-bet), ming (9-bet), tuman (17-bet), o'n uch (51-bet), to'rt ming, to'rt yuz (51-bet), ikkinchi (38-bet), uchunchi (38-bet), uchinchi (51-bet), beshinchi (52-bet), ikkisi (36-bet), to'rtunchi (53-bet), avval — birinchi: uch so'zim bor... Avval so'zim... qo'l-oyog'im bog'langiz (37-bet). Ikkinchi so'zim... yuzimni yerga qo'ying (38-bet), Avvalgi ko'kka yetti... Ikkinchi ko'kka yetdi (51-bet) kabi shakllarda uchraydi.

Asarda *olmosh so'z turkumidan kishilik olmoshlari* man (22-bet): mani (24-bet), maning (13-bet), manga (37-bet), manda (10-bet), mandin (12-bet); san (23-bet): sani, saning, sanga (18-bet), sanda (11-bet), sandin (21-bet), ul (18-bet); biz: bizga (20-bet), bizni (41-bet), bizlami (41-bet), bizlarga (45-bet), bizdin (42-bet); siz (39-bet) kabi shakllarda uchraydi. *O'zlik olmoshi* o'z (47-bet), o'zi (11-bet), o'zing (25-bet), o'zumni (30-bet), o'zingni (33-bet), o'zingga (21-bet), o'zdin (33-bet), o'zingizni (10-bet) shakllarda kelgan. Shuningdek, *kishilik olmoshining I shaxs ma'nosini ifodalashda ban* (68-bet), *bango* (18-bet)-men, menga; Oning yuzin ban ko'rsam (68-bet); Sani darding bango (manga) darmondin artuq (18-bet), Yururlar kechib kendu hayotidin (19-bet) kabi.

Ko'rsatish olmoshlari esa u (34-bet), «ush»: Anhorlar yaratdim, ush fazlim bo'ling (23-bet); ul, bu (38-bet); bunda (25-

bet), ushbu (34-bet), buni (47-bet), o'shal (14-bet), munda (11-bet), muni (28-bet), oni (15-bet), anga (11), oning (41-bet), anga (11-bet), alarga (11-bet), anda (25-bet) kabi shakllarda qo'llanilgan. *So'roq olmoshlari* kim (9-bet), kimga (20-bet), qaydakim (54-bet), ne (11-bet), qayu (19-bet), na (23-bet), necha (99-bet), qachon (29-bet), qani (18-bet), netak (11-bet): qul Sulaymon netak munda o'run qilsun (11-bet), Man nimarsa kelturdim (53-bet), nedak (33-bet), nach (36-bet), nechuk (38-bet), netar (43-bet), kim ersa (55-bet), netoq (57-bet): Yerni netoq yaratdi (57-bet), nalar: zamona oxir bo'lsa nalar bo'lg'ay (57-bet), qoy: qoydin kelding (65-bet), qaydin keldung (68-bet), nego, nega (22-bet), nechuk (67-bet) shakllarda uchraydi. Asarda *birgalik olmoshi* hama: homa odam kulodir (13-bet), qamug'— hamma (10-bet), barcha (17-bet), barchasi (41-bet), tegma—barcha (21-bet), bori (51-bet), jumla (19-bet); *belgilash olmoshi* har kim (14-bet), har dam (14-bet), harchand (40-bet), harna (43-bet), har bir (55-bet), hargiz (13-bet) va *bo'lishsizlik olmoshlari* esa hech (29-bet), hech kim (14-bet) kabi shakllarda qo'llanilgan.

«Boqirg'on kitobi»da *fe'l so'z turkumiga* xos quyidagicha morfologik xususiyatlar uchraydi: Fe'ning grammatik funksional shakllaridan *harakat nomining -maq-mog'*, — *mak-/mag*, — *(i)sh* kabi qo'shimchalari qo'llanilgan: ulush (16-bet), qo'rqush (19-bet), olish (26-bet), ukush (56-bet), nolish (57-bet), urush (57-bet), chopchish (65-bet), urush-talosh, qimmasun (66-bet), bormoq (9-bet), omag' (9-bet), qo'yimoq (10-bet), yig'moq (18-bet), yemak (26-bet), kiymak (10-bet), o'kishmak (10-bet) kabilar.

Asarda *sifardoshning* quyidagi qo'shimchalari qo'llanilgan:

1) **-gan/g'an, -kan/qan, -an/on**: atagan (19-bet), ulturg'on (39-bet), bergan (14-bet), qilg'on (29-bet), borg'an (32-bet), toshqon (33-bet), boron (18-bet), kuchon (tizgin kuchon — 24-bet), o'gran-o'rgan (17-bet) kabilar.

2) **-mish(mısh)**: qurilmısh asboblarga (19-bet), duo qilmısh (21-bet), qolmısh (26-bet), yaratilmısh (23-bet), kechmısh ishga (27-bet) kabilar.

3) **-r/-ar,-ur-yur**: yig'lar, aytur (10-bet), yig'layur (12-bet), kechar (12-bet), kuydurur (13-bet), kuyer (14-bet), ko'rurur (15-bet), yoqar (16-bet), qilur (43-bet), aytur (61-bet) kabilar. Ba'zan sifatdoshning qo'shimchasi -yur shaklda ham qo'llanilgan: Yodin aytiyur bedor, sahar vaqti bo'lg'onda (14-bet). Vujudim quriyur, vayrondin ortiq (18-bet). Sifatdoshning bo'lishsiz shakli -maz(mas) tarzida ham uchraydi: Bilmazlarga tayin qildi (22-bet), Ro'za tutmaz (20-bet), bilmaz bo'ldim (59-bet).

4) **-g'u/gu, g'uvchi/-g'uchi/-guchi**: ayg'u (13-bet), qilg'uvchi (18-bet), qilg'uchi (20-bet), ayg'u (20-bet), solg'u (20-bet), borg'u (21-bet), qutqarg'u (29-bet), kirmagu (29-bet), qochg'um (30-bet), bulg'uchi (38-bet), buzg'uchi (65-bet) kabilar.

Ushbu o'rinda qayd etish lozimki, sifatdoshning ushbu (-yur,-maz kabi) shakllari qadimgi tilga xos bo'lib, XV asrdan so'nggi davrlar tilida kam uchraydi. Shu kabi -g'u/gu, -qu/ku shakllari ham qadimda keng qo'llanilgan. Bu affiks Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida izohlani-shicha ko'p ma'noli bo'lgan (28/II t., 71-73-betlar). Jumladan, u harakat nomi qo'shimchasi ma'nosida ham qo'llanilishi mumkin. Ushbu fikrlarning tasdig'ini «Boqirg'on kitobi»-da ham kuzatish mumkin: Bu so'zdin **borg'u** yo'ldin qolmish kerak (21-bet), Aziz, xor **qilg'uvchi** Sulton sanuqsan (18-bet), Otam oti **ozg'usi**, yipor bo'lub **tuzg'usi** (16-bet), Bizdima, **borg'ulari** jumla ango (20-bet). Haq zikri aziz turur, utrub **ayg'u** (20-bet), Vajdu holat yetilmishda ilik solg'u (20-bet), Dunyo molin o'rinj bersang **olg'uchi** yo'q, ota-ona, o'g'il-qizin **bilguchi** yo'q... sevnub **kulgusi** yo'q (20-bet), Yoroq **qilg'u** hamdu sano shahodatni. Odat **qilg'u** qullig'ida qiyofatni, Bir kun **ming'u** ul janoza otlig' otni (29-bet).

Ilmiy adabiyotlarda ushbu affiksning vazifasi va ma'no taraqqiyoti ikki bosqichga bo'lib izohlanadi. Jumladan, birinchi davri qadimgi turkiy til bosqichi bo'lib, unda ham harakat nomi, sifatdosh belgilari mavjud bo'lgan davrlaridir. Ikkinchisi, XV asrdan so'nggi taraqqiyot bosqichi bo'lib, bu davrlarda uning ma'nolari cheklana borgan. Unda, asosan, kelasi zamon fe'li ma'nosidagi qo'shimcha ma'nosi qolgan.

Shuningdek, eski o'zbek tili taraqqiyotining barcha davrlarida **-chi** qo'shimchasi bilan birga kelib **borg'uchi, kelguchi (yoki borg'uvchi, kelguvchi)** shakllarda ot (harakat nomi) yasalishi va **-dek/tek** affiksi bilan kelib «**borg'udek, kelgudek**» shakllarida ravish yasashda ham qo'llanilganligini kuzatish mumkin (77/119-120-betlar).

5) Ravishdoshning qadimgi **-dik** qo'shimchasi «Boqirg'on kitobi»da **-duq, -duk, -dig, -dug** shakllarida ham qo'llanilgan: Odam o'g'li **tug'duqimiz** tishim **sindurduqim** rasul uchun (10-bet), Qul Sulton **ayduqi**, ishoratda **bo'lduqi** (13-bet). **Qapudag'i** kim edikin bilmak uchun (9-bet), Ul er yigitni ko'rdi, obid erdikin bildi (42-bet), **Istadigim** bo'ldim man, darveshlar ichinda (17-bet), Iblis **aydugin** bildi (37-bet), Umr(i) zoye' **kechdugin** emdi tuydi (22-bet) kabilar.

Asarda *ravishdoshning* yana quyidagi qo'shimchalarini uch-ratish mumkin:

1) **-a(-y), -u(-yu)**: Subhon iymon xil'atin borib **qayta** olurmi? (14-bet), Kecha-kunduz qo'rqadurur (11-bet), **torta** turur erdi (54-bet) qirq xachir kutaru bilmas (21-bet), Ummatlarim gunoh kechru bergil dediyo (53-bet), Sulaymon **ingrayu** aytur (14-bet), Iso suchi **yig'layu, Kiru** yana qayt-diyo (68-bet).

2) **-may(mayin)** bo'lishsiz shakllari: Haqq'a qulliq qila ko'ring (33-bet), iloj **topmay** turdiyo (42-bet), So'zni **bilmay** so'zlarsan (44-bet), o'shal otga hech **minmayin** qolgan bor-mu (29-bet). O'lum suvin **ichmayin**, qaro yerni **quchmayin** (24-bet), Tomirlaring **sochmayin** (24-bet), Murodig'a **yetmayin**, diydorig'a **to'ymayin** (38-bet), Tuni kuni **tinmayin** qulluq qilg'il (27-bet), chora **tobmayin** (44-bet).

3) **-b(-ib,-ub)** shakli: Ming kun **yig'lab**, bir kuni **sevnub** kul-gusi yo'q (20-bet), **qaynab** toshqon (33-bet), **yig'layub** qon (23-bet), **ko'chub, ko'chib, ko'yub** bormoq (18-bet): haq zikri aziz turur, utrub ayg'u, Salafar buyrug'ini **surub** ayg'u (20-bet);

4) **-bon(-ibon,-ubon)** shakli: Ismoilin tilobon (40-bet), Ko'ngullari **tunubon** (44-bet), Isrofil **qo'ltiqlabon** (49-bet), Sharbat **inubon** keldi (50-bet), Rasul **boqibon** ko'rdi (50-bet), **yig'labon** (30-bet), tavba **qilubon** (36-bet), **qatlanu-bon** (27-bet), **etibon, kelibon** (24-bet), **o'ldurubon** (27-bet);

5) **-g'ali/-gali; -g'ach/(-gach)** shakllari: jon olg'ali (20-bet), so'z **oyg'ali** (60-bet); Oyoq berdi **yurgali** (42-bet), yuzin **ko'rgoli** (36-bet). Isoni yetim **qilg'oli** (65-bet), **so'zlag'ali** tili yo'q (42-bet). Salom berdi bu yigit, ushbu yigitni **ko'rgach** (42-bet), Buroq rasulni **ko'rgach**, yuknib salom qildiyo (49-bet).

6) **-quncha/-kuncha, -g'uncha/-guncha** shakllari: Ko'zin yumub **ochquncha** (50-bet); Burunki tong **otquncha** (67-bet), Sotig'ini **qilmag'uncha** yonsa bo'lmas (31-bet), Diydorini **ko'rmaguncha** yonsa bo'lmas (31-bet), Ko'zni yumub **ochquncha** masjid(i) Aqsoga kirdiyo (50-bet) kabilar. Ushbu qo'shimcha asosan eski o'zbek tiliga xos bo'lib, qadimgi turkiy tilda ham qo'llanilgan.

Asarda sahar (14-bet), yiroq (15-bet), hozir (15-bet), yaqin (24-bet), hayron (23-bet), tuni-kun (26-bet), yozu qish (26-bet), yemak-ichmak (26-bet), kunduz (26-bet), yig'ib-terib (26-bet), yovuq (32-bet), egri (39-bet), burun (41-bet), ters (43-bet), tong (45-bet), bisyor (47-bet), o'ng, so'l (50-bet), sog'din-so'ldin (50-bet), yuqori (52-bet), tez (52-bet), oxir (57-bet), yer-ko'k (58-bet), axshom (66-bet), yamon qildim (23-bet), guruh-guruh (51-bet), ilgari (52-bet), toshqori (43-bet), ko'b (38-bet) kabi so'z shakllari o'rni bilan *ravish vazifasida qo'llanilgan*. Ba'zan **-cha, -ona, -dek, (-dak)** kabi qo'shimchalari bilan ham ravishlar yasalgan: Mendek (14-bet), muncha (27-bet), bizdek (39-bet), mundog' (41-bet), jovidona (47-bet), dunyocha (52-bet), zarracha (14-bet), sorvondek (14-bet), uch kungacha, ilontek-ilondek (58-bet), muncha-muncha yig'larsiz (45-bet), bundog' (69-bet), naqsh to'nin bezartek (69-bet) kabi.

Asarda **yordamchi so'zlardan:** uchun (18-bet), birla (16-bet), birlan (43-bet), birilan (24-bet), bilan (29-bet), uzra (66-bet), ichra (22-bet), sari (11-bet), taba-tomon (23-bet), tegan (11-bet), tekur (48-bet) kabi **sof ko'makchilar**, qoshinda (46-bet), qatinda (59-bet), qoshig'a (49-bet), aro (22-bet) **kabi ot ko'makchilar**; ilgari (52-bet), so'ng (46-bet) kabi *ravish ko'makchilar* va, lekin (30-bet), vale (11-bet), vu (54-bet), taqi (20-bet), ham (23-bet), yo (53-bet), agar (18-bet) kabi bog'lovchilar; -mu (29-bet), o'q (68-bet), koshki (26-bet) kabi **yuklamalar** qo'llanilgan.

Umuman, Sulaymon Boqirg'oniyning she'rlarida qo'llanilgan so'zlar va grammatik vositalar ham qadimiy turkiy tilni, ham eski o'zbek tili qurilishini aks ettiradi. «Boqirg'on kitobi» o'zbek adabiy tilining ilk yodgorligi sifatida qadrlidir.

O'zbek adabiy tilining ilk taraqqiyoti davrini o'rganishda Xorazm, Oltin O'rdahududlaridakeng tarqalgan o'g'uz-qipchoq dialekti asosida yaratilgan asarlar o'ziga xos o'rin egalaydi.

Qayd etish joizdirki, o'zbek adabiy tilining shakllanishida o'g'uz-qipchoq dialektlarining alohida o'rni bor. Ma'lumki, XII asr o'rtalarida Xorazmshohlar davlatining kuchayishi natijasida qadimgi madaniyat o'choqlaridan bo'lgan Xorazmning mavqei yana ham ko'tariladi. XIII asr boshlarida esa butun Movarounnahr Xorazmga tobe' bo'lib qoladi. Mana shu davrlarda O'rta Osiyo xalqlarining madaniy hayoti ancha taraqqiy qiladi. Shahar hayoti o'zgarib, hunarmandchilik, savdo-sotiq ishlari rivojlandi. San'at va adabiyot, ilm-fan va madaniy aloqalar rivojlanadi. Mazkur tarixiy voqealar bu yerlarda o'g'uz-qipchoq urug' va qabila ittifoqlari tili negizida tarkib topgan g'arbiy turkiy adabiy tilning taraqqiy etishiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Chingizxon hujumi va istilosidan keyin Xorazm va pastki Volga bo'ylari hududlarini birlashtirgan Oltin O'rda davlatining barpo etilishi va mustahkamlanishi bu adabiy til an'anasini yana ham kuchaytiradi, rivojlantiradi. Mo'g'ul davlatning parchalanib ketishi (XV asr boshlarida Oltin O'rda uchta xonlikka — Qrim xonligi, Qozon xonligi va Astraxan xonliklariga bo'linib ketadi), qolgan qismi esa bu yerdagi mahalliy turkiy aholi bilan qo'shilib, uning tarkibiga singib ketishi natijasida XIII—XIV asrlarda g'arbiy turkiy til Oltin O'rdaning umumiy tiliga aylanadi. Davlat idora ishlarida rasmiy hujjatlar, adabiy-badiiy asarlar asosan shu tilda yoziladi (74/55-bet).

Shuni eslatish kerakki, Oltin O'rda hududida adabiy til ham, umumxalq so'zlashuv tili ham bir xil emas edi. N.A.Baskakovning ko'rsatishicha, asosiy aholisi o'g'uz-qipchoq urug'laridan bo'lgan Xorazmda va uning Sharqiy qismida yaratilgan adabiy asarlar va yodgorliklarning tilida, bir tomondan, Movarounnahrda eski o'zbek adabiy tilining

kuchli ta'siri o'z ifodasini topgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'g'uz tili unsurlarining ko'pligi va qipchoq unsurlarining nisbatan kamligi bilan ajralib turadi. Oltin O'rda xonlarining qarorgohlariga yaqin bo'lgan hududlarda, ya'ni G'arbda qipchoq urug'larining ta'siri ancha kuchli edi. Shuning uchun garchi o'g'uz tilining ta'siri sezilarli bo'lsa ham, lekin jonli xalq tili vaadabiy tilda qipchoq unsurlari ko'pchilikni tashkil qilar edi (74/55-56-bet). Shu bilan birga, Oltin O'rdaning Sharqiy va G'arbiy qismlarida vujudga kelgan adabiy tilning shakllanib taraqqiy etishida xon va beklarning davlat idoralarda qo'llangan tili — eski uyg'ur tili va XV asr oxirigacha qo'llangan uyg'ur yozuvi ham muhim rol o'ynaydi. Demak, Oltin O'rdada qo'llangan adabiy til bevosita Xorazmda va uning atroflarida tashkil topgan g'arbiy turkiy yoki o'g'uz-qipchoq adabiy tilining yana ham rivojlanishidan iborat bo'lgan.

Xorazm va Oltin O'rda hududida vujudga kelgan adabiy-badiiy yodgorliklarga Alining «Qissai Yusuf» dostoni, Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy», Xorazmiyning «Muhabbatnoma», Qutbning «Xusrav va Shirin», Sayfi Saroyining «Guliston» (Sa'diy Sheroziyning shu nomli asari tarjimasini) kabi asarlarini kiritish mumkin.

Alining «Qissai Yusuf» asari XIII asr boshlarida (1232-yilda) yozilgan bo'lib, til xususiyatlari jihatidan unda o'g'uz-qipchoq unsurlari o'z aksini topgan. Muallif Yusuf va Zulayho to'g'risidagi diniy-afsonaviy syujet asosida dunyoviy yo'nalishdagi asar yaratishga harakat qilgan. Bu asarning yozilgan joyi, qaysi xalqqa tegishli ekanligi va til xususiyatlari to'g'risida olimlar tomonidan turlicha fikrlar bayon qilingan. K. Brokelman «Qissai Yusuf»da qo'llangan ko'pgina o'g'uzcha unsurlarga, ayniqsa, leksik unsurlarga asoslanib, uni turk adabiyoti yodgorliklari qatoriga qo'shadi.

A.N. Samoylovich «Qissai Yusuf» asarining til xususiyatlarini «Muhabbatnoma» bilan chog'ishtirgan holda o'rgana-nadi va ancha e'tiborli fikrlarni bayon qiladi. Uning ko'rsatishicha, «Muhabbatnoma» ham, «Qissai Yusuf» ham til jihatidan uchta asosiy manba bilan bog'langan, ya'ni Sharqiy Turkiston adabiy tili (Qoshg'ar yoki Qoraxoniylar davri adabiy tili) hamda XII–XIV asrlarda Oltin O'rda hududida

keng ishlatilgan qipchoq va o'g'uz dialektlariga asoslangan til bilan bog'lanadi (79/12-15-betlar). A.K. Borovkov «Tafsir» tilini chuqur tadqiq qilish asosida shunday xulosaga keladi: Sharqiy Turkiston va o'g'uz-turkman (shuningdek, qipchoq) unsurlarining aralash qo'llanishi faqat «Tafsir» tili uchungina xos hodisa emas. Bu jihatdan «Tafsir» leksikasi Zamaxshariyning «Muqaddimat al-adab», shuningdek, «Muhabbatnoma», «Qissai Yusuf» asarlari leksikasiga juda yaqin turadi. Hatto Alisher Navoiydan ilgariroq yashab ijod qilgan Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi shoirlarning poetik asarlari tilida ham o'g'uz-turkman leksik unsurlari katta o'rinni egallaydi (100/19-bet). Darhaqiqat, «Qissai Yusuf»da qarluq-uyg'ur va o'g'uz-qipchoq tillari an'analariga xos ko'pgina leksik-morfologik xususiyatlar uchraydi. Jumladan, jo'nalish kelishigi **-g'a**, **-ga** bilan birga, **-a**, **-na** shakllarida, hozirgi-kelasi zamon fe'lining **baram** (boraman), **barman** (bormayman), **baravuz** (boramiz) shakllarida; **-duq/duk** affiksli sifatdoshlar va **-u (u)**, **-yu (yu)** qo'shimchali ravishdoshlarning (baru, sozleyu, barduq, kelduk kabi), shuningdek: **ökush**, **elik**, **arv**, **qoni**, **uram** singari ko'pgina leksik unsurlarning qo'llanilganini ko'rish mumkin (100).

Yuqorida aytilganlar asosida shunday xulosaga kelish mumkin: «Qissai Yusuf» asari XIII asr boshlarida O'rta Osiyoda, aniqrog'i, Oltin O'rdaning Sharqiy qismi — Xorazmda yaratilgan eski o'zbek tiliga xos yodgorlik hisoblanadi. Ma'lumki, ancha ilgariroq boshlangan qarluq-uyg'ur va o'g'uz-qipchoq yoki Sharqiy turkiy va g'arbiy turkiy tillar an'anasi, ularning o'zaro bir-biriga ta'siri XIII–XIV asrlarga kelib ancha rivojlanadi. Iqtisodiy-madaniy aloqalarning kuchayishi turkiy qabila va elat ittifoqlarining bir-biriga yaqinlashuvi, aralashib ketishi jarayonini tezlashtirgan edi. Demak, bu davrda Sharqiy turkiy va g'arbiy turkiy tillarning bir-biridan ajralib ketishi va mushtarak adabiy tilga tomon taraqqiy etib borishi tamoyili ham kuchaygan edi. Bu holat shu davrlarda maydonga kelgan adabiy yodgorliklarga, jumladan, Alining «Qissai Yusuf» asariga ham ta'sir etmay qolmadi. Bu asarning tilida qo'llangan qarluq-uyg'ur va o'g'uz-qipchoq unsurlari xuddi shu jarayon bilan bog'langan.

Shu kabi, «Qisasi Rabg'uziy» asarida ham xuddi shu xususiyatlarni kuzatish mumkin.

«Qisasi Rabg'uziy» asari 1309–1310-yillarda Nosiriddin Burhoniddin o'g'li Rabg'uziy tomonidan yozilgan. Nosiriddin Rabg'uziy Xorazmning Rabot O'g'uz degan joyidan bo'lib, XIII asrning oxiri — XIV asrning boshlarida yashagan. Rabg'uziyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida ma'lumotlar juda kam. Uning bizgacha faqat «Qisasi Rabg'uziy» asari saqlanib qolgan. Ammo asarning mundariyasi, arabcha she'riy parchalarning tarjimai va muallifning o'zi yozgan turkiy-o'zbekcha she'rlari shuni ko'rsatadiki, Rabg'uziy o'z davrining bilimdon olimi, tarixchisi va iste'dodli yozuvchisi bo'lgan.

«Qisasi Rabg'uziy»da keltirilgan qissalar, hikoyatlarning aksariyati payg'ambarlar, avliyolar haqidagi «Qur'on» va boshqa diniy kitoblardan olingan afsonalardan iborat. Payg'ambarlarning hayoti haqidagi afsonaviy qissalar orqali islom dini, uning aqidalari targ'ib qilinadi. Shu bilan birga, asarda ma'lum ma'rifat va axloqiy-tarbiyaviy xarakterdagi hikoyatlar ham berilgan. Bu hikoyatlar o'sha davrdagi hayotiy voqealar, turkiy xalqlarning turmushi, urf-odatlarini asosida yozilgan.

Bu asarning asl qo'lyozma nusxasi saqlanmagan. XV asrda ko'chirilgan eng qadimiy nusxasi Londonda, Britaniya muzeyida saqlanadi. XVI asrda ko'chirilgan ikkinchi nusxasi Sankt-Peterburgda, keyingi asrlarga oid nusxalari esa O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

«Qisasi Rabg'uziy» asari hamd, muqaddima, qissalar, hikoyatlar, she'riy parchalar va xotimadan iborat bo'lib, badiiy nasrning yaxshi namunasi, o'zbek adabiy tili tarixini o'rganishda muhim manbalarning biridir.

Rabg'uziy o'z asarining xalq orasida keng tarqalishi uchun, kitobxon tomonidan sevib o'qilishini nazarda tutib, uni sodda, tushunarli, jonli xalq tili asosida yaratgan. Asar xalq og'zaki ijodi asarlari — ertaklar, hikoyat va rivoyatlar uslubida sodda, ravon til bilan yozilgan. Jumladan, payg'ambar hayotiga doir qissalarni bayon qilish davomida lirik chekinishlar beriladi.

Bu vaqtda «rivoyat qilurlar», «xabarda andog' kelur», «aymishlar», «ba'zi rivoyatlarda kelmish», «hikoyatda andog' kelur»¹ kabi xalq ertaklariga xos ibora va so'z birikmalari keng qo'llanilgan. Ayniqsa, hayotiy voqealar, ruhiy kechinmalar tasvirida xalq og'zaki ijodiga oid uslubiy vositalar, maqol va hikmatlar ko'p uchraydi. Bu esa «Qisasi Rabg'uziy» asarining tili faqat o'z davri uchungina emas, balki keyingi asrlarda ham tushunarli bo'lishini, uning xalq baxshilari tomonidan sevib o'qilishini ta'minlagan. «Qisasi Rabg'uziy» til xususiyatlari jihatidan quyidagilar bilan ajralib turadi.

1. Fonetik jihatdan unli tovushlar uyg'unligining har ikkala ko'rinishi ham saqlangan: **Bobil quduqning'a eltdi (38), kuchumiz yetse qonuqlarimg'a** kabi.

Asarda «dz (z)» belgisi dialekt bilan «y» — belgili dialekt muvoziy qo'llangan. ba'zi hollarda «z» belgili dialektning ustunligi ko'rinadi. Asarda qadimgi turkiy til «n-z-d-y» ust dialektlariga xos fonetik dalillardan quyidagilarni ko'rsatish mumkin: **Odamda(n) kezin** — odamdan keyin (35-bet), to'nlar **qizdurdi** — to'nlar kiydirdi (119-bet), onadan **azrildim** — onadan ayrildim (119-bet), **azoqlaringizni** — ayoqlaringizni (171-bet), **qin birla o'lturayin** — qiynoq bilan o'ldiray (171-bet), aning **qinimu** qattiqroq — uning qiynovi qattiqroq (171-bet), qazg'u (231-bet), quzi — quyi (232-bet), **qarlug'och** — qaldirg'och, **singak** — ari, qayu, **izti** — jo'natdi, **yizlayin** — hidlayin (43-bet), **adiz** — ulug', **asig'** — foyda (217-bet), **buzun** — budun (219-bet) kabi.

2. Asarning leksikasiga xos lug'aviy birliklar asosiy qismini O'rta Osiyodagi barcha turkiy tillarga oid so'zlar tashkil qiladi. Shuningdek, eski turkiy adabiy tili uchun xos bo'lgan **izi** (xudo), **yozuq** (gunoh), **telim**, **ukush** (ko'p), **tekma** (har), **yovumoq** (yaqinlashmoq), **tegi** (-gacha), **qamug'** (hamma), **tamug'** (do'zax), **ujmog'** (jannat), **o'tru** (qarshi), **yalavoch**, **qapug'** kabi so'zlar ham anchagina uchraydi. So'z o'rtasida **k**, **g'**, **q** tovushlari orttiriladi: Zaytun yig'ochining **yaburg'oqi** (45), eshkak **quzruqin** tutib (42).

3. «Qisasi Rabg'uziy» tilining morfologik xususiyatlari quyidagilar bilan ajralib turadi: unlihar uyg'unligi hodisasiga

¹Barcha misollar «Qisasi Rabg'uziy» asarining 1990-yilgi nashridan olindi (nashrga tayyorlovchi prof. E.I.Fozilov).

muvoftiq barcha kelishik affikslarining qattiq va yumshoq talaffuz etiluvchi variantlari – juftlari mavjud: Solihny bizga ko'rguzu beghy (57-bet); muqny yashy (35-bet); Sanly ishlarinni atalagyny qartlyqin yuklarin ul kendra qo'ydylar (119, 149-bet). Zaytun yig'achini (45-bet); qamug' cherikka (64-bet); eldin, ovg'a (119- bet) kabilar.

Olmoshlarda qaratqich kelishigining -yng (-ung) shakli, chiqish kelishigi o'rnida o'rin-payt kelishigi (tanvinli) shakli qo'llaniladi: bizing kuchumiz yetsa (56-bet), Kimung ichinda haq o'ti bo'lsa (64-bet), Man bu qizlarimda(n) birin senga bergayman (57-bet), Odamda (n) kezin qirq besh yildi kezin (35-bet). *Jamlovchi sonlar* ikagu, uchagu, o'nagu shaklida keladi: Ikagu Nuh payg'ambarga keldilar (43-bet); naluk (nima uchun), netak (-natak) -qanday, qamug' (hamma), tekma (har) kabi so'roq, belgilash-birgalik va kim ersa gumon olmoshi keng qo'llaniladi: naluk so'zlayumas (43-bet), qamug' qisarlardin (100-bet), tekma xotundi iki o'g'ul bo'ldi (101-bet), odam netak tesa andog' qilg'il (32-bet), bir kim ersa qamug' qoqdi (34-bet) kabi.

Aniq o'lgan zamon fe'lining birinchi shaxs ko'pligi -(i)miz affiksi bilan keladi: «Qisasi ar-Rabg'uziy» at berdimiz (11-bet), yana maqsudg'a kedimiz (24-bet). Shuningdek, bu keldik shakli bilan muvoziy qo'llanadi. Uning shart shakli ham shu affiks bilan keladi: uzum olib yesamiz bo'lg'aymu? (36-bet), istak shakli -ling affiksi bilan beriladi: kelgin, taom yegaling (36-bet), azoqin bog'lab kuzug'g'a ko'mushaling andog' – o'q o'lg'ay (106-bet).

Sifatdoshning -duq/duk, -g'ly/gly affiksli shakli deyarli qo'llanilmagan. *-mish /mish, -g'an/gan* shakllari esa keng qo'llanilgan: Musoning mo'jisasi **erdukin** bildi (175-bet), Farishta **erdukin** bidmadin, rivzon birlan **yanashg'an**. dunyodi(n) qushtek **uchg'an**, tamug'a kirib chiqg'an..., ba'zilar **aytmishlar** (35-bet), bundoq **qilmish** yo'q erdi (171-bet) kabi.

«Qisasi Rabg'uziy» asarida o'g'uz va qipchoq tillariga xos xususiyatlar ustunlik qiladi, shu bilan birga qarluq-uyg'ur tili unsurlari ham ishlatilganligi ko'rinadi. Asar tilida o'zbek adabiy tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasiga xos xususiyatlar ochiq ko'zga tashlanadi. U o'zbek adabiy tili taraqqiyotining

ilk davrlariga tegishli yodgorlik hisoblanadi. Ayni vaqtda bu asar o'zining til xususiyatlari jihatidan O'rta Osiyodagi turkiy tillarning barchasi uchun bab-baravar ilmiy qimmatga ega (100/8-bet).

Ma'lumki, O'rta Osiyo xalqlarining XIII asrdagi ijtimoiy-madaniy hayoti bevosita mo'g'ullar istilosi va uning oqibatlari bilan bog'liq bo'lgan. Tarixdan ma'lumki, 1218-yilda O'tror shahrida Chingizxonning 450 kishidan iborat 500 tuyalik savdo karvonining talanishi, Chingizxon elchisi va savdogarlarining o'ldirilishi 1219-yilda Chingizxonning O'rta Osiyoga bostirib kirishini, zaiflashib qolgan Xorazmshohlar davlatiga tobe shaharlarni birin-ketin bosib olinishini tezlashtirgan edi. Bu bosqinchilik urushlari natijasida gullab turgan shaharlar xarobaga aylandi, boy madaniyat va san'at yo'q qilindi, mamlakat xalq xo'jaligi, iqtisodiy-madaniy taraqqiyoti juda katta talafot ko'rdi, adabiyotning rivojlanishiga ulkan putur yetdi. Mahalliy olimlar, yozuvchilar boshpana izlab boshqa mamlakatlarga ketishga majbur bo'ldilar.

Bu voqealar o'sha davr adabiyotida, tilida, jumladan, eski o'zbek adabiy tilida yozilgan asarlarda ham o'z izlarini qoldirdi. Mo'g'ul istilosi adabiy tilning taraqqiyotiga sezilarli salbiy ta'sir qilgan bo'lsa-da, ammo uning rivojlanishini, qo'llanish doirasi kengayishini to'xtata olmadi.

Umuman, turkiy xalqlar va turkiy tillar tarixida XIII–XIV asrlar alohida murakkab bir davrni tashkil qiladi. Bu davrlarda Movarounnahr, Xorazm va Oltin O'rdada maydonga kelgan asarlar o'zining til xususiyatlari jihatidan bir-biridan farq qiladi. Bu hodisaga (bu asarlarning til jihatidan farq qilishiga) ularning ikki madaniy markazda — Sharqiy turkiy va g'arbiy turkiy davlatlar hududida yaratilganligi sabab bo'lgan. Ammo shunga qaramay, bu asarlarning hammasida qarluq-chigil-uyg'ur vao'g'uz-qipchoq til birliklarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari o'z ifodasini topgan. Bu esa o'sha davrda juda katta hududda yashagan turkiy qabila va elatlarning bir-biri bilan yaqin munosabatda bo'lganligini, iqtisodiy-madaniy aloqalari rivojlanganligini ko'rsatadi. Buning natijasida turli o'ikalarda turkiy tilning ta'siri, uni o'rganishga qiziqish kuchayib bordi. Jumladan, mashhur olim Abu Hayyon

XIII asr oxiri XIV asr boshlarida o'zining «Kitob ul-idrok-lison ul-atrak» («Idrok va turkiy tillar kitobi»), «Kitob ul-af'ol fi lisonit turk» («Turk tilidagi fe'llar kitobi»), «Addurat ul-musi'a fi lug'at-it turk» («Turk tili haqida nur beruvchi marvarid») kabi mashhur asarlarini yaratdi. Shuni ham eslatish kerakki, mo'g'ullar hujumi natijasida Movarounnahrda tuzilgan davlat — Chig'atoy ulusining (davlatining) tili turkiy til (85/17-bet), ya'ni eski o'zbek adabiy tili edi.

Eski o'zbek adabiy tili tashkil topgan dastlabki davrlardan boshlab, fonetik, leksik, grammatik jihatdan Qoraxoniylar davrida qarluq-chigil-uyg'ur dialekt guruhi asosida shakllangan Sharqiy turkiy adabiy tilga xos barcha asosiy xususiyatlarni o'ziga singdirib olgan edi. Ayni vaqtda, bu xususiyatlar esa o'zbek tilida takomilga erishgan, bir qator o'zgarishlarga ham uchragan edi. Bu o'zgarishlar avvalo adabiy tilda so'z qo'llash jarayonida ochiq ko'rindi. Jonli xalq tiliga xos juda ko'p so'z va iboralar adabiy tilga kirib qoldi, ular asosida ko'plab yangi so'z va so'z shakllari, yangi tasviriy vositalar ko'plab yaratildi. Adabiy-badiiy asarlarda tilning soddaligiga, uning ixcham, ravonligiga katta e'tibor berish bilan birga xalq tiliga xos quyma iboralar, maqol va hikmatli so'zlardan keng foydalanish asosida obrazlilikka, badiiy pishiqlikka erishildi. O'zbek tilining fors-tojik adabiy tili bilan o'zaro munosabati yana ham rivojlandi. Shu asosda o'zbek adabiy tilining umumxalq xususiyati kuchayib bordi.

Bu davrda eski o'zbek adabiy tilida yaratilgan eng muhim yodgorliklarga «O'g'uznoma», «Qisasi Rabg'uziy», «Tafsir», Durbekning «Yusuf va Zulayho», «Muhabbatnoma» ta'sirida yaratilgan «Latofatnoma», «Taashshuqnoma» kabi asarlarini kiritish mumkin.

«O'g'uznoma» asari davr tilining ilk yodgorligi asari hisoblanadi. Qarluq-uyg'ur va o'g'uz shevalariga xos bo'lgan bu yodgorlikning yozilgan vaqti va o'zni haqida turlicha fikrlar mavjud. «O'g'uznoma» tarixiy afsonalarga asoslangan epik asarlardan bo'lib, unda qadimgi qabilalar va qabila ittifoqlarining birlashishi, intilishlari o'z ifodasini topgan. Shu kabi N.M.Mallayevning «O'g'uznoma»da XIII–XIV asrlardagi voqealar ham ma'lum darajada iz qoldirgan» (95/201-bet).

degan fikrini quvvatlash mumkin. A.M.Shcherbak o'g'uz haqidagi afsonaning mundarijasini chuqur tahlil qilib, unda tasvirlangan voqealar turkiy qabilalar tarixining qandaydir bir bosqichinigina aks ettirmaydi, balki asar muallifi ko'rgan voqealar yoki undan oldingi davrlarda bo'lib o'tgan voqealar afsona uchun qisman material sifatida xizmat qilgan bo'lishi mumkin. Bu voqealar orasida Chingizxon yurishlari muhim o'rin tutadi, deb ko'rsatadi (101/100-bet).

«O'g'uznoma»ning bir qancha qo'lyozma nusxalari bo'lib, O'g'uz haqidagi afsona turlicha talqin qilinadi. A.M.Shcherbakning yozishicha, Parij Milliy kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozma XV asrda kitobat (101/16-bet) qilingan bo'lsa ham, lekin u asl nusxa hisoblanmaydi. P.Pellionning fikriga qaraganda, Shefer qo'lyozmasi dastlabki nusxa bo'lib, 1300-yillarda Turfon (Qashqar)da yozilgan. Keyinroq esa ancha o'zgartirilgan matni XV asrda qirg'izlar yashagan hududda ko'chirilgan bo'lishi kerak (101/102-bet). Xuddi shunday fikrni bundan ancha ilgariroq V.V.Bartold ham bayon qilgan edi. Nemis olimi V.Bang «O'g'uznoma»ning til xususiyatlarini tahlil qilish asosida afsonaning tilini shartli ravishda yangi Sharqiy turkiy til deb ataydi va P.Pellionning fikriga ancha yaqin mulohazani ilgari suradi. A.M.Shcherbak «O'g'uznoma»ning turli qo'lyozmalarini o'rganish, uning tilini boshqa asarlar bilan qiyoslash asosida shunday xulosaga keladi: asl nusxa qo'lyozmaning tili «y» lovchi shevada yozilgan, so'z negizining fonetik shakllanishida lablashmagan tovushlar ko'proq ishtirok etadi. Asar XIII asr oxiri, XIV asr boshlarida Turfon (Qashqar)da yozilgan. Qabila ittifoqlarining birlashish tamoyilining kuchayishi, buning natijasida ancha qat'iylashgan qarluq, uyg'ur, o'g'uz tili xususiyatlaridan tashqari, keyinroq kirib qolgan qipchoq unsurlari ham asar tilida aks etgan. Bu dialektlarning hammasi esa birgalikda eski o'zbek tilining negizini tashkil qiladi (101/103, 106–107-betlar).

Darhaqiqat, «O'g'uznoma» tilida nisbatan yangi fonetik, leksik va grammatik xususiyatlar anchagina uchraydi. Masalan, so'zda «d, dz» ga nisbatan «y» tovushining ustunligi hodisasini ko'rish mumkin: **adg'yr, qon** o'rnida **ayg'yr, qoy** ishlatiladi. Ammo bu holat hali qat'iy bo'lmay, ularning muvoziy qo'lla-

nishi ham uchraydi: **ayg'yr, adug' (ayiq)** kabi. Unlilar uyg'unligi to'la saqlangan: **urung'udun** son **qalbiqlari** (eshik) **temurdun** erdilar. Undoshlarda jarangsizlanish, jaranglanish hodisasi kuchli: atni **keldurdi. Tañ erte bolduqta**. So'z oxirida tor va keng unlilardan keyin til orqa **«g'/g»** tovushlari saqlanadi: tirig, olug, tag', adug'. Kishilik olmoshlarining I shaxsida **«b-m»** shaklda keladi: baluqni (shahar) **benga** saqlab kelgil. Menge atam bu baluqni berub turur. Qaratqich kelishigining **«-nym,/nun»** turlari ko'proq uchraydi: begnin og'ulxi, og'uz qag'anyn atxi. Anun bashxi, qag'anun cherigi kabi.

Asarda tushum kelishigining qadimgi **«-yig'/ig»** affiksli shakli; **«-/y/n, -/l/n»** affiksi orqali yasalgan qurol vosita kelishigi shakli qo'llanmaydi. Asarda **«-duq, -duk, -g'u -gu»** affiksli sifatdoshlar uchrab turadi: **ybardug'uda** erdi. **Urushg'udun** son. Og'uz **kördukte** uzi ketti kabi.

Tartib sonlarning ikkinchi (ikinti o'rnida), uchunchu/uchunchi (uchunch o'rnida) shakllari qo'llangan. Shart fe'li asosan **-sa (-sar o'rnida)** affiksi bilan keladi: **birinchisiga** Kun at qoydilar, **ikkinchisiga** Ay at qaydilar... kulse uyg'lasa kabi.

Bu yodgorlikda leksik jihatdan **tapuq** (xizmat), **telim** (ko'p), **tug'** (bayroq), **baluq** (shahar), **bergu, qapug', uqg'ulug', cherig, muran** (daryo), **achqich** (kaliit), **toqush, koruklug** kabi eski turkiy, mo'g'ulcha so'zlar uchraydi. Bu faktlar asarda qarluq-uyg'ur tili xususiyatlarining ustun ekanligini ko'rsatadi. Asar tilida uchraydigan bir qator mo'g'ulcha so'zlar esa o'sha davrlarda turkiy tillarga mo'g'ul tilidan kirib o'zlashib qolgan yangi leksik qatlamni tashkil qiladi. «O'g'uznoma» asarining tili faqat ba'zi bir xususiyatlari bilangina eski o'zbek adabiy tilidan salgina farq qiladi, u ko'proq qarluq-uyg'ur tili an'analariga yaqin turadi. Demak, «O'g'uznoma» asarining tij materiallari orqali eski o'zbek adabiy tilining qarluq-chigil-uyg'ur til birligi bilan yaqin munosabatda, uzviy aloqador ekanligi aniqlanadi.

Jumladan, eski o'zbek adabiy tilining muhim yodgorliklaridan biri Qarshi shahrida topilgan «Tafsir» asari hisoblanadi. Bu asar «O'rta Osiyo Tafsiri» deb ham yuritiladi.

«Tafsir» — «Qur'on»ning so'zma-so'z tarjimasini, izohlar, sharhlar va tushuntirishlardan iboratdir. «Tafsir»da 18-suradan

boshlab «Qur'on» tarjimasini, sharhlar, izohlar beriladi. Asarning birinchi qismida har bir suradan keyin uning mazmunini bilan bog'liq hikoyalar berilgan. Ikkinchi qismida esa suralardan izohlar va she'rlar va she'riy parchalar keltirilgan. Kitobda «Tafsir»ni tartib bergan va ko'chirgan kishilarning nomi ko'rsatilmagan. Asarning yozilgan vaqtini belgilash juda qiyin, uning matnida bu haqda hech qanday ma'lumot yo'q. Shuningdek, asarning birinchi asl nusxa qo'lyozmasi ham aniqlangan emas. «Tafsir»ning til xususiyatlariga asoslanib, V.V.Bartold uni XI asrda yaratilgan «Qutadg'u bilig» dostonidan ham ilgariroq yozilgan bo'lishi kerak, degan fikrni aytadi (102/72-bet).

Turk olimi A.Erdogan «Tafsir»ning lug'at tarkibi jihatidan «Devonu lug'otit turk» leksikasiga yaqin ekanligiga, unda diniy tushunchalarni ifodalovchi so'z va iboralarning turkiy tilga tarjima qilib berilganligiga asoslanib, uning asl nusxasi X — XI asrlarda yozilgan degan fikrni bayon qiladi (103/47-48-betlar). «Tafsir» tiliga xos bir qator leksik va morfologik xususiyatlarning «Hibat ul-haqoyiq» asarining tiliga ancha yaqinligini hisobga olib, S.Ye.Malov bu asarni XII—XIV asrlar oralig'ida yozilgan yodgorlik deb hisoblaydi (63/221-bet). Bu asarning tili to'g'risida katta ish olib borgan A.K.Borovkov «Tafsir»ning dastlabki yozilgan davri X asr oxiri bo'lib, asarda mo'g'ullar va keyinroq Temuriylar davriga xos so'z va atamalarning qo'llanishi hamda uning fonetikasi va morfologiyasida uchraydigan yangiliklar mazkur Qarshi qo'lyozmasi XV asrda qayta ko'chirilgan bo'lishi mumkin, deb izohlaydi. Shunga ko'ra u «Tafsir»ni XII—XIII asrlarning yodgorligi deb qaraydi (99/12-bet).

Shuni qayd qilish kerakki, til xususiyatlari jihatidan «Tafsir» asosan, adabiy **d(dz)** tiliga xos bo'lgan XI—XIII asr yodgorliklariga yaqin turadi. Shu bilan birga bu asarda juda ko'p hollarda **d/dz** ning **y** ga o'tishi hodisasi ham uchraydi: **adg'yr-ayg'yr, adyr-ayyr, adrylmoq-ayrylmoq** kabi. Bundan tashqari, asarning bir qator leksik va morfologik xususiyatlari ham uning tili shu davrlarda yaratilgan «Devonu lug'otit turk», «Qutadg'u bilig», «Hibat ul-haqoyiq» kabi yodgorliklarning tiliga yaqin ekanligidan guvohlik beradi.

Masalan, «Tafsir»da **tabaru** (tomon), **budun** (xalq), **arugʻ**, **talım** (koʻp), **asugʻ** (foйда), **erkligʻ** (kuchli), **yig** (kasallik), **su** (qoʻshin), **ogʻur** (vaqt), **otru** (qarshi), **elig** (qoʻl), **tapugʻ** (xizmat), **tumlugʻ** (sovuq), **qonuqchıy** (mehmon) singari koʻplab oʻsha davr yodgorliklari tili uchun xos boʻlgan soʻz va iboralar qoʻllangan. Tushum kelishigining «-ıyğʻ-ıgʻ» affiksli shakllari uchramaydi. *Kishilik olmoshining* joʻnalish kelishigida **anar** (aydi anar) shakli uchraydi. Aniq *oʻtgan zamon feʻlining birinchi shaxs koʻpligi bardimıyız, keldimıyız (qamugʻ berdımız anar hikmat bilig)* shaklida ham kelgan. *Sifatdoshning -ıgli, -ıyğʻli, -dachi, -dachıy, -duq, -duk* affikslari bilan yasalgan shakllari (men senin turutachıyn yaratachıyn men Firavnıyn budunı yarlıyğʻdın chıyğʻıgʻlıylar tururlar; bularga quldıchi kebi) qoʻllangan (99).

«Tafsir» tilining aralash til xususiyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Asar tilida ham Sharqiy turkiy (qarluq-uygʻur), ham gʻarbiy turkiy (oʻgʻuz-turkman) fonetik, morfologik va leksik unsurlarning muvoziy holda qoʻllanishi uchraydi. Inkomi bildiruvchi **ermas va ermaz, tagul va dagul, ilgaru va ilaru, ant va and, tarıgʻ va darıgʻ, art va ard** (orqa), **qaragʻu kozsiz va togʻa kszsiz** (koʻr), **ortaq esh va dost esh, ksnilik va gsnuluk** (toʻgʻrilik), **tagra va dagara** (tevarak) kabilar (99).

Sharqiy turkiy va gʻarbiy turkiy til unsurlarining bunday aralash holda ishlatilishi faqat «Tafsir» tili uchungina xarakterli emas. Shu davrlarda maydonga kelgan Alining «Qissai Yusuf», Xorazmiyning «Muhabbatnoma», Qutbning «Xusrav va Shirin» kabi qator adabiy yodgorliklarida shunday hodisani — Sharqiy va gʻarbiy turkiy unsurlarning aralash holda qoʻllanilganini koʻrish mumkin. Bu hol XIII—XIV asrlarda Sharqiy qarluq-chigil-uygʻur tili va gʻarbiy oʻgʻuz-qipchoq tillarining qoʻshilib ketishi asosida eski oʻzbek adabiy tili tashkil topganligini tasdiqlaydi.

Bu davr oʻzbek adabiy tilining taraqqiy etishida qadimdan boshlab xalqlarimiz oʻrtasida davom etib kelgan iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy va adabiy aloqalar katta ahamiyatga ega boʻldi. Oʻzbek, tojik, ozarbayjon, eron, hind xalqlari madaniyat va adabiyot sohasidagi oʻzaro aloqalarni mustahkamlash, rivojlantirish orqali bir-birlarining madaniy

boyliklaridan bahramand boʻlganlar, adabiy anʼanalarni davom ettirganlar. Ayniqsa, buyuk soʻz sanʼatkorlarining adabiy anʼanalarini davom ettirish, oʻzaro hamkorlikni mustahkamlash asosida bu xalqlarning madaniyati, adabiyoti yana ham rivojlandi, yozuvchi va shoirlar ijodiy kamolotga erishdilar. Madaniy-adabiy hamkorlik va aloqalarning mustahkamlanishi natijasida tarjima adabiyoti asarlari maydonga keldi. Bu esa, oʻz navbatida, shu xalqlar tillarining rivojlanishiga katta taʼsir koʻrsatdi.

XIV—XV asrlar davomida oʻzbek yozuvchilari Nizomiy Ganjaviy, Saʼdiy Sheroziy kabi buyuk shoirlarning «Xusrav va Shirin», «Mahzan ul-asror», «Guliston» singari qator asarlarini tarjima qilib, kitobxonlarga hadya etganlar. Albatta, bu tarjimalar koʻrsatilgan asarlarning aynan soʻzma-soʻz tarjiması emas, balki maʼlum darajada ularning ijodiy qayta ishlangan nusxalari edi.

Isteʼdodli oʻzbek shoiri Qutbning «Xusrav va Shirin» dostoni Nizomiy Ganjaviyning shu nomli asarining oʻzbek tiliga erkin ijodiy tarjiması hisoblanadi. Doston ozarbayjon va oʻzbek xalqlari oʻrtasidagi madaniy aloqalarni, oʻzbek adabiyoti tarixini, ayniqsa, oʻzbek adabiy tili tarixini, uning tarixiy taraqqiyotini oʻrganishda juda katta ahamiyatga ega. Qutb oʻz asarida Nizomiy dostonining gʻoyaviy-badiiy yuksakligini, uning asl mohiyatini saqlagan holda unga ancha yangiliklar kiritgan, uni XIV asr hayotiga doir voqealar, aholisi — turli tabaqalarning hayotiga va tabiat tasviriga bagʻishlangan lavhalar bilan boyitgan asl (nusxa) asar darajasiga koʻtargan. Asar Oltin Oʻrda hukmdori Oʻzbekxonning (1320—1340) oʻgʻli Tonibek va uning xotiniga bagʻishlab yozilgan. Qutbning hayoti haqida tarixiy maʼlumotlar yoʻq. Dostonda berilgan sheʼriy parchalar orqali uning moddiy qiyinchiliklar ostida gʻarib hayot kechirganini bilish mumkin. Professor N.M. Mallayevning koʻrsatishicha, «Xusrav va Shirin» dostoni Tonibek hokimlik qilgan Oq Oʻrdada yozilgan boʻlsa kerak (95/315-bet).

«Xusrav va Shirin» dostonining yagona qoʻlyozma nusxasi 1914-yilda Parij Milliy kutubxonasidan topilgan. Bu nusxa aslida qipchoqlik boʻlgan Barka Faqih ibn Barokaz ibn Qondud ibn Edgu degan kishi tomonidan 1379—1380-yillarda

Misrda ko'chirilgan. E.I. Fozilovning ko'rsatishicha, asar 1383-1384-yillarda ko'chirilgan (104/131-bet).

Bu doston o'zbek adabiy tilining XIV asrdagi taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Oltin O'rda — Xorazm sikliga kirgan boshqa asarlar singari bu asar ham g'arbi-janubiy yoki o'g'uz-qipchoq tillari asosidayaratilgan. Shunga ko'ra, unda o'g'uz-qipchoq tili xususiyatlari o'z ifodasini to'liq topgan. Shu bilan birga, Movarounnahrda rivojlangan o'zbek adabiy tili unsurlarining keng qo'llanilganligini ham ko'rish mumkin.

«Xusrav va Shirin» fors-tojik tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan asardir. Qutb bu asarni tarjima qilishda Nizomiyning adabiy uslubini saqlashga, dostonning g'oyaviy-badiiy xususiyatini, uning asl mohiyatini asl nusxadagi singari berishga harakat qiladi. Shuning uchun u asarni so'zma-so'z emas, balki ijodiy tarzda erkin tarjima qiladi. Bu esa yozuvchidan katta bilim, yuksak iste'dod — qobiliyat, kuch-g'ayrat va mahorat talab qilar edi. Qutb ona tilining o'ziga xos xususiyatlarini, uning lug'aviy boyligini va nozikliklarini, ixcham grammatik shakllarini chuqur va mukammal bilgan. Shunga ko'ra, asarni sodda, tushunarli xalq tilida tarjima qilgan. Umumxalq tiliga xos sermazmun, quyma so'z va iboralardan, badiiy tasvir vositalaridan keng foydalangan, o'z asarining uslubi ravon va o'ynoqi bo'lishiga erishgan. Masalan, Shirin qiyofasini, go'zal siymosi va xush suratini ta'rif-tavsiflab:

*Yuzi shirin, so'zi shirin. o'zi ham,
Isoyu Maryam kabi Dami jong'a sabab.*

kabi ajoyib baytlar yaratadi. Asl nusxadagi murakkab so'z birikmalari, ifodalarni ixcham, sodda, tushunarli so'z va iboralar bilan beradi. Adib xalq tiliga xos hikmatli so'zlar, maqollarni o'z o'rnida ustalik bilan qo'llash asosida asarning badiiyiligini, obrazlilikini kuchaytiradi: *Qatig' oqg'ansu kupruklar yiqar terk* (tez oqqan suv ko'prikni tez yiqitib ketadi), *quyar o'tmak isig' bo'lsa tanurbi* (ko'p qizdirilgan tandir nonni kuydiradi).

*Urug'nikim solar yerga ekinchi,
Sabr birla boshin ko'trur ikkinchi.*

«Xusrav va Shirin» dostonining o'ziga xos til xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Fonetik jihatdan *z/d* (>-dz) va *y* belgisi holatning muvoziy holda kelishi uchraydi, ammo ko'p hollarda *z* qo'llanadi: *qazg'u*, *oting adzaqi*, *adzrilib*, *aliftek bo'zum* (alifdek bo'yim) kabi. So'z oxirida *s* tovushi jarangli *z* bilan almashadi: **kechurmaz**, **ko'tarmaz**, **bermaz**, **bo'lmaz**: *Ketarmazlar niqob el ko'rmasun teb* kabi. So'zning boshida, bo'g'in va so'z oxirida *y*, *t*, *g'*, *v* kabi tovushlar ba'zan tushib qoladi yoki boshqa tovush bilan almashinadi: **aymish**, **ayg'uchi**, **ig'lar** (yig'lar), **o'yanib** (uyg'onib), **su**, **issy**, **yoy** (yoz). *Kelur yoy kunda Arman tog'larinda* (104).

2. Doston lug'at boyligining asosini turkiy-o'zbek tiliga xos so'zlar tashkil qiladi. Boshqa asarlarda bo'lganidek, **qamug'**, **ajun**, **talim**, **ukush**, **yozuqsiz** (gunohsiz), **tabug'**, **chimgan**, **elik**, **o'g'an**, **esruk**, **asig'**, **qo'rqug'**, **tegru**, **umunch**, **o'kunch** kabi so'zlar ishlatilgan. Asar fors-tojik tilidan tarjima qilinganligi sababli unda shu tillarga oid, shuningdek, arabcha so'z va iboralar ham ko'p uchraydi: **farmon**, **xiromon**, **olam**, **oqil**, **dargoh**, **siyosat**, **naqsh**, **jamol**, **sarvar**, **bo'ston**, **shod**, **tamosho**, **naqqosh**, **parivash** kabi.

3. Morfologik jihatdan: tartib sonning **-gu** qo'shimchali va *inch(i)* shakllari muvoziy qo'llangan: **ichtilar ikagu...** **boshin ko'trur ikkinchi** kabi. So'roq, ko'rsatish olmoshlari **netak** (qanday, nechuk), **qanda** (qayerda), **yurushun qandin** (kelishing qayerdan), **qayu** (kim ul Xusrav qayu, qayusi Shirin), **mumungtek**, **aningtek** kabi shakllarda ishlatilgan **-g'ay** affiksli kelasi zamon fe'li **-g'a** shaklida ham qo'llanadi: **bo'lg'aman**, **kelg'asan**, **olg'abiz** (104).

*Ush anda bo'lg'asiz holimdin ogoh.
Sut ermaz ag'u bolsa, qolg'aman no'sh.*

Hozirgi-kelasi zamon fe'li birinchi shaxs bo'lishsiz shakli **-mon (-man)** tarzida keladi: **kelmon** — **kelmayman**, **bormon** — **bormayman**.

*Bu ishka chora men bechora bilmon,
Ojizlikdin azin hech chora bilmon (XIII).*

Buyruq-istak maylining birinchi shaxsi (birtigi va ko'pligi) **-ay (ayin), -aling, -alim (-g'aling, g'alim)** kabi shakllarda keladi: **bo'lay, bo'layin, yopaling, baralim, alalim, alaling** (104).

*Er otlandi qilaling teyu javlon,
Ketur xon, salkim, emdi osh yegalim (XIII).*

Shart maylidagi fe'llar turli shaxslarda **alsang, topsaman, boqdisa, so'zlasabiz, olsamiz** kabi shakllarda qo'llangan. *Kecha bo'ldisa, kun simurg'i ketti (XIII).*

Asarda **-gan** va **-mish** (faolroq) affiksli sifatdoshlar muvoziy keladi **-mishcha** (-g'ancha o'rnida) shakli uchraydi: kuchum yetmishcha, yiroq bo'lmishcha (bo'lgancha) kabi **-u, -yu, -madin** affiksli ravishdoshlar davom, takror ma'nosida ko'p qo'llangan: **boru o'ynayu, ketu: Kulu o'ynayu tebradilar; so'zlamadin indi otidin (XIII)** kabi (104).

Shunday qilib, Qutbning «Xusrav va Shirin» dostoni o'zbek adabiy tilining o'g'uz-qipchoq tillari asosida yaratilgan yodgorlikdir. Bu asar bir tomondan, XIV asrlarda o'zbek adabiy tiliga g'arbiy turkiy tilning sezilarli ta'sir qilganligini, ikkinchi tomondan, umumxalq so'zlashuv tili asosida boyiganligini, taraqqiy etganligini ko'rsatadi.

Bu davrlarda o'zbek shoirlaridan Sayfi Saroyi 1390–1391-yilda Sa'diy Sheroziyning mashhur «Guliston» asarini va Haydar Xorazmiy Nizomiy Ganjaviyning «Mahzan ul-asror» dostonini tarjima qildilar. Bu ikkala asar ham bir tomondan, o'zbek, fors-tojik va ozarbayjon xalqlari adabiyotlarining o'zaro aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zbek adabiyoti va o'zbek adabiy tilining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu har ikkala asarning tarjimalarida Sa'diy Sheroziy va Nizomiy Ganjaviyning axloqiy-ta'limiy, insonparvarlik qarashlarini targ'ib qilish bilan birga tarjimon-mualliflar o'zlarining estetik va axloq-odob haqidagi ilg'or fikr-mulohazalarini ham ilgari suradilar.

Sayfi Saroyining «Guliston» asari ham, Haydar Xorazmiyning «Mahzan ul-asror» dostoni ham Xorazm–Oltin O'rda siklidagi yodgorliklarga kiradi. Shunga ko'ra, ular o'g'uz-

qipchoq tili xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Bu asarlarda fonetik jihatdan **y** tovushini qo'llash ustun holatga kelgan, **d, z, dz (>)** tovushlari deyarli uchramaydi: *nozik ayoqlarini shikanja qo'yar edi (G). Uzun bo'yli, himmat ayog'i (M.as), har birini bir yerda hokim qo'ydi (G), qo'mag'a... O'z ishin (M.as).* Ushbu asarlarda «z» tovushi «y» tovushi bilan almashadi, «l» tovushi o'rnida «d» keladi: **eyguluk (ezgulik) eyguni, yomonni sinagan (G.) o'g'ri... izdab (izlab) nima topmadi (G).** So'z oxirida «g', q, k» tovushlari tushib qoladi: Ziyorat qilmag'a (ziyora qilmoqg'a), **yurumag'a (yurmaqg'a)** toqatim yo'q (G). *Obidni ko'rmag'a rag'bat etti (G) (104).*

Jo'nalish kelishigi **-a/na, -qa/g'a/ga** shakllarida keladi: *...qiz o'g'lona evlandi, yorontlarina aytti, yoshi yetmishga yetgan. Qorunga nahat qilur (G). Bu xil'atqa, odam atang'onga (M.as.)* Jo'nalish kelishigi ba'zan chiqish kelishigi o'rnida keladi: *Sulton vazirg'a surdi. Iskandarga surdilar. Bir ulu shayxqa surdilar. Bir fozil muftiyg'a surdum (G).* «Xusrav va Shirin» da bo'lganidek, bu asarlarda ham **qaratqich kelishigi shakli kesim vazifasida keladi: Men bu qasidani bilurman, Anvariyning durur (G). Naqd seningdurki, sazovorsan. (M.as.) (70).**

Qaratqich kelishigi «-im» shaklda ham keladi: Zulm bizim tarafimizdan bo'lg'ay. *O'zganing ash'orin manim der (G).* Inkori bildiruvchi dagul (tagul) so'zi ko'p ishlatiladi: *So'zlamak hikmat degul, ey xush maqol (G). Boy daguldur dirami bor esa (M.as.).* Fe'lning **-lim, -yim** affiksli buyruq-istak shakli; **-g'ay** shaklining qisqargan holati; **-mon** affiksli bo'lishsiz shakllar qo'llanadi: *Tur ketalim. Nechuk ketayim. Bilmon, bu o't manim evima qandin tushiti (G). Topmagasen dunyoda mendin asar (M.as.) (101, 70).*

Har ikkala asarda ham arab, fors-tojik tillariga xos so'z va iboralar ko'p uchraydi: **ozod, zaif, loyiq, xabar, ziyorat, charxi falak, dunyoyi dun, dardi dilim, ohi jigar, gunbazi nilufariy, gavhari ma'ni** kabi (104).

Demak, bu davrlarda o'zbek tilida yaratilgan «Xusrav va Shirin», «Guliston», «Mahzan ul-asror» singari tarjima asarlar eski o'zbek tilining mushtarak adabiy tili sifatida uning rivojlanishiga, so'zlashuv tiliga yaqinlashishiga munosib hissa qo'shgan. O'rta Osiyoda turkiy adabiy tillarning taraqqiy

etishidagi asosiy an'ana — sharqiy qarluq-chigil-uyg'ur hamda o'g'uz-qipchoq tillari an'anasining mo'g'ul istilosi davrida ham, undan keyin XIII—XV asrlargacha ham, ya'ni eski o'zbek adabiy tili to'la shakllanib rivojlangan davrlargacha davom etadi. Uning yana ham takomillashishi, taraqqiyotning yuqori pog'onasiga ko'tarilishi esa Alisher Navoiy davriga to'g'ri keladi.

XIV asrda o'zbek adabiy tilida yaratilgan yirik yodgorliklardan biri **Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asaridir**. Bu asar O'rta Osiyo xalqlari mo'g'ullar istilosi dahshatlaridan qutulgan, mamlakatning iqtisodiy-xo'jalik va madaniy hayotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lib, muvaffaqiyatlarga erishilgan davrlarda yaratildi. «Muhabbatnoma»ning muallifi — Xorazmiy taxallusli shoirning nomi ma'lum emas, uning hayoti haqida tarixiy ma'lumotlar ham yo'q. Faqat «Muhabbatnoma»ning muqaddimasi va xotimasida uning hayotiga doir ba'zi bir ma'lumotlar uchraydi. «Muhabbatnoma» o'zbek mumtoz adabiyotida dunyoviy ishqiy-lirik mavzuda yozilgan ilk dostonlardan bo'lib, o'zbek adabiyotining rivojlanishiga, o'zbek adabiy tilining boyishiga, adabiy-uslubiy me'yorlarning qat'iy qilinishiga muhim hissa bo'lib qo'shildi.

«Muhabbatnoma» 1353—54-yillarda Xorazm hududida Sirdaryo atroflarida yozilgan. Asar o'n bir noma (sakkiztasi o'zbek tilida, uchtasi fors-tojik tilida) 473 baytdan iborat bo'lib, asosan, masnaviy, g'azal, soqiynoma va qit'alarni o'z ichiga oladi.

Hozirgi paytda fanda «Muhabbatnoma» asarining uyg'ur va arab yozuvlarida ko'chirilgan ikkita qo'lyozma nusxasi bo'lib, ular Britaniya muzeyida saqlanadi. Shu qo'lyozmalarning fotonusxalari asosida asarning uyg'ur yozuvi nusxasi transkripsiyasi, rus tiliga tarjimai va tahlili bilan 1959-yilda A.M.Shcherbak tomonidan, arab yozuvi nusxasi 1961-yilda A.Najip tomonidan nashr etildi. Bu nusxalardati xususiyatlari jihatidan ma'lum farqlar uchraydi. (Uyg'ur yozuvidagi qo'lyozma 1432-yilda, arab yozuvidagi nusxa esa 1508—1509-yillarda ko'chirilgan.) Masalan, uyg'ur yozuvi nusxasi **ichalli**, arab yozuvi nusxasida **ichaling**, **kozlu-kozli**, **dudaqli-dudag'li**, **ayaqning'a-adzaqinqa**, **elgina-elginga**, **jahana-jahanga** kabilar (101). Shuningdek, uyg'ur yozuvidagi qo'lyozma-

sig'a nisbatan arabcha qo'lyozmada forscha-tojikcha ilova va qo'shimchalar ko'proq uchraydi. Shunga ko'ra, A.M. Shcherbak bu nusxalarning qaysi biri asl nusxaga yaqin ekanligini aniqlash juda qiyindir, degan fikrni ilgari suradi (101/127-bet).

Til xususiyatlari jihatidan «Muhabbatnoma»da aralash unsurlarni, ya'ni ham Sharqiy turkiy, ham janubi-g'arbiy tillarning xususiyatlarini uchratish mumkin. Bu hodisalar asarning har ikkala qo'lyozmalarida ham uchraydi. Jumladan, tushum kelishigi affiksining **-ni/ni** va **-i/ı** shakllari muvoziy holda qo'llangan. *Ko'ngul iki jahonni ko'zga ilmas* (170 b). *Bag'ishla qonumi sultonsan oxir* (172 a). Shuningdek, jo'nalish kelishigi ham **-ga/ka**, **(-g'a/qa)** va **-na/a** shakllarida kelgan: *bersa chehrang ko'zlara nur* (168 a), *salomim gulga etti* (164 b), *muhabbat ganjini odamga bergan* (160 a) kabi (101).

Buyruq-istak maylining birinchi shaxs ko'pligi **-ali va -aling** shakllarida keladi: *qilali ayshu ishrat sochaling* (307). Hozirgi-kelasi zamon fe'li **-isar** unlidan so'ng esa **-yur** shaklida, birinchi shaxs ko'pliginining bo'lishsizi **-mon** tarzida keladi: *Ichali bodani gullar so'lisar* (173 a). *Saning ishqingda sayrayur Xorazmiy* (167 a). *Eshikning to'praqindin bosh ko'tarman* (170 b). **-mak, -moq** affiksli harakat nomlarining kelishik shakllari bilan kelishi, **-ar** affiksli taqsim sonlar, **-gay(ga)** affiksli hozirgi-kelasi zamon shakllari, **-incha** affiksli chegara shakllari ko'p uchraydi: *Yiroqdin boqmog'a imkon yo'q, ey jon* (166 b). *Eshitmish bo'lg'asan Yusuf molin yo'q, ey jon* (166 b). *Eshitmish bo'lg'asan Yusuf jamolin* (161 b). *Kel, ey oy yuzlu soqi, tut biror qo'sh* (168 a) kabi (101).

Asarning tili lug'at tarkibi jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Unda **qamuq** (hamma), **o'kush**, **ko'rkkaboy** (ko'rkam), **chimgan**, **edzgu**, **asru** (juda), **tapuq** (xizmat), **degul** (emas), **tegi** (gacha), **telim** (ko'p), **irin-dudaq** (lab), **tiklin** (sanchilmoq), **o'ram** (ko'cha, yo'l) kabi so'zlar ko'p uchraydi. Zebo, sanam, la'l, qadr, visol, vafo, jamol, chehra, dilbar, xirod, mehr kabi ko'pgina arabcha, fors-tojikcha lug'aviy birliklar ham keng qo'llanilgan (101).

«Muhabbatnoma» o'sha davr jonli xalq tiliga yaqin, soddada, tushunarli tilda yozilgan. Unda o'zbek tili lug'aviy birliklaridan ko'p ma'noli so'z va iboralar, omonimik va si-

nonimik soʻzlar, har xil tasviriy vositalardan ustalik bilan foydalanib, ajoyib oʻxshatishlar, soʻz oʻyinlari yaratilgan.

*Boʻyung sarvu sanubartek, beling qil,
Vafo qilgan kishilarga vafo qil (101).*

Asarda oshiqning yorga boʻlgan muhabbatini, uning ichki ruhiy kechinmalarini tasvirlashda undalmalar, kirish soʻz va iboralar singari badiiy til vositalaridan mohirlik bilan foydalaniladi.

Undalmalar orqali bevosita yorga oʻz his-tuygʻularini bayon etib, murojaat qilinadi: *Ayo koʻrk ichra olam podshohi, ayo zebo sanam, ayo qadi sanubar, chehrasi oy (101)* kabi.

Shoir Muhammad Xojabekka, soʻqiyga teng Nasimiy va boshqalarga murojaat qilish orqali oʻz minnatdorchilik tuygʻularini, hayot lazzatlaridan bahramand boʻlish, yorga arzi hol aylab salom yoʻllash kabilarni ifodalaydi va goʻzal badiiy shakllar yaratadi:

*Yuzungda koʻrdum, ey jon, bayram oyin,
Salomim gulga elt, ey tong nasimi (101).*

«Muhabbatnoma»da fikrlar koʻpincha sodda gap orqali bayon qilinadi. Shuningdek, bogʻlangan qoʻshma gap, ergash gapli qoʻshma gap, sodda ixcham koʻchirma gaplar ham koʻp uchraydi:

*Tabassum qildi, aydi: «Ey faloni»,
Kelturgil bizga loyiq armuqgʻoni (101).*

Yuqorida keltirilgan misollar shuni koʻrsatadiki, Xorazmiy oʻz asarining «mazmuniga muvofiq badiiy shakl yarata olgan, turli xil usul hamda badiiy til vositalaridan foydalangan». «Muhabbatnoma» til xususiyatlari jihatidan XIV–XV asrlarda Movarounnahr va Xorazmda rivojlangan hamda keng qoʻllangan kitobiy adabiy til anʼanalarini, yaʼni eski oʻzbek adabiy tilini aks ettiradi. Asar XIV asr oʻzbek tiliga xos koʻpgina yodgorliklar bilan umumiylikka ega. «Muhabbatnoma» oʻzbek

adabiy tili va oʻzbek adabiyotining XIV asr taraqqiyotiga katta taʼsir etdi hamda oʻzbek adabiy tili va adabiyotining XV asrda yangi taraqqiyot pogʻonasiga koʻtarilishiga zamin tayyorladi (101/127-bet).

OʻZBEK ADABIY TILIDA UMUMXALQ TILIGA XOS XUSUSIYATLARNING KUCHAYISHI

Oʻrta Osiyo xalqlarining madaniy hayotida, jumladan, oʻzbek xalqi madaniyati, adabiyoti va adabiy tilining rivojlantirishida XIV–XV asrlar alohida yangi bir bosqich boʻlib kiradi. Bu davrda xalq ommasining moʻgʻullar istibdodiga qarshi ozodlik kurashi–sarbadorlar harakati kuchayib ketdi. Shahar hunarmandlari, kosiblar va dehqonlardan tashkil topgan sarbadorlar harakatining kengayishi natijasida moʻgʻullar hukmronligi kuchsizlandi, Movarounnahrda mahalliy feodal-aristokratlar orasida hokimiyat uchun qizgʻin kurash boshlanib ketdi. Oʻsha davrda Chigʻatoy ulusiga qarashli Movarounnahr mayda feodal davlatlarga boʻlingan boʻlib, ular oʻrtasida tinimsiz urush-janjallar davom etardi. Uzoq davom etgan qattiq kurashlardan soʻng Amir ibn Taragʻay Bahodir (1335–1405) hokimiyatni qoʻlga oladi. Amir Temur dastlab Movarounnahrni birlashtirish, Chigʻatoy ulusi oʻrniga mustaqil kuchli davlat tuzish, mamlakatni tushkunlik va halokatdan qutqarish yoʻlida kurash olib bordi. Natijada shaharlar obod boʻldi, yangi-yangi bogʻlar, karvonsaroylar, irrigatsiya inshootlari qad koʻtardi. Bu davrda meʼmorchilik, tasviriy-naqqoshlik sanʼati, fan va madaniyat taraqqiy qildi, adabiyot va oʻzbek adabiy tili rivojlandi.

Umumxalq oʻzbek adabiy tilining tashkil topishi jarayonining asosiy bosqichi XIV–XV asrlarga toʻgʻri keladi. Xuddi mana shu davrlarda adabiy yodgorliklar tiliga oid grammatik xususiyatlar, oʻzaro farqlar bilan bir qatorda, adabiy tilda va badiiy adabiyot tilida nutq birliklarining hozirgi oʻzbek adabiy tiliga xos yagona morfologik qurilishi, zamonaviy grammatik shakllar tizimi tashkil topdi. Shu davrda doston, gʻazal, noma, munozara, muammo kabi janr va uslublarda yaratilgan asarlarning tili bunga aniq guvohlik beradi.

*Aningkim, bir sevar jononi yo'qtur,
Haqiqat bil, taninda joni yo'qtur. (Xo'jandiy)*

*Bor edi ko'ngulda burundin bu azm,
Turki tili birlamu qilsam nazm. (Durbek)*

*Ko'ngil mehringni saqlab jon ichinda,
Sanigdek jon qani davron ichinda? (Said Ahmad)*

kabi misralarda hozirgi zamon kitobxonini uchun tushunilishi qiyin bo'lgan so'z de'yarli uchramaydi.

XIV–XV asrlarda o'zbek adabiy tilining rivojlanishida badiiy adabiyot tili yetakchi o'rinni egallaydi. Adabiy-badiiy asarlarning matnlarida umumxalq tilining ikki ko'rinishi adabiy til va so'zlashuv tili xususiyatlari ochiq namoyon bo'ladi, uning barcha imkoniyatlari yuzaga chiqadi. Bu davrlarda o'zbek badiiy adabiyot tilining shakllanishida, so'zlashuv adabiy tili me'yorlarini ishlab chiqish hamda adabiy tilni jonli xalq tiliga yaqinlashtirishda Durbek, Xo'jandiy, Yusuf Amiriy, Yaqiniy va ayniqsa, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy singari so'z san'atkorlarining, o'zbek shoir va yozuvchilarining asarlari muhim rol o'ynadi. Ularning asarlarida xalq tili vositalarining adabiy til unsurlari bilan qo'shilib borganligini ochiq ko'rish mumkin. Bu esa ular yaratgan asarlarning til va uslub jihatidan sodda, ravon bo'lishiga, ancha oson tushunilishiga olib keldi.

Bu davr o'zbek adabiy tilining muhim yodgorliklaridan biri Durbekning «Yusuf va Zulayho» dostonidir. Durbek Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan Yusuf va Zulayho haqidagi qissa asosida mustaqil badiiy asar yaratdi hamda o'zbek adabiyotiga, o'zbek adabiy tilining rivojiga munosib hissa qo'shdi. «Yusuf va Zulayho» dostoni 1409-yilda Balx shahrida yozilgan. Durbek o'z asarini xalq og'zaki ijodidan keng foydalangan holda yaratdi, asarning g'oyaviy-badiiy qimmatini oshirish maqsadida xalq maqollari, hikmatli so'z va iboralaridan o'rinni foydalandi. O'z asarini xalq tiliga yaqinlashtirib keng xalq ommasiga tushunarli bo'lishiga katta e'tibor berdi.

*Gul tilagan har jafosin chekar
Er kishining so'zi kerak bo'lsa bir (105).*

«Yusuf va Zulayho» dostoni eski o'zbek adabiy tilida yaratilgan mukammal yirik badiiy asarlardan hisoblanadi. Asar bevosita eski o'zbek tilining Sharqiy guruh dialektlari asosida yozilgan. Uning leksikasi, fonetika va morfologiyasida qarluqchigil va uyg'ur tili xususiyatlari o'z ifodasini topgan. Shu bilan birga, g'arbiy o'g'uz vaqipchoq tiligaxos shakllar ham uchraydi: **jo'nalish kelishigi affiksining -a/na ko'rinishi** (Band ila zindon **ichina** soldilar, Urdu **ayog'ina** bu g'am teshasin), **buyruq-istak mayli birinchi shaxs ko'pligining -li/ling affikslari bilan berilishi** (Joni aziz **aylali** senga nisor. Suhbati xosi **tutaling** ushbu ro'z), **hozirgi-kelasi zamon fe'li birinchi shaxs birligining qisqargan tarzda -man/am shakllari kelishi icharam/biluram** (Oy yuzini ko'ra **olman**, netay) (105/52-bet) kabilar. Asar tilida fors-tojik tiliga xos bir qator so'z va birikmalarni ham ko'rish mumkin (Barchaning ul joni **bangi surud**. Ko'ngul edi **dar g'amu jon mumtahan**). Bu kabi faktlar asarning tili XIV asr oxiri XV asr boshlaridagi xalq tiliga yaqinligini ko'rsatadi, «bu doston tili jihatidan hozirgi kunning kitobxonini uchun u qadar qiyinchilik tug'dirmaydi. U yengil o'qiladi va oson tushuniladi» (95/342-bet).

XIV–XV asrlarda o'zbek adabiy tilining taraqqiy etishi, uning takomiliga erishuvda o'zbek adabiyotida noma janrida yaratilgan adabiy-badiiy yodgorliklar ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. XIV–XV asrlarda maydonga kelgan «Muhabbatnoma», «Latofatnoma», «Taashshuqnoma», «Dahnoma» kabilar o'zbek adabiyotida she'riy noma janrida yozilgan asarlarga kiradi. Bu yodgorliklarning til xususiyatlarini o'rganish Qoraxoniylar davrida shakllanib, keng qo'llangan eski turkiy adabiy til an'anasi bilan keyingi davrlarda, ayniqsa XIII–XV asrlarda shu til asosida tashkil topib rivojlangan eski o'zbek adabiy tili hamda uning Sharqiy turkiy va G'arbiy turkiy (Movarounnahr va Xorazm — Oltin O'rda) tillariga bo'lgan o'zaro munosabatini belgilashda juda muhim rol o'ynaydi. A.M. Shcherbak ko'rsatganidek, bu adabiy tillarning xarakterini, uni muayyan davrlarda qo'llangan adabiy til an'analari bilan hamda turli markazlarda shakllangan adabiy tillarning etnik-til omillari bilan bog'liqligini aniqlashda ham bu asarlar katta ahamiyatga ega (101/113-bet).

Xo'jandiyning «Latofatnoma», Amiriyning «Dahnoma», Said Ahmadning «Taashshuqnoma» asarlari Movarounnahr o'zbek tili (Sharqiy guruh dialektlar)ga asoslanib yozilgandir. Bu asarlar o'zbek dunyoviy adabiyoti va o'zbek adabiy tilining rivojiga, uning yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'tarilishiga zamin tayyorladi. «Latofatnoma», «Dahnoma» va «Taashshuqnoma»da ham qarluq-uyg'ur adabiy tili an'analari o'zining to'la ifodasini topgan, unga xos til unsurlari asosiy ko'pchilikni tashkil qiladi (barcha kelishiklar shakllari, hozirgi-kelasi zamon fe'llarining eski o'zbek adabiy tilida qat'iytlashgan normativ shakllari, eski an'anaga xos leksik-fonetik xususiyatlari kabi). Shu bilan birga bu asarlar Xorazmiyning «Muhabbatnoma»si ta'siri ostida yozilganligi sababli ularda anchagina **o'g'uz-qipchoq tiliga xos unsurlar** («firoq o'tinda elindin singari lokal kelishiklarda bir «n» tovushi orttirish, jo'nalish kelishigi affiksining **-a/na** shaklida kelishi **-yuzung xurshidina, holima** kabi; buyruq-istak mayli birinchi shaxs ko'pligining **tutali, bilali** shakllarida kelishi kabilar) ham uchraydi.

Umuman, Xo'jandiyning «Latofatnoma», Yusuf Amiriyning «Dahnoma» asarlari XIV–XV asrlar xalq tili negizida yaratilgan eski o'zbek adabiy tilining muhim yodgorliklari sanaladi. Ular eski o'zbek tilining adabiy me'yorlari qat'iytlashib, umumiylik xususiyati ortib borganligini ko'rsatadi.

Bu davrlarda o'zbek adabiyotida munozara janrida yozilgan asarlar ham maydonga keldi. Yusuf Amiriyning «Bang va chog'ir» munozarasi, Yaqiniyning «O'q va yoy» munozarasi, Ahmadiyning «Sozlar munozarasi» kabi asarlari shular jumlasidandir. Hajviy uslubda yozilgan bu asarlarda ma'joziy tarzda takabburlik, xushomadgo'ylik, mansabparastlik, maqtanchoqlik kabi illatlar tanqid qilinadi. Xalq hajviyalari asosida yozilgan bu munozaralarning tili sodda va tushunarli. Fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari jihatidan o'sha davr xalq tiliga juda yaqin turadi. Fonetik jihatdan tovushlar uyg'unligi hodisasi (ham lab uyg'unligi, ham tanglay uyg'unligi)ga rioya qilinadi: *Nogah bir yashil xirqaliq sufi va bir gulgun to'ngluq yigit munozara va mubohasaga mashg'ul bo'ldilar* (Amiriy). Yigit, sog'inmoq, tangri, yuguruk, bosh.

achchiq, bahodur kabi umumxalq tiliga xos lug'aviy birliklar keng ishlatilgan. Grammatik jihatdan vositali kelishik affiksalaridan oldin bir «-n» tovushi qo'shish (Turkiston tarafindin, «O'q va yoy»), qaratqich kelishigining **-ing/ung** shakllari, o'rin-payt kelishigi **-da/ta** shaklida, jo'nalish kelishigi **-a/na** shakllarida keladi: *Shoirning qit'asi so'zning rostligina go'yodur* («O'q va yoy»). *Niyozmandliqta yaxshiyamanga quloq tutarmen. Bizning oramizda hakam bo'lub...* («O'q va yoy»). Sifatdoshning **-guchi, -gan** shakllari; **-tur/dur>-turur/durur** bog'lamasi ko'p uchraydi: *mening turur yerim darveshlar taqyasidurur. Saning ortuqlug'ing yo'q turur. Qattiq tortquchiman va mahkam urg'uchi* («Chog'ir va bang»). *Tanbura ta'rif bila javob ayiqoni* («Sozlar munozarasi»). Bu kabi farqli tomonlar o'sha davr yodgorliklari tili uchun xos xususiyatlar edi.

Umuman, munozara janrida yaratilgan bu asarlarning tili yengil tushuniladi, uslubi ravon, o'sha davr o'zbek adabiy tili va so'zlashuv tili xususiyatlarini o'zida aks ettiradi.

XIV–XV asrlar o'zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida ayniqsa, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy asarlari til materialining ta'siri ancha kuchli bo'lgan. O'zbek adabiy tilining rivojlanishida, uni xalq tiliga yaqinlashtirishda, ayni vaqtda, umumxalq tiliga xos bir qator grammatik shakllar, so'z va iboralar bilan boyitishda ularning asarlari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ularning she'rlari o'z davrida ancha mashhur bo'lgan. Jumladan, Alisher Navoiy o'zining «Majolis un-nafois» asarida «Mavlono Atoiy Balxda bo'lur erdi... Turkiygo'y erdi, o'z zamonida she'ri atrak arosida ko'p shuhrat tutdi», — degan edi (106/74-bet). «Badoye' ul-bidoya» debochasida esa uyg'ur iboratining fusahosidin va turk alfozining bulag'osidin Mavlono Sakkokiy va Mavlono Lutfiy rahimahu mallohkim, birining shirin abyoti ishtihori Turkistonda beg'oyat va birining latif g'azaliyoti intishori Iroq va Xurosonda benihoyatdurur ham devonlari mavjud bo'lg'ay» (107/458-bet) kabi fikrlarni o'qiyimizki, haqiqatan ham Atoiy, Sakkokiy, Lutfiylarning turkiy tilda yozilgan asarlari o'sha davrlarda ko'pchilikka manzur bo'lgan va ancha keng tarqalgan edi. Ularning g'azallarida xalq qo'shiqlariga — tiliga xos soddalik, ravonlik va jo'shqinlik, yoqimlilik aniq sezilib turadi. Masalan, Atoiyning:

*Kel, ey dilbar,ki bo'ston vaqti bo'ldi,
Gul ochildi, guliston vaqti bo'ldi.
Jamoling vasfini qildim chamanda;
Qizordi gul uyotdin anjumanda, —*

she'riy misralari, Sakkokiyning:

*Bo'yungdek butmadi bo'ston aro sarvi ravon, ey jon,
Yuzungtek ham ochilmadi chamanda guliston, ey jon.*

satrlari, Lutfiyning esa:

*So'zlarda qachonkim, ko'zi qoshi bila o'ynar;
Har go'shada yuz ming kishi boshi bilan o'ynar*

kabi baytlari sodda uslubi bilan keng xalq ommasi uchun tushunarli adabiy tilda yozilganligi ko'rinib turibdi. Ularning ko'pgina g'azallari o'zbek mumtoz she'riyatida keng tarqalgan xalq qo'shiqlari vaznida yozilganligi ham o'ziga xos soddalik, ravonlikni ta'minlagan. Ular o'z g'azallarida adabiy til uslubini rivojlantirish maqsadida so'zlashuv tili (jonli xalq tili)ning turlicha badiiy-tasviriy vositalarini mohirlik bilan qo'llaydilar. Shu asosda ajoyib sifatlashlar, mubolag'a va o'xshatishlar yaratadilar, bu orqali o'zbek tilining boyligini namoyish etadilar va adabiy tilni yangi-yangi tasviriy vositalar, so'z va iboralar bilan boyitadilar:

*Kim ko'rsa aning yuzini, aytur,
Ne turfa erur bu **turk balosi**.
Turkona **ir irlag'uncha** aning,
Kuydirdi meni **yalay — bulosi**. (Sakkokiy)*

*Kechti unru, tushmadi ul yor ila,
Qo'rqaram ko'nglum bu g'amdin yor ila
Bu vafosizlikni, sendin ko'rmisham
E'tiqodim qolmadi hech yor ila. (Lutfiy)*

*Boqar ohulayin har yon o'shal **qaro ko'zlar**
Vafosizliklarin bilgach, yana mehru **vafu ko'zlar***

*Bo'yung sarvu, ko'zung nargis, yuzing gul,
Sening qoshingda bo'ston hojat ermas... (Atoiy).*

Ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, har uchala shoir mubolag'a va o'xshatishlardan, shakldosh (omonim) va dialektal so'zlardan mohirona foydalanib, o'z g'azallarining badiiyiligini oshirganlar, tilining ravonligi va mazmundorligini ta'minlaganlar. Shu kabi ularning g'azallarida umumxalq tiliga xos bo'lgan quyma iboralar, xalq maqollari va hikmatli so'zlari ko'p uchraydi. Ular xalq maqollari va hikmatli so'zlarini aynan yoki ijodiy tarzda qayta ishlab qo'llaganlar. Masalan, Lutfiy she'rlarida:

Kumush bilaklaringizni yeng ichra yoshurmang, Kishining ilgi ochiq bo'lsa, benazir bo'lur. Yoki «Oqqan ariqqa oqar suv», «Chirog'tubi qorong'u», «Ko'zdan yiroq bo'lsa, ko'ngildin yiroq» kabi; Atoiy she'rlarida ham: G'animat tut jamolu husn davron, Masaldurkim, yana bu dam topilmas. Yoki Kishi bol tutsa, barmog'in yalar. «Xirmonni, albatta, har ekkani o'rar» kabi qator maqol va hikmatlar o'rin olganini ko'ramiz.

Umuman, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy she'rlarining adabiy-badiiy uslubiy jihatlari o'zbek adabiy tili uslubiyatining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Ularning she'riy asarlari leksik jihatdan eski o'zbek tiliga to'liq mos keladi, hatto hozirgi tilimizga yaqin turadi. Shu kabi o'ziga xos jihatlari bilan qadimgi tilimizni ham eslatib turadi. Bu esa eski o'zbek tili bilan qadimgi umumturkiy adabiy tildagi bog'liqlikni, ya'ni eski o'zbek tili qadimgi turkiy tilning rivojlangan shakli, o'ziga xos mustaqil milliy adabiy til shakliga aylanayotgan ilk davrlarini ko'rsatadi. Jumladan, quyidagi fonetik-grammatik xususiyatlar bunga misol bo'la oladi. Birinchidan, turkiy tillarga xos bo'lgan unli va undosh tovushlarning uyg'unligi — singarmonizm qonunining ko'p hollarda saqlanganligini yaqqol kuzatish mumkin: **sevishmek** (Lut.221 a), **kuzumnun yashi** (Lut.224 b), **yuzumnu; sarig'i** (Atoiy. 15 b), **suznun hasili** (Sakkokiy.15 a) kabilar (77).

Ikkinchidan, ularning she'riyatida ham Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy asarlari tilida qo'llanilgan xalq tiliga, so'zlashuv tiliga xos grammatik xususiyatlar mavjud. Masalan,

jo'nalish kelishigining «-a»: **yuzune** (Sak.24), **jamalina** (At.69 b); o'rin-payt kelishigining «-ta»: **ishte** (At.14 a) chiqish kelishigining «-din/tin»: **bashtin ayaq** (Lut.209 b), vosita kelishigining «-in»: **sensizin** (Lut.225 b), **qulug'in** (Ab.63 b) shakllarda qo'llanilishi; sifat so'z turkumi vazifasida **qarasach** (Lut.174 a), **sarig' yuz** (Sak.15 a), **achchiq soz** (At.54 b.) **suchuk** (At.73 a), **shirin soz** (Sak.15 a.), **uzun yash** (Lut.213 a.), **yani ay** (At.18 b), **eski shal** (At.12 b), **tog'ri yol** (Lut. 189 b), **qap-qara** (Lut. 213 a) kabi shakllar qo'llanilgan.

Ayniqsa, fe'l turkumining «-g'an/an» affiksli sifatdosh shakli: **Yusufni sevenler** (At. 16 a) **közleri umman bo'lmag'an** (Lut. 21 a): ravishdoshning **bilmayin, tapmayu** (Lut. 217 b.), **yig'layu** (Sak 23 a), **ketiben** (Lut. 1q5 b), **syzg'uruban** (At. 60 a), **boluban** (Sak. 17 b), **baqqaly** (Lut. 1o'4 b), **elgeli** (Ag. 67 a), **etkeli** (Lut. 198 a), **slgunche** (Lut. 160 b), **bolmag'uncha** (At. 28 a) kabi shakllar ancha keng qo'llanilgan. Shuningdek, hozirgi-kelasi zamon fe'lining — **berurem**: *qashy uchun jan berurem* (Lut. 169 b), **qapsayur**: *hardam yuzini mulkyny zulfi yig'layr* (Lut. 218 a) shakllari mavjud (77).

Hozirgi-kelasi zamon fe'lining I sh. birligi «-man»: *Shakardur ul og'yz ya pista bilmen* (Lut. 194 a), *Salman nazarny otge* (At. 69 b), *Dag'i ne qylg'usy bilmen...* (Sakk. 16 a) shaklda qo'llanilgan. Kelasi zamon ma'nosidagi -g'u affiksli shakli shaxs-son qo'shimchalari **bilan-elgum** (At. 41a), **qylg'un** (Lut. 147 b), **bashlag'usy** (At. 67 b); holat fe'li shakllari bilan ham qo'llanilgan: *Bu hasrat birl axir olgusi durur* (Lut. 170 a), *Boshlag'usy durur meni tashvishu g'am saray* (At. 67 b) kabi. Hozirgi-kelasi zamon fe'lining qayd etilgan shakllari VI–XII asr yozma yodgorliklarida ham qo'llanilgan. O'tgan zamon ma'nosidagi -mish qo'shimchasi bo'lishsiz -ma va I shaxs affikslari bilan quyidagi shaklda qo'llanilgan: *sensiz olmemishem* (Lut. 216 a), *Furqatyndyn bolmysham zaru zaif* (Lut. 222 a), *qoshi uchun jan berurem* (Lut. 169 b) kabi. Buyruq-istak maylining -qaly-keli, -g'aly, -geli, — aly/eli shakllari uchraydi: **baqqaly** (Lut. 194 b), **etkely** (Lut. 198a), **olgelay** (At.67 a), **korgelay** (Lut.215 b), **ichgelay** (Sakk. 30 a); I shaxs ko'plik ma'nosidagi va -alyq shakli ham uchraydi: *La'lyny kozgu qyilaly deb* (At.43 b) kabi (77).

Ravish vazifasida **nagah, daima, hargez, agah, axir, dam-badam, har dam, har lahza, har sahar, har zamon, har nafas, g'aliba**: *Uchredi nagah raqibi* (Lut. 208 b). *Daima mastu bexabar korunur* (Ab. 23 b), *Jan qoldy uchun nelur damadam* (Lut. 207 b), *Kozum yashyn nazardyn dam-badam solg'um* (Sakk. 5 b) *Koz yashindin har zamon g'am kelur* (At. 15 b) kabilar; -cha qo'shimchali ravishlar **senche** (Lut. 188 b), **muncha** (Sakk. 19 b), **ancha** (Lut. 185 a), **olgunche** (Lut. 160 b), **sekatqacha** (Lut. 197 b), **bolmag'uncha** (At. 28 a) kabi shakllarda qo'llanilgan (77).

Qayd etish lozimki, Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy asarlarida o'zbek adabiy tilining ilk bosqichi, ya'ni qadimgi turkiy davriga xos -mu, -oq, -la kabi yuklamalar: *Xoblar javr-u jafasyn men-mu tartarmen mudam?* (At. 69 s), *Dunyany kezduму, zeba seni -oq kordum bas* (Lut. 190 b), *Ey yuzi pari, jadu kozun jan aladur-la, Zulfun dag'ly ul kafir ush iman aladur-la* (Lut.), kabilar; Jumladan, **ke, teb, chu, agar, gar, garche, vale, gah, taqi/dag'i, u(-yu-vu)** kabi shaklidagi bog'lovchilar ham qo'llanilgan: *Pari-yu adami mundaq xob ermes* (Lut. 172 b), *Raqib-u zahid ahimdin kuyerler* (At. 74 a), *Boyunny kurdiy yu sarvi sahi ravon kechty* (Sakk. 26 b); *hajrynda begim, «ah» degum dag'ly olgum* (At. 41 b), *temur tash dag'ly polad* (Lut. 166 b), *Gah qylur javr-u jafa, Gah ke kurguzur mehr vafa* (At. 17 a). *Atayig'a inayat qyl ke, shahlar sorarlar gahigahi ham gadany* (At. 66 b); *vale yar tarylmas* (Lut. 189 b) kabi shakllarda qo'llanilgan. Shuningdek, «**kibi, bikin, sari, tegru, sayin**»: *Men kibi* (Lut.184 a), *Tokulgey axiri andyn yer uzre suv bikin qanyim* (Lut.208 a), *Gul bikin jan konlekin* (At. 3 a), *Munun bikin* (Sakk. 16 a); «**sary**»: *Menin sari* (At. 43 a); *Nenchege tegru meni zar-u mubtala qylg'un* (Lut. 196 b); *Seni korgen sayin «allah» dermen* (Lut. 211 b) kabi ko'makchilar ham uchraydi (77).

Xullas, Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy kabi so'z san'atkorlari ijodining til materiallari o'zbek adabiy tilining ilk bosqichlarini o'rganish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning asarlari o'zbek adabiy tilining rivojlanishida, uni ma'lum me'yorga keltirish va so'zlashuv va xalq tiliga yaqinlashtirishda ulkan hissa qo'shdi.

Ma'lumki, eski o'zbek tilining shakllanishida ulug' mutafakkir, genial shoir va buyuk tilshunos olim Alisher Navoiyning xizmatlari nihoyatda qimmatlidir. Alisher Navoiy o'zining tilshunoslikka oid «Muhokamat ul-lug'atayn» nomli mashhur asari bilan o'zbek adabiy tilining, xususan, o'zbek tilshunosligi va stilistikasining ilmiy-nazariy asoslarini yaratib berdi. O'zining jahonga mashhur bo'lgan asarlari — «Xazoyin ul-maoniy»ga kirgan lirikasi va «Xamsa»ga kirgan epik dostonlari va boshqa asarlari (misol uchun, «Mahbub ul-qulub», «Mezon ul-avzon», «Majolis un-nafoyis» kabilar) bilan eski o'zbek adabiy tilini yangi bosqichga ko'tardi, uning asoslarini ham nazariy, ham badiiy-estetik, ham amaliy tomondan to'la va mukammal ravishda ishlab chiqdi. Chunki, Alisher Navoiyning ikkinchi guruhda sanalgan asarlari orasida ham ulug' shoirning badiiy-amaliy faoliyati bilan birga uning til nazariyasi va adabiy til konsepsiyasiga oid muhim fikr va mulohazalari ayrim o'rinlarda maxsus ravishda bayon qilib berilgan. Umuman o'lganda, Alisher Navoiyning adabiy-estetik, falsafiy va qisman, tilshunoslik qarashlarini o'rganish sohasida katta va muhim ishlar amalga oshirilgan. Bu sohada Ye.E.Bertels, I.Yu.Krachkovskiy, V.M.Jirmunskiy, N.I.Ilimskiy, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, A.M.Shcherbak, V.Abdullayev, E.Fozilov, V.Zohidov, I.Sulton, A.Sa'diy, A.Mirzayev, P.Shamsiyev, A.Hayitmetov, H.Sulaymonov, S.Ibrohimov, U.Tursunov, A.Rustamov, B.Valixo'jayev, S.Erkinov, O.Usmonov, S.G'aniyeva, E.Umarov, B.Bafoyev, X.Doniyorov, B.O'rinboyev kabi qator olimlarning nomlarini sanab o'tishning o'zi kifoyadir. Qayd etish lozimki, Alisher Navoiyning adabiyot sohasidagi merosini o'rganish bo'yicha uning til sohasidagi merosini o'rganishga nisbatan ancha ko'proq ish amalga oshirilgan. Lekin sirasini aytganda, ulug' mutafakkir va buyuk tilshunos olimning adabiy til, til nazariyasi va tilning leksik-stilistik, fonetik va grammatik xususiyatlari haqidagi fikrlari va qarashlari hali hech kim tomonidan to'laroq va mufassalroq ravishda o'rganilgan, deb aytish qiyin. Jumladan, uning tilshunos sifatidagi ta'limoti, faoliyati, tilning tovush tizimidan foydalanish mahoratini alohida o'rganish muhim masalalardan biridir.

Biz ushbu ishda qayd etilgan mavzu bo'yicha ma'lum faktlar keltirish va fikr-mulohazalar bayon qilish bilan, birinchidan, hozirgi yoshlarimizda Alisher Navoiyning tilshunoslik faoliyati va mahoratini o'rganishga havas uyg'otish va shu yo'l bilan olimning ijodini mukammalroq o'rganish uchun yo'l ochish bo'lsa, ikkinchidan, Alisher Navoiyning o'zbek adabiyoti va adabiy tilini asoslash sohasidagi buyuk xizmatlariga odilona baho berishga harakat qilamiz, xolos (114).

Navoiy asarlarining til materiali haqida esa batafsil to'xtalib o'tirmaymiz, bu o'zbek tilshunosligida anchagina yoritilgan. Balki, ushbu ishning ikkinchi qismida bu haqda batafsil fikr bildiriladi.

O'ZBEK ADABIY TILINING ASOSLANISHIDA ALISHER NAVOIYNING XIZMATI

Alisher Navoiyning adabiy tilni asoslash sohasidagi nazariy qarashlari

Birinchidan, shuni alohida aytib o'tish kerakki, Alisher Navoiy eski o'zbek adabiyoti va adabiy tilining asoschilaridan biri ekanligi shubhasiz, to'g'ri. Eski o'zbek adabiyoti va adabiy tili Navoiyga qadar ham mavjud bo'lganligi haqida dalillar mavjud. Darhaqiqat, o'zbek mumtoz adabiyoti va adabiy tili Alisher Navoiyga qadar ham mavjud bo'lgan. Navoiyga qadar uning Rabg'uziy, Xoja, Yassaviy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Durbek kabi vakillari bo'lgan. Lekin bu o'rinda ikki narsani bir-biri bilan aralashtirib yuboradilar. U ham bo'lsa shundan iboratki, har bir adabiyotda, har bir adabiy tilda boshlanish nuqtasi, uning rivojlanishi va kamolot cho'qqisi bor. Demak, boshlovchilar bor va kamolotga yetkazuvchilar bor. Masalan, rus adabiyoti va rus tilining boshlovchilari N.M.Karamzin, G.R.Derjavin va V.A.Jukovskiylar bo'lsa, rus adabiy tilining asoschisi A.S.Pushkindir. Xuddi shunga o'xshash Rabg'uziy, Yassaviy, Xoja, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Durbek kabi klassiklar o'zbek adabiyoti va adabiy tilining boshlovchilari bo'lsa (bular orasida Yassaviyning xizmatlarini alohida qayd etish lozim bo'ladi), Alisher Navoiy esa o'zbek mumtoz

adabiyoti, eski o'zbek poetik adabiy tilini kamolotga yetkazgan va baland cho'qqiga olib chiqqan jonkuyar homiysi, eski o'zbek adabiy tilini har tomonlama asoslab bergan. Demak, Alisher Navoiyning eski o'zbek adabiy tilini asoslab berganligiga shubha bilan qarovchilar, adabiy tilning boshlanishi bilan uning cho'qqisini, adabiy tilning boshlovchilari bilan uni kamolotga yetkazgan va yuqori bosqichga ko'targan asoschisini aralastirib yubormoqdalar. Darhaqiqat, adabiy tilning yuqori cho'qqiga ko'tarilishi uchun boshlanishi va boshlovchisi bo'lishi kerak, lekin adabiy tilning yuqori cho'qqiga ko'tarilishida asosiy rol o'ynagan, ya'ni uni marraga yetkazgan kishi uning asoschisi bo'lib hisoblanadi.

Ikkinchidan Alisher Navoiyga qadar bo'lgan adabiy tilimiz tarqoq ravishda, ayrim huquqlardagina yuzaga kelgan bo'lib (masalan, o'g'uz, qipchoq yoki o'g'uz-qipchoq, uyg'ur tili singari), ular bir-biridan anchagina farq qiladi. Alisher Navoiyning bu sohadagi katta xizmatlaridan yana biri shundan iboratki, u juda katta hududdagi tarqoq adabiy tilni uslub jihatidan ham, tarkib jihatdan ham birlashtirdi va shu katta hududdagi shevalar, lahjalar va ayrim tillardagi asosiy xususiyatlarni o'zining badiiy-amaliy faoliyati bilan yagona umumiy til darajasiga keltirdi, adabiy tilni sayqallashtirdi, uni keng ko'lamga va yangi bosqichga olib chiqdi. Masalaga ana shu nuqtai nazardan qaraganda, Alisher Navoiy qo'llagan til uzoq yillar davomida faqat o'zbeklar uchungina emas, balki yon atrofimizdagi boshqa turkiy xalqlar uchun ham adabiy til sifatida xizmat qilib kelganligini faxr bilan qayd etib o'tishimiz lozim bo'ladi. Bu fikrni Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonining oxirida g'ururlanib yozgan misralari ham to'la tasdiqlaydi:

*Olibmen taxti farmoninga oson,
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.
Xuroson demakim, Sherozu Tabriz,
Ki qilmishdur nayi kilkim, shakarrez.
Agar bir qavm, gar yuz, yo'qsa, mingdur,
Muayyan turk ulusi xud meningdur.
Ko'ngil bermish so'zimga turk, jon ham,
Ne yolg'iz turk, balkim turkmon ham.*

Alisher Navoiyning bu misralarida, birinchidan, u rivojlantirgan adabiy tilning keng chegarasi ham aytilgan, bu tilning Xitoydan Xurosongacha, jumladan, Sheroz va Tabrizgacha tarqalganligi, Movarounnahrning esa, shubhasiz ravishda, shu hududga kirishi qayd etilgan. Ikkinchidan, shu tilning keng manbalari, jumladan, xalq shevalari va shu manbalarda gaplashuvchi xalqlarning keng, turli-tuman etnik tarkiblari ham aytilgan:

*Agar bir qavm, gar yuz, yo'qsa, mingdur,
Muayyan turk ulusi xud meningdur.
Ko'ngil bermish so'zimga turk, jon ham,
Ne yolg'iz turk, balkim turkmon ham (108/414-bet).*

Shu narsani ham alohida aytib o'tish kerakki, Navoiyning fikricha, eski o'zbek adabiy tilining shakllanishiga ma'lum darajada hissa qo'shgan urug'lar qatoriga yuqorida sanab o'tilgan o'zbek urug'larining yuz va minglaridan tashqari, adibning «Vaqqiya» asarining kirish qismida qayd etilgan «baroslilar, arlotiylar, tarxoniylar, qiyotlar, qo'ng'irotlar, uyg'uriylar, cho'liliklar, jaloyirlar, qovchinlar va boshqa bir qancha qabila hamda urug' birliklari ham kiradi» (40/159-160-betlar).

Demak, Navoiy adabiy tilning shakllanishida o'zbek qabila, urug'laridan ko'pchiligining alohida o'rni borligini qayta-qayta uqtirib o'tgan. Bu jihatdan uning, ayniqsa,

*Shohu toju xil'atekim men tamosho qilgali,
O'zbekim boshida qalpoq, egnida shirdog'i bas (109/258-bet).*

deb atalgan mashhur misralari alohida mazmun kasb etadi.

Umuman, Navoiy o'zbek millatining, xalqining shakllanishida qatnashgan va keyinchalik o'zbek xalqining umumiy, yagona nomiga aylangan urug'laridan «O'zbek» urug'ini faxr bilan tilga oladi. Chunonchi, «Saddi Iskandariy» dostonida Doroga qarshi kurashgan bir qancha qabila va elatlar qatori Alisher Navoiy o'zbeklarning ham qatnashganligini aytadi:

*Borongor anga xayli Mashriq zamin,
Samarqandin toki sarhaddi Chin.*

*Yana yuz ming o'zbek, mo'g'ul birla zam,
Yuz ellik ming ul sori qalmoq ham (42/312-bet).*

Uchinchidan, Navoiy baytlarida o'zi qo'llagan adabiy tilning sifati — uning yuqori darajadagi badiiy belgisi, ya'ni shirinso'zligi haqida ham bir og'iz so'z bilan bo'lsa-da, (ya'ni «shakarrez» so'zi bilan) shakar tashuvchi til deb baholaydi.

Demak, Navoiy o'zi qo'llagan adabiy tilda Xitoydan to Xurosongacha bo'lgan hududdagi turkiy xalqlar va elatlarning til xususiyatlaridan foydalangan. Ularni sayqallashtirgan, takomillashtirgan va birlashtirib butun bir adabiy til holiga keltirgan. Shuning uchun ham shoir boshqa bir joyda haqli ravishda faxrlanib:

*Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yak qalam,— (110/238-bet).*

deb yozadi.

Navoiyning o'zbek adabiy tilining asoschisi deb atalishining uchinchi katta belgisi (asosi) shundan iboratki, Navoiydan avval o'zbek adabiyoti va adabiy tili sohasida xizmat qilgan kishilar til nazariyasi bilan shug'ullanmaganlar. Navoiy esa bu masala bilan maxsus ravishda shug'ullangan va adabiy til nazariyasi sohasida ham, uning tarkibi sohasida ham, tilning kelib chiqishi sohasida ham, uning ijtimoiy mohiyati va aloqa vositasi ekanligi sohasida ham, o'z qarashlariga va o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan.

Demak, Navoiy adabiy til sohasida boshqalar qatori badiiy-amaliy ish qilganligi bilan birga (bu sohadagi ishlarni ham boshqalarga qaraganda bir necha bor ustun bilganki), ilmiy-nazariy sohada ham birinchi bo'lib fikr yuritgan va adabiy til hamda uning tarkibi bo'yicha o'zining maxsus qarashi (konsepsiyasi) ga ega bo'la olgan.

Navoiyning adabiy til va uning tarkibi haqidagi fikri-konsepsiyasi bilan biz yuqoridagi o'rinlarda qisman tanishib o'tdik. Shunisi alohida xarakterliki, Navoiyning o'zi qo'llagan adabiy til tarkibiga bergan yuqoridagi bahosi bilan mashhur tilshunos olim Ye.D.Polivanovning 1934-yildagi tilning tarkibiga bergan bahosi deyarli to'la ravishda mos tushadi. Darhaqiqat,

professor Ye.D.Polivanov 1934-yili o'zining «Shovot rayonidagi qiyot-qo'ng'iro't shevasi», degan maqolasida Navoiy tomonidan asoslangan o'zbek adabiy tilining tarkibiy qismlari haqida o'zbek tili (o'zbek dialektlarining bir butun yig'indisi sifatida) yagona tizimning, hech qachon amalda bo'lmagan o'zbek bobo tilining dialektologik parchalanishi yo'li bilan emas, balki til tizimlarining birlashuvi yo'li bilan paydo bo'lgan, deb aytgan edi (111).

Ma'lumki, professor G'.O.Yunusov ham o'zbek milliy adabiy tilini uch guruh lahjasidan tashkil topganligini aytgan (112).

Demak, Navoiy qo'llagan adabiy til manbalari qatoriga hozirgi o'zbek milliy tili uchun xos bo'lgan uchta katta lahjaning, ya'ni birinchidan, qorluq-chigil-uyg'ur lahjasi, ikkinchidan, qipchoq lahjasi va uchinchidan, o'g'uz lahjasining hamma shevalari kiradi. Bu shevalar eski o'zbek adabiy tilining bevosita davomchisi bo'lgan hozirgi adabiy tilimizga ham manba bo'lib hisoblanadi.

Demak, Navoiyning bundan 500 yil avval o'zbek adabiy tilining tarkibi haqida aytgan fikrlari — nazariy konsepsiyasi hozirgi zamon yetuk tilshunoslarining o'zbek adabiy tili va uning tarkibi haqida aytgan fikrlari bilan hamohang bo'lib chiqadi.

Navoiyning adabiy til nazariyasiga oid bo'lgan yana bir muhim qarashi shundan iboratki, u adabiy tilni boshqarish va normalashtirish kerakligi haqidagi fikrni obrazli qilib o'rtaga tashlagan. Uning aytishicha, turkiy til chamanida juda ko'p imkoniyatlar — so'z chechaklari (gullari) mavjud (ushbu o'rinda shevalarga xos imkoniyatlar ham nazarda tutilgan). Lekin bundan ko'p kishilar tegishli ravishda foydalana olmaydilar. U gullardan bejirim va mazmundor guldasta tuza olmaydilar. Chunki bu gullarning o'ziga xos xususiyati, o'ziga yarasha mehnati, zahmati, tashvishi va «tikan»lari bor: «ko'ngulga andoq evruldikim, go'yo bu tikanlar sarzanishi zararidin nazm xayli guldasta bandlari bu gulshandin bazm tizgucha gul iliklay olmay yo'l tutupturlar» (113/119-bet).

Alisher Navoiyning adabiy tilni boshqarish haqidagi fikrlari jumlasiga uning ona tilini boshqarish haqidagi mulohazalarini ham qo'shib, sanab o'tsa bo'ladi. Masalan, shoir bu haqda quyidagilarni yozadi: «Andin so'ngrakim, turk tilining jomeiyati muncha daloil bila sobit bo'ldi, kerak erdikim, bu

xalq orasidin paydo bo'lg'on tab' ahli salohiyat va ta'blarin o'z tillari turg'och, o'zga til bila zohir qilmasa erdi va ishga buyurmasalar erdi. Va agar ikkalasi til bila aytur qobiliyatleri bo'lsa, o'z tillari bila ko'proq aytsalar erdi va yana bir til bila ozroq aytsalar erdi. Va agar mubolag'a qilmasalar, ikkalasi til bila teng aytsalar erdi»/118-bet/¹.

Alisher Navoiyning adabiy tilni boshqarish sohasidagi eng muhim fikrlaridan yana biri shundan iboratki, u hozirgi til bilan aytganimizda, adabiy tilning ichki va tashqi manbalarini o'sha vaqtdayoq farqlay olgan va ichki manbalarga alohida ahamiyat berib qaragan, ichki manbalarga boyligi turkiy tilning o'ziga xos xislati ekanligini alohida qayd qilib ko'rsatgan. U turkiy va forsiy tillarni ichki imkoniyati nuqtai nazaridan taqqoslab tahlil qilar ekan, turkiy tilning ichki imkoniyati ko'p ekanligini ta'kidlab quyidagilarni yozadi:

«Sort tilida **choqin** va **ildirimdek** mutaayyin va mo'tabar ikki nimaga ot qo'ymaydurlar va arab tili bila **barq** va **sayqa** bila ado qilibdurlar. Va husn ta'rifida ulug'roq holgakim, turklar **meng** ot qo'yupturlar, alar ot qo'ymaydurlar» (112-bet). «Va ulug' qardosh va kichik qardoshni ikkalasin **barodar**» derlar va turklar ulug'ni **og'a** va kichikni **ini**» derlar. Va alar ulug', kichik qiz qardoshni ham **xohar**» derlar. Va bular ulug'ni **egachi** va kichikni **singil**» derlar. Va bular otaning og'a-inisin **opag'a**» derlar. Va onaning og'a-inisin **tag'oyi**» derlar². Va alar hech qaysiga ot ta'yin qilmaydurlar va arab tili bila

¹«Muhokamat ul-lig'atayn» asarining tekstiga oid ba'zi o'rinlar fransiyalik sharqshunos olim E.Katremer tomonidan 1841-yilda Parijda /Sharqiy turk xrestomatiyasida «Muhokamat ul-lug'atayn» q'o'lyozmasining to'liq teksti/ chop etilgan va 1916-1917-yillarda A.Zohiriy tomonidan Qo'qonda litogtafiya usulida chop etilgan nusxalar bilan solishtirilib ko'rildi. Bu nusxalar /oltita nusxa/ning qiyoslangan teksti 1969-1970-yillarda U.Sanaqulov tomonidan tayyorlanib, mashhur tekstolog olimlar P.Shamsiyev, S.Mutallibov, K.Muhiddinovlar tahriridan o'rkazilgan. Ana shu qiyosiy tekstdan qisman foydalanildi, lekin transkripsion belgilarning texnik qiyinchiligi sababli keltirilgan misollar «Muhokamat ul-lug'atayn»ning Alisher Navoiy asarlari 15 tomligining 14-tomiga kirgan rasmiy nashridan /1967/ olib berildi. Ushbu ishda olingan misollarda shu rasmiy nashrning betlari ko'rsatildi.

²E.Katremer tomonidan chop etilgan nusxada «derlar» so'zi yo'q.

«em» va «xol» derlar (114-115-betlar). «Yeguliklardin agarchi qo'y muchallaridin ba'ziga ot qo'yupturlar, ammo **orqani** va **oshug'lug'** **ilikni** va **yon so'ngakni** va **qaburgani** va **ilikni** va **o'rta ilik** va **bo'g'uzlag'uni** turkcha ayturlar. Va yana ba'zi yemaklardin **qaymog'** va **qatlama** va **bulamog'** va **qurut** va **uloba** va **mantu** va **quymog'** va **o'ramochni** ham turkcha ayturlar» (116-bet).

Sinchiklab qaralsa, Navoiy tomonidan ichki imkoniyatlarga keltirilgan ushbu misol (so'z)larning hammasi konkret ma'no tashuvchi so'zlardan (ushbu holda otlardan) iborat. Shunga qarab xulosa chiqarish mumkinki, Navoiy o'z ta'limotida ichki imkoniyatlarga ko'p ahamiyat bergani holda, amaliy faoliyatida, xususan, abstrakt tushunchalar bildiruvchi so'zlardan foydalanishda tashqi manbalardan, ko'proq arab tilining manbasidan foydalangan. Bu esa o'z navbatida Navoiyning ilmiy ta'limoti bilan amaliy faoliyati orasida ma'lum darajada tafovut, hatto, ma'lum darajada ziddiyat borligidan dalolat beradi. Navoiyning imkoniyatlar haqidagi ta'limoti va uning saboqlari hozirgi davrga kelib qay darajada bajarilmoqda, degan savol tug'iladi. Afsuski, hozirgi adabiy tilimizda ichki imkoniyatlardan foydalanish maqtanarli darajada emas. Aksincha, hozirgi vaqtda konkret ma'noli so'zlarni (jumladan, otlarni) arabcha, forsha atamaları bilan ifodalash tobora ko'proq rasmiy tus olib bormoqda.

To'rtinchi asos sifatida, Alisher Navoiyning tilning kelib chiqishi, uning ijtimoiy mohiyati haqidagi fikrlarini ikki gruppaga bo'lib ko'rsatish mumkin:

a) Navoiyda tilning kelib chiqishi haqida avvaldan mavjud bo'lgan an'anaviy afsona tarzida yuzaga kelgan, ma'lum darajada chegaralangan qarashlar ham uchraydi. Navoiydagi bunday qarashlardan «Muhokamat ul-lug'atayn»ning kirish qismidagi Nuh payg'ambar va uning bolalaridan har xil tillar gruppasining kelib chiqishi haqidagi diniy afsona bo'la oladi. Lekin ushbu o'rindagi til gruppalariga asos solgan kishilar, shaxslar sifatida tushunilsa, shu afsonaning idealistik yo'nalishda bo'lishiga qaramasdan, uning mohiyati til gruppalarining yuzaga kelib chiqishida ayrim jamoalarning rol o'ynaganligi haqidagi ratsional mag'izga borib taqalishi ham

mumkin (Ushbu o'rinda mashhur tilshunos, akademik N.Ya.Marr va boshqa ba'zi bir olimlarning yafetologik nazariyasini esga oling). Lekin so'nggi fikrni hozircha Navoiyning tilning kelib chiqishi bo'yicha qarashlari haqida aytilgan tugal fikr deb davo qila olmaymiz, faqat shunday variant (versiya) ham bo'lishi mumkin, degan fikrni o'rta tashlab o'tmoqchimiz, xolos.

b) Alisher Navoiyda so'zga sharq uslubida obrazli-mubohlag'ali baho berib, uni durga, gavharga o'xshatish hollari, hattoki, «So'z durrining tafovuti mundin dag'i beg'oyatroq va martabasi ham benihoyatroqdur. Andoqki, sharifidin o'lgan badanga ruhi pok yetar, kasifidin hayotliq tanga zahri halok xosiyati zuhur etar» (105-bet) singari fikrlar ham uchraydiki, olimning bu xildagi sharqiy an'ana asosida aytilgan ma'juziy uslubda, romantik ravishda yozilgan obrazli fikrlarini ham hali yetarli o'rganagan emasmiz.

d) Alisher Navoiyda tilning kelib chiqishi, uning ijtimoiy mohiyati haqida materialistik dunyoqarashga bevosita yaqin turuvchi fikrlar ham mavjud. Bular qatoriga birinchi navbatda quyidagi misralar kiradi:

*Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo'q andin.*

Bu yerda birinchi misra hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki unda inson til tufayli hayvondan, hayvonot dunyosidan ajralib chiqdi, degan materialistik fikr bor.

e) Alisher Navoiyning tilshunoslik sohasidagi qarashlaridan yana bir muhim tomoni shundan iboratki, olim o'sha davrdayoq, til va tafakkur yoki tushuncha, shuningdek, til va nutqni bir-biridan birinchilardan bo'lib farqlay olgan. U nutqni hozirgi biz tushungan termin bilan aytgan bo'lsa, tafakkur yoki tushunchani «**ko'ngil**» atamasi bilan ifodalagan. Til va nutqning birlik qonuniyati haqida gapirib, bu qonuniyatni buzish yomon oqibatlariga olib kelishini alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Uning «Mahbub ul-qulub» asarida aytgan quyidagi fikrlari da'vomizga bemalol misol bo'la oladi:

«Til va ko'ngul xubroq a'zodurlar insonda: savsan va g'uncha marg'ubroq radhindurlar bo'stonda. Odami til bila soyir hayvondin mumtoz bo'lur va ham aning bila soyir insonga sarafroz bo'lur. Til muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo'lsa tilning ofatidur» (40/60-bet).

Shunday qilib, Navoiyning tushunchasiga ko'ra (fikriga ko'ra) til va tafakkur uzviy bog'liqdir. Inson qalbi-tafakkuri daryo (dengiz)dir, so'z esa qimmatbaho tosh-durdan iboratdir, so'zlovchi g'avvos so'z dengizidan dur teruvchidir, uning mahorati tergan javohirining (durning) qimmatini bilan o'lchanadi: «So'z durredurkim, aning daryosi ko'nguldur va ko'ngul mazharedurkim, jomiy maoniyi juzv va kulldur. Andoqki, daryodin gavhar g'avvos vositasi bila jilva namoyish qilur va aning qiymati javhariga ko'ra zohir bo'lur» (105-bet). «Ammo chun alfoz va iboratdin murod ma'nidur» (106-bet). Ya'ni so'zlashdan maqsad ma'no ifodalashdir.

Bu fikrlar Navoiyning til sohasidagi qarashlarini aks ettirish bilan birga, uning badiiy stilistika sohasidagi qarashlarini ham to'liq ravishda aks ettiradi. Yuqorida ko'rib o'tilganidek, Navoiyning tilshunoslik sohasidagi qarashlarida til va tafakkur (tushuncha), til va nutq, til va so'zdan foydalanish, til inson tushunchalari bo'yicha aytilgan fikr va mulohazalar, nazariya va konsepsiyalar yetarli darajada ko'p uchraydi. Ularning orasida hozirgi kun uchun ham bevosita foydali bo'lgan fikrlar ko'pchilik o'rinni tashkil qilgani holda, ba'zan chegaralangan o'rinlar, ayrim qarama-qarshi fikrlar va mulohazalar ham uchrab turadiki, ularning hammasini jiddiy ravishda o'rganib chiqish lozim bo'ladi. Navoiyning til sohasidagi qarashlarida ayrim chegaralangan o'rinlar va ziddiyatlarning mavjudligi ham, umuman olganda, tabiiy bo'lib, bular ulug' olimning tilshunoslik sohasidagi ta'limotining umumiy qimmatini pasaytirmaydi.

Lekin Navoiyda til nazariyasi bo'yicha aniq qilib aytilgan fikrlarning o'zi ham uni o'z davri uchungina emas, bizning davrimiz uchun ham buyuk tilshunoslik faoliyatini ko'rsatgan olim deb atashga imkon beradi. Faqat biz uning merosini to'laroq o'rganishimiz, uning saboqlarini to'laroq o'zlashtirishimiz kerak bo'ladi.

**Alisher Navoiy o'zbek tilshunosligining
asoschisi sifatida**

Alisher Navoiyni buyuk tilshunos sifatida ko'rsatuvchi beshinchi asosiy belgi uning «Muhokamat ul-lug'atayn» asaridir. Yuqorida Navoiyning adabiy tilni asoslash sohasidagi xizmatlarini A.S.Pushkinning rus adabiy tilini asoslash sohasidagi xizmatlari bilan tenglashtirgan edik. Lekin Navoiyning yuqorida qisqacha to'xtab o'tganimizdek, bevosita tilshunoslik bo'yicha qilgan ishlari va fikr-mulohazalari ham bor. Navoiyning bunday ishlari, xususan, «Muhokamat ul-lug'atayn» asari bilan qilgan buyuk xizmati uni rus tilshunosligi (grammatikasi)ning asoschisi M.V.Lomonosov bilan teng qo'yishga arziydi.

To'g'ri, Navoiyga qadar ham o'zbek tilshunosligi yoki turkiy tilshunoslik bo'lgan. Masalan, ulug' tilshunos olim Mahmud Koshg'ariy o'zining «Devonu lug'otit turk» asari bilan umumturkiy tilshunoslikni boshlab bergan va ayni vaqtda qadimgi turkiy adabiy tiliga asos solgan. Shu kabi az-Zamaxshariy, Jamoliddin Abu Muhammad at-Turkiy va «At-tuhfatuz zakiyatu fil-log'otit turkiya» asarining muallifi esa qipchoq-o'g'uz tilshunosligini boshlab berganlar. Ularning asarlari ham, ayni vaqtda, bir tomondan, o'zbek tilshunosligining ham bevosita boshlanishiga taalluqli asarlardir. Lekin ular o'zbek tilshunosligining asoschilari emas, boshlovchilardir. Navoiy esa, o'zbek tilshunosligiga to'la asos solgan olimdir. Bu jihatdan, birinchi navbatda, Navoiyning adabiy til sohasidagi xizmatlari hisobga olinsa, ikkinchidan, uning nazariy qarashlari hisobga olinadi va uchinchidan, uning tilshunoslikning hamma aspektlari bevosita ishlab berilgan «Muhokamat ul-lug'atayn» degan mashhur asari hisobga olinadi. To'rtinchidan, Navoiyning «Sab'atu abhor» degan arab tilining izohli lug'atini yoritishga bag'ishlangan maxsus lug'atchilikka oid asari ham borki, bu asar o'z navbatida Navoiydan keyingi tilshunos olimlarning Navoiy asarlari tilining lug'atini o'rganishga bag'ishlangan tilshunoslik asarlarining – navoiyshunoslik lug'atlarining yuzaga kelishiga

keng yo'l ochdi. Masalan, Toli Xeraviyning «Bado'i al-lug'at», muallifi noma'lum bo'lgan «Abushqa», Fazlullaxonning «Lug'ati turkiy», Muhammad Yoqub Chingiyning «Kelurnoma», Mirzo Muhammad Mehdixonning «Sanglox» («Maboyn ul-lug'at»), Fotih Alixon Kojariyning «Chig'atoycha turkiy til grammatikasi va lug'at»iga bag'ishlangan asari, Muhammad Xoksorning «Muntahab al-lug'at» kabi o'ndan ortiq lug'at va grammatik asarlar yozilganki, ularning hammasi ham ulug' Navoiy dahosining bevosita ta'siri asosida yuzaga kelgan yoki uning tilini o'rganishga bag'ishlab yozilgan.

Alisher Navoiyning tilshunoslik faoliyatiga ana shu nuqtai nazardan qaraganda, u o'zbek tilshunosligining asoschisi bo'lishi bilan birga, butun O'rta Osiyoda tilshunoslikni yangi bosqichga ko'targan siymo sifatida gavdalanadi. Chunki Navoiydan keyin yuqorida aytganimizdek, lug'atchilik an'anasi yuzaga kelib davom etishi bilan bir qatorda, ilmiy grammatik va xususan, stilistik (uslubiyat) an'anasi ham yuzaga keldi va ma'lum darajada rivojlanib davom etdi. Navoiydan keyin adabiy tilning uslubiyati, ayniqsa, til terminologiyasining shakllanishida Bobur asarlari, xususan, «Boburnoma» alohida ko'zga tashlanadi. Simvolik (ramziy)-stilistik an'ananing davom etishiga Nishotiyning «Husni dil» dostoni va unda til (so'z) va uslub haqida aytilgan fikrlari misol bo'ladi. Abulg'oziy Bahodirxonning «Shajarai turk» asarida adabiy til affikslarining ko'p ma'noliligi haqidagi fikrlarini Navoiyning adabiy til sohasidagi qarashlarining o'ziga xos yo'l bilan davom ettirilishidan iboratdir.

Demak, Navoiy hozirgina sanab o'tilgan xizmatlari bilan ham o'zbek tilshunosligi va stilistikasining asoschisi deb atalishga to'lig'inchalik loyiq siyomodir. Zotan, Navoiydan keyin o'zbek tilshunosligigina emas, balki butun O'rta Osiyo tilshunosligi yangi bosqichga ko'tarildi, unda yangi oqimlar va yo'nalishlar yuzaga keldi. Bularning hammasiga asos bo'lgan manba Navoiyning bevosita tilshunoslik va badiiy mahorat (uslubiyatga)ga bag'ishlab yozilgan mashhur asari «Muhokamat ul-lug'atayn»dir. Masalaga ana shu nuqtai nazardan qaraganda, «Muhokamat ul-lug'atayn» asarining birgina o'zi ham Navoiyni o'z davrining buyuk tilshunos olimi, o'zbek tilshunosligi

va stilistikasi (uslubiyati)ning asoschisi deb atashga to'liq imkon beradi. Chunki, birinchidan, Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida tilshunoslik tarixida birinchi marta ikki tizimdagi til — turk (o'zbek) tili va o'sha davrning poetik tillaridan biri deb hisoblangan fors (tojik) tili solishtirilib (taqqoslab) o'rganilgan hamda ichki imkoniyatlar nuqtai nazaridan o'zbek tilining o'ziga xos fazilatlarini ko'pligi alohida, asosli faktlar asosida qayd etilgan.

Ikkinchidan, «Muhokamat ul-lug'atayn» asari Navoiyning umri davomida tilshunoslik va badiiy stilistika sohasida qilgan kuzatishlari va amaliy ijodiy mehnatining samarasi, tilshunoslikka oid ilmiy-nazariy fikrlarining yakuni va natijasi sifatida yuzaga kelgan, shu bilan birga unda tilshunoslik bo'yicha ancha tugal va tizimli fikrlar aytilgan.

Uchinchidan, «Muhokamat ul-lug'atayn»dan ulug'olimning tilshunoslikka oid bevosita fikrlari yuzaga chiqqan. Navoiyning fonetikaga, grammatikaga, so'z yasalishiga, leksikaga, stilistikaga, terminologiyaga ham doir fikrlari o'z aksini topgan. Bu tizim o'zining asosiy e'tibori bilan tilshunoslikning hozirgi zamonaviy tizimiga juda yaqin keladi. Ba'zi hollarda esa, ayniqsa, adabiy tilning tarkibi undan keng ko'lamda foydalanish turkiy tildagi unilarning tovush tabiatidan shu bilan bog'liq holda ularning ma'no ajratish xususiyati va affikslarning variantlaridan keng foydalanish masalasida hozirgi tilshunoslik bilan tengma-teng turadi, ba'zi hollarda esa tilshunosligimiz Navoiy tizimidan saboq olsa bo'ladi.

Darhaqiqat, Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn»da turkiy tilning boyligiga oid bor fikrlarini bayon qilgan, turkiy tilning so'z boyligini ham, grammatik boyligini ham, fonetik yoki tovush xususiyatlarini ham, jumladan, unililar tizimini ham to'la tushuntirishga harakat qilgan va badiiy asarda turkiy tilning ichki imkoniyatlaridan to'laroq foydalanishga da'vat qilgan (bu da'vat asarning 116-117-betlarida o'z aksini topgan). Bu fikrimizga, bizga ma'lum bo'lishicha, Navoiyning o'zi tomonidan bir marta ham (badiiy uslubda) qo'llanilmagan qipchoqcha «boruvg'a» so'z formasining «Muhokamat ul-lug'atayn»da misol sifatida ishlatishi yorqin dalil bo'la oladi: «bir ma'nisi amrdur boruvg'a» (116-bet) kabi.

Bu kabi formalar Navoiyning leksik-grammatik, fonetik xususiyatlaridan ko'pincha qo'shib o'rganilganligidan dalolat beradi va shubhasizki, turkiy tilning o'ziga xos ichki imkoniyatlarga boy ekanligini ham ko'rsatadi. Lekin, umuman olganda, Navoiyning tilshunoslik sohasidagi ilmiy ta'limoti bilan uning amaliy-badiiy faoliyati orasida biz yuqorida qisqacha tarzda qayd etib o'tganimizdek, faqat ichki imkoniyatlarni qo'llash masalasidagina emas, balki ko'pgina sohalarda ham ma'lum darajada sezilarli tafovutlar uchraydi. Bunga asosiy sabablar, birinchidan, Navoiy tug'ilib o'sgan muhit, ikkinchidan, undan avval mavjud bo'lgan an'analar, uchinchidan, undan oldin mavjud bo'lgan qoida va aqidalar hamda shunga o'xshash sabablar, bo'lsa kerak. Qiyoslab ko'ring: Navoiy tug'ilib, ta'lim ola boshlagach, ayni vaqtda, badiiy asarlarni o'sha o'zi olgan ta'lim va an'analar o'lchovi asosida yoza boshlagan. Dastlabki vaqtda tilni o'zgartirgan (forsiy til o'rnida turkiy tilni qo'llagan, xolos). Keyinchalik esa o'zi olgan ta'limning o'lchov mezonini ham o'zgartira borgan. Shunday qilib, u o'zi mustaqil ravishda ilmiy, amaliy va badiiy-stilistik ta'limot yaratib, avvalgi o'lchovlarning bu ta'limotga ko'p tomondan mos kelmasligini anglab yetdi. Lekin avvalgi an'analar inersiyasidan (silsilasidan) tamoman chiqib keta olmadi. «Muhokamat ul-lug'atayn» asarini yozish bilan o'sha inersiyadan tamoman chiqib ketishni boshqalarga vasiyat qildi. Lekin hech kim undan o'zib keta olmadi.

Alisher Navoiy turkiy tilning so'z boyligi, leksik-stilistik xususiyatlari haqida

Alisher Navoiy turkiy tilning leksikasi haqida fikr yuritir ekan, til leksikasini til boyligi, so'z mazmuni va mahorati bilan bog'liq ravishda tadqiq qiladi:

«Oshiq ayog'iga **tikan** kirmakka alar «xor» lafzi bila taarruz qilubdurlar, ammo **cho'kurki** mu'lim (og'rituvchi) roqdir. Bu lafzlari yo'qtur va turkchada mundoq ado topibdurkim,

Bayt: Cho'qurlarkim, sening yo'lungda tevatmish ayog'img'a,

Chekib ul kuy surma tortarmen qarog'img'a (111-bet).

«Va xublarning ko'z va qoshlari orasiniki, **qabog'** derlar, forsiyda bu o'zining oti yo'qtur, masnaviyda bir jamoat xub ta'rifida andoq deyilubdurkim,

Bayt: *Mengizlari gul-gul, mijalari xor,
Qabog'lari keng-keng, og'izlari tor.*

Yana ishq atvoridakim, ashk va yig'lamoq muqobalasida oh va issig' dam umdadir. Turklar damni choqing'a, ohni ildirimga nisbat berib debdularkim,

Bayt: *Firoqing ichra ulus o'rtanmakka ey mohim,
Choqin durur damimu ildirim durur ohim» (112-bet).*

Ulug' tilshunos olim ikki tilning lug'at boyligini taqqoslashni davom ettirib, turkiy tilning so'z boyligini yana quyidagicha ta'kidlab ko'rsatadi:

«Bir mutaayyin nimakim **«oq uydur»**, anga **«xirgoh»** ot qo'yupturlar. Ammo aning ajzosining ko'pini turk tili bila ayturlar. Andoqki, **tungluk** va **uzuk** va **to'rlug'** va **bosrug'** va **chig'** va **qanot** va **ko'zanak** va **uvug'** va **bog'ish** va **bo'sag'a** va **erkina** va alo hozal-qiyos. Va ov va qushki, salotin rusumida har qaysi boshqa mutaayyin ishitor, ikkalasin, **«shikor»** derlar. Va ovda umdaki **kiyikdur**, turk aning erkagin **«xuna»** yana suyqunning ham erkagin **«bo'g'i»** va tishisin **«moral»** der va tishisin **«qilqochi»** der. Sort ohu **gavazndin** o'zga nima demas. Va bir sho'ru shainlig' ovki, to'ng'iz ovidur, aning ham erkagini **«qaban»** tishisin **«megajin»** va ushog'in **«churpa»** derlar. Va sort barchasin **«xuk»** va **«guroz»** lafzi bila aytur. Va kelduk qushqaki, anda mukarram va mashhur **ilbosun** o'rdakdur. Va sort el ilbosuvni xud bilmas. Tag'i turk o'rdakning erkagin **«so'na»** va tishisin **«bo'rchin»** der. Va sort munga ham ot qo'ymaydur. Va nar va moda ikkalasin

¹E.Katremer tomonidan chop etilgan nashrida «erkanin» shaklda.

«murbog'i» der. Va o'rdakning anvoi bilur qushchilar qoshida masalan, **jo'rka** va **erka suqtur** (va) **olmabosh** va **choriqqanot** va **temirqanot** va **aldaldag'a** va **alapakka** va **bog'chol** va bu yo'sunliq, derlarki, yetmish nav' bo'lurkim, sort borisin **murg'obi-o'q** der. Va agar bir-biridin mutamaiz qilsa, turkcha – ot bila–o'q aytur. Yana ot anvoidaki, **tubuchoq** va **arg'umoq** va **yaka**, **yobu** va **totu** yo'sunluq — borini turkcha – o'q ayturlar.

Va otning yoshin dag'i ko'prakin turkcha ayturlar. Bir qulunni **«kurra»** derlar. O'zga: **toy** va **g'unan** va **do'nan** va **to'lan** va **chirg'a** va **lang'a** deguncha fosilroqlari turkcha derlar va ko'pragi muni ham bilmaslar. Va otning iyarin agarchi **«zin»** derlar, ammo ko'prak ajzosin, misli: **jibilgir** va **xano** va **to'qum** va **jazlig'**¹ va **ularchog'** va **g'anjug'a** va **jilbur** va **qushqun** va **qantar** va **tufak** va **to'qa** yo'sunliq ko'pin turkcha ayturlar, qamchini agar **«toziyona»** derlar, ammo buldurg'asin va chubchurg'asin turkcha ayturlar» (115-bet). Va **jiba** va **javshan** va **ko'ha** va **qolganduruq** va **qorbichi** va **kejim** va oha yousunluq urush asbobin ham turk tili bila ayturlar. Va ma'hudiy albisa (eskidan ma'lum kiyimlar)din misli: **dastor** va **qalpoq** va **navro'ziy** va **to'ppi** va **shirdog'** va **dakla** va **yalak** va **yog'lig'** va **terlik** va **qur** yusunlug' nimalarni borisin turk tili bila ayturlar» (116-bet).

Ana shu yuqorida sanab o'tilgan misollarning hamma-sidan ko'rinib turibdiki, Navoiy turkiy tilning terminologiyasini ham yaxshi bilgan. Bu fikrning isboti shundaki, yuqorida keltirilgan misollar bir tomondan turkiy tilning lug'at boyligini namoyish qilsa, boshqa tomondan ularning har biri terminologiya sohasi uchun ham misol bo'lib xizmat qila oladi.

Umuman, yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, Alisher Navoiy o'zbek tili so'z boyligini juda ham yaxshi bilgan, lug'at tarkibining qanchalik boy va rang-barangligini seza olgan.

¹E.Katremer chop ettirgan nashrda «jaslig' so'zi jazlig'» tarzida berilgan.

U tilda ma'lum bir tushunchani birgina so'z bilan emas, balki bir necha shakldagi so'zlar bilan ifodalash mumkinligining o'ziga xos fazilatlarini konkret misollar orqali namoyish qilib bera olgan. Bu jihatdan Navoiyning omonimlar bo'yicha keltirilgan misollari va aytgan fikrlari xarakterlidir:

Masalan: «Ot lafziki, bir ma'nisi amrdurki, toshni yo o'qni ot, deb buyurgaylar. Bu tajnisda mundoq deyilibdurkim,

Bayt:¹ *Chun pariya hurdur oting, begim,
Sur'at ichra dev erur oting, begim.
Har xadagikim, ulus andin qochar,
Notavon jonim sari oting begim». (112-113-betlar).*

Bu jihatdan Navoiyning sinonimlar, undagi ma'no nozikliklari va bu ma'no nozikliklarning badiiy adabiyot uchun (she'riyat uchun), badiiy stilistika uchun ahamiyati haqida aytgan fikrlari, ayniqsa, xarakterlidir. Masalan, «**ichmoq**» so'zining sinonimlari haqida gapirar ekan, har bir sinonim so'zning ma'no nozikliklari to'g'risida quyidagicha birma-bir to'xtab o'tadi:

«Biri sipqarmoq lafzidurki, mubolag'a mundin o'tmas. Turkcha nazmda bu matla' bordurkim,

Bayt: *Soqiyo, tut bodakim, bir lahza o'zumdin boray,
Shart bukim, har necha tutsang labo-lab sipqaray.*

Oyo! Bu sipqaray lafzi mazmunig'a yetganda, forsiy she'rda ne iloj qilg'aylar. Va **tomshimoqki**, g'oyat zavqdin bot ichmas va lazzat topa-topa, oz-oz ichar. Bu g'arib ma'ni adosida turkchada bu matla' bordurki,

Bayt: *Soqiy chu ichib, manga tutar qo'sh,
Tomshiy-tomshiy ani qilay no'sh.*

¹E.Katremer chop ettigan nashrda «tajnisda», «bayt» so'zlari «tajnis, nazm» shaklida berilgan.

Va bo'xsamoq lafzi adosida turk bu matla'ni debdurki,

Bayt: Hajri anduhida bo'xsabmen, bila olman netay,
May ilojimdur qo'pib dayri fanog'a azm etay» (109-bet)

Ko'rinadiki, Navoiy «**ichmoq**» fe'lining to'rtta sinonimi shaklini ko'rsatgan. Ya'ni «**ichmoq**» fe'li asosiy sinonim yoki dominant sifatida keltirilsa, «**sipqarmoq va bo'xsimoq**» fe'llari uning qo'shimcha ma'no anglatuvchi shakllari sifatida keltirilgan. Navoiy tomonidan keltirilgan sinonimlardan uchtasi hozirgi tilimizda Navoiy ta'riflagan darajada qo'llanadi, xizmat qiladi. Bularidan bittasi, ya'ni «**bo'xsamoq**» sinonimi esa hozirgi tilimizda qo'llanilmaydi.

Ma'lumki, Navoiy davrida «ichmoq» fe'lining «yutmoq» sinonimi ham bo'lgan:

*Ul sanamkim, suv yoqosinda paritek ulturur,
G'oyati nozikligidin suv bila yutsa bo'lur (Atoiy).*

Demak, Navoiy davridagi «ichmoq» fe'lining beshta sinonimidan to'rttasi hozirgi adabiy tilimizda o'sha ma'noda qo'llanadi, o'sha vazifani bajaradi. Alisher Navoiy sinonimlarni badiiy (she'riy) asar stilistikasi bilan qo'shib tahlil qilar ekan, «yig'lamoq» fe'lining yetti-sakkizta shakli va ulardagi ma'no nozikliklari haqida birma-bir to'xtab o'tadi: «oshiqliqda yig'lamoqdin kulliyroq va doimiyroq amr yo'qtur va anda tanavvu' bor: yig'lamsinmoq mazmunidaki, turk mundoq debdurki,

Bayt: *Zohid ishqin desaki, qilg'ay fosh,
Yig'lamsinuru ko'ziga kelmas yosh.*

Va **ingramaq va singramaqkim**, dard bila yashurun ohista yig'lamoqdur va oralarida tafovut oz topilur, turkchada bu matla' borkim,

Bayt: *Istasam davr ahlidin ishqingni pinhon aylamak,
Kechalar gah ingramakdur odatim, gah singramak.*

Forsiyda bu mazmunki bo'lmag'ay, shoir ne chora qilg'ay?
Bu **siqtamoqqim**, yig'lamoqda mubolag'adur, turk bu nav'
ado qilibdurki,

Bayt: *Ul oyki, kula-kula qirog'latti meni,
Yig'latti meni demayki, siqtatti meni.*

Yana biyik un bilaki, e'tidolsiz oshub bila yig'lag'aylar,
ani o'kurmak derlar va turkchada ul ma'nida bu matla'
borkim,

Bayt: *Ishim tog' uzra har yon ashk selobini
surmakdur Firoq oshubidin har dam bulut yanglig' ...
o'kurmakdur.
Chun o'kurmak muqobalasida forsiy tilda lafz
yo'qtur,
Forsigo'y shoir munungdek g'arib mazmun adosidin
mahrumdur.*

Yana yig'lamoqning o'kurmaki muqobalasida **inchkirmak**
dag'i bor va ul inchka un bila yig'lamoqdur va ul turk lafzida
bu nav' tarkib ado topibdurkim,

Bayt: *Charx zulmidaki, bo'g'zumni qirib yig'larmen,
Igirur charx (kibi)' inchkirib yig'larmen.*

Navoiy tomonidan «**yig'lamoq**» fe'liga nisbatan keltirilgan
yettita sinonimdan oltitasi hozirgi tilimizda mavjud. Yettinchisi
«**inchkirmak**» sinonimi esa hozirgi tilimizda uchramaydi. Uning
o'rniga «**chinqirmoq-chiyillamoq**» fe'li qo'llanadi.

Gap kelganda, shuni ham aytib o'tish kerakki, biz ham-
mamiz shu paytgacha Navoiyda «**yig'lamoq**» fe'lining yettita
shakli-(uyqashi) sinonimi berilganligi haqida gapirib kelar
edik. Holbuki, Navoiy o'sha yerning o'zida bu fe'lining sintak-
tik yo'l bilan yasalgan sakkizinchi sinonimi borligi haqida maxsus
ravishda to'xtab o'tgan: «Ammo yig'lamoqta «**hoy-hoy**» lafzin
(adoda)¹ o'zlarin turkiygo'ylarga sherik qilibdurlar va bu lafz
ham aslan turkiy uslubdur va faqirning bu matlai mashhurdurkim.

¹E.Katremer chop etgan nashrda «adoda» so'zi yo'q.

*Navoiy, ul gul uchun hoy-hoy yig'lama ko'p,
Ki ha deguncha ne gulbun, ne g'uncha, ne gul bor!
(110-111- betlar)*

Ushbu misoldan ko'rinadiki, Navoiy tomonidan keltiril-
gan bu forma ham hozirgi tilimizda uchramaydi. Lekin shunga
qaramay, bundan keyin Navoiyning «**yig'lamoq**» fe'li bo'yicha
keltirilgan sinonimlarning soni yettita emas, sakkizta ekanligi
haqida gapirishimiz lozim bo'ladi.

Navoiy sinonimlarnigina emas, boshqa stilistik kategoriya-
larni ham tahlil qilar ekan, ko'pincha u uch xil aspektga
asoslanib ish tutadi. Ulardan birinchisi, leksik-stilistik aspekt
yoki ma'no boyligi, ikkinchisi, talaffuz aspekti yoki
singarmonizm-til qonunining aks etishi, uchinchidan esa,
badiiy estetik aspekt (didaktik aspekt) yoki tarbiyaviy tomo-
nidir: «Yana turk lafzining mahub jonibidin yasanmog'i
muqobalasida sort lafzida **orasta** va **oroyish** lafzi bor. Ammo
bezanmak muqobalasida demaydurlar va ul yasanmog'ining
mubog'asidur va ani mundoq debdularkim:

Bayt: *Erur bas chu husnu malohat sanga,
Yasanmoq, bezanmak ne hojat sanga? (111-bet)*

Da'vomizning isboti sifatida so'nggi baytni tahlil qilib
ko'rsak, unda «**yasanmoq**», «**bezanmoq**» fe'llarining so'z
boyligini namoyish qilayotganligini: ulardagi affikslarning
o'zakka moslashib qo'llanishi esa singarmonizm-til qonuniyati
va tovush tabiatini to'la ta'minlayotganligini; va nihoyat, bayt-
ning umumiy mazmuni esa tabiiy husnning o'zi har qanday
yasanishdan ortiq ekanligini uqtiradi. Bularning hammasi
birlashib, ulug' so'z ustasining yuqori darajadagi badiiy-stilistik
mahoratini namoyish qiladi.

Shunday qilib, Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn»
asari faqat tilshunoslikkagina doir ilmiy asar bo'lib qolmay,
shu bilan birga, badiiy stilistik va badiiy estetik ta'limot
jihatidan ham qimmatlidir. Chunki Navoiy bu asarida til haqida
ilmiy ta'limotning asoslarini yaratish bilan bir qatorda badiiy
so'zdan foydalanish istiqbolini, uning yangi-yangi ko'lamlarini

ochib berdi. Ana shu aytilganlarga ko'ra, bu asar ham tilshunoslikning, ham uslubning, ham badiiy estetik ta'limotning yangi ufqlarini ochib berdi, ularni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi.

Navoiy til grammatikasi va fonetikasi haqida

Navoiy o'z asarlarida, albatta «grammatika» yoki «fonetika» so'zini qo'llagan emas. Lekin tilning grammatik va fonetik qonunlarini yaxshi bilgan, ularni bir-birlaridan yaxshi farqlagan va o'ziga xos arabcha-forscha va turkcha-o'zbekcha terminlar bilan atagan (amr, harf, harakat, hamza, voze', voz' — yasovchi yoki so'z yasovchi, tajnis va iyhom — ko'p ma'noli so'z: alam — ism, ot; almutakallim — so'zlovchi; lafz, kalom, alfoz kabi terminlar) hamda ular haqida o'z davriga nisbatan juda muhim fikr va mulohazalar bayon qilgan. Jumladan, Navoiy turkiy (o'zbek) tilining grammatik xususiyatlari haqida yetarli darajada fikr bildirgan. U so'z yasash yo'llari haqida maxsus ravishda to'xtab, batafsil gapirgan hamda o'ziga xos original fikr va mulohazalar yuritgan. U, xususan, o'zbek tilida fe'llardagi birgalik va orttirma darajalarini yasovchi «-sh/ish», «-t», «-r» qo'shimchalar orqali «**chopishmoq, topishmoq, quchishmoq, o'pishmoq, yugurt, kildurt, yashurt, chiqart**» kabi so'zlarning yasalganligini (116-bet), sifatlarda belgining ortiq-kamligini esa «p, m» vositasi orqali «**op-oq, qop-qora, qip-qizil, sap-sariq, yup-yumaloq, yap-yassi, op-ochuq, chup-chuqur, ko'm-ko'k, yam-yashil, bo'm-bo'sh**» tarzida ifodalanishini aytadi (117-bet). Shuningdek, ravishdoshning «-gach/-g'ach-kach/qach» affiksi orqali «**tegach, borg'och, yorg'och, topqoch, sotg'och**» kabi fe'l formalarining yasalishini; harakatni bajarishga intilish, tayyorlanish kabi ma'nolarni ifodalash uchun esa «-gu/-g'u» affiksi bilan yasalgan sifatdosh formasiga «-dek» ravishdosh yasovchi qo'shimchasining qo'shilishi orqali «**borg'udek, yorg'udek, kelgudek, bilgudek, aytgudek, qaytg'udek, urgudek, surgudek**» fe'llarining hosil qilinishini alohida-alohida misollar bilan ko'rsatib o'tadi.

Turkiy tilda so'z yasalishini xarakterlash jihatidan Navoiyning «-chi» affiksiga keltirgan misollari, ayniqsa, muhim va mufassaldir: «Yana bir adolari borki, ba'zi alfozning so'ngida «ch, i, ki, chi» lafzidur, orttururlar, yo mansabning, yo hunarning, yo peshananing izhori uchun: forsiyda yo'qtur, balki alar ham turkcha ayturlar» (117-bet).

Navoiy, shuningdek -vul, -l kabi qo'shimchalar orqali o'sha davrda keng qo'llanilgan «**xirovul, qarovul, chingdovul, yanqovul, so'zovul, patavul, kitpovul va yasavul, bakovul, shig'ovul; qahol, yasol, qabol, to'sqol, sevarg'ol**» (117-bet) kabi otlar yasalganligini ham qayd qilib o'tadi. Ushbu misollardan ko'rinadiki, Navoiyning til grammatikasini tushunish darajasi hozirgi zamon tushunchasiga nisbatan kamroq differensiallashgan, bu hol o'z davri uchun tabiiy edi. Lekin Navoiyning til qonuniyatlarini tushunishi hamda grammatik-fonetik qonuniyatni amalda qo'llay olishi tamoman mukammal va har qanday maqtovg'a sazovordir.

Shunisi ham xarakterliki, Navoiy ot kategoriyasiga misol keltirganda ham, sifat, fe'l kategoriyasiga misol keltirganda ham, sifatdosh va ravishdosh formalariga misol keltirganda ham grammatik xususiyatlar bilan bir qatorda, avvalo, so'zning ma'nosini nazarda tutadi, qolaversa, so'zning talaffuzini nazarda tutadi. Shu kabi affikslarning juft yoki toq holatda qo'llanishini ham nazarda tutadi, ularning hamma variantlariga to'liq misollar keltiradi.

Demak, Navoiy grammatika haqida gapirganda ham ko'p hollarda, birinchidan, so'zning leksik-stilistik ma'nosini yoki so'z boyligini nazarda tutadi. Ikkinchidan, qo'shimchalar yoki so'z yasalishining imkoniyati va variantlari haqida fikr bildiradi, misollar keltiradi va uni yana til boyligi bilan bog'laydi. Bu hol yuqorida aytilgan fikrni yana Navoiyning til grammatikasiga qarashi hozirgi davrdagidek differensiallashmagan ekanligini yana bir marta tasdiqlaydi. Ushbu da'vomizni Navoiyning mashhur yuzta fe'lga bergan ta'rifi ham isbotlaydi.

Darhaqiqat, Navoiy o'zining «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida turkiy tilga xos bo'lgan mashhur yuz fe'l (108-bet) haqida gapirar ekan, avvalo ularni leksik birlik sifatida ta'riflaydi va ularning ko'pchiligini fors tilida ekvivalenti yo'q

eklanligini, ularning ma'nolarini fors tilida faqat bir necha so'z bilan anglatish mumkinligini qayd qiladi. Ikkinchidan, Navoiy bu fe'llarni qo'shimchalar (affikslar) bilan qo'shib berganki, bu hol shu so'zlarni ham grammatik jihatdan, ham fonetik jihatdan xarakterlash imkonini beradi. Masalan, biz olimning izohlaridan to'la tushunib yetganlarimizni ham so'zlarning oxirida qanday qo'shimchalar qo'shib kelganligiga qarab bilib olamiz, shu bilan Navoiyning singarmonizm qonunini yaxshi bilganligini, juft unilarni va juft affikslarni yaxshi farqlay olganligini — (demak, uning tilidagi unilar soni to'qqizta ekanligini) va ularni to'g'ri talaffuz qilganligini ham aniq bilib olamiz.

Masalaga ana shu nuqtai nazardan qaraganda, Navoiyning fonetika sohasida bergan izohlariga nisbatan, garchand ularda vov (و) , yoy (ي) harflarining qanday tovushlar (fonemalar) ni anglatib kelishlari ancha durust tushuntirilgan bo'lsa ham (chunki bu o'rinda ham ba'zi bir aralashtirish hollari «i» bilan «e» yoki «i» ning til oldi izohlanishi uchrab turadi) tovushlarning qonuniyatlarini amalda bilishi va ularni amalda qo'llash nuqtai nazaridan Navoiy mukammal darajadagi bilim va mahoratga ega bo'lgan.

Bu fikrni, Navoiy qo'llagan adabiy tilning tovush imkoniyatlarining kengligi ham to'la isbot qiladi. Chunki Navoiy asarlarining tili o'z davrida mavjud bo'lgan turkiy sheva, lahja va dialektlarning deyarli hammasining vokalizmini qariyb to'liq ravishda aks ettirgan. Chunki 9 sostavli unli tovushlar tizimi va singarmonizm qonuniyati eski o'zbek adabiy tilining asosiy bazalari bo'lgan qipchoq lahjalarini ham, o'g'uz lahjalarini ham, o'rta (o'zbek qorluq-chigil-uyg'ur) lahjalarini ham tovush tizimlarini to'liq aks ettirishga imkon bergan.

Navoiy tilidagi qisqa hamda cho'ziq «i» unli tovushi o'sha davrdagi o'g'uz-turkman lahjalarining tovush tizimini to'liq aks ettirish uchun hamda arab, ayniqsa, fors-tojik tilining ta'siriga kuchli ravishda uchragan Hirot, Samarqand, Buxoro singari shahar shevalari va ular tipidagi shevalarning tovush xususiyatlarini aks ettirish uchun xizmat qilgan.

Navoiy asarlari tilida uchrovchi ochiq «o» (و) tovushi esa shu keyingi aytilgan til va dialektlarda fonema darajasiga ko'tarilgan lablashgan «o» ni aks ettirish uchun qo'llangan.

Navoiyning turkiy til tizimidagi tovushlarning qonuniyatlarini amalda yaxshi bilishi va amalda yaxshi qo'llay olishi turkiy tilning tovush imkoniyatlarini necha yuz yillar davomida an'anaga kirib qolgan, «tor arab alfaviti» imkoniyatlari darajasida ham yuzaga chiqarish mumkinligini isbot qiladi. Holbuki, biz amaldagi alfavitimiz bilan bu imkoniyatlarni yuzaga chiqara olmasdan, Navoiyni tushuna olmasdan va tilimizning fonetik hamda qisman grammatik qonuniyatlarini yaxshi anglay olmasdan yuribmiz. Chunki hozirgi kirill alfavitimiz va yozuvimiz singarmonizm qonunini nazardan soqit qilgan holda tuzilgan. Holbuki, hozirgi adabiy tilimizda singarmonizm qonuni bilan aloqador kamchiliklar asosan, alfavit, imlo qoidalari, fonetika, talaffuz va qisman morfologiya bilan bog'liqdir.

Misollarga murojaat qilaylik, hozirgi yozuvimizda qo'llanayotgan «u» harfi amalda ikki mustaqil tovushni ifodalashga xizmat qilib kelmoqda («o» harfi ham xuddi shunday). Bu tovushlardan bittasi til oldi, yumshoq fonemani tashkil qilsa, ikkinchisi til orqa, qattiq unlini tashkil qiladi. Obrazli qilib aytganda, bu ikki tovushdan biri noziklik va nafislikni tashkil qilsa, ikkinchisi dag'allik, qattiqlik (kuchlilik ma'nosida)ni tashkil qiladi. Boshqacha qilib aytganda, odamning tana organlarida ko'zga tashlanuvchi simmetrik holat tilimizning vokalizmi (unli tovushlar tizimi)da ham ko'rinadi (xuddi ikki ko'z, ikki quloq, ikki qo'l singari). Hatto vokalizmdagi bu holat grammatikaga o'tib, affikslar (qo'shimchalar)ni boshqarishga ham xizmat qiladi. Tilimiz vokalizmidagi bunday simmetrik holat tufayli so'zlar ma'no jihatdan ham bir-biridan farq qiladi.

Qisqacha qilib aytganda, aslida tilning eng kichik bo'lagi bo'lgan tovushlarning (bu o'rinda «u» va «o» unililarining) xarakteridan kelib chiqadigan bu holat (qonuniyat) tilning uchta katta sohasini (aspektini) birlashtiradi va ularni to'g'ri boshqarishga xizmat qiladi. Bu uchta soha: talaffuz, ma'no va affikslar, ya'ni grammatik ko'rsatkichlardir. Boshqacha qilib aytganda, daraxtdan olingan bir kichik kurtak yaxshi payvand qilingan taqdirda, o'sha daraxtning butun xislati va tuzilishi: navini (mevasini) o'zida aks ettirganidek, «u» va «o» unli

tovushlarini soʻz boshida toʻgʻri ayta bilish malakasi ham talaffuzni, ham semantikani, ham affikslarni toʻgʻri farqlay bilishga olib keladi. Ana shuning uchun ham shoirlarimiz tilimizdagi unilarning bunday xususiyatlarini asoslab, turli soʻz oʻyinlari, tuyuqlar, tajnis sanʼatining turli xil koʻrinishlari, turli xil toʻlaqonli qofiyalar va oʻlchovlarni yaratib kelganlar.

Adabiy tilimizning bunday xususiyatlarini ulugʻ shoir va mutafakkir Alisher Navoiy va umuman, klassik shoirlarimiz juda yaxshi bilganlar. Ular oʻz asarlarining tilida 9 ta mustaqil unli fonemani ishlatib, juda katta yutuqlarga, maʼno farqlariga erishganlar. Alisher Navoiyning juft unililar tabiatini yaxshi anglash va affikslarni shularga muvofiqlashtirib qoʻllashi quyidagi misolda yana ochiqroq koʻrinadi:

*Ki boʻlgʻay har uch oy bir ravzada toʻy,
Ki oʻlgay har kuni yuz otu ming qoʻy.*

Ulugʻ shoirimiz birinchi misraning «boʻlgʻay» soʻzidagi qattiq «Oʻ» unlisining tabiatiga moslab -gʻay affiksini qoʻllagan boʻlsa, ikkinchi misrada «Oʻlgay» soʻzidagi yumshoq «Oʻ» ning talabiga koʻra -gay affiksini qoʻllagan. Zotan, «Oʻlgay» soʻzida yumshoq «Oʻ»ning ishlatilganligi tufayli bu soʻz «boʻldi» maʼnosida emas, balki «Oʻldi» (soʻyildi, tugadi) degan maʼnoni anglatib kelmoqda. Xuddi shuningdek, Navoiyning «Layli va Majnun» dostonidan olingan quyidagi baytda ham «toʻlgay» va «boʻlgʻay» soʻzlari sostavidagi «oʻ» unlisining qattiq til orqa varianti talabi bilan – «gʻay» affiksi qoʻllanilgan:

*Ki shuhrati uchun jahon toʻlgay,
Turk eliga dogʻi bahra boʻlgʻay.*

Afsuski, hozirgi alifboimizda va yozma adabiy tilimizda juft unilarning alohida harflar bilan berilmasligi natijasida bunday kamchiliklar endilikda ogʻzaki talaffuzga ham koʻproq oʻtib bormoqda. Bular quyidagilarda koʻrinadi: tilimizning bunday qonuniyatini (xislatini, fazilatini) tushunmagan ayrim kishilar

«boʻl», «oʻr», «oʻrta», «toʻr», «oʻt», «boʻz», «soʻz», «oʻz», «toʻda», «oʻsma» singari ikki xil talaffuz qilinib, ikki xil ohang va ikki xil maʼno beruvchi soʻzlarni faqat bir xil talaffuz qilishlari natijasida juda koʻp maʼno chalkashliklari kelib chiqmoqda. Masalan, qiyoslab koʻraylik: aslida «boʻz» soʻzidagi birinchi unli til oldi talaffuz qilinganda mayin eshitiladi va shu soʻzning maʼnosini bir xil qilib belgilaydi, yaʼni bu soʻz gazmolning bir navini anglatadi. Shu soʻz tarkibidagi unli tovushning orqa qismida talaffuz qilinganda esa toʻlishganlik, yetilganlik maʼnolarini bildiradi: «boʻz yer», «boʻz ot», «boʻz yigit» kabi. Holbuki, baʼzi ijrochilar qoʻshiqalarda aytiladigan «boʻz yerdagi boʻz yigit» iborasini qattiq qilib emas, yumshoq qilib talaffuz etishlari natijasida «latta yerdagi latta yigit» degandek xunuk bir maʼno chalkashliklari sodir boʻlmoqda.

Yoki «Oʻr» soʻzidagi «Oʻ» ni farqlamasdan talaffuz qilish natijasida ham shunday gʻalizliklar paydo boʻlmoqda. Masalan, radiodan berilgan bir insenirovkada bir sanʼatkor sochi fashistlar tomonidan qirqib tashlangan qizni yupata turib, «Xafa boʻlma, dugonam, soching yana oʻsadi. Men oʻzim yaxshilab oʻrib qoʻyaman» der ekan, «Oʻrib» soʻzidagi «Oʻ» ni yumshoq qilib emas, qattiq qilib talaffuz etish natijasida «Sochingni yana qirqib tashlayman» degan kulgili maʼno chiqadi.

Yana bir misol: baʼzi kishilar «toʻr» maʼnosidagi soʻzining til oldi «Ö» tovushini toʻgʻri talaffuz qila olmasliklari natijasida «uyning toʻridagi kelinchakni» «toʻrdagi (qafasdagi) kelinchak»ka aylantirib qoʻymoqdalar.

Hozirgi nutqimizda sodir boʻlayotgan bunday kamchiliklarni sanab adogʻiga yetish qiyin. Chunki bunday soʻzlar pozitsion jihatdan olib qaralganda ming-minglab uchraydi.

Demak, bunday xatolik va chalkashliklardan qutulishning asosiy yoʻli alfavitda til oldi «oʻ»ni alohida belgi (harf) bilan til orqa «ö»ni alohida belgi (harf) bilan ifodalashdan iboratdir.

Shunday qilib, hozirgi alfavit va yozuvimizda juft unilarni farqlamaslik bilan bogʻliq boʻlgan kamchilikning asta-sekinlik bilan oʻz taʼsirini ogʻzaki adabiy tilimizga oʻtib borayotganligi ogʻzaki va yozma nutqning bir-biriga taʼsiri natijasida soʻnggi vaqtlarda adabiy tilimizda, umuman, muvozanatning buzilishi

va chap qanotga og'ish holati yuz bermoqda. Masalan, hozir adabiy tilimizda «bo'lg'on» so'zini mayinlashtirmasdan, o'zining tabiiy holatiga mos ravishda qattiq talaffuz bilan aytishning hech imkoniyati yo'q. Chunki hozirgi imlomizda «-g'on» affiksi yo'q, u grammatik qoidaga kiritilmagan, amaldagi «-gan» affiksi esa «o'» unlisini qattiq qilib aytishga imkon bermaydi. Shuning uchun ham bu kabi so'zni ko'pincha til oldida chuqurroq qilib «bo'lgan» (maydalangan) tarzida talaffuz qiladilar va o'z-o'zidan ma'no chalkashligining kelib chiqishiga yo'l ochiladi. Aslini olganda, bu birgina nutq jarayonining o'zida birdaniga uchta nuqson yuz beradi: unli tovushning talaffuzi buziladi, ya'ni ohangi va rangi o'zgaradi, ma'no chalkashliklari sodir bo'ladi va affiksning bir qanotiga og'ishi ko'zga tashlanadi.

Yozma adabiy tilimizda yuz berayotgan bunday chalkashliklarning yana bir yomon tomoni shundaki, ular Navoiy davrining va umuman, adabiy talaffuz normasini tobora tor ramkaga solib qo'ymoqda.

Demak, biz filologlar (tilshunoslar va adabiyotshunoslar), jurnalistlar va jumladan, qalam ahlari ham xalq tilining qonunlarini chuqur o'rganishimiz, ardoqlashimiz va uning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishimiz lozim, unga doimo amal va rioya qilishimiz zarur.

Chunki, adabiy til haqida o'ylab qayg'urish, uning qonun-qoidalarini to'la ro'yobga chiqarish va uni jonli xalq tilining manba va imkoniyatlari hisobiga boyita borish, ularga rioya qilish faqat tilshunoslarning emas, tanqidchi, adabiyotshunoslarning ham, adiblarning ham, jurnalistlarning ham, madaniyat xodimlarining ham muqaddas burchi bo'lib hisoblanmog'i lozim.

Darvoqe, biz Alisher Navoiy asarlari tilida jonli xalq tilining ko'pchilik qismida va boshqa turkiy tillarning keng qo'llanuvchi singarmenizm qonunini hozirgi yozma adabiy tilimizda inkor qilish bilan oxir-oqibatda nimaga erishdik. Daf'atan qaraganda, ma'lum yutuqlarga erishgandek bo'lib tuyuladi, chunki juft unllarning talaffuzini farqlashdan ozod bo'ldik, 9 ta unli o'rniga yozuvda 6 ta unlini qo'llay boshladik. Shuningdek, juft affikslarni yo'qotib, ularning o'rniga yozuvda

bir xil qo'shimchalarni qo'llay boshladik, go'yo bu bilan grammatik qoidalarimiz va imlomiz osonlashgandek tuyuldi. Lekin keyinchalik aniq bo'la boshladiki, biz singarmenizmdan voz kechish bilan tilimizning tovushlariga xos bo'lgan juftlik muvozanatini yo'qota boshladik. Ikki xil talaffuz o'rniga bir xil talaffuz qilinishi natijasida ko'pgina so'z ma'nolarining chalkashligi yuzaga keldi. Tilimiz unli tovushlarining bo'yoqdorligi va ohangdorligi 9 tadan 6 taga kelib qoldi.

Qolaversa, unli tovushlarning har xil talaffuzi natijasida yuzaga keluvchi affikslarning ikki xil grammatik formasiga ham jiddiy putur yetkazildi: amaldagi ikki xil formadan faqat bittasi qo'llanishi natijasida tilimizning affikslar tizimi, grammatik imkoniyatlari qashshoqlashdi. Masalan, -moq/-mak o'rnida faqat -moq; -liq/lik o'rnida faqat -lik; -g'on/-gan o'rnida faqat -gan; -g'a/-ga o'rnida faqat -ga (qisman)-ka/-qa affiksini qo'llash adabiy orfografik normaga aylanib qoldi.

Natijada, badiiy tilimizning qofiyadoshlik, tuyuqdoshlik imkoniyatlari va sifatlariga ham ma'lum darajada zarar yeta boshladi. Darvoqe, hozirgi grammatik qoidalarimizda -g'o, -g'a, -g'on, -g'an, -g'ay singari affikslar butunlay qo'llanilmaydi. Ana shuning uchun buni amalda sezgan ba'zi bir zamonaviy shoirlarimiz (masalan, Mirtemir, Uyg'un, Zulfiya, E.Vohidov, A.Oripov, Omon Matchon, Xurshid Davron va boshqalar) o'zlarining uslubiy izlanishlarida Navoiy tilida va xalq og'zaki tilida bo'lgan imkoniyatlarni izlab topib, shu bilan qofiya tizimlarini va ohangdorligini boyitmoqdalar. Yuqorida qayd qilingan affikslarning hozirgi yozma adabiy tilimizda ham yashash huquqiga ega ekanligini ko'rsatdilar.

Jumladan, Erkin Vohidov so'zi bilan ijro etiladigan «Yaxshidir achchiq haqiqat, lek shirin yolg'on yomon» deb boshlanuvchi qo'shig'i bu jihatdan xarakterlidir. Chunki bu she'rda «yolg'on» so'ziga «qolgan» va «qiynalgan» so'zlarini to'liq qofiya qilib bo'lmasligi sababli, shoir va san'atkor hozirgi yozma grammatik formada bo'lmagan, lekin og'zaki adabiy tilimizda va klassik adabiyotimizda yashab kelayotgan-g'on formasidan unumli foydalangan:

*Yaxshidir achchiq haqiqat, lek shirin yolg'on yomon,
Shu shirin yolg'ong'a lekin aldanib qolg'on yomon...
So'nggi qiynolg'on yomon, so'nggi qiynolg'on yomon...*

Marhum iste'dodli shoir Muhammad Yusufning quyidagi misralarida ham ana shunday izlanish mavjud:

*Bu she'rim shunchaki yozilg'oni yo'q.
Yozilsa ham hali bosilg'oni yo'q.*

Demak, hozirgi adabiy tilimizda ham singarmonizm qonunidan umumli foydalanish mumkin va lozim. Shunga ko'ra, juft affikslar ham adabiy grammatik qoidalardan mumkin qadar o'z o'rnini olishi maqsadga muvofiqdir.

Demak, singarmonizm qonunini adabiy tilimizda to'liq qayta tiklanmagan taqdirda ham juft unilarning ma'no buzilishidan saqlab qolguvchi xususiyatlarini va affikslarning eng zarur turlarini o'rganib chiqishimiz hamda yozma adabiy til normasiga kiritishimiz lozim. Shunga ko'ra, tilimizning bunday xususiyatini maktabdan boshlab o'rgata boshlashimiz, oliy o'quv yurtlarida esa talabalarda to'la tahlil qilish va farqlash malakasini orttirmog'imiz lozim.

Demak, Navoiyning ta'limoti va fikrlarini biz tarixiy nuqtai nazardangina, ya'ni Navoiyning adabiy tilni asoslash sohasidagi xizmatlari va adabiy tilimizning bosib o'tgan taraqqiyot yo'llari sifatidagina o'rganib qolmasdan, ayni vaqtda, biz Navoiyning fikr-mulohazalari, tutgan yo'li, ta'limoti va saboqlarini, xususan, uning tildan foydalanishdagi mahoratini hozirgi tilimizning muammolari bilan bog'liq ravishda o'rganmog'imiz lozim. Navoiyning tutgan yo'li va saboqlaridan hozirgi tilimizni yanada boyitish hamda mukammallashtirish sohasida foydalanmog'imiz lozim.

Shunday qilib, Navoiyning til sohasidagi ta'limoti, xususan, uning tildan foydalanish mahorati, jumladan, turkiy (o'zbek) tilning unililar tizimini yoki singarmonizm qonunini mukammal ravishda bilishi, uning davrida va undan keyin ham hammaga tushunarli bo'lavermaganidek, xususan, tildan foydalanish mahorati bizning davrimizda ham o'z murakkablik holatini saqlamoqda va ko'pchilik kishilarga tushunilishi qiyin bo'lib qolmoqda. Demak, uni o'rganish va tushunishning yo'llarini o'zlashtirib olishimiz hamda bu sohada qunt bilan ishlashimiz kerak.

Navoiyning amaliy faoliyatini yaxshi tushunishning asosiy shartlaridan biri, bizningcha, turkiy (o'zbek) tilining fonetik qonuniyatlari va talaffuz normalarini nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham yetarli darajada yaxshi o'zlashtirishdir. Shu bilan birga Navoiyni o'qish va tushunish uchun olim yashagan davrlardagidek, hozirgi davrda ham ma'lum shartlar talab qilinadi, bular, bizningcha, quyidagilardir.

Birinchidan, Navoiyni tushunishda umumnazariy bilim va umumiy saviya talab qilinadi. Ikkinchidan, tekstologik-manbashunoslik bilimi talab qilinadi. Uchinchidan, Navoiyning til mahoratini va singarmonizm qonunini to'la tushunishni hamda juft unililar, juft affikslarni farqlay bilishni, ayniqsa, turkiy tildagi ohangdoshlik qonuniyatini yaxshi bilish talab qilinadi. Buning uchun esa, Alisher Navoiy davrining yozuvini yaxshi o'zlashtirganimiz holda hozirgi yozuvimizni, ayniqsa, yangi alifboimizni ham bunga moslashtirib, xususan, unililarning farqini yozuvda aks ettirishga erishmog'imiz lozim bo'ladi.

Xullas, bu kabi masalalar hozirgi kunda tilshunoslarimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Zero, o'zbek adabiy tilining asoslanishi ham Navoiy ijodi bilan bog'liqdir.

X U L O S A

O'zbek adabiy tilining ilk tarixiy taraqqiyot bosqichlari, shakllanishi qardosh turkiy xalqlar tili tarixi bilan mushtarakdir. Turkshunos, jumladan, o'zbekshunos olimlar bu borada o'z ilmiy ishlarida turlicha fikrlarni bildirishgan. Ularning aksariyatida turkiy va o'zbek tillarining tarixiy taraqqiyoti bosqichlarini uch yoki to'rt davrga bo'lib o'rganiladi. Ammo ularda turkiy va o'zbek tillarining antik (eng qadimgi, miloddan avval va milodiy V asrlargacha bo'lgan) davrlar bo'yicha maxsus fikr bildirilmagan. Chunki, bu davrlar haqida tarixiy yozma manbalar yetarli emas. Ammo bu haqda qardosh turkiy tillar hamda ulardagi qadim tarixiy manbalar ba'zi bir xorijiy mamlakatlarda bizgacha yetib kelganligi fan olamida ma'lumdir. Chunonchi, grek (yunon), xitoy, hind, arab, fors va boshqa mamlakatlarda qadimgi davrlardagi tarixni aks ettiruvchi ajoyib manbalar bor. Ulardan foydalangan holda fikr yuritish mumkin, albatta. Chunki, ularda turkiy xalqlarning o'tmishi, urug'-aymoqlari, yashash tarzi va boshqalar haqida ham ma'lumotlar uchraydi.

Shuningdek, hali ham sinchiklab, to'liq o'rganilmagan turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining qadimiy yozma manbalarida ham antik davr haqida ma'lumotlar, fikrlar uchrashi tabiiydir.

Tarixiy manbalardagi ma'lumotlar va yirik olimlarimizning aytgan (yozgan) fikrlariga asosan biz ham «O'zbek» atamasini etnonim sifatida shakllangan deb bilamiz. Bu haqda bizning ikki yo'nalishdagi qarashimiz bor.

Birinchi, deyarli ko'pchilik manbalarda «o'zbek» atamasini qipchoq o'zbek elati, aniqrog'i, o'zbeklarning qipchoq urug'lariga bog'lab talqin etiladi. O'zbeklarning qipchoq urug'i esa juda qadimdan mavjud bo'lib, Markaziy Osiyo

hududida miloddan oldingi III–II asrlardan (hatto undan ham avvalgi davrlardan) beri yashab kelgan. Lekin u vaqtlarda Movarounnahr o'lkasidagi o'zbeklarning qipchoq urug'lari boshqa urug'larning umumiy soniga nisbatan ancha ozchilikni tashkil etganlar. Ularning son jihatdan ko'payishi VIII–IX asrlardan, aniqrog'i X asrdan boshlangan (34/94-bet). Shuning uchun qipchoqlar orasidagi «o'zbek» nomli urug' ham qabila sifatida keyinroq shakllangan. Shu sababli Mahmud Koshg'ariy bu urug' haqida maxsus to'xtalmagan.

Shunga qaramay, devonda ba'zi bir so'zlarni izohlash jarayonida (Masalan, «Ko'mchu», «Tavg'ach» kabi so'zlarning izohida etnik nomni ham ifodalab kelgan. Chunonchi, **öd qavmi xazinasasi** (I-t., 395-bet), **Tavg'ach äzi** (I t., 423-bet) kabi. Bizningcha, ushbu misollardagi «öd va äz» so'zlarini «o'zbek» etnonimining asosi (o'zagi) bilan, ya'ni qadimgi «O'z» urug'ining nomi bilan bog'liqligi bor. Chunki, qadimgi turkiy, arabiy alifbolarda ba'zi bir harf belgilari o'xshash yoki bir necha tovushni ifodalagan. Ayniqsa, Mahmud Koshg'ariy devonida qadimgi turkiy dialektlari tilida (qadym-qazym-qayin; tupti-tuzdi-tuydi (I t., 68-bet) -to'ydi kabi so'zlar talaffuzda) «d, z, y» lashish hodisasi mavjudligi misollar orqali tahlil etib berilgan. Bunday xususiyatlar Qashqardan to Movarounnahr va Rungacha bo'lgan hududlarda yashovchi turkiy qabilalar tilida mavjudligi ta'kidlangan.

Demak, shunday ekan, «öd, äz» so'zlari «o'z» etnonimining fonetik variantlari va «O'zbek» atamasining asosi (o'zagi) hisoblanib, Movarounnahrda qabilalar tarkibidagi urug'lardan birining nomini ifodalaydi.

Ikkinchidan, «o'zbek» atamasi V–VII asrlardagi turk xoqonligidagi qabilalar ittifoqi tarkibida kichikroq qabila-urug'lardan birining nomini ifodalagan. U dastavval gurux-qavm nomi sifatida yuzaga kelgan. Bu qavm asta-sekin kattalashib o'z bekligi, xoqonligi darajasidagi mavqega ega bo'lishgan. Jumladan, 742–755-yillarda G'arbiy turk xoqonligida o'z (O'zmish tigin nomidagi) hukmronligi bo'lgan (57/375-bet). Kultigin bitiktoshidagi «öz» (o'r) begligi (30/50-77-betlar) yoki «o'z buduni (xalqi) va uning Bars nomli begi» xoqon mavqeiga egaligi (21/106-bet, 19-20-matn), «Az

hokimligini o'z qo'liga olishi" (21/109-bet) kabi qayd etib o'tilgan ko'plab misollar "o'z" yoki «O'zbek» atamasini qadimiy urug'-qabilalardan birining nomi ekanligini tasdiqlaydi. Har holda, «O'z» — urug' nomini, bek (beg) esa hokimlik darajasini ifodalaydi. «O'zbek» etnonimi V–VII asrlardan shakllanib, X asrdan so'ng ko'pgina urug'lar birlashuvidan yirik qabila-elat va xalqning nomiga aylanadi. Shu tufayli X asrdan so'ng, ko'pgina tarixiy memuar-badiiy asarlarda bu nom keng tilga olina borgan va o'zbeklarning 92 urug'dan iborat bo'lgan shajarasida alohida o'rin berila boshlagan, o'zbeklarning xalq sifatida shakllanish jarayoni tezlashganligi seziladi.

Bu jarayonning yanada tezlashuvida Oq O'rda va Oltin O'rda davlatlari hududidagi urug'larning «O'zbek» nomi bilan atalib yirik bir ittifoq tarkibiga birlashuvi muhim rol o'ynagan. Bunga faqat O'zbekxonning nomi emas, balki o'sha davlat tarkibidagi o'zbek nomli urug'-qabila mavqeining kuchayishi va o'zbek urug'lari davlat boshqaruvini o'z qo'liga olishi asosiy sabablardan biri bo'lgan. Shu sababli XIV–XV asrlarda Oltin O'rdava Xorazm o'lkalari — qipchoq-o'g'uz qabilalari allaqachon o'zbek nomini olgan edilar. Jumladan, Xuroson va Movarounnahr hududlari ham turkiy o'zbeklar, ayniqsa, bu o'lkalarda Temur va temuriylar mo'g'ullar hukmronligini tamoman tor-mor etib, turkiy o'zbeklar hukmronligini o'rnatgach, turkiy nom bilan atalib kelingan elatlar orasidagi o'zbek urug'larining mavqei ko'tarilib, barcha turkiy-zabon urug'lar ham o'zbek nomi bilan atala boshlangan edi.

Shayboniyxon boshchiligida qipchoq o'zbeklarining hukmronligi davrida turkiy o'zbeklar, o'g'uz o'zbeklar va sort o'zbeklar kabi elatlar yagona o'zbek nomi bilan atalishini tezlashtiradi. O'zbek tili va uning adabiy shakli ham shu jarayonda rivojlanib bordi. Bu jarayon o'zbek millatining mahalliy holatdan to'liq shakllanish davrlarigacha davom etdi.

Umuman, «O'zbek» atamasi etnonim sifatida V–VII asrlarda yuzaga kelgan. Uning dastlabki holati «O'z» ya'ni «öz, öd, äz» shaklida bo'lgan, so'ng hokimlik ma'nosidagi bek (beg) so'zi qo'shilgan. Bu etnonim Markaziy Osiyo, jumladan, qadimgi O'zbekiston hududlarida yashovchi ba'zi qabila-urug'lar nomini ham ifodalab kelgan.

Umuman, qadimiy va hozirgi davr manbalari maxsus tadqiq etilib, har tomonlama chuqur o'rganilsa, xalqimiz va tilimiz tarixi haqida muhim fikrlar borligiga gumon qilmaymiz.

Manbalar asosida o'zbek tili tarixiy taraqqiyotining ilk davrlarini quyidagicha to'rt bosqich bilan ko'rsatish mumkin:

a) turkiy tillarning antik davri taraqqiyoti, ya'ni birinchi bosqichi (milloddan avvalgi va milodiy V asrgacha). Bu bosqich haqida tarixiy yozma manbalar deyarli yo'qligi, umuman, hozirgacha asosli tadqiq etilmaganligi sababli umumiy tarz-dagi ma'lumotlar mavjud. Shu asosda fikr yuritish mumkin;

b) qadimgi turkiy adabiy til bosqichi (V–X asrlar);

d) eski turkiy adabiy tili bosqichi (X–XIII asrlar).

Yozma manbalarning til xususiyatlaridan ma'lum bo'ladi-ki, turkiy tillarning antik davrlarida, hatto V–X asrlargacha «z» lanish yoki «z» dialekti ustun bo'lgan (-kezin — keyin, aziq — ayiq kabi), V–X asrlardan boshlab esa asta-sekin «z» dialektiga nisbatan «d» lashish («d» dialekti) kuchaya borgan (kedin — keyin, adiq — ayiq kabi). X–XIII asrlardan «d» lashish asta-sekin kuchsizlanib, «y» lashish («y» dialekti) ustunlashgan (keyin, ayiq kabi). Ushbu xususiyatlar qadimgi turkiy tilning ilk davri yozma yodgorliklarida aks etgan. Bu davr tili barcha turkiy tillar, jumladan, o'zbek adabiy tilining taraqqiyotida ilk shakllanish bosqichlari sanaladi;

e) o'zbek adabiy tilining umummilliy o'zbek adabiy tili yoki hozirgi o'zbek adabiy tiliga ko'chish davri (XX asrning 30–40-yillaridan so'nggi davrlargacha).

Eftalitlar va Turk xoqonligi (V–VIII asrlar), Qoraxoniylar (X–XI asrlar), Xorazmshohlar va Oltin O'rda (XII–XIV asrlar) davrlarida tarkib topgan umumturkiy adabiy tilning lug'at, fonetik, morfologik, sintaktik qurilishi o'zbek adabiy tilining shakllanishiga asos bo'lgan. Bu davrlarda o'zbek adabiy tilining, ayniqsa, fonetikasi sohasida yuqorida qayd etilgan bir qator o'zgarishlar yuz berdi.

XIII–XV asrlar davomida esa o'zbek adabiy tili o'ziga xos tarzda, milliy ko'rinishda rivojlandi, uning xizmati va faoliyat doirasi nihoyatda kengaydi, adabiy tilning normativligi

kuchaydi, qat'iy lashib, mustahkamlandi. O'zbek tilida adabiy shakllar tizimi uzoq davrlar mobaynida asta-sekin tarixiy-tadrijiy taraqqiy etish asosida tashkil topdi. Shu bilan birga, umumxalq o'zbek adabiy tilining fonetikasi va leksikasi, morfologiyasi va sintaksisi sohasidagi yagona me'yorlari ham shu davrlarda tarkib topdi. Bu adabiy til Amiriy, Durbek, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi iste'dodli so'z san'atkorlarining asarlarida yangicha sayqal topdi. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida esa o'z taraqqiyotining yuqori pog'onasiga ko'tarildi.

Umumturkiy adabiy tili negizida shakllanib, VI–XV asrlar davomida to'la tarkib topgan va rivojlangan o'zbek adabiy tili quyidagilar bilan ajralib turadi:

O'zbek adabiy tili fonetikasi sohasida bir qator o'zgarishlar yuz berdi:

1) Tilda **d** > **dz** y tovushlarining almashinuvida **y** tovushi asosiy yetakchi vaziyat kasb etdi. Ma'lumki, o'rxun-enasoy va uyg'ur yozuvi yodgorliklarining tili fonetik jihatdan «d» guruhidagi tillar edi; adig' (ayiq), kedin (keyin), adoq (oyoq) kabi. X–XIII asrlarda **d** > **dz** > **z** tovushlarining almashinuvi hodisasi davom etdi. Bunda dastlab X–XI asrlarda **d** va **dz** (**z**) tovushlari muvoziy holda qo'llangan. Bu hodisa «Qutadg'u bilig», «Devonu lug'otit turk» asarlarida uchraydi: adoq – adzaq (azaq), budun – budzun, kedin – kedzin (kezin), qo'di – ko'dzi (ko'zi – quyi) kabi. Keyinroq XII asr va XIII asr boshlarida esa ularning muvoziy ishlatilishi bilan birga «dz» tovushi ustun, yetakchi vaziyatga ega bo'ldi. «Hibat ul-haqoyiq», «O'g'uznoma» asarlarining tili ana shunday xususiyatga egadir: kedzingi (keyingi), qo'dzup (quyib), bedzuk (buyuk), qo'dzi (quyi) kabi. Bu davrlarda **d**, **dz** (**z**) bilan birga, **y** tovushini qo'llash hodisasi ham paydo bo'ldi: **adaq-adzaq-ayaq** (oyoq), **qo'dzilar-qo'ydi-lar** singari. Faqat XIII asr oxiri va XIV asrdan «y» guruhi tillari – dialektlari yetakchi rol o'ynay boshladi.

2) So'z oxirida **g**, **g** undoshlarining saqlanishi bilan birga ularning **q**, **k** tovushlariga o'tishi hodisasi paydo bo'ldi: **yo'qlug'** – yo'qluk, **tirig** – tirik, **tanug'lug'** – tanuqluq, **quduq** – quduq, **belgulug** – belguluk, **so'ngag** – so'ngak kabi.

3) «b» tovushining «m» ga aylanishi qat'iy lashdi: **ban-man, bung-mung, bing-ming, kaba-kama** kabi. Ayrim adabiyotlarda bu jarayon qadimgi turk davridan ham ilgariroq boshlanganligi qayd qilinadi.

4) «z» tovushining jarangsiz «s» ga, «t» tovushining jarangli «d» ga hamda «s» tovushining «sh» ga o'tishi jarayoni tezlashdi: **barz** – **bars**, **artmaz** – **ortmas**, **barmazinga** – **bormaslikka**, **tedi** – **dedi**, **tep** (**teb** – **deb**), **altim** – **oldim**, **qiltim** – **qildim**, **o'tunmis** – **o'tinmish**, **qizg'anmis** – **qizg'anmish**, **bermis** – **bermish** kabi.

5) Qadimgi va eski turkiy yodgorliklar tilida qat'iy xarakterda to'la mavjud bo'lgan singarmonizm hodisasi (tanglay uyg'unligi ham, lab uyg'unligi ham) bu davrlarga kelib o'zgara boshladi. Jumladan, qadimgi turkiy tilda **ushul, sungushdum, budunug** (xalqni), **tuzultum, kirgizig, uguzug, bitidim** kabi negiz va affikslarda tovushlar bir-biriga to'liq uyg'unlashdi. XIV–XV asrlarda o'zbek adabiy tilida o'shal, uchunchi va uchunchi, to'rtunchi va to'rtinchi, ko'zumnung va ko'zimning, husnung va husning kabi shakllarda qo'llanilgan.

6) O'zbek adabiy tilining lug'at tarkibi juda boyidi, so'z qo'llash usullari ma'lum tartibga keltirildi, so'zning uslubiy vazifalari kengaydi. Adabiy-badiiy matnlarda kitobiy so'z va iboralar bilan birga umumxalq so'zlashuv tiliga xos so'zlar, ibora va birikmalar ham keng qo'llandi, fors-tojik tilidan yangi so'zlar o'zlashtirish ancha kengaydi. Buning natijasida o'zbek adabiy tilining lug'ati boyidi, so'zlarning ma'nosi, ularning uslub imkoniyatlari kengaydi. Turlicha badiiy matnlarda o'zbek adabiy-kitobiy, lug'aviy birliklar, so'zlashuv tili unsurlari va o'zlashtirma qatlam so'zlarini birga qo'llash me'yorga aylanib qoldi:

*Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o'turur,
G'oyati nozuklukindin suv bila yutsa bo'fur. (Atoiy)*

*Falak yillar kerak sayr etsayu keltursa ilkiga,
Meningdek shoiru turku seningdek shohi dononi.*

*Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma. (Lutfiy)*

Bu misralarda hozirgi zamon o'quvchisi uchun tushunilmaydigan yoki tushunilishi qiyin so'zlar uchramaydi. Bu baytlardagi so'zlar hozirgi o'zbek tilida ham aynan shu ma'nolarda qo'llanadi.

7) Shuni eslatish kerakki, garchi bu davrlarda xalq jonli so'zlashuv tili boyliklaridan keng foydalanish tamoyili birmuncha rivojlangan bo'lsa ham, lekin hali adabiy til so'zlashuv tilidan ancha uzoq edi. Keng xalq ommasining tushunishi birmuncha qiyinroq bo'lgan adabiy-forsiy oborotlar, standart qolipga aylanib qolgan iboralar va birikmalar adabiy tilda ancha ko'p edi. Shunga qaramay, adabiy tilning turlicha so'z va iboralari, yangi-yangi shakllar bilan boyishida xalq so'zlashuv tili asosiy manba bo'lib xizmat qildi.

8) Bu davrlarda o'zbek adabiy tilining yagona umumiy morfologik tizimi tarkib topdi. Bu davr adabiy yodgorliklari tilida qonuniy ravishda uchrab turadigan ayrim morfologik farqlar esa asta-sekin adabiy til me'yorlariga tomon yaqinlashib bordi. Buni shu davrda yaratilgan adabiy-badiiy asarlar, turli matnlardan keltirilgan faktlar ham tasdiqlaydi.

9) Bu davr adabiy tilida morfologik shakllarning yagona umumiy me'yorlariga kelishi yoki unga yaqinlashuvi quyidagicha bo'lgan:

Ot va otlashgan so'zlarda hozirgi o'zbek adabiy tilida bo'lganidek, oltita kelishik shakli hamda ularning o'zbek adabiy tilining keyingi davrdagi taraqqiyoti uchun umumiy bo'lgan affikslari asosan qat'iylashdi. Jumladan, **qaratqich kelishigi uchun — ning (-ing, -nung, -ung), tushum kelishigi uchun — ni, jo'nalish kelishigi uchun -ga (-g'a), -qa (-ka), chiqish kelishigi uchun — dan (-din), o'rin-payt kelishigi uchun — da(-de) affikslari o'zbek adabiy tilining barcha yozma yodgorliklari uchun asosiy shakl sifatida keng qo'llandi. Otning kelishik shakllari anglatgan ma'nolari va ularning sintaktik funksiyasi hozirgi o'zbek adabiy tilidan deyarli farq qilmaydi. Kelishik affikslari turli muqobillarining ishlatilishi esa o'sha davr o'zbek tilida singarmonizm hodisasining nisbatan**

kuchliroq bo'lganligi (yoki hali amalda ekanligi), negiz va affikslardagi tovushlarning tanglay uyg'unligi va lab uyg'unligiga rioya qilib aytilganligi hamda yozilganligi bilan yoki affikslarning jarangli hamda jarangsiz undoshlar bilan tugagan so'zlarga qo'shilishi bilan izohlanadi. Masalan, qaratqich kelishigi affiksining -ын/in, ын/нын; -ун/ун, -нун/нун muqobillari so'zdagi tovushlarning qattiq va yumshoq aytilishi, lablanganligi yoki lablanmaganligiga ko'ra ishlatilgan. Shu kabi chiqish va o'rin-payt kelishiklarining -тын/tin/to'n, -дын/din, -дан/den/dun, -та/te, -да/de shakllari, so'zdagi tovushlarning qattiq va yumshoqligi yoki unli va jarangli-jarangsiz undosh tovushlar bilan tugagan so'zlarga qo'shib kelishi bilan izohlanadi: **ulusnu/** ichinda (Sakkokiy), **yuzunnun** arzusi (Lutfiy), **davron** bizindur (Sakkokiy), **bashtyn** ayaqsi (Lutfiy), bu yurtta kabi. Ammo bu kabi juz'iy hodisalar o'rmini asta-sekin asosiy adabiy shakllar egallay boshlagan.

Qadimgi turkiy yodgorliklarga xos qurol-vosita kelishigi, shuningdek, tushum kelishigining -ig'/ig, -ug'/ug affiksi, jo'nalish kelishigining — g'aru/garu, qaru/karu, — ra/re, -ru/ru affikslari o'zbek adabiy tilida, asosan iste'moldan tushib qoladi. Uning ayrim unsurlari ba'zi so'zlar tarkibidagina saqlanib qoladi.

a) Otlarga xos ko'plik va egalik shakllari ham asosan hozirgi o'zbek adabiy tilidagi shaklga yaqinlashadi; — lar/ler affiksi adabiy til uchun, barcha yozma yodgorliklar tili uchun yagona umumiy shakl sifatida normativlashadi. Qadimgi turkiy shakllar — (-t, -k, -an/en kabilar) iste'moldan tushib qoladi. Egalik kategoriyasining hozirgi o'zbek tili uchun xos bo'lgan normativ affikslari (-m, -im, -n, in, -i, -si; -miz, -imiz, -niz, -iniz kabi) tarkib topib qat'iylasha borgan. Bu affikslarning turli muqobillari (ko'p variantlari) esa (ya'ni -ым/im, -um/Um, -ын/in, -ун/Un, -ын, -сы; -мыз, -muz/muz, -ымиз, -umuz/umuz; -ыыз, -nuz/nuz, -ыніз, -унуз/unuz kabilar) so'zning unli va undosh bilan tugashi hamda lab uyg'unligi hamda tanglay uyg'unligi bilan bog'liq ravishda ishlatiladi: *yuzun nuri, yuzunuzдын zulfunuzdin* (Atoiy), *so'zUn, kozun balesi, bag'rumda, gadalarıy* (Sakkokiy), *husnunda* (husninge), *o'ramun, lebin, konlum uyın, kumush bilekleringiz* (Lutfiy), *tushunde, ilikin, ferakın, begim, selatınları* (Durbek) kabi.

Sifatning qiyosiy darajasi va belgining ortiq-kamligini ifodalovchi shakllari, sodda va tarkibli sanoq hamda tartibli sonlar, kishilik va ko'rsatish, o'zlik, bo'lishsizlik va belgilash singari olmosh turlarining qat'iy umumiy shakllarda qo'llanishi kabilar ham o'zbek adabiy tili morfologik tizimining normativ holatga kelganligini ochiq ko'rsatib turadi. Chunki ko'rsatilgan shakllar va grammatik birliklar asosan hozirgi o'zbek adabiy tiliga juda yaqin tarzda tarkib topdi. Bu so'z turkumlari doirasida uchraydigan ayrim noo'xshash shakllar, farqli hodisalar esa o'zbek adabiy tilining keyingi davrlardagi taraqqiyoti jarayonida adabiy tilga moslashdi, unga singib ketdi, yangi shakllar bilan almashtirildi. Ba'zi birlari esa iste'moldan tushib qoldi: *har kimning paymanasi tolubtur, menin bilan o'chashur. Qachan zulfun ksngul birlan tuzalgay, kim egridur anin bashtin ayag'yi* (Amiriy).

*Ey begim, vallah, kerekmes tanda jan sizsiz mene,
Bu tiriklik ta bolur yuz min gumon sizsiz mene.*

(Atoiy)

*Janym kurgen jafanin minda birin,
Bolur, gar kurse sandon para-para.*

(Sakkokiy)

*Ey pari ruxsarlal, bizga nigah eyleb, ötYn ,
Bir nazar birla gadany padshah eyleb ötYn .*

(Lutfiy)

O'zbek adabiy tili morfologik tizimining ma'lum me'yorga keltirilganligi, uning qat'iylashib borganligi fe'l shakllarida ham ochiq namoyon bo'ladi. Jumladan: a) fe'lining shaxs-son affikslari hozirgi o'zbek adabiy tilidagi singari normativ shakllarga aylanadi. Har uchala guruhga kirgan shaxs-son affikslari qat'iylashadi. Chunki -men, -sen, -miz (-biz), -siz; -m, -n, -k/k, -miz/niz, -a (y/yn), -/e/y/in), -/a/lyq-/e/

lik)-ayyq/eyik), -g'yl/gil, (-qyl/ -kil), (yl/n), (i/n), -y (niz)-/i/niz, -sun/sun (lar, ler) kabilar hozirgi o'zbek adabiy tilidagi shaxs-son affikslarining aynan o'zi hisoblanadi. Bu affikslarning har xil fonetik muqobillari esa, yuqorida ko'rsatilganidek, negizidagi tovushlarning qattiq-yumshoqligi, lablashgan-lablashmaganligi singarmonizm hodisasi bilan bog'langan: **baramen, barasen, baramiz (byz), barasыз; bardym, bardym, bardyq, bardymiz, barayym, barg'yl, baraylik, bargym, bargymyz** singari: *janym chiыqadur dard ile jananima aytin* (Lutfiy).

Axir körgil, bu savdadyн bashыg'a ne ziyан keldi.

(Sakkokiy)

*G'am тыg'ыda Farhad bikin jan bereyinkim,
Shirin lab ile ma'dani shakar yetiliben.*

(Atoiy)

b) Fe'l zamonlarining asosiy shakllari hozirgi o'zbek adabiy tili shakllariga juda yaqinlashadi: **keldim, keldin, keldik, keldiniz, körmegenmen, körmegensen, barыban < barыbturmen, barыb tururmen, qalg'an erdim, qalg'an erdik, baraman, baradurmen, bara tururmen, barurmen, barursen** kabi.

Til taraqqiyotining keyingi davrlarida esa bu shakllar yana ham takomillashib qat'iylashdi, bir qancha yangi shakllar bilan boyidi.

Fe'ning funksional shakllaridan sifatdoshning hozirgi o'zbek adabiy tili uchun xos bo'lgan asosiy shakllari (-u/r) -ur, (-a/r (e/r), -gen/- g'an (-qan)-kan kabi qat'iylashdi. Qadimgi yodgorliklar tili uchun xarakterli bo'lgan shakllar esa (-g'ly-gli, -dachy)-dechi, (-g'ur)-gur, (-duq)-duk kabi asta-sekin iste'moldan chiqib qoldi, -mыsh/mish affiksli shaklning ma'no va funksiyalari esa juda cheklandi. Ko'makchi fe'l funksiyasidagi **turg'an > durg'an** (durgan) turmoq fe'lining sifatdosh shakllari asosida hozirgi-kelasi zamon sifatdoshi affik-

si kelib chiqdi va tarixiy rivojlanish jarayonida hozirgi o'zbek adabiy tilida **-digan** shakliga kelib qoldi: **baraturg'an-baradurg'an keleturgan-keledurgan (baradig'an, keledigen)** kabi.

Harakat nomining **-maq/-** mek affiksi yetakchi shaklga aylandi. **-/ы/sh-/i/sh** affiksli shakl esa nisbatan sustroq ishlatildi, **-g'u/-gu** affiksli shaklning ma'no va funksiyalari ancha saqlandi.

Ravishdoshning hozirgi o'zbek adabiy tili uchun ham xos bo'lgan **-a(e)**, **-y**, **-(ы) b/(i)b**, **-g'ach/gech**, **-g'uncha/gunche**, **-g'alı/geli** affikslari asosiy yetakchi shaklga aylandi. Qadimgi yodnomalar tili uchun xarakterli **-madın/medin** affiksli shaklining ishlatilishi cheklanadi. Bo'lishsiz **-ma** va **-(ы)b/(i)b** affiksli ravishdosh bilan qo'shilgan, kengaygan shakllari (**-мауын**) **-meyin**; **-(ы) ban/ (i) ben** keng qo'llanadi.

O'zbek adabiy tili leksik-grammatik hodisalarining silliqlashuvi, normativ holatga kelish jarayonini so'z yasali-shi sohasida ham ko'rish mumkin. Barcha so'z turkumlarida so'z yasali-shi hozirgi o'zbek adabiy tili bilan umumiylikka, uyg'unlikka egadir. Jumladan, xilma-xil ma'no anglatgan mavhum ot yasashda **-lıq/-lik** affiksi, kasb-hunar, birgalik, predmet, qurol-vosita otlari yasashda **-чы/-chi**, **-dash/desh**, **-duq/-duk**, **-q/-k**, **-g'/g** (turli muqobillari bilan), **-ma/me**, hamda **-zar**, **-baz**, **-gar/kar** singari ko'pgina fors-tojik affikslari yangi so'z yasashda faol qo'llangan. Yoki sifat yasashda **-lı/-lı**, **-sız/-siz**, **-қы/ki**; fe'l yasashda **-la/le**: **-a/e**, **-q/k**, **-ay/ey** kabi affikslar keng ishlatilgan. Yuqorida ko'rsatilgan affikslar hozirgi o'zbek adabiy tilida ham ot, sifat va fe'l turkumlarida faol so'z yasovchi vositalar qatoriga kiradi; (**-vul**, **-ruk / rug' -tutruq** kabi), **-шы**, (**qonshы**) singari bir qancha affikslar esa, unumsiz shaklga aylana boshlaydi.

So'z birikmalarining tuzilishi va turlari, boshqaruv, moslashuv va bitishuv aloqalari gap bo'laklari, ularning xususiyati va ifodalanishi, sodda va qo'shma gap turlari kabilarining bir xillikka tomon taraqqiy etishi hamda eski o'zbek adabiy tilining sintaktik xususiyatlari jihatidan hozirgi o'zbek adabiy tiliga juda yaqinlasha borganligini ko'rsatadi.

Shuni qayd qilish kerakki, bu davrlarda o'zbek adabiy tili, garchi bir xillikka, umumiylikka tomon taraqqiy etgan bo'lsa ham, yozma yodgorliklar va badiiy asarlarda adabiy til hamda uslubga xos xilma-xilliklarni bartaraf etishga intilish kuchaygan bo'lsa ham, lekin adabiy tilning yagona morfologik va ayniqsa sintaktik me'yorlari to'la ravishda ishlab chiqildi, deb bo'lmaydi.

10) Ayni vaqtda, Alisher Navoiy o'sha davr adabiy tilining keng ko'lami, boy tarkibi va ichki manbalari haqida fikr yuritgan, adabiy til nazariyasiga asos solgan olim sifatida maydonga chiqqan edi. Alisher Navoiy o'zbek tilshunosligi (grammatikasi) va stilistikasining ham asoschilaridan. Adibning «Muhokamat ul-lug'atayn» asari bu fikrni to'liq tasdiqlaydi.

Xullas, o'zbek adabiy tilining keyingi asrlardagi tadrijiy rivojlanishi jarayonida asta-sekin yagona adabiy me'yorlar tarkib topdi. Navoiy rivojlantirgan adabiy til an'alarini davom ettirgan Zahiriddin Bobur, Muhammad Solih, Majlisiy, Abdulg'oz Bahodirxon, Turdi, Mashrab, Nodira kabi qator yozuvchi va shoirlarning asarlari o'zbek adabiy tilini yana ham boyitish va uni umumxalq tiliga yaqinlashtirishda, uning adabiy-uslubiy me'yorlarini ishlab chiqish hamda qat'iyashtirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Usmon Sanaqulov

**O'ZBEK ADABIY TILI TARIXINING
ILK DAVRLARI**

(V – XIV asrlar)

*O'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarni
qayta ko'rib chiqish va yangilarini yaratish bo'yicha
Respublika muvofiqlashtirish komissiyasi tomonidan
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

MUNDARIJA

So'z boshi.....	3
Kirish	
1. O'zbek adabiy tili, uning shakllanish tarixi va fan sifatida o'rganilishi.....	5
2. Umumxalq tili va uning shakllari.....	9
BIRINCHI BOB	
Qadimgi manbalar ajdodlarimiz haqida.....	43
O'zbek xalqi hamda tilining tarkib topishi va nomlanishi.....	63
Ajdodlarimiz qo'llagan yozuvlar.....	81
Ajdodlarimiz qoldirgan yozma manbalar.....	93
Turkiy va o'zbek tillarini tasniflab o'rganish.....	99
O'zbek tilini davrlashtirib o'rganish.....	102
IKKINCHI BOB	
O'zbek adabiy tilining umumturkiy davridagi taraqqiyoti bosqichlari.....	105
Umuturkiy adabiy tili tarkibiy bosqichlarining o'zaro munosabati va ularning o'zbek adabiy tiliga aloqadorligi.....	121
O'zbek adabiy tilida umumxalq tiliga xos xususiyatlarning kuchayishi.....	227
O'zbek adabiy tilining asoslanishida Alisher Navoiyning xizmati.....	237
Xulosa.....	266

Nashr uchun mas'ul *N.Xalilov*
Tahririyat mudiri *M.Mirkomilov*
Muharrirlar *A.Eshov, H.Mahmudova*
Badiiy muharrir *A.Bobrov*
Texnik muharrir *T.Smironova*
Musahfihlar *O.Medenova, N.Nasriddinova*
Kompyuterda sahifalovchi *Z.Ahmedova*

IB № 4204

Bosishga 30.09.2004-y. da ruxsat etildi. Bichimi 84x108¹/₃₂ Tayms garniturası.
Ofset bosma. 14,70 shartli bosma tobog'i. 16,0 nashr tobog'i. Adadi 1000.
33-2004 raqamli shartnoma. 227 raqamli buyurtma.

«O'AJBNT» Markazi. 700078. Toshkent.
Mustaqillik maydoni. 5.

Andoza nusxasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi «O'AJBNT» Markazining kompyuter bo'limida tayyorlandi.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 700129. Toshkent. Navoiy ko'chasi, 30//700128.
Toshkent. Usmon Yusupov ko'chasi, 86.